ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

1-son
(Yanvar – Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

	TAHRIRIYAT	
		Chet tillarini mukammal o‘rgatish va o‘rganish xalqaro maydonga keng yo‘l ochilishining kafolati
	TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI	
M. Umaraliyeva	6	O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini hal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat
J. Ergashev	10	Professional ta’limi tizimi o‘quvchilarining umumiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari
D. Mustafoeva	13	Professional ta’lim muassasalari kadrlarining kompetentligini rivojlantirish omillari
F. Berdibekova	17	Akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari
I. Sharofutdinov	21	Raqamli ta’lim jarayonida akmeologik yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zarurati
D. Kenjaboeva	25	Ta’lim jarayonida o‘qituvchi deontologisi va kompetentligi
A. Hamidov	28	Shaxsda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishning tarixiy pedagogik jihatlari
	TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI	
S. To‘rayeva	32	Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchlarda lug‘atdan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish usullari
I. Siddiqov	36	Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari
Sh. Toshpulatova	40	Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanish
G. Nafasova	43	Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining mantiqiy masalalar yechish ko‘nikmalarini shakllantirish
O.A. Kasimova	49	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratida improvizatsiya ko‘nikmalarining namoyon bo‘lishi
K. Mavlonova	53	Matn yaratish ijod qilish jarayoni sifatida
	TALIM SIFATI MAZMUN VA MOHIYAT	
S. Nazarov, I. Xujamov	57	Darsliklarni ishlab chiqishda ilg‘or tajribalarni o‘rganish: holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari
B. Karimov	61	Normativ-metrologik xabardorlikning ilmiy-amaliy aspektlari
	ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI	
T. Isaqulov, J. Mamadiyorov	64	Umumta’lim fanlarini o‘qitishda 3d formatli manbalardan foydalanish
M. Boratova, O. Ishboeva	68	Biologiyani o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning uzviyligi va uyg‘unligi
D. Taylakova	73	Interaktiv metodlar platformasini yaratish
	MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI	

A. Kenjaboev	77	Etnopedagogika – milliy tarbiyaning asosi sifatida
		TA'LIMDA MENEJMENT
A. Djurayev	81	Oliy ta'lim muassasalarida adaptiv boshqaruvning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari
F. Normirzayev	86	Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining samarali faoliyatida rahbarning tutgan o'rni
		HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA
X. Axmadaliyeva, M. Fayzullayev	90	Ayollar huquqlarini himoya qilishda xorijiy mamlakatlar harakati va mamlakatimizdagi islohotlar mazmuni
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
R. Gimazutdinov	94	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga qiziqtirishga oid nazariyalar
A. Alikulov	98	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda foydalaniladigan didaktik o'yinlar va ularning tasnifi
		MAKTABGACHA TA'LIM
N. Anorboyeva	101	Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy tarbiya berish asoslari
D. Abdullajonova	105	Ko'rsatmali ishlar MTTlarida milliy tarbiy berishning alohida turi sifatida
		MUTOLAA MADANIYATI
Sh. Xo'jamberdiyeva	109	Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari
		PSIXOLOGIYA
R. Xurramov	114	O'quvchilar evristik fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari (1-4 sinflar misolida)
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
O. Aslonova	118	Jahon tajribasida rivojlantiruvchi ta'limning variativ modellari
		KORREKSION PEDAGOGIKA
U. Fayzieva	122	Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limidagi muammolar va yechimlari
		XALQ PEDAGOGIKASI
M. Kazakova, S. Eshdavlatova	127	Ajdodlarimiz merosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirishga doir fikrlar tahlili
N. Dilova	130	Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda sharq mutafakkirlari ilmiy merosi va uning pedagogik mazmuni
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
С. Турсунова, С. Абдирасилов	133	Формирование специальных компетенций у студентов младших курсов на занятиях живописью (на материале натюрморта)
		ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И ПЕРЕПОДГОТОВКА
Р.Х.Джураев, К.А. Каримов	137	Применение новых организационных форм при подготовке и переподготовке педагогических кадров
Г. Назирова	140	Применение современных образовательных технологий в центрах развития ДОО

CHET TILLARINI MUKAMMAL O‘RGATISH VA O‘RGANISH XALQARO MAYDONGA KENG YO‘L OCHILISHINING KAFOLATI

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo yangiliklarini o‘rganish va ularni sintez qilish, oqini qorasidan ajratib borish, albatta, muhim faoliyatdir. Darhaqiqat, til o‘rganish urushda g‘alabaning yarmi deyiladi. Tinchlik davrida ham qo‘shimcha til bilish ustunlik bersa beradiki, aslo ortiqchalik qilmaydi.

Globallashayotgan ta’lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta’limni va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Bu jarayon ta’lim muassasalari bitiruvchilarining turli dunyoviy bilimlarni chet tillarda bilishlaridan tashqari, o‘z kasblari haqidagi bilimlarni ham chet tillarda davom ettirishlariga imkon yaratadi.

Tilni o‘rgatish til o‘rganuvchining ehtiyojidan kelib chiqib, o‘rganayotgan tildan jonli tarzda foydalanish va turli muloqot ko‘nikmalari – eshitish, gapirish, o‘qish va yozishga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi. Aynan shu tamoyil bugungi kunda xorijiy tillar, avvalo, eshitish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari ketma-ketligida o‘rgatilib borilishi ta’lim tizimi bitiruvchilarining mutaxassis sifatida ish boshlaganida, erkin muloqotda, bilimlarini yanada boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, bugungi kunga kelib jahonning eng ilg‘or ish uslublarini o‘zlashtirish uchun ham til asosiy vosita hisoblanadi. Zero, tarixdan ma’lumki, qaysi xalq vakillari qancha ko‘p til bilsa, shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo‘liga chiqa olgan.

Albatta, Yurtboshimiz ilgari surayotgan tashabbuslar, amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlar pirovardida ilm-u ma’rifatli barkamol avlod bilan yurtimiz ravnaqi jahonga yuz tutib, o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘ladi. Ta’lim va tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e’tirof etilar ekan, har birimizning zimmamizga ilm-u ma’rifatli kelajak avlodni tarbiyalashdek ulkan mas’uliyatni yuklaydi.

Ko‘plab xorijiy mamlakatlar tomonidan ma’qullangan va aynan bizning o‘qitish modelimizga mos keladigan o‘quv uslublari va metodikalarni o‘rganish va tatbiq etish, mamlakatimiz yoshlarida nufuzli oliy o‘quv yurtlarida o‘qish imkonini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘zimizning ta’lim tizimimizni tubdan isloh qilish, mentalitetimizga mos va chuqur o‘rganilgan o‘quv modelimizni yaratish ham albatta, muhim. Mamlakatimiz ta’lim tizimi uchun yildan yilga eng ilg‘or texnologiyalar asosida zamonaviy sharoitlar bilan boyitilgan muhitni yaratmoqda. Shu sababli ham o‘zimizning o‘quv modelimiz va metodikamizni yaratish va takomillashtirish, ta’lim dargohlarida joriy etish hamda nazoratini to‘laqonli olib borish umid qilamizki, o‘z samarasini beradi.

XX asr tilshunosligining mashhur namoyandalaridan biri Yevgeniy Dmitrievich Polivanov 46 tilni mukammal egallagan, o‘zbek tili va shevalarini o‘rganib, tahlil qilgan, do‘ppi, chopon kiyib, o‘zbeklar orasida o‘zbekday yurgan olim sanaladi. Yoki Jorj Smit – BMT sobiq bosh tarjimoni o‘ndan ziyod tillarni bilgan. U har yili bir mamlakat tilini o‘rganishga harakat qilgan.

Darhaqiqat, chet ellarda kishilar bilan uning ona tilida gaplashsangiz, bu ularga, vataniga, tarixiga chuqur hurmat ramzini ifodalaydi. Xalqaro munosabatlar rivojlanayot-

gan globallashuv davrida chet tillarni bilish katta siyosiy-madaniy jarayon sanaladi.

Vatandoshlarimiz Abu Nasr Farobiy, Beruniy, ibn Sinolar bir necha tillarni mukammal bilishgan. Qadimgi Movarounnahrda badiiy ijod turkiy, forsiy va arab tillarida bitilgan. Zero, xalqimizda ‘‘Til bilgan – el biladi’’, deb bejizga aytilmagan. Olim va sayyoh Hoji Yusuf Hay’atiy arab, ingliz, fors, fransuz va yunon tillarini mukammal bilgan. Adabiyotshunos olim va pedagog Ashurali Zohiriy esa arab va fors tillaridan tashqari, barcha turkiy tillarni, shuningdek, rus tilini yaxshi bilgan. U 1925-yilda “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ni nashr etgan.

Darhaqiqat, xorijiy tilni egallash ta’lim, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotdagi globallashuvning yangi davri uchun asosiy kalit hisoblanadi.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1913-yilda yozilib, o‘zi tashkil etgan “Oyna” jurnalining 1-sonida nashr etilgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida muallif ko‘p tilni bilish har bir turkistonlik uchun shartligi va shu orqali dunyoga chiqish mumkinligini uqtirishga harakat qilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy aytadiki, Turkiston o‘lkasida juda qadimdayoq uch til amal qilgan. Shunday ekan har qanday bilim, xususan, til bilish jihatidan ham ajdodlarimizning ko‘rsatgan yo‘lidan yurib, xalqimizning aslida naqadar ilmga chanqoq ekanligini ko‘rsatib qo‘yishimiz kerak. Birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitrat o‘zbek tilidan tashqari arab, rus, turk, fors tillarini mukammal bilgan. Ayni shu tillarni yaxshi bilgan shoir va yozuvchi Abdulhamid Cho‘lpon rus-tuzem maktabida nemis va fransuz tillaridan ham saboq olgan hamda keyinchalik o‘zining bu tillar borasidagi bilimlarini mustahkamlagan. Yigirma to‘rt yoshida Buxoro respublikasi, yigirma to‘qqiz yoshida esa O‘zbekiston hukumati rahbari bo‘lgan Fayzulla Xo‘jaev o‘zbek tilidan tashqari nemis, ozarbayjon, qozoq, rus, tatar, tojik tillarini mukammal bilgan.

O‘rta asr Sharq allomalarining aksariyati o‘ndan ortiq tilni mukammal bilganlar. Ular orasida ayniqsa, ulug‘ mutafakkir Abu Nasr Farobiy shunchalik ko‘p tilni bilganidan tarixiy manbalarda va xalq orasida, “Forobiy yetmishdan ortiq tilni biladi”, degan haqli e’tirofni olgan. O‘zbek ma’rifatparvari Is’hoqxon Ibrat arab, ingliz, rus, urdu, fors, fransuz, hind kabi o‘ndan ortiq tilni yaxshi bilgan. Bundan tashqari, u qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini chuqur o‘rgangan. Is’hoqxon Ibrat 1901-yilda o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida jamlangan “Lug‘at sitta as-sinna” (“Olti tilli lug‘at”) nomli kitob chop etgan.

Ma’rifatparvar jadidlar kishilarni xorijiy tillarni o‘rganishga da’vat etganlar. O‘z ona tili bilan bir qatorda chet tillarini bilish o‘zga xalqlar tarixi, madaniyati, turmush tarzi, taraqqiyoti va tanazzuli sabablarini o‘rganishga imkon yaratgan.

Ma’lumki, boshqa tillarni bilish, o‘rganish hech qachon o‘z ona tilini kamsitish, esdan chiqarish, unutish hisobiga bo‘lmaydi. O‘z tilini mukammal bilgani va hurmat qilgani holda boshqa tillarni bilish va o‘rganish, ko‘p til bilish maqsadga muvofiq ekanligini unutmaslik kerak. Ana shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, boshqa tillarni o‘rganishga da’vat, avvalo, o‘z ona tilini ham bilishga, shu bilan birga, shu asosda, boshqa tillarga ham hurmatni shakllantirish, o‘rganishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Boshqa tillarni o‘rganish zinhor o‘z ona tilini unutish, unga e’tiborsizlik bilan qarash, kamsitib munosabatda bo‘lish kabi illatlar hisobiga bo‘lmasligi kerak. Jahonga chiqishni ta’minlaydigan beshta, o‘nta tilni, ko‘prog‘ini ham o‘rganaylik.

Hozirgi kunda, ayniqsa, yoshlar boshqa tillarni ham bilishga da’vat etilayotgan ekan, bu ona tiliga e’tiborni pasaytirishni ko‘zda tutmaydi. Zero, kamida 2–3 tilni bilish ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolganligini yodda tutaylik.

Muxayyo UMARALIYEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'ZBEKISTONDA AYOLLAR IJTIMOIY MUAMMOLARINI HAL ETISHDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IJTIMOIY SIYOSAT

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, huquqiy vakolatlarining kengayishi, ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni, globallashuv jarayonlariga ta'siri bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilingan. Shuningdek, xotin-qizlarni huquqlari va ularni qo'llab-quvvatlashga doir mexanizmlar, ularga berilayotgan imkoniyatlar va qiynayotgan masalalar hamda qator takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Xotin-qizlar, siyosat, huquq, globallashuv, qaror, farmon, ijtimoiy turmush, gender tenglik.

В статье проанализированы процессы, связанные с повышением прав женщин в Узбекистане до уровня государственной политики, расширением их правовых полномочий, их роли в жизни общества, влиянием на процессы глобализации. Также были перечислены механизмы, касающиеся прав и поддержки женщин, предоставляемых им возможностей и проблем, а также ряд предложений.

Ключевые слова. Женщины, политика, право, глобализация, решение, постановление, социальная жизнь, гендерное равенство.

The article analyzes the processes associated with the increase of women's rights in Uzbekistan to the level of state policy, the expansion of their legal powers, their role in the life of society, the impact on the processes of globalization. Mechanisms related to women's rights and their support, opportunities and problems provided to them, as well as a number of proposals are also listed.

Key words. Women, politics, law, globalization, decision, resolution, social life, gender equality.

Oila – jamiyatning muhim va bosh bo'g'ini. Vatan ostonadan, oiladan boshlanadi, degan ibratli so'zlar zamirada yurt ravnaqi bevosita oilalar tinchligi va mustahkamligiga bog'liq bo'lishi nazarda tutiladi. Yosh avlod oilada shakllanadi, voyaga yetadi, barkamol avlodni komil inson etib tarbiyalash ko'proq ayollar zimmasidagi vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni, ma'naviy yetuk bo'lishlari, bilim olishlari-yu kasb-hunar egallashlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Mahallarda oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota va onaning mas'uliyati, ibratli ota va ona bo'lishning ahamiyati, jamiyatdagi kishilarning ma'riftli bo'lishida onalarning rolini oshirish kabi maqsadlar ham ustuvor sanaladi. Tinch va totuv oilada voyaga yetgan farzand eng baxtli farzanddir, ammo hayotda to'qnash keladigan, arzimas bir qiyinchiliklarni bahona qilib o'g'il qizlarini ota yoki ona mehridan ayirayotgan kishilar

oilaning qadr-qimmatini u qadar chuqur tushunib yetmaydilar. Oila qurish ostonasida turgan yoshlarga erkak va ayolning kattalar, qarindoshlar va bolalar oldidagi burchlarini urf-odatlarimizga mos ravishda tushuntirish pir-u badavlat keksalarning nasihatlariga yo‘g‘rilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Bu esa o‘z navbatida oilalardagi ajrim sonlarini kamaytirishiga olib keladi.

Xotin-qizlarnining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha chet el tajribasini o‘rganish, amaldagi xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlari masalalarini milliy qonunchilikda tahlil qilish, joylarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy faollikning asosiy yo‘nalishlarini (ilmiy-nazariy bilim, malaka, ko‘nikmalar, tajriba oshirish, g‘oyaviy-siyosiy yetuklik, ma’naviyatni yuksaltirish, ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, huquqiy-me’yoriy hujjatlar bo‘yicha savodxonlik, tadbirkorlik ko‘nikmalari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorgarligi, yoshlarning zamonaviy xohish va istaklari) so‘rovlar (kontakt-intervyu, fokus-gruppa tadqiqoti, telefon so‘rovi) orqali o‘rganish masalalari ko‘zda tutiladi.

Bugun zamonaviy ayol iborasi tez-tez quloqqa chalinyapti. Xo‘sh, zamonaviy ayol, deganda yoshlar qaysi fazilatlari bor xotin-qizlarni ko‘z oldimizda qiyofalantiramiz. Zamonaviy ayol oiladagi va jamiyatdagi vazifalariga birdek ma’suliyat bilan qaraydi. Mehribon ayol, ona va oqila rahbar xodim vazifasini a’lo darajada bajara oladi. Ish bilan birga ayollarga xos pazandalik, sarishtalik, chevarlik, qarindosh-urug‘lar bilan munosabatni ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya oladi. Shu fazilatlari bilan atrofidagilarga o‘rnak bo‘la oladi. Zamonaviy ayol iqtisodni ham siyosatni ham yaxshi tushunadi, jarayonlarni to‘g‘ri tahlil qilib, xulosa chiqara oladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xotin-qizlarning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni “Ayollar daftari” orqali manzilli qo‘llab-quvvatlash oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-son Qarorida ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilgan.

Shu o‘rinda xotin-qizlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish, ularning ta’sirchanligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Salbiy holatlarning ma’naviy bo‘shliqlardan kelib chiqishini, bunday holatlarning oldini olishning birdan-bir yo‘li – bu, albatta, ma’naviy-ma’rifiy ta’sir choralari ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning o‘z samarasini berishi uchun ularni tashkil etish tartibiga rioya etish, tadbirlarni tashkil etishda mas’ul idora va tashkilotlar bilan amaliy hamkorlikni kuchaytirish, bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish talab etiladi. Chunki alohida ish olib borish o‘z natijasini kamroq berishi, ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarini hamkorlikda olib borilishi doimo ijobiy natija bergan, bu borada birgalikda harakat qilish zarurligi amaliyotda ham o‘zini oqlagan. Ushbu ishlarni tizimli olib borish va muvofiqlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bugungi ma’naviy-ma’rifiy jarayonga mas’ullar oldiga dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Bu borada Muhtaram Prezidentimizning joriy yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni xotin-qizlarning huquqiy bilimlarini oshirish, xotin-qizlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda dasturilamal hisoblanadi.

Farmon bilan tasdiqlangan “2022 – 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi”da belgilangan O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan ma’rifatparvar ayollarning ibratli hayot yo‘lini targ‘ib etish maqsadida ularning yubiley sanalarini keng nishonlash yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mamlakatimiz qonunchiligi hamda Prezident Farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va hk. bo‘yicha yaratilgan imtiyozlarni puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, bu borada yangiliklardan boxabar bo‘lishi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini kengaytiradi.

Bu jarayonda natijaviylikka qanday erishiladi? Ushbu jarayonning samarasi og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarga, ularning farzandlariga, oilalariga majmuaviy yordam ko‘rsatish orqali erishiladi. Ular bilan muloqot jarayonida fuqaroga, uning fikri va qadriyatlariga hurmat, tushunish va e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi, o‘z salohiyati imkoniyatlariga tayangan holda faoliyat yuritishi hamda muntazam ravishda o‘z malakasini oshirib borishi talab etiladi.

Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan ishlash, ularning muammolarini o‘rganish jarayonida muammolar va ularning asl sabablari (muammoni keltirib chiqaruvchi ichki, tashqi omillar)ni va oilaning ichki imkoniyatlari (ijobiy, ya’ni kuchli tomonlari)ni, shuningdek, mahallada namunali oilalar va fuqarolarning imkoniyatini aniqlash hamda har ikkala imkoniyatdan maqsadli foydalanish, oila, uning a’zolari va mas’ul tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda ish olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xotin-qizlar faolining og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan ishlashdagi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tish joizdir:

– xotin-qizlar faoli tomonidan og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash;

– o‘rganish natijalarini anketa-so‘rovnomalariga qayd etish va ularning ijtimoiy himoyaga muhtojlik darajasi (toifasi) aniqlash;

– ular bilan manzilli ishlash va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha individual dasturlarni shakllantirish va aniq maqsadga yo‘naltirilgan ish olib borish;

– ijtimoiy himoya qilishga mas’ul bo‘lgan idora va tashkilotlarga buyurtmalar berish, ularga masalani to‘g‘ri qo‘ya bilish;

– xotin-qizlar faolining oilalar va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan ish olib borish bo‘yicha bilimlarini muntazam oshirib borishi uchun sharoit va imkoniyat yaratish, ular uchun doimiy ishlovchi seminarlar tashkil etish;

– xotin-qizlar faoli tomonidan og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan tizimli ravishda yakka tartibdagi suhbatlar

o‘tkazish, muammolarning hal etilgani yoki hal etilmagani haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish;

– og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarga, ularning farzandlariga, oilalariga majmuaviy yordam ko‘rsatish, oilaning ichki imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish;

– har bir fuqaroning qadr-qimmatini, qadriyatlarini hurmat qilish, mahallada namunali oilalar, mas’ul tashkilot va idoralar bilan yaqin hamkorlikda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning har biri hamda ularning oilasi xotin-qizlar faolining doimiy e’tiborida va nazoratida bo‘lishi, ular bilan individual tartibda maqsadli va tizimli (amaliy) ish olib borish, ularni qo‘llab-quvvatlashga, muammolarini hal etishga mas’ul bo‘lgan barcha mas’ul idora va tashkilotlarning bu boradagi vazifasi va ijtimoiy mas’uliyatini bilishi muhimdir. Kuzatuvlar natijasi shuni ko‘rsatadi-ki, oiladagi kelishmovchiliklarning aksari ishsizlik, moddiy ta’minot bilan bog‘liq bo‘ladi. Qo‘lida kasbi yoki hunari bor ayol o‘z moddiy ehtiyojlarini mustaqil qondira oladi. Moddiy ta’minot musulmon oilalaridan asosan erkak kishining zimmasidagi vazifa sanaladi. Ammo ayol ham ishlasa, avvalo jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Vaqtini o‘zi sevgan kasbga baxshida etish bilan birga moddiy daromad topganidan ikki hissa quvonadi. O‘z ustida ishlaydi, o‘ziga qaraydi, turmushning mayda ikir-chikirlariga o‘ralashib qolmaydi.

Dunyo aholisining 49.6% ini 34 xotin-qizlar tashkil etishini hisobga olgan holda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatlar iqtisodiy taraqqiyoti yo‘lidagi muhim omilga aylanib ulgurdi. Qashshoqlikning feminizatsiyalashuvi, ishsizlik, atrof-muhitning ayanchli oqibatlari, muhim qarorlarni qabul qilish jarayonlarida xotin-qizlar ishtiroki kabi masalalariga har doimgidanda dolzarb ahamiyat qaratishi lozimligini ta’kidlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi o‘rni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlari, xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni o‘rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

– jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushunchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;

– uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to‘siq bo‘lmasligi uchun masofadan turib ishlash faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

– nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o‘z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;

– huquqiy ta’limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo‘lga qo‘yish, siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o‘rinlari ustida yangicha yondashuv.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7– martdagi PF-87-son Farmoni.

2. Tansiqboyeva G. Ayollarning diskriminatsiya qilinishini bartaraf etish – ularning amaldagi tengligining zaruriy sharti//Ayol huquqi va erkinliklari. –T.: Adolat, 2002.

Jamshid ERGASHEV,
Toshkent davlat texnika universiteti, “Oliy matematika” kafedrasi katta o‘qituvsichi

PROFESSIONAL TA’LIMI TIZIM O‘QUVCHILARINING UMUMIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada kompetensiya va kompetentlik tushunchalari hamda uning shakllanishiga oid turli yondashuvlar ilmiy asoslab berilgan. Shu bilan kasb-hunar ta’limi tizimi o‘quvchilarining umumiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, kompetentlik, umumiy kompetensiya, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion kompetentlik.

В статье дается научное обоснование понятиям компетенция и компетентности, а также различным подходам к ее формированию. Этим изложены теоретические основы формирования общих компетенций учащихся системы профессионального образования.

Ключевые слова. Компетенция, компетентность, общая компетентность, педагогическая деятельность, компетентность учителя, компетентностный подход, инновационная компетентность.

The article scientifically substantiates the concepts of competence and competency, as well as various approaches to its formation. With this, the theoretical foundations of the formation of general competencies of students of the vocational education system are outlined.

Key words. Competence, competency, general competence, pedagogical activity, teacher competence, cognitive approach, innovative competence.

Kasb-hunar ta’limining zamonaviy tizimi jadal rivojlanayotgan tuzilma bo‘lib, uning bitiruvchilari oldiga zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarish tobora yuqori talablar qo‘ymoqda. Kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini amalga oshirish kompetentli yondashuvni joriy etish sharoitida amalga oshiriladi. Bitiruvchining tayyorgarligini baholashning asosiy tarkibiy qismi kompetentlikdir – bu kasbiy muammolarni mustaqil hal qilish uchun olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil ravishda qo‘llash qobiliyatidir.

Ta’lim jarayonining me’yoriy-amaliy tarkibiy qismiga kompetensiyalarni kiritish kasbiy ta’limga xos bo‘lgan muammoni hal qilish imkonini beradi, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan bitiruvchilar aniq kvazprofessional vazifalarni hal qilishda o‘zlarining kasbiy faoliyatida qiyinchiliklarga duch kelishadi.

“Kompetensiya” tushunchasining pedagogik toifa sifatida shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilamiz. “Kompetensiya”, “kompetentlik” tushunchalari faoliyatning turli sohalarida keng tarqalgan. Biz uni kasbiy faoliyatda, adabiyotda, pedagogikada, kundalik hayotda va hokazolarda uchratishimiz mumkin.

I.A.Zimnyaya va N.V.Kuzminalar “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarini o‘quvchining bilim olishi natijasi va shaxsga xos xususiyat sifatida ko‘rib chiqqanlar. A.I.Axulkova esa kompetentlikni “mutaxassis yoki jamoaning kundalik kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati” deb ta’riflaydi.

A.V.Xutorskoy “kompetensiya” tushunchasini obyektlar va jarayonlarning ma’lum doirasi bilan belgilanadigan shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko‘nikma, malaka, faoliyat usullari) yig‘indisi deb hisoblaydi. B.S.Gershunskiyning so‘zlariga ko‘ra, “shaxsning kompetentligi uning kasbiy darajasiga, individual qobiliyatlari va tajribasiga, o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirishga bo‘lgan intilishiga bog‘liq”.

Mualliflar V.A.Bolotov, V.V.Serikovlar “kompetentlikni shaxsiy o‘zini o‘zi anglash uchun asos bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ma’lum darajadagi ta’limning mavjudlik usuli”, deb hisoblaydi. Zamonaviy ta’lim tizimidagi va xususan, kasb-hunar ta’limidagi innovatsion o‘zgarishlar o‘quv ishlarini tashkil etishni sezilarli darajada o‘zgartirdi, ya’ni o‘quv yuklamasidagi dars soatlarining qisqarishi va shunga mos ravishda darslar ulushining talabalarning mustaqil ishi hisobiga ortishi kabi qayta taqsimlash sodir bo‘ldi. Talabalarni tayyorlashda asosiy e’tibor mustaqil ta’lim jarayoniga o‘tkaziladi, bu ta’lim standartlarida aks ettirilgan shakllangan umumiy kompetensiyalarsiz mumkin emas. Shunday qilib, umumiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish malakali mutaxassis tayyorlashning asosiy elementlaridan biridir. Samaradorlik deganda biz ta’lim jarayonini amalga oshirish jarayonida umumiy kompetensiyalarni shakllantirishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning statistik jihatdan sezilarli o‘sishini tushunamiz (motivatsion, bilish, faoliyatli, baholash-refleksiv).

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida umumiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosi pedagogik adabiyotlarda keng yoritilmagan. S.A.Bashkova, ye.Yu. Goloxvastova, I.V.Turchina, N.O.Xlupina, A.A.Yavorskaya va boshqalarning tadqiqotlari o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarining alohida fanlarni o‘rganish yoki muayyan mutaxassisliklar bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirishga bag‘ishlangan.

Kasbiy va umumiy kompetensiyalar butun ta’lim jarayonida shakllanadi. Faqat kasbiy fanlar aniq fanlarga bog‘liq, umumiy kompetensiyalar esa ma’lum bir fanga bog‘liq emas. Ular butun kurs davomida shakllanadi. “Umumiy kompetensiya - bu ko‘plab kasbiy faoliyat turlari uchun umumiy bo‘lgan muammolarni hal qilishda amaliy tajriba, ko‘nikma va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir” Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, “kompetensiya” tushunchasining turli tasniflari va ta’riflari mavjud. “Kasbiy kompetensiya – bu kasbiy faoliyat vazifalarini bajarishda, muammolarni hal qilishda ko‘nikma, bilim va amaliy tajriba asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir”.

O‘rta bo‘g‘in mutaxassisi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining barcha mutaxassisliklari uchun umumiy bo‘lgan quyidagi kompetensiyalarga, shu jumladan, “qobiliyatga” ega bo‘lishi kerak:

“UK 1. Kelajakdagi kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish bildirish.

UK 2. O‘z faoliyatini tashkil qilish, kasbiy vazifalarni bajarish uchun standart metodlar va usullarni tanlash, ularning samaradorligi va sifatini baholash.

UK 3. Standart va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish va ular uchun javobgarlik.

UK 4. Kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni izlash va ulardan foydalanish.

UK 5. Kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

UK 6. Jamoa va komanda bilan ishlash, hamkasblar, rahbariyat, iste’molchilar bilan samarali muloqot qilish.

UK 7. Jamoa a’zolari (bo‘ysunuvchilar) ishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish,

topshiriqlarni bajarish natijasi.

UK 8. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullanish, malaka oshirishni ongli ravishda rejalashtirish.

UK 9. Kasbiy faoliyatda texnologiyalarning tez-tez o‘zgarib turishi sharoitiga moslashish”.

E.Yu.Goloxvastov, A.V. Xutorskaya, A.A.Yavorskaya va boshqalar “umumiy kompetensiya” tushunchasini shaxsning bilish faolligini belgilovchi bilimlar, qobiliyatlar, malakalar va malakalar majmui sifatida qaraydilar. Pedagogik lug‘atda umumiy kompetensiya tushunchasini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar quyidagicha izohlanadi: “bilim – fan dalillarini, tushunchalarini, qoidalarini, qonunlarini, nazariyalarini tushunish, xotirada saqlash va takrorlashdir” , “ko‘nikma – bu shakllanishning eng yuqori darajasiga yetmagan, to‘liq ongli ravishda bajariladigan harakatlarni bajarish qobiliyatidir”.

Umumiy harakatlarning asosiy xususiyati – bilim, ko‘nikma va malakani mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobiliyati hisoblanadi. Umumiy harakatlar ko‘pchilik tadqiqotchilar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.E.Elkonin va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan T.S.Kotlyarova, I.V.Morozova, O.N.Sapronova, L.A.Teplouxova va boshqalar universal ta’lim faoliyati (bilim, ko‘nikma va malaka) ni shakllanishini ko‘rib chiqadilar. Ushbu tadqiqotlarning barchasida asosiy maktab ta’limi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchilarning umumiy kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yondashuvlardan biri umumiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish bo‘lib, ularni o‘zlashtirish ta’lim oluvchilarning umumiy kompetensiyalarini shakllanganlik darajasi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Umumiy bilim, ko‘nikma va malakalarning funksiyalari talabaga o‘z bilim faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirish, kasbiy muammolarni hal qilish yo‘llari va metodlarini topish va ulardan foydalanish, o‘zining va jamoasining faoliyat jarayoni va natijalarini baholash va nazorat qilish imkoniyatini berishdan iborat. Bu funksiyalar o‘quv va kasbiy o‘zini o‘zi anglashning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Shunday qilib, umumiy kompetensiyalarning shakllanganligi umumiy ko‘nikmalar, bilimlar, malakani o‘zlashtirish darajasi va kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun ijobiy motivatsiya darajasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Федорова В.Н. Межпредметные связи: на материале естественнонаучных дисциплин сред. школы [Текст] / В.Н. Федорова, Д.М. Кирюшкин; Науч.-исслед. ин-т содерж. и методов обучения. М.: Педагогика, 1972. – С. 152.

2. Власова И.М. Организация внеаудиторной самостоятельной работы студентов колледжа с использованием дистанционных технологий (на примере учебной дисциплины “Информатика”): дис. ... канд. пед. наук / Власова Ирина Михайловна. – М., 2007. – С 198.

3. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы / С.И. Архангельский. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 368.

4. Резниченко М. Г. Формирование воспитательного пространства вуза: дис. ... д-ра пед. наук [Текст]: 13.00.08 / Резниченко Мария Геннадьевна. – Москва, 2009. – С. 247.

Durdona MUSTAFOEVA,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti,
Milliy tadqiqot universiteti dotsenti, PhD

PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI KADRLARINING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimining fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash jarayonlarida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, professional ta’lim muassasasi kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zaruriy mexanizmlar va yondashuvlar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada muallif yondashuvlar, tamoyillar, muammo va yechimlar tahlilini keltiradi.

Kalit so‘zlar. Kasbiy kompetensiya, professional ta’lim, ko‘nikma, mahorat, metodologiya, integratsiya, texnologiya.

Особое внимание уделяется вопросу непрерывного развития профессиональной компетентности педагогических кадров в процессах повышения качества образования в нашей стране, обеспечения интеграции системы подготовки кадров с приоритетными направлениями развития науки и техники. В частности, важным фактором служат необходимые механизмы и подходы к описанию профессиональной компетентности персонала профессионального образовательного учреждения. В статье автор приводит концепцию подходов, принципов, проблем и решений.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, профессиональное образование, навыки, скиллы, методология, интеграция, технология.

Special attention is paid to the issue of continuous development of professional competence of teaching staff in the processes of improving the quality of education in our country, ensuring the integration of the personnel training system with priority areas of science and technology development. In particular, an important factor is the necessary mechanisms and approaches to the description of the professional competence of the staff of a professional educational institution. In the article, the author presents the concept of approaches, principles, problems and solutions.

Key words. Professional competence, professional education, habit, skills, methodology, integration, technology.

Mamlakatimizda pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarini qanoatlantirish, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash orqali rahbar va pedagog kadrlarning tayyorgarligi sifatiga qo‘yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish vazifalari belgilangan. Bunda pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish, pedagogik mexanizmlarini hamda kasbiy ta’lim sifatini oshirish borasidagi izlanishlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb

etadi.

Professional ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi, pedagogik-psixologik jihatlari, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan: X.F.Rashidov, Sh.E.Qurbonov, N.A.Muslimov, B.S.Nuridinov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, R.Djo‘raev, F.Zakirova, D.Sayfurov, A.Musurmanova, N.Muslimov, Q.Olimov, M.Urazova, Z.K.Ismailova, Sh.Sharipov, D.D.Sharipova, S.Ashurova, G.yeldasheva, M.Mirsolieva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlari hamda ilmiy izlanishlarida uchratish mumkin.

Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsada, maxsus fan o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi tuzilmasini ishlab chiqish, professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining pedagogik-psixologik, tashkiliy-kommunikativ, emotsional-irodaviy faoliyatlarini rivojlantirish masalalari hozirgi kunda to‘liq tadqiq etilmagan.

Shuningdek, maxsus fan o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mazmunini o‘rganganimizda quyidagi yondashuvlar mavjudligi aniqladik: kasbiy kompetentlik mazmunini o‘quv rejasidagi fan bloklari doirasida o‘zlashtiriladigan va faoliyatning asosiy yo‘nalishlari mazmunini ifodalovchi tayanch, umumkasbiy, maxsus-predmetli kompetensiyalar tarzida alohida ajratish; funksional yondashuvli faoliyat sohasi doirasidagi kasbiy vazifalarni ifodalangan kompetensiyalarni loyihalashtirish; mutaxassisning aniq mehnat sharoitlariga tezkor va nizolarsiz moslashishiga xizmat qiluvchi kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan individual-psixologik yondashuv. Ushbu yondashuvlar va ularning mezonlari, darajalari ko‘pgina tadqiqot ishlarida yoritilgan, lekin aynan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini yoritishda nomutanosibliklar mavjudligi aniqlandi.

Ilmiy-pedagogik tahlillar asosida tadqiqotchilar tomonidan oliy ta’lim tizimi pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sinflanadi, quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Kasbiy kompetentlik tipologiyasi


Kompetentlik turi	Mazmuni
Kasbiy faoliyatdagi kompetentlik	Kasbiy faoliyat sohasining talablaridan kelib chiquvchi maxsus kompetentlik (o‘z ishini yaxshi bilish); texnologik kompetentlik; subyektiv kompetentlik; professiologik kompetentlik (kasblar olami haqida ma’lumotga ega bo‘lish); huquqiy kompetentlik; iqtisodiy kompetentlik va boshqalar.
Kasbiy muloqotdagi kompetentlik	Boshqaruv va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish bilan bog‘liq kommunikativ va muloqotchanlik kompetentligi (hamkorlik qila olish qobiliyati);ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilishga qobiliyat); differensial-psixologik kompetentlik; diagnostik kompetentlik (boshqalarni o‘rganish qobiliyati); axloqiy kompetentlik;empativ kompetentlik; madaniyatlararo, ijtimoiy-madaniy, gender kompetentlik (boshqa madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglik); nizoli vaziyatlardagi kompetentlik va boshqalar

Profil (maxsus) kompetentlik	Faoliyat yo‘nalishi, ixtisoslik va ixtisoslik nuqtai-nazaridan amaliy faoliyatni tashkil etishning psixologik kompetentlik (boshqa kishilarni o‘rgana olish ko‘nikmasi); individual, autopsixologik kompetentlik (o‘zini o‘rganish ko‘nikmasi); madaniy kompetentlik (jamiyatda qabul qilingan madaniy normalarni qabul qilish va o‘zi uchun etalon sifatida o‘zlashtirish); refleksiv kompetentlik va boshqalar).

Pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish esa individual ehtiyojlar va malaka talablari asosida kasbiy mahorat darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, sohaga oid yangi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni o‘zlashtirish asosidagi integratsiyalashgan jarayon sifatida qaraldi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda kasbiy xususiyatlar bilan bir qatorda o‘quv jarayonining didaktik ta’minoti, o‘quv jarayonini amalga oshirishda individual yondashuvlarni tanlash ham muhim ahamiyatga ega.

Quyida ixtisoslik fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan tuzilmani tahlil qilamiz (1-rasm).



1-rasm. Ixtisoslik fan o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi tuzilma

Ixtisoslik fani o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish tuzilmasini ishlab chiqishda quyidagilardan foydalanildi.

– DTS malaka talablari bo‘yicha malaka mehnat faoliyatidagi konkret majburiyatlarni bajara olish uchun tayyor bo‘lishi, zaruriy kompetensiyalarni o‘zlashtirishi;

– kompetensiya mehnat faoliyatida zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni konkret vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati;

– kompetensiyalar nazariy hamda amaliy faollikni integratsiyalash asosida kasbiy faoliyatni amalga oshirishi. Bir yoki bir nechta pedagogik faoliyatning qismlari bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.

Shaxsning doimiy rivojlanib borishi, global o‘zgarishlarga o‘z qarashlari bilan ta’sir qilishi, mehnat faoliyatining rivojlanib borishi, shaxsga yo‘naltirilgan faoliyatning natijasi deb qarash mumkin.

Tadqiqotchi T. Bazarov kadrlar menejmenti yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida mutaxassislarning zamonaviy kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanzmlarni takomillashtirish xususida to‘xtalib o‘tib, bu borada ta’lim sohalariga ixtisoslashtirilgan kompetensiyalar tizimini shakllantirish; kasbiy muloqot tizimini (seminarlar, mahorat darslari, konferensiyalar va boshq.) rivojlantirish; malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishning innovatsion shakllari, yondashuvlari kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi muhim omillar ekanligini ta’kidlaydi.

Ixtisoslik fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini interfaol o‘qitish texnologiyalari asosida rivojlantirish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik ta’minoti orqali ularda darsni to‘g‘ri tuzish, uning tarkibiy qismlarini to‘g‘ri tanlash bo‘yicha metodik ta’minot, ixtisoslik fan o‘qituvchilarga xos shaxsiy, kasbiy xususiyatlar, ixtisoslik fan o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bunda o‘qituvchilarga ko‘rsatmalar, o‘zini o‘zi baholash, tahlil qilish, refleksiya, kasbiy va ijtimoiy o‘sish, kasbiy mahoratini takomillashtirish usullari, kommunikativ ko‘nikmalarni tashxislash asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirsolieva M.T., Ermatov A. Ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish/ Pirovard maqsad aholi farovonligi va yurt taraqqiyotidir. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Andijon, 2017. –64-66 b.

2. Zakirova F.M., Pozilova Sh.X. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik modulidan ma’ruza matnlari // Uslubiy qo‘llanma. – T.: TATU. 2018. – 72 b.

3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

4. Bazarov T.Yu., Yermina B.Ye. Upravlenie personalom: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. T.Yu. Bazarova, B.L. Yeremina-2-ye izd., – M: YuNITI, 2002. – C. 560.

5. Karimova N.N. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarinining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. P.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2018. – 48 b.

Feruza BERDIBEKOVA ,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida talabalarning maqsadli rivojlanayotgan yo‘nalishini tuzatish orqali insonning muhim kuchlarini faollashtirishga erishish va uning o‘zini-o‘zi takomillashtirish jarayonlarini rag‘batlantirish pedagogik tizimi asoslab berilgan. Akmeologiya mavzusini tor professionaldan umumiy hayotini kengaytirishgacha aniq talqin qilish shaxs diqqatining asosiy konsepsiyasining murakkabligi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Akmeologiya, akmeologik yondashuv, kasbiy mahorat, akme, akmeologik tadqiqot, ta’lim akmeologiyasi, yuksalish, yetuklik, turg‘un motivlar yig‘indisi, fenomen, konseptual apparat.

В данной статье на основе акмеологического подхода обосновывается педагогическая система достижения активизации важных сил человека и стимулирования процессов самосовершенствования путем коррекции целевой развивающей направленности обучающихся. акмеологии от узкопрофессиональной к расширению общей жизни человека обсуждается сложность основного понятия внимание.

Ключевые слова. Акмеология, акмеологический подход, профессиональные навыки, акме, акмеологическое исследование, педагогическая акмеология, взросление, зрелость, совокупность устойчивых мотивов, феномен, понятийный аппарат.

In this article, based on the acmeological approach, the pedagogical system of achieving the activation of the important human forces and stimulating the processes of self-improvement by correcting the target developing direction of students is based. A clear interpretation of the subject of acmeology from a narrow professional to the expansion of the general life of a person the complexity of the main concept of attention is discussed.

Key words. Acmeology, acmeological approach, professional skills, acme, acmeological research, educational acmeology, rise, maturity, set of stable motives, phenomenon, conceptual apparatus.

Bugungi kunga kelib, talabalarga yo‘naltirilgan fenomenining aniq ta’rifi va uning tuzilishi va mazmunining mohiyatini tushunish mavjud emas, akmeologiya mavzusini tor professionaldan uning umumiy hayotini kengaytirishgacha noaniq talqin qilish shaxs diqqatining asosiy konsepsiyasining murakkabligi bilan bog‘liq.

Pedagog va psixolog tadqiqotchilar talabalarni yo‘naltirishni aniqlash nuqtai nazardan turlicha yondashuvlar uning ayrim jihatlariga e’tibor qaratib, ushbu hodisaning mohiyatini boshqacha tushunishga olib keldi.

Akmeologiya (yun. akme-yetuklik, cho‘qqi, kamolot, yuksalish, (logos-ta’limot) shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho‘qqiga erishishi bilan bog‘liq masalalani o‘rganuvchi “Akmeologiya” fani haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan[1].

[1] R.Safarova. Mas'ul muharrir Pedagogika ensiklopediya. I jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий

Ushbu fanning zamonaviy ishlab chiquvchilari va uning konseptual apparati Kuzmina, Bodalev, Derkach, Sitnikov, Tarasova, Tixomirov, Fokina va boshqalar hisoblanadilar. Ular orasida akmeologiyaning boshqa insoniy fanlar orasidagi o‘rni to‘g‘risida turli nuqtai nazarlar mavjud. Masalan, Bodalev akmeologiyani ikki jihatdan izohlaydi: inson taraqqiyoti psixologiyasining eng muhim bosqichi (kamoloti) sifatida va o‘ziga xos fan sifatida, uning predmeti kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini oshirish omillari, uni shakllantirishning turli shartlari va bosqichlari hisoblanadi.

Kuzmina va Tixomirov akmeologiyani ilmiy bilimlar sohasi, ilmiy fanlar majmuasi sifatida belgilaydi, uning o‘rganish obyekti insonning o‘zini o‘zi rivojlantirish dinamikasi, o‘zini o‘zi boshqarishning akmeologiyaning axborot bazasi ularning “texnologik qismida” fanning barcha sohalari ya’ni ma’lum bir fan yoki mutaxassislik muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun qanday harakat qilish kerakligi haqidagi savolga bevosita javob beradigan bilimlar tizimidir[2].

Kuzmina va Derkach akmeologiyani mustaqil tadqiqot sohasiga ega bo‘lgan fan sifatida himoya qilib, akmeologiyani psixologiya fanlari tizimiga kiritib bo‘lmasligining bir qancha sabablarini keltiradi va asoslaydi. Psixologiya fanlari o‘zining o‘ziga xosligi bo‘yicha analitikdir, akmeologiya bilan obyektlarning oldindan ko‘ra olish natijasi yaxlitligini o‘rganadi.[3].

V.S.Merlin Merlin talabalarni yo‘naltirishning ruhiy holatini sifatida xususiyatlar nafaqat zarur, balki ijtimoiy va mehnat faoliyatining yo‘nalishi va mazmunini aniqlash uchun ham yetarli ekanligini ta’kidlaydi.[4]

M.G.Reznichenko talabalarni yo‘naltirish ta’rifini aniqlashtirib, uni shaxsning motivatsion shartliligi deb ataydi. Xatti-harakatlari, uning muayyan hayotiy maqsadlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning manbalari uning shaxsiy sifatlari bo‘lgan ijtimoiy talablarning ehtiyojlaridir - deb ta’kidlaydi[5].

Demak, talabalarni qadriyatga yo‘naltirish o‘zaro shaxs munosabatlari bilan bog‘liq turg‘un motivlar yig‘indisi sifatida tushunish mumkin. Zamonaviy mualliflar talabalarni yo‘naltirish deganda talaba shaxsning alohida xususiyati ya’ni uning integral xususiyati sifatida ko‘radilar. Boritko shaxs hodisasini o‘rganuvchi olimlarning fikriga tayangan holda talabalarni akmeologik yo‘naltirish quyidagi asosiy xususiyatlardan iborat:

– talabalarni akmeologik yo‘naltirish asosiy ijtimoiy rollariga va ijtimoiy mohiyatiga munosabatini belgilaydigan va ko‘rsatadigan tipologik xarakteristikasi[6]

– talabalarni akmeologik yo‘naltirish xususiyati sifatida o‘ziga xosligini belgilab, uning ierarxik tuzilishini yaratadi;

– talabalarni akmeologik yo‘naltirish – bu shaxsning jamiyat maqsadlarini belgilashni ham, hayotiy faoliyatning o‘z maqsadlarini rivojlantirishni ham ta’minlaydigan ya’ni shaxsning shakllantiruvchi tuzilishi sifati hisoblanadi;

– talabalarni akmeologik yo‘naltirish – bu barcha tashqi ta’sirlarning sinishiga vositachi bo‘lgan ichki sharoitlar tizimi, buning natijasida ijtimoiy tajribaning interverlashuvi

Davlat ilmiy nashriyoti. T.,-2015. 45-46 betlar

[2] Бодалев А.А. Акмеология как научная дисциплина. - М.: РАО, 1993. - 20с.

[3] Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. - М.: РАО, 1993.

 Мерлин В.С. Психология индивидуальности: избр. психол. тр. / В.С. Мерлин; под ред. Е.А. Климова. - М.: Изд-во Моск, психол.-соц. ин-та, 2005. -544 с.

 Резниченко, М.Г. Введение в педагогическую деятельность: учеб, по¬собие / М.Г. Резниченко. - Самара: Изд-во СГПУ, 2003. - 132 с.

 Борытко, Н.М. В пространстве воспитательной деятельности: моногра¬фия / Н.М. Борытко; науч. ред. Н.К. Сергеев. - Волгоград: Перемена, 2001. - 181с.

sodir bo‘ladi va shaxsning nisbiy barqarorligi saqlanadi;

– talabalarni akmeologik yo‘naltirish boshqalarga va o‘ziga nisbatan faolligini, shaxs faoliyati va muloqotining xulq-atvor tendensiyalarini belgilaydi.

Berilgan xususiyatlar talabalarni akmeologik yo‘naltirishning mohiyatini tushunishga yordam beradi, lekin uning tuzilishini aniq va to‘liq aniqlashga imkon bermaydi, shuning uchun biz ularni orientatsiya shaxsga nisbatan bajaradigan ba’zi funksiyalarning tavsifi bilan to‘ldiramiz[7];

1. Talabalarni akmeologik yo‘naltirish tizimini tashkil etuvchi alohida tarkibiy qismlarga xos bo‘lmagan yangi integrativ sifatlarning paydo bo‘lishiga olib keladigan uning elementlarining bunday o‘zaro ta’sirida o‘zini namoyon qiladigan yo‘naltirishning integral funksiyasi, tizim tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlar juda yaqin va ahamiyatlidir. Ulardan birining o‘zgarishi boshqalarning va ko‘pincha butun tizimning o‘zgarishiga olib kelishi bu xususiyat, xususan, shaxsning qadriyat yo‘nalishlarining o‘zgarishiga olib keladigan holatlarda namoyon bo‘ladi. Talabalarga yo‘naltirilgan tizim sifatidagi turli shaxsiy fazilatlarning integratsiyasi natijasida shakllanadi. Unda tarkibiy qismlar o‘rtasidagi ichki aloqalar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunda muhitning tashqi ta’siridan ustun turadi shuning uchun talabalarga yo‘naltirilgan zaruriy o‘zgarishlarga erishish uchun tashqi ta’sirlarni ichki ta’sirga aylantirish, shaxs tomonidan tashqi maqsadlarni ichkilashtirishni ta’minlash kerak[8]

2. Talabalarni akmeologik yo‘naltirish tizimni tashkil etuvchi funksiya shundan iboratki, talabaning ichki izchilligini, yaxlitligini ta’minlaydi, shuning uchun, bir tomondan, talabalarning faoliyat maqsadlarini o‘z ichiga olishi va amalga oshiradigan harakatlarni istaksiz bajarishi juda qiyin bo‘lib, uning yo‘nalishiga mos kelmaydi, boshqa tomondan, u o‘z shaxsining yo‘nalishiga mos keladigan ishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan fazilatlar va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun titanik sa’y-harakatlarni amalga oshirishga qodir bo‘ladi. Shunday qilib, talabalarning maqsadli rivojlanayotgan yo‘nalishini tuzatish orqali insonning muhim kuchlarini faollashtirishga erishish va uning o‘zini o‘zi takomillashtirish jarayonlarini rag‘batlantirish mumkin.

3. Maqsadni belgilash funksiyasi shundan iboratki, talabalarni akmeologik yo‘naltirishda rivojlanish vektorini belgilab beradi. Uning umidlari manbai hisoblanadi. Chunki maqsad mohiyatan o‘sha istiqbolli natijada inson ongli ravishda yashaydi va harakat qiladi. O‘z manfaatlari va moyilliklariga asoslanadi. O‘zi uchun hayot maqsadini belgilaydi, u faoliyatning namoyon bo‘lishi uchun muhim tashqi rag‘batlarga muhtoj emas[9].

4. Talabalarni akmeologik yo‘naltirishning eng muhim funksiyasi – bu tanlanganlik bo‘lib, uni talabalarning o‘ziga va jamiyatga munosabati nuqtai nazaridan tavsiflaydi va talabalarning individualligini rivojlantirishni ta’minlaydi. Atrofdagi dunyoning turli hodisalari, jarayonlari va obyektlari uchun ahamiyat darajasi, ularning belgilangan idealga nisbati, ular idealga erishishga qanday hissa qo‘shishi yoki to‘sqinlik qilishi, shuning uchun faoliyat mazmuni yoki natijalari mos kelmasa. Insonning hayotiy maqsadlari ideal natijaga erishishga hissa qo‘shmaydi, keyin subyekt nazarida bunday faoliyat jozibadorligini yo‘qotsa, deyarli barcha olimlar qadriyat munosabatlari tizimi talabalarni akmeologik yo‘naltirishning tizimni tashkil etuvchi elementining o‘zagi deb hisoblaydilar.

 Савина Ю.Г. Формирование ценностных ориентаций учащейся мо¬лодежи средствами декоративно-прикладного искусства: дис. ... канд. пед. наук / Ю.Г. Савина. – М., 2006. – С 245..

 Борытко Н.М. В пространстве воспитательной деятельности: моногра¬фия / Н.М. Борытко; науч. ред. Н.К. Сергеев. – Волгоград: Перемена, 2001. –С 181..

 Борытко, Н.М. В пространстве воспитательной деятельности: моногра¬фия / Н.М. Борытко; науч. ред. Н.К. Сергеев. – Волгоград: Перемена, 2001.– С. 181.

5. To‘ldiruvchi qismni izlash funksiyasi talabalarni akmeologik faoliyati motivlarini ularning miqdoriy kuchi va vektor yo‘nalishi bo‘yicha aktuallashtirishni, shu sababli faoliyat aspektlarining mazmunini belgilaydi. Funksiya talabalarni akmeologik yo‘naltirilganligini doimiy o‘zini-o‘zi takomillashtirishni belgilovchi omillarning ichki motivatori sifatida belgilanadi.

Talabalarni akmeologik yo‘naltirishning o‘ziga xos xususiyatlari, funksiyalari, tuzilishini umumiy va har tomonlama aniqlashga imkon beradi, unda quyidagi integral tarkibiy qismlarni shartli ravishda ajratib ko‘rsatish mumkin:

– maqsadni shakllantiruvchi qadriyatga yo‘naltirilgan motivatsion – bu tarkibiy qismlarning taqsimlanishi bevosita talabalarni yo‘naltirishning mohiyati va funksiyalaridan kelib chiqadi;

– talabalarning faolligini, uning xulq-atvori va faoliyati tendensiyalarini belgilovchi tuyg‘uni shakllantiruvchi tuzilma sifatida orientatsiya umumiy yo‘nalish uchun mas’ul bo‘lgan komponentni ham o‘z ichiga olishi kerak. Shaxsning harakatlari, inson faoliyatining vektorini mazmunli belgilaydigan qadriyatlar va maqsadlardan farqli o‘laroq, uni ma’no-shakllantiruvchi deb ataylik, bu shaxsning ustuvor intilishlarini aks ettiradi, masalan, o‘zini yetuk darajada anglash, ijodiy tan olinishi uchun professional muvaffaqiyat va boshqalarni nazarda tutadi.

G.V. Reva talabalarning akmeologik yo‘naltirishni murakkab ko‘p komponentli shakllanish sifatida belgilaydi, bu talabalarning ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga, kasbiy faoliyatda ma’lum yuksaklikka erishishga qaratilgan sifat xususiyati; talaba shaxsni akmeologik yo‘naltirishining tuzilishi umumiy va maxsus obyektiv va subyektiv tomonlarning dialektik birligini aks ettiradi va pedagogik ijodkorlik, kasbiy aks ettirish va maqsadni belgilash kabi tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi bilan ifodalanadi[10].

Talabalarning akmeologik yo‘naltirishning S.N.Begidova akmeologik yo‘naltirish, kasbiy faoliyatda o‘zini isbotlash istagi – bu talabalarning pedagogik mahorat cho‘qqilariga erishish, hayot jarayonida o‘zining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilganligi; bu ijodkorlik kasbiy mahorat va ijtimoiy munosabatlarga qaratilgan – deya izohlaydi[11].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, akmeologik yo‘naltirish – bu talabalarni ilg‘or rivojlanishga, shu jumladan, kasbiy rivojlanishga, pedagogik sohada ham, umuman hayotda ham maksimal ijodiy o‘zini o‘zi amalga oshirishga yo‘naltiruvchi shaxsning umumiy yo‘nalishining sifat xususiyati deb taxmin qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Safarova. Mas’ul muharrir Pedagogika ensiklopediya. I jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2015. 45-46 betlar.

2. Бодалев А.А. Акмеология как научная дисциплина. – М.: РАО, 1993. – С. 20.

3.Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. – М.: РАО, 1993.

4. Мерлин В.С. Психология индивидуальности: избр. психол. тр. / В.С. Мерлин; под ред. Е.А. Климова. – М.: Изд-во Моск, психол.-соц. ин-та, 2005. – С. 544.

10 Рева, Г.В. Формирование акмеологической направленности личности будущего учителя (на примере учителя музыки): дис. ... канд. пед. наук / Г.В. Рева. – Майкоп, 2002. – С 196..

11 Бегидова, С.Н. Теоретические основы профессионально-творческого развития личности специалиста по физической культуре и спорту / С.Н. Бегидова.– Майкоп, 2001. – С 270 .

Iqboljon SHAROFUTDINOV,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

RAQAMLI TA’LIM JARAYONIDA AKMEOLOGIK YONDASHUVNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta’limda akmeologik yondashuvni samarali amalga oshirish masalalari, akmeologik yondashuvning tashkiliy tuzilmasi va undan foydalanishning ahamiyati, akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, akmeologik yondashuv asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli ta’lim, akmeologik yondashuv, akmeologik muhit, akmeologik rejim, pedagogning akmeologik pozitsiyasi, ijodkorlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish.

В статье рассматриваются вопросы эффективной реализации акмеологического подхода в цифровом образовании, организационная структура акмеологического подхода и важность его использования, развитие образовательного процесса будущих педагогов на основе акмеологического подхода, совершенствование подготовки студентов к профессиональной деятельности на основе акмеологического подхода.

Ключевые слова. Числовое образование, акмеологический подход, акмеологическая среда, акмеологический режим, акмеологическая поза педагога, креативность, саморазвитие, самоуправление.

The article covers the issues of the effective implementation of the acmeological approach in digital education, the organizational structure of the acmeological approach and the importance of its use, the development of the educational process of future educators on the basis of the acmeological approach, improving the preparation of students for professional activities on the basis of the acmeological approach.

Key words. Number education, acmeological approach, acmeological environment, acmeological regime, akmeological pose of the educator, creativity, self-development, self-management.

Bugungi kunda mamlakamizda oliy ta’lim islohotlari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu siyosatga muvofiq talabalarning kontingentini oshirish va oliy ta’lim muassasalari sonini ko‘paytirish, ta’limning sifatini yaxshilash, mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarini samarali boshqarishning jahon standartlariga asosan ta’limda sifatli boshqaruv usullarini samarali qo‘llash; zamonaviy globallashuv sharoitida innovatsiyalarni qo‘llash asosida ta’lim tizimi sifatini oshirish va kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarini samarali innovatsion strategiyalar yo‘nalishlarini ishlab chiqish; fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash; talaba-yoshlarni internetdan, elektron adabiyotlardan ko‘proq foydalanishini yo‘lga qo‘yish; ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etib borish, oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilarning global Internet tarmog‘i, multimedia

tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda zamonaviy darslarni o‘tkazishini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar bugungi anjumanimizda hal qilinmoqda.

Jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasi ta’lim oluvchilarda kelajakni rejalashtirish qobiliyati va unga nisbatan javobgarlik hissi, o‘ziga va o‘z kasbiy qobiliyatlariga ishonchni shakllantirishga qodir bo‘lgan yangi tizim – masofaviy ta’lim va oliy ta’limni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tilishi amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori qabul qilindi. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bu, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, “Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikamizning barcha hududlarida raqamli bilimlarga asoslangan o‘qitish markazlarini ochishdir.

Raqamli o‘qitish – oldinga bir qadam qo‘yish demakdir. Darhaqiqat, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va aloqa platformalari raqamli vazifalar va kun tartibini yaratish hamda boshqarish uchun foydalanilmoqda. Auditoriyada qancha texnologiyalar ishlatilmasin, raqamli texnologiyalar orqali yaratilgan masofaviy ta’lim platformalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu esa talabalarning bilim olishga qiziqishini oshiradi va dunyoqarashini kengaytiradi. Masofaviy ta’limdagi raqamli o‘qitish an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda oldinga bir qadam qo‘yish hisoblanadi va quyidagi bir qator imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ma’lumki, pedagogika va falsafa fanlari insonning ijtimoiy rivojlanishi faqat barcha ta’lim muassasalarining bir butun ijtimoiy buyurtmaga asoslanishi haqida ma’lumot beradi. Ta’lim muassasalarining maqsadi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Insonning shaxs, individ, faoliyat subyekti sifatida shakllanishida muhim ijobiy holatlarni belgilash mumkin:

– yosh avlodning jismoniy sog‘lomligi ta’minlanadi;

– ta’lim orqali har bir insonga tabiat, jamiyat, inson o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik haqidagi bilimlar beriladi, ushbu bilimlarni amaliyotda butun umri davomida qo‘llash ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi;

– tarbiya orqali yoshlarda o‘z-o‘ziga, jamiyatga, o‘z yurtiga, mehnatga, boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatlari, milliy g‘oya va mafkura, iftixor tuyg‘ulari, komil inson sifati shakllantiriladi.

Ta’limda shaxs mentaliteti, intellekti va tafakkurini rivojlantirish bilan dolzarb ta’lim sifati muammosini yechish mumkin.

Bugungi kunda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogikada shaxsni rivojlantirish va tarbiya tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayonini rivojlantirish shakli, yangi samarali o‘qitish metodlari, shakl, vositalari haqida ko‘p fikr yuritilmoqda. Bu o‘rinda pedagoglar akmeologiyaga – insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan fan tarmog‘i sifatida e’tibor qaratadi.

Akmeologiya atamasi, evrilogiya (P.Engelmeyer), ergonologiya (V.Myasishev), refleksologiya (V.Bexterev) kabi sohalar singari ilmiy-amaliy bilimlarga ega bo‘lib, o‘tgan asrning 20-yillarida paydo bo‘lgan.

Akmeizm sifatida N.Gumilev, S.Gorodetskiy, A.Axmatova va boshqalarning asarlarida XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy akmeologiya paydo bo‘lgan edi. Ijodiy faoliyat yosh davrlari qonuniyatlari tomonidan va F.Galton va V.Osvaldolarning turli psixobiologik omillar mahsuldorligi bilan bog‘liqligini o‘rganishga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlari akmeologiyaning kelib chiqishiga olib kelgan.

B.G.Ananevning fikricha, akmeologiyaning ilmiy asosi, insonning rivojlanishida individ, shaxs, individuallik va subyektning hayot faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil topgan.

Akmeologiyada odam kasbiy faoliyat va o‘z hayotini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyati, inson hayot faoliyatida subyekt sifatida qarab chiqiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish asosida insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, takomillashish, faol hayot tarafdori bo‘lish, ezgu fikrlash o‘z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunish yotadi. Shaxsning rivojlanishi uning ona bag‘ri, maktabgacha bolalik davri, boshlang‘ich sinf, o‘smirlik va o‘spirinlik davridagi shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liq. Ushbu davrlarda uning salomatligi qanday bo‘lishi, nimalar u uchun qadrli bo‘lishi, uning xususiy baholashi, insonlarga va mehnatga munosabati, xatti-harakatlari va boshqalar uning kelajakda qanday sifatdagi kasb egasi bo‘lishini aniqlab boradi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida mahsuldor ijtimoiy-pedagogik tizimda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining yaxlit va munosib rivojlanishini ta’minlash maqsadida, kasb-hunar ta’limiga akmeologik yondashuvni qo‘llash asosida ta’lim sifatini oshirish maqsadi qo‘yildi.

Ilmiy izlanishning asosiy obyekti o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi akmeologiyasi insonni yaxlit rivojlantiruvchisi hisoblanadi.

Insonning ilk o‘spirinlik davrida yaxlit rivojlanishning integral sifat ko‘rsatkichlari sifatida kasb-hunar kollejining bitiruvchisini ontogenez va sotsiogenez jarayonlari o‘zaro ta’sir shart-sharoitlari ijtimoiy yetuklikka erishishiga olib keladi.

Akmeologik yondashuv esa quyidagilardan tashkil topgan:

– ilk o‘spirinlik davridagi kollej o‘quvchisining borliq bilan munosabati va yaxlit fenomen sifatida haqqoniy aloqalarini o‘rganish;

– har bir o‘quvchini hayotiy cho‘qqilarga erishishini mo‘ljallashda, shaxsning o‘zini shaxsiy sifatlarni takomillashtirishga, muvaffaqiyatga, madaniy rivojlanish yetukligiga va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi sifatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash asosida ma’naviy-axloqiy sifatlarga erishishga intilishi;

– yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, qiziqarli va mahsuldor, har bir o‘quvchining qobiliyatini ochib beruvchi va uning muvaffaqiyatlarini ta’minlovchi, ijtimoiy tan olinish, o‘z yetukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni tashkil etish va boshqalar.

Akmeologik yondashuvdan foydalanish:

– ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va saqlash, kasbni muvaffaqiyatli egallashga erishish, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlanish rivoji, ta’lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish;

– qayta fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, ta’lim ichki ehtiyojga aylanishi, barcha subyektlarda ta’lim tizimlashtirilgan bilish motivlari bo‘lishi, kasb-hunar kollejini funksionallikdan rivojlanishga o‘tishida ta’lim sifatining oshishi imkonini beradi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida akmeologik yondashuvni samarali amalga oshirish, ta’lim jarayoni ishtirokchilaridan barcha jarayonlarni o‘zaro aloqadorlikda

ko‘rib chiqishni talab etadi. Shuningdek, muammolarni ko‘rish va ularni o‘z vaqtida yechishni; doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirishdan to‘xtamaslikka erishish imkonini beradi.

Akmeologik rejimda rivojlanayotgan oliy ta’lim muassasasi, insonning yaxlit ma’naviy va ma’rifiy barkamolligini ta’minlash; bitiruvchining kasbiy faoliyatga va hayotga yuqori tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Zamonaviy ta’lim muhiti o‘quvchi yuqori chuqqilarga erishishi, o‘z-o‘zini takomillshtirishi, rivojlantirishi mumkin bo‘lgan, akmeologik muhitni shakllantirish bilan to‘ldirilishi lozim.

Akmeologik yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadi – mavjud har qanday qiyinchilik yoki muammolardan o‘quvchining o‘zi mustaqil ravishda chiqib keta olsin, unda ijodkorlik shunday rivojlansinki, hatto o‘zi mustaqil ravishda yakka tadbirkor sifatida faoliyat yurita olsin. Bunga erishish uchun ta’lim jarayonida akmeologik yondashuvdan foydalanish bilan birgalikda, pedagogik jamoada ijodkorlik va muvaffaqiyatga erishish motivida akmeologik muhitni shakllantirish ustida ish olib borilishi lozim. Buning uchun oliy ta’lim va boshqa ijtimoiy tashkilotlar, psixolog, guruh murabbiysi, ishlab chiqarish ustozi, maxsus fan o‘qituvchisi tomonidan ijodiy ishlar olib borilishi, jumladan, natijalari har semestr yakunida umumiy o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasida ko‘rib chiqilib, faollar munosib taqdirlanishi ko‘zda tutilgan tadbirlar (to‘garaklar, festivallar, konkurslar, musobaqalar, marafonlar, o‘yinlar, treninglar), maxsus dastur natijalari doimiy ravishda ishlab turishi lozim. Bunda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, liderlik, ijodiy faoliyat, loyihalar ustida ishlash kabi qobiliyatlari shakllantirib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida, iqtisodiyotning barcha sohalariga, jumladan, ta’lim sohasiga innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali masofaviy ta’limni joriy etish, nafaqat ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirishga, balki zamonaviy dunyoqarashga va bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan, O‘zbekiston Respublikasini kelgusida yuqori marralarga ko‘tarishga hissa qo‘shadigan yetuk kadrlarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бодалев А.А. Акмеология и современные проблемы воспитания. // Акмеология. 2005. №1.

2. Бодалев А.А. О смысле жизни человека, его акме и других образованиях и их взаимосвязи. // Акмеология, №1, 2

3. Djuraev R.X., Tolipov O‘.Q., Safarova R.G‘, To‘raqulov X.O., Inoyatova M.E.Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug‘ati, T., 2008 yil, – 136 b, 5-7-betlar

4. Икрамов, Р. А. (2020). Теоретико-правовые проблемы экологических интересов человека. Universum: экономика и юриспруденция, 12(76).

5. Ikramov, R. (2020). Constitutional and Legal Framework for Environmental Human Rights. The scientific heritage, 4(54), 6-12.

6. Золотых, Н. В., & Хайтметов, Р. К. (2020). Условия формирования компетентности будущего педагога в личностно-развивающей воспитательной деятельности. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 113-119.

Dilafruz KENJABOEVA,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHI DEONTOLOGIYASI VA KOMPETENTLIGI

Annotatsiya

Maqolada pedagog deontologiyasi fani mohiyati, tamoyillari va olimlarni deontologiya fani haqidadagi g‘oyalar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar. Deontologiya, etika, axloq, pedagogik madaniyat, pedagogik ish etikasi, kompetentlik, kompetensiya.

В статье отражены сущность науки педагогической деонтологии, принципы и представления ученых о науке деонтологии.

Ключевые слова. Деонтология, этика, этика, педагогическая культура, педагогическая трудовая этика, компетентность, компетентность.

The article reflects the essence of the science of pedagogical deontology, the principles and ideas of scientists about the science of deontology.

Key words. Deontology, ethics, manners, pedagogical culture, pedagogical work ethics, competent, competence.

O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasida faol qatnashayotgan barcha professor o‘qituvchilarga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida malakali o‘qituvchilarni qo‘llab quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga, umumta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari va oliy ta'lim tizimi rivojlanishiga oid bir qator qarorlar qabul qilindi.

Shu jumladan, bugungi professor o‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘zi dars berayotgan fanning umuminsoniy va milliy axloqiy tarbiya vazifalarini singdirish bilan o‘quvchilarga, talabalarga muntazam tarbiyaviy ta’sir o‘tkazadi. “Mamlakatimiz fuqarolarining ma’naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g‘urur, baynalminalchilik kabi ma’naviy sifatlar o‘qituvchi orqali o‘quvchi talabalarga singdiriladi. Shuning uchun ham,avvalo, muallimning o‘zi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni puxta o‘zlashtirib olishi, amaliy ishda shaxsan ibrat bo‘lishi zarur”[1]. O‘qituvchi pedagoglarga xos o‘qituvchilik odobiga mas’uliyati va burchiga ega bo‘lgan pedagogik jarayonning ehtiyojlarini obyektiv ravishda bajarayotgan shaxs bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining deontologik tayyorgarligi – bu bo‘lajak o‘qituvchi ongi, uning bilim, ko‘nikma va malakalarining kasbiy burch talablariga muvofiq o‘quv, tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi holatidir. Bu uning umumiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lib, kasbiy ongning rivojlanish darajasini, kasbiy faoliyatda nima zarurligini anglashni aks ettiradi[2]. Ushbu fikrdan xulosa qilishimiz mumkinki, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining deontologik tayyorgarligi o‘zida integral xarakteristi-

[1] Kenjaboev A.E Pedagogika deontologiya va o‘qituvchiningkasbiy kompetentligi. Zamonaviy ta'lim jurnali 2021 yil. 10-bet.

[2] Кертаева, Г. М. Основы педагогической деонтологии / К. М. Кертаева. – Алматы, 2020. – С. 238.

kani ifodalab, ilmiy-nazariy, uslubiy, psixologik-pedagogik tayyorgarlikni, shuningdek, kasbiy mahorat va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Respublikamiz olimlaridan professor M.Ochilov o‘qituvchi burchi to‘g‘risida o‘z fikrini quyidagicha ifodalaydi: “O‘qituvchi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sohasida o‘z burchini zo‘rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki o‘z hayotining ma’nosi, ishonch va vijdoni”, deb hisoblaydi[3]. Fuqorolik burchini his etmoq butun xalq va O‘zbekiston davlatining buyuk kelajagi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni taqozo etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining deontologik tayyorgarligi natijasida shaxsda deontologik intuitivizm rivojlanadi, bunda kasbiy burch yaxshilikka bog‘liq bo‘lmagan yoki mantiqan undan oldin bo‘lgan tushuncha sifatida qaraladi. Boshqacha qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchining deontologik tayyorgarligi (deontologik ong), keyinchalik uning o‘z-o‘zini anglashiga aylanadi. O‘z-o‘zini anglashda namoyon bo‘luvchi refleksiya xatti-harakati motivlarini anglash va kasbiy burchni tushunishga xizmat qiladi.

G.M.Kertaevaning asarlarida o‘qituvchining deontologik o‘zini anglashi talabaning ruhiy, jismoniy salomatligiga zarar yetkazmaslik tamoyili asosida ta'lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyati, bilimlarini shubhasiz, obyektiv baholash, o‘zining va boshqalarning xatti-harakatlarini tanqidiy baholash, o‘zini o‘zi tanqid qilish qobiliyatida ifodalangan yuqori adolat tuyg‘usining mavjudligi, umumiy va maxsus kasbiy intellekt, pedagogik mahorat, bilimdonlikning operativ ma’lumotlar bilan to‘yinganligi, nafaqat o‘z kasbiy faoliyatining tor sohasida, balki unga tutash sohalardan ham xabardorlik[4] sifatida ta’riflanganligini ko‘rishimiz mumkin. Pedagogik deontologiya pedagogning kasbiy faoliyati sohasidagi qoidalarni va normalarni o‘rganadi hamda ishlab chiqadi. Rus pedagogi K.M.Levitanning ta’kidlashicha “kasbiy xulq normalari doimo tarixiy va aniq bo‘lib, real hayot va faoliyatning sharoitlarida va talablariga mos ravishda insonlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Deontologiya pedagogning jamiyat va inson rivojidagi roli pedagogga bo‘lgan talablar uning kasbiy xulqi to‘g‘risidagi tasavvurlarni aniqlashtirishda quyidagi tarixiy misollarni o‘rganadi.

Xorijiy olimlarning deontologiya sohasidagi bildirgan fikrlarining davomi sifatida O‘zbekistonlik olimlar ham pedagogni, odobni, burchni vazifani bajarish haqida o‘z fikrlarini bayon qilishgan jumladan professor M.Ochilov o‘qituvchi burchi to‘g‘risida o‘z fikrini quyidagicha ifodalaydi: “O‘qituvchi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sohasidagi o‘z burchini zo‘rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki o‘z hayotining ma’nosi ishonch va vijdon da’vati deb hisoblaydi. Fuqarolik burchini his etmoq butun xalq va O‘zbekiston davlatining buyuk kelajagi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishini taqozo etadi. O‘qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikri, axloqiy fazilati va e’tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e’tiqod va sifatlar o‘qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala munosabatlarida kundalik turmushda o‘zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta’sir o‘tkazishda ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy axloqiy fazilat tushunchasiga mos keladi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, burch, qadr-qimmat, mas’uliyat, vijdon, halollik, rostgo‘ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy sifatlar o‘qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan tahlil qilinadi”.[5]

[3] Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik. – T: Sano-standart, 2017.

 Кертаева, Г. М. Основы педагогической деонтологии / К. М. Кертаева. – Алматы, 2020. – С.238 . 68 стр

 M.Ochilov. Muallim-qalb memori. T: O‘qituvchi. 2001 y. 34-35-38-betlar.

1. O‘qituvchining tabiatiga muvofiq barkamol rivojlanishiga ko‘maklashish prinsipi bu o‘qituvchining o‘z malakasi darajasini doimiy ravishda takomillashtirishni, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish maqsadida har bir o‘quvchining psixologiyasini o‘rganishni nazarda tutadi, uning bilish faolligini oshirish va ta'limni rivojlantirish g‘oyalarini amalga oshiradi.

2. Adolat tamoyili, unga ko‘ra o‘qituvchi o‘zini va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini haqiqiy xizmatlari va sarflangan sa’y harakatlariga mutanosib ravishda baholash kerak.

3. Talaba o‘quvchining jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazmasdan unga foydali ta’sir ko‘rsatish tamoyili. Bu tamoyil o‘qituvchining har bir talabaga, o‘quvchiga, hamkasbiga uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda hurmatini, munosabatini muloqotini o‘rniga qo‘yishi, vaziyatga o‘z pozitsiyasidan qarash qobiliyatini, shuningdek, o‘z vazifasini topa olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Yuqorida qayd etilgan deontologiya, kompetensiya va kompetentlikka oid nazariy fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yiladigan talablar mazmunini anglatadi. Bu nazariy g‘oyalar zamonaviy o‘qituvchi zamonaviy o‘qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlarda namoyon bo‘lib ularda pedagogik burch, vazifa va mas’uliyatni ifodalaydi.

1. O‘qituvchi jamiyat hayotida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, olib boriladigan ijtimoiy islohotlar mazmunini chuqur anglab yetishi bu borada talaba yoshlarga to‘g‘ri asosli ma’lumot berishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchi ilm-fan, texnika, texnologiya yangiliklari, yutuqlaridan xabardor bo‘lishi;

3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur intellektual salohiyatga ega bo‘lishi, o‘z ustida kreativ ijod qilishi lozim.

4. Zamonaviy o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, deontologik kompetentlik fanlariga oid fanlarni chuqur bilishi va ta’lim jarayonini zamonaviy usullarda tashkil qilishi lozim.

5. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

6. O‘qituvchi bugungi kunda zamonaviy imijga ega bo‘lishi o‘z o‘quvchilariga ibrat, namuna bo‘lishi lozim.

7. O‘qituvchining deontologik tayyorgarligi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

8. Pedagoglar o‘z faoliyatini deontologik asosda tashkil etish va o‘zida mavjud bo‘lgan kompetentlikka tayanib, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta'lim to‘g‘risida”gi URK-627-son qonuni htt/iex.uz/docs/5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni- htt/iex.uz/docs/3107036.

3. Kenjaboev A.E. Pedagogik deontologiya va o‘qituvchining kasbiy kompetentligi. Zamonaviy ta'lim jurnali 2021-yil №4. 10-bet.

4. Ochilov M. “Muallim qalb me’mori”. T. O‘qituvchi 2001-yil 34-35-betlar.tayyorgarligi. Doktorlik dissertatsiyasi. Pavlodar D.U. 2011-yil.

Akmal HAMIDOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

SHAXSDA O‘Z-O‘ZINI ADEKVAT BAHOLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari tahlil qilingan. Shuningdek, Sharq va G‘arb allomalarining o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash haqidagi fikrlari, turli konsepsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini anglash, adekvat baho, ijtimoiy omillar, intellektual taraqqiyot, idrok ko‘lami, psixologik taraqqiyot bosqichlari, emotsional holatlar, “Men” konsepsiyasi.

В данной статье анализируются историко-педагогические корни формирования у человека навыков адекватной самооценки. В статье также освещаются мнения восточных и западных ученых о самосознании и самооценке, различные концепции.

Ключевые слова. Личность, самооценка, самосознание, адекватная оценка, социальные факторы, интеллектуальное развитие, объем восприятия, этапы психологического развития, эмоциональные состояния, концепт «Я».

This article analyzes the historical pedagogical roots of the development of adequate self-assessment skills in a person. The article also covers the opinions of Eastern and Western scholars about self-awareness and self-evaluation, and various concepts.

Key words. Person, self-esteem, self-awareness, adequate assessment, social factors, intellectual development, scope of perception, stages of psychological development, emotional states, concept of ‘‘I’’.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, insonning o‘z-o‘zini anglashi masalasi barcha davrlarda turli faoliyatning mazmun-mohiyatini belgilaganligi uchun ham alohida dolzarblik kasb etgan. Ajdodlarimizning inson va jamiyat haqidagi ilk tasavvurlari paydo bo‘lgan davrdan boshlab, insonning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘ziga nisbatan adekvat bahosi, xatti-harakatlari, atorofdagilarga bo‘lgan munosabati, ma’naviy dunyosi, jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilab olishida o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham o‘z-o‘zini real baholash masalasi barcha davrlarda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Shaxsning o‘z-o‘zini baholashi fikr va amaliy faoliyat erkinligini idrok etishida namoyon bo‘ladi. Ajdodlarimiz bola kamolotini ta’minlashda ota-ona va ustozning ahamiyati katta ekanligini ta’kidlashgan. Bolaning o‘z-o‘zini anglashi, ongi va tafakkurining rivojlanishida ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya muhim omildir. Rivojlanayotgan shaxs ongiga ijtimoiy muhit, shart-sharoitlar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqida buyuk mutaffakkir ajdodimiz Imom Abu Homid G‘azzoliy shunday degan: “Bolani ayni bir vaqtning o‘zida ham jismonan ham ruhan tarbiyalamoq joiz”. Ya’ni, bolaning bir vaqtning o‘zida har tomonlama rivojlanishi uning barkamolligini ta’minlaydi. Buning uchun ota-ona va ustozlar kerakli sharoitni, ma’naviy boy tarbiya muhitini yaratishlari lozim.

Imom Al-Buxoriy, At-Termiziy, Aziziddin Nasafiy, Husayn Voiz Koshifiy, Axmad

Yassaviy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy kabi allomalar o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholashga diniy-falsafiy nuqtai nazardan yondashgan bo‘lsalar, Abduholiq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Pahlavon Mahmud kabi mutaffakkirla esa insonni o‘z-o‘zini baholashiga real, voqelikdan kelib chiqqan holda yondashganlar.

Inson harakati, uning turmush tarzi o‘z-o‘zini anglashiga bog‘liq. O‘z-o‘zini anglagan inson davlat va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadi. Shuning uchun inson va uning kamoloti har bir davrda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu maqsadda ajdodlarimiz o‘z asarlarida barkamol inson tarbiyasining diniy, falsafiy, axloqiy, ruhiy, ma’naviy, tarbiyaviy, ta’limiy jihatlarini o‘rganishga, inson o‘z-o‘zini anglashiga ko‘maklashuvchi vositalarni yaratishga va hayotga tadbiq etishga mas’uliyat bilan kirishganlar.

Aziziddin Nasafiy ijodi va faoliyatida yosh avlodda o‘z-o‘zini anglash va baholash ko‘nikmasini shakllantirish g‘oyasi ustuvor o‘rin egallagan. Aziziddin Nasafiy komil inson timsolida o‘z-o‘zini chuqur anglagan yetuk shaxsni tasavvur qilgan. Nasafiy o‘zining “Kashful haqoyiq” (Haqiqatning ochilishi), “Zubdat ul haqoyiq” (Haqiqatning qaymog‘i), “Maqsadul aqso” (Oxirgi maqsad), “Al inson ul-komil” asarlarida komil insonning rivojlanish yo‘lini va tayanadigan manbalarini ko‘rsatib bergan. U tinch, osoyishta hayot, donolar suhbatini barkamollikka undovchi vosita deb bilsa, fitna, fisqu fasod kuchaygan notinch muhitni do‘zaxga tenglashtirib, bunday sharoitda yashagan kishi salbiy sifatlarga ega bo‘lishini ya’ni, pastkash, buzg‘unchi bo‘lishini ta’kidlaydi.

Nasafiy o‘zining “Al inson ul-komil” asarida o‘z-o‘zini anglagan barkamol inson haqidagi ta’limotini mujassamlashtirgan. Nasafiy insonni o‘z ichki olamini anglashga undaydi. O‘zini, ichki dunyosini anglagan insongina komillikka erishadi deya targ‘ib etadi mutaffakkir. Buning uchun har bir inson o‘z nafsini yenga olishi, iymonini mustahkamlashi va xulq-atvorini tartibga solishi lozimligini uqtiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida inson o‘z-o‘zini anglashga qodir bo‘lib boradi. Shu bilan bir qatorda mutafakkir inson o‘z xulq-atvorini takomillashtirib borishi lozimligini ham uqtirgan. Nasafiy o‘z-o‘zini, imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashning shaxsni shakllanishidagi ahamiyatiga katta e’tibor qaratadi.

Ajdodlarimiz o‘z-o‘zini anglagan inson timsolida ezgu g‘oyalar va pok e’tiqodga ega bo‘lgan bunyodkor, yaratuvchan, aqlga muvofiq harakat qiladigan, o‘z ma’naviy dunyosini anglab uni boyitishga intilgan shaxsni tasavvur qilganlar. Ular yosh avlodda o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘sha davrlarda ham jamiyatda vujudga kelgan muammolarni yechish ko‘nikmalarini hosil qilganlar.

Pedagogika va psixologiya sohasiga oid adabiyotlarda shaxsning o‘z-o‘zini anglashi va baholashini shakllantirishga katta e’tibor beriladi. O‘z-o‘zini baholashning tuzilishi va funksiyalari muammosi L.I.Bojovich, N.Nyukomb, M.I.Lisina, A.G.Maslou, D.B.Elkonin, J.Piaje va boshqa psixologlarning ishlarida muhokama qilingan.

Atoqli fransuz psixologik maktabining namoyondasi Ribo (1839-1916)ning fikricha, inson psixologik jihatdan taraqqiy etish jarayonida o‘zini qurshab turgan barcha ob’ektlarni o‘zlashtirib, ular to‘g‘risidagi tasavvurlarni umumlashtiradi va mulohaza yuritadi. Uning fikricha, idrok ko‘lamining kengayishi, bilimning oshishi, diqqatni bir vaqtning o‘zida bir nechta obyektlarga qarata olish insonning psixologik taraqqiyoti omili hisoblanadi. Ribo o‘z-o‘zini anglash, intellektual taraqqiyotni uch bosqichga ajratadi:

1. Immitatsiya (tashqi taqlid).
2. Identifikatsiya (kattalarning bilimlarini o‘ziga singdirish, uning shaxsiy fazilatlari,

xususiyatlarini o‘zlashtirib borish).

3. Refleksiya (inson o‘z-o‘zini anglagan holda keyingi faoliyatini amalga oshirish, muayyan rejalar tuzish, ularni hayot va faoliyatga tatbiq etish).

T.Riboning psixologik taraqqiyot bosqichlari haqidagi qarashlari individning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatining shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvini xarakterlaydi.

Fransuz psixologik maktabi namoyandalarining fikricha, o‘z-o‘zini anglashning dastlabki belgilari bolada paydo bo‘layotgan affektiv holatlar bilan xarakterlanadi. Masalan, imo-ishoralar, ma’no kasb etuvchi holatlarni his etish kabi har qanday taraqqiyot, avvalo, instinktlar va shartli reflekslar asosida yuzaga keladi. Insondagi qoniqish maroqlanish, empatiya, ruhlanish kabi murakkab kechinmalar keyingi taraqqiyotni belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Ularning nuqtai nazaricha, emotsional holatlar, ichki kechinmalar o‘z-o‘zini baholashni belgilovchi asosiy mezonlardir. Ular, shuningdek, intellektual taraqqiyotni quyidagi hodisalar bilan bog‘laydi:

a) spontan-favqulodda paydo bo‘luvchi;

b) impulsiv-ichki taqlid;

v) imitatsiya-tashqi taqlid.

Chet el psixologiyasida o‘z-o‘zini baholash “Men” konsepsiyasi tarkibida ko‘rib chiqiladi. Bu “individning o‘zi haqidagi barcha g‘oyalari yig‘indisi, ularni baholash bilan bog‘liq” deb ta’riflanadi.

Psixoanalitik nazariyada shaxsning o‘zi haqidagi ongida paydo bo‘layotgan pozitsiyasi haqiqatga mos kelmaydi va buzib ko‘rsatiladi, deb hisoblanadi. Zigmund Freydning fikricha, o‘z-o‘zini baholash ichki istaklar va tashqi ta’qiqlar o‘rtasidagi ziddiyat bosimi ostida rivojlanadi, bunday doimiy ziddiyat tufayli o‘zini adekvat baholash mumkin emas.

A.Bandura o‘z-o‘zini baholashni xulq-atvorni tartibga soluvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida belgilaydi. Uning fikricha, inson xatti-harakatlarining keng doirasi o‘z-o‘zini baholash bilan tartibga solinadi. Muvaffaqiyatlaridan faxrlanish hissi o‘z-o‘zidan norozilik va o‘zini tanqid qilish bilan birgalikda kechadi.

O‘z-o‘zini baholashning bir jihati, shaxsning voqelik bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish usullarining to‘g‘ri ekanligi va haqiqat talablariga javob berishiga ishonchini belgilaydi. O‘z-o‘zini anglash va baholash atrof-muhit bilan samarali munosabatda bo‘lishning ajralmas shartidir va insonning fikrlash jarayonlari, his-tuyg‘ulari, istaklari, qadriyatlari va maqsadlariga chuqur ta’sir qiladi.

Chet el psixologlari o‘z-o‘zini baholashni asosan, shaxsning o‘ziga qo‘yadigan talablarining tashqi sharoitlar bilan muvofiqligini, ya’ni shaxsning uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit bilan maksimal muvozanatini ta’minlaydigan mexanizm sifatida ko‘rib chiqadilar. O‘z-o‘zini baholashni “Men” konsepsiyasi tarkibida ko‘rib chiqish odatiy holdir, bu “individning o‘zi haqidagi barcha g‘oyalari, ularni baholash bilan bog‘liq bo‘lgan yig‘indisi” deb ta’riflanadi.

“Men” konsepsiyasining tavsiflovchi tarkibiy tashkil etuvchilari ko‘proq “O‘zlik” yoki “O‘zlikni anglash” deb ataladi. O‘ziga yoki shaxsiy fazilatlariga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan komponent o‘z-o‘zini baholash yoki o‘zini o‘zi tan olish deb ataladi.

Ta’riflovchi va baholovchi komponentlarning ajratilishi “Men konsepsiyasi”ni o‘ziga qaratilgan munosabatlar yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Shunday qilib, ta’kidlash mumkinki, o‘z-o‘zini baholash ierarxik tarzda tashkil etilgan, tizimli shakllanish jarayoni bo‘lib, uning barcha elementlari – tarkibiy qismlari, shakllari, turlari, ko‘rsatkichlari yaqin o‘zaro ta’sir va o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanadi.

Ularning har birining sifat jihatdan o‘ziga xosligi bolaning yoshi va individual xu-

susiyatlari bilan bog‘liq holda uning rivojlanish dinamikasini belgilaydi.

Mahalliy psixologlarning tadqiqotlarida asosiy e’tibor shaxsni shakllantirish jarayoni, uning quyi tuzilmalarini o‘rganish va tahlil qilish, shaxsiyatni shakllantirish mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, ularning muhim qismi o‘z-o‘zini baholashdir. O‘z-o‘zini baholash muammosi ikki pozitsiyada ko‘rib chiqiladi: shaxsiyat va o‘z-o‘zini anglash o‘rtasidagi munosabatlar muammosi, shuningdek, o‘z-o‘zini tan olish.

A.A.Rean o‘z-o‘zini baholashni shaxsning asosiy shakllanishi sifatida tushunadi, bu shaxsni boshqalar tomonidan baholash va uning boshqalarni baholashiga asoslanadi. O‘z-o‘zini baholash shaxsning asosiy tuzilishi sifatida qaraladi. O‘z-o‘zini baholashning asosini shaxs tomonidan qabul qilingan qadriyatlar tashkil etadi va shaxsiy darajadagi xatti-harakatlarning o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmini belgilaydi. A.A.Derkachning fikriga ko‘ra, insonning o‘z-o‘zini anglashi – bu bilishning natijasi bo‘lib, u o‘z tajribalarining haqiqiy shartliligini anglashni talab qiladi. O‘z-o‘zini anglash o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq bo‘lib, u mohiyatan baholash me’yorlarini belgilaydigan dunyoqarash bilan izohlanadi.

Ye.V.Zinkoning ta’kidlashicha, o‘z-o‘zini baholash o‘z-o‘zini anglashning tarkibiy qismi bo‘lgan aqliy rivojlanish omillari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizimli shakllanish sifatida qaraladi.

A.N.Leontevning so‘zlariga ko‘ra, o‘z-o‘zini baholash o‘z-o‘zini anglashning muhim shartlardan biri bo‘lib, uning yordamida individ shaxsga aylanadi. Bu shaxsda boshqalarning talablari darajasiga moslashish va o‘zlarining shaxsiy baholashlari darajasiga mos kelish ehtiyojini shakllantiradi.

Yondashuvlarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘z-o‘zini anglash muammolarini o‘rganish doirasida o‘z-o‘zini baholash yetakchi rol o‘ynaydi: u ushbu jarayonning yadrosi, uning individual rivojlanish darajasining ko‘rsatkichi sifatida tavsiflanadi. O‘z-o‘zini anglash o‘z kuchlari va imkoniyatlarini baholash qobiliyatini o‘z ichiga oladi, u insonga o‘zining kuchli tomonlarini atrof-muhitning vazifalari va talablariga muvofiq “sinab ko‘rish” va shunga muvofiq o‘z oldiga mustaqil ravishda ma’lum maqsadlarni qo‘yish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. Jamoa // –T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b.
2. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 446 b.
3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. Jamoa // T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Рибо, Теодюль.
5. Рибо Т.А. Психология чувств. – СПб: типография А.А.Пороховщикова, 1898. – С.124.
6. https://uz.warbletoncouncil.org/sigmund-freud-8378.
7. Bandura, A. (1997). Self-efficacy – The exercise of control. New York: Freeman.
8. Реана А.А. Психология детства. Учебник. СПб.: ‘‘прайм-ЕВРО-ЗНАК’’, 2003. С. 368.

Sanobar TO'RAYEVA,
A. Avloniy nomidagi milliy taqiqot instituti doktoranti

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA LUG'ATDAN FOYDALANISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Raqamlashtirish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirish bugunning dolzarb muammosidir. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarda lug'atdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishda foydalaniladigan usullar ham ular nutqini rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Darslarda o'zbek tilining, imlo, izohli va frazeologik lug'atlaridan foydalanish bolaning tilga bo'lgan sezgirligini oshiradi.

Kalit so'zlar. Imlo, izohli va frazeologik lug'atlar, darslik, topshiriq, lingvistik, audiomatn.

Развитие речи младших школьников в эпоху цифровизации является актуальной проблемой на сегодняшний день. Методы, применяемые при формировании словарного запаса учащихся на занятиях по родному языку и грамоте чтения, также являются средством развития их речи. Использование на уроках узбекского языка, орфографического, толкового и фразеологического словарей повышает чувствительность ребенка к языку.

Ключевые слова. Орфографический, толковый и фразеологический словари, учебник, задание, лингвистический, аудиотекст.

The development of speech of elementary school's students in the era of digitalization is an urgent problem today. The methods used in the formation of the vocabulary of students in the classroom in their native language and reading literacy are also a means of developing their speech. The use of the Uzbek language, spelling, explanatory and phraseological dictionaries in the lessons increases the child's sensitivity to the language.

Key words. Spelling, explanatory and phraseological dictionaries, textbook, task, linguistic, audio text.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda umumiy o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy o'quv ko'nikmalari orasida turli lug'at va ma'lumotnomalardan foydalanish ko'nikmasi muhim o'rin tutadi. Ayni paytda kishida lingvistik qiyinchiliklarini anglash va ularni lug'at yordamida hal qilishga intilish ehtiyoji, odatining mavjudligi insonning shaxsiy xususiyati, uning madaniyatlilik belgilaridan biridir. Shunday qilib, lug'atlarni o'quvchiga ta'lim berishgina emas, balki tarbiya berish vositasi ham deb hisoblash mumkin.

Hozirgi kunda yurtimizda vazifasiga ko'ra turlicha bo'lgan ko'plab lug'atlar nashr qilingan va nashr qilinmoqda. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi nafaqat imlo lug'atidan, balki izohli, so'z yasalishi, o'zlashma so'zlar, eskirgan so'zlar, sinonim, antonim, omonim, imlo va hokazo lug'atlardan foydalanishi mumkin. Biroq o'quvchi o'zidan-o'zi lug'atga murojaat qiladimi?!

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchisining qo'lida turli lug'atlar bor (Biroq

yurtimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun zarur bo‘lgan ma’nodosh, zid ma’noli, uyadosh so‘zlar, iboralar lug‘ati kabilar hali chiqarilmagan). Bu o‘rinda bolalarga uyga vazifa ham beriladi: lug‘atdan so‘zning ma’nosi (izohli lug‘at), to‘g‘ri yozilishi (imlo lug‘ati), to‘g‘ri talaffuzi (orfoepik lug‘at), har qanday iboraning ma’nosini (frazeologik lug‘at) va hokazoni aniqlash. Keyingi darsda topshiriq tekshirilib, yangi topshiriq beriladi. Shunday qilib, o‘quvchilarda lug‘at bilian ishlash ko‘nikmasi, so‘ng malakasi ham shakllanadi. Har bir darsda o‘quvchilarga lug‘at bilan ishlash uchun individual topshiriq bajarish: o‘tilgan mavzu bo‘yicha lug‘at diktanti tuzib kelishni, keyingi darsda esa o‘qituvchi rolini bajarishni tavsiya qilish mumkin. Bunday ish turi bolalarda shubhasiz qiziqish uyg‘otadi.

Buning hammasi o‘qituvchining kichik yoshli o‘quvchilarda lingvistik lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorgarlik ko‘rishini taqozo qiladi. Bu tizim uchun avvalo, lug‘atdan foydalanish ko‘nikmasining tarkibiy ishlari (operatsiyalari) bo‘lmish ko‘nikmalar sirasini belgilab olish lozim.

Lug‘atdan foydalanishga doir elementar ko‘nikmalar quyidagilar:

1. Darsliklarga yordamchi lug‘atlardan foydalanish.
2. Kirish maqolasi matnini diqqat bilan o‘qib chiqish.
3. Lug‘atning nomlanishiga qarab tavsiflanadigan til birligini aniqlash.
4. Alifboli so‘z ko‘rsatkichi bilan ishlash.
5. Lug‘at tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
6. Lug‘at maqolasi tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
7. Shartli belgilar, ramzlar, shartli qisqartmalar bilan ishlash.
8. Lug‘atlar bilan ishlashda o‘qish-qarab chiqish va o‘qish-izlashdan foydalanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi quyidagilarni bilishi (aniqlashi) kerak:

1. Lug‘atning nomini.
2. Lug‘atning muallifi, muharririni.
3. Nashriyoti va nashr qilingan yilini.
4. Lug‘atning turini.
5. Lug‘atning vazifasini.
6. Lug‘atda so‘zlarning joylashish tartibini: alifbo, uyali, mavzuviy tartibda joylashtirilganini.

Boshlang‘ich sinflarda foydalaniladigan asosiy lug‘atlardan biri izohli lug‘atdir. Izohli lug‘at bilan ishlashning asosiy vazifasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligini oshrishdir. Ma’lumki, 6-7 yoshli bolaning so‘z boyligi katta emas. Ular odatda ko‘p so‘zlarning faqat bitta, o‘z ma’nosini biladi. Ularning nutqida aniq ma’noli (narsa-buyumni bildiruvchi) so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi, mavhum ma’noli so‘zlar esa (masalan, do‘stlik, tinchlik, baxt) ancha kam. Izohli lug‘at bilan ishlashda lug‘at ishining quyidagi umumiy metodik tamoyillariga rioya qilish kerak:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8 – 10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4 – 6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirilmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirtirishi, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini

o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutqiy faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganini qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

3. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi.

1-sinfda izohli lug‘at bilan ishlashning vazifasi o‘quvchida lug‘atdan kerakli so‘zni topish va lug‘at maqolasining tuzilishini tushunish (asosan bir ma’noli so‘z-larda) ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Lug‘at maqolasini topish va sahifa raqamini aytish musobaqa, o‘yin shaklida amalga oshiriladi.

Bolalarning lug‘at maqolasini o‘zlashtirish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Masalan, chuchmoma so‘zini o‘rganishda quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Lug‘atda chuchmoma so‘zi qanday izohlangan?

2. Izohdan keyin berilgan gapni o‘qing. Bu gapdagi chuchmoma so‘zining ma’nosi izohga to‘g‘ri keladimi?

3. Tolbargak taqib qizlar,

Chuchmomalarni izlar gapining ma’nosini izohlang.

4. Chuchmoma so‘zini hid, barg, izlamoq, xushbo‘y, termoq, taqmoq so‘zlari bilan bog‘lang (chuchmoma hidi, chuchmoma bargi, chuchmoma izlamoq, xushbo‘y chuchmoma).

2-sinfda izohli lug‘at bilan ishlashning vazifasi o‘quvchida lug‘at maqolasining tuzilishini tushunish, ko‘p ma’noli va shakldosh so‘zlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Chunki, 2021-yilda yangi nashr qilingan darslikda o‘quvchilar lug‘atida mavjud bo‘lgan yangi so‘zlar juda ko‘p.

Ko‘pchilik so‘zning ma’nosi jins ma’nosini bildruvchi so‘z va tur belgilarini bildiruvchi so‘zlar orqali izohlanadi. Masalan, beqasam so‘zi lug‘atda shunday izohlanadi: Ipakdan to‘qiladigan yo‘l-yo‘l gulli pishiq gazlama. Bu izohdagi gazlama so‘zi beqasamning qaysi jinsga kirishini, ipakdan to‘qiladigan yo‘l-yo‘l gulli pishiq so‘zlari bu gazlamaning o‘ziga xos belgilarini anglatadi. Shuning uchun topshiriqlar izohdagi jins ma’nosini bildiruvchi yoki asosiy, umumlashtiruvchi va tur belgisini bildiruvchi yoki ikkinchi darajali so‘zlarni aniqlashga qaratilishi lozim. Buning uchun quyidagi topshiriqdan foydalanish mumkin:

2-topshiriq. So‘zning izohini o‘qing. Izohdagi asosiy va ikkinchi darajali so‘zlarni topib, tagiga chizing.

Shundan so‘ng mustaqil ravishda so‘z ma’nosini izohlashga o‘rgatishga o‘tish mumkin. Buning uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

3-topshiriq. (O‘quvchilarga ayrim so‘zlar yozdiriladi.) So‘zlarni izohlang. Izohingizdagi asosiy so‘z va ikkinchi darajali belgilarni ayting. Izohingizni lug‘atdan tekshiring.

4-topshiriq. Lug‘atdan so‘zlarning izohini o‘qing. Namunaga qarab berilgan so‘zlarning izohini yozing.

a) Obod – ko‘rkam binolar, chiroyli ko‘chalar, bog‘-u rog‘lar bilan go‘zallashgan. (Organizm – ...)

b) Sumalak – undirib yanchilgan bug‘doy va undan tayyorlanadigan holvaytarsimon ovqat. (Vitamin – ...).

d) Do‘l – yumaloq muz holida yog‘adigan yog‘in. (Jala – …).

5-topshiriq. So‘zning ma’nosini ma’nodosh so‘z orqali izohlang. Yozganingizni lug‘atdan tekshiring. Masalan, daromad, qizg‘anchiq. Bunda ma’nodoshi bo‘lgan har qanday so‘zni aytish mumkin.

Lug‘at bilan gap darjasida ishlaganda ko‘p ma’noli so‘zlar ishtirok etgan gaplarni tanlash kerak.

3-4-sinflarda o‘quvchilarni lug‘at bilan mustaqil ishlashga o‘rgatuvchi topshiriqlardan foydalanish lozim. Darslikda kiritilgan audiomatnlarda o‘quvchilar uchun notanish bo‘lgan so‘zlar juda ko‘p. Audiomatnlarda berilgan matnlarning aksariyati ilmiy-ommabop maqolalardan foydalanilgan. Bunda shunday topshiriqlarga misollar:

1-topshiriq. (3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi [113]dagi “Ko‘chat ekish sirlari” audiomatniga) Matnni tinglang. O‘zingiz uchun tushunarsiz so‘zlarni yozib oling. Shu so‘zlarning izohini lug‘atdan topib, daftaringizga ko‘chiring.

Izohli lug‘atdan faqat so‘z ma’nosini aniqlash emas, o‘quvchi lug‘atini faollashtirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarga ma’nosi izohlangan so‘z ishtirokida so‘z birikmasi va gap tuzdiriladi.

2-topshiriq. (3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi 121-sahifasidagi 1-topshiriq.) “Yetti xazina” audiomatnini tinglang. Undagi notanish so‘zlarni yozing. Xazina, cho‘pchak, ipak qurti, moyjuvoz, durda, pilla, tegirmon, ozuqa so‘zlarining ma’nosini lug‘atdan foydalanib izohlang. Shu so‘zlardan foydalanib gap tuzing.

Audiomatnda berilgan mazkur so‘zlar ma’nosini 3-sinf o‘quvchisi bilmaydi. Bu so‘zlar ustida lug¬‘at ishi o‘tkazilmasa, ular hatto o‘quvchining nofaol lug‘atiga ham kirmay qoladi.

3-topshiriq. 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi 132-sahifasidagi 1-topshiriqqa. Lug‘atdan foydalanib sayyora, kelajak, teleskop, sath, asar, astronom, atmosfera so‘zlarining ma’nosini izohlang.

Shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi tuzing. Foydalanish uchun so‘zlar: ulkan, porloq, lazerli, yer, sarguzasht, ziyrak, toza.

Xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin.

Kuzatishlarimiz ko‘rsatadiki, hozirgi kunda boshlang‘ich va yuqori sinflardagi ona tili va adabi¬yot darslarida lug¬‘atlardan foydalanish darajasi juda past. Bunday hodisaning sabab¬laridan biri o‘quvchilarda bolalikdan lug‘atdan foydalanish ehtiyoji va ko‘nikmasi shakllantirilmaganligidir. Shuning uchun lug‘atlar bilan ishlashni boshlang‘ich sinfdan boshlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobojonov Sh., Islomov I. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati (maktab o‘quvchilari uchun). Toshkent:‘‘Yangi asr avlodi’’, 2007 – 51 b.
2. Azimova I va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – T: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 144 b.
3. Mavlonova va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – T: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

Ilyosjon SIDDIQOV,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori

BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda tarixiy manbalar va qo‘llanmalar, tarixiy-badiiy asarlar, tarix fanini o‘qitishning ko‘rgazmali ta’lim uslubi hamda tarix ta’limining amaliy metodi, tarixga vertual sayohat qilish, tarixiy jarayonlarni ko‘rish asosida o‘rganish, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘stirish, dunyoqarashni shakllantirish, tarix fanini o‘qitish muammolariga oid ilmiy-metodik manbalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Tarix fanini o‘qitish, bo‘lajak tarix o‘qituvchilari, informatsion-analitik kompetentlik, tarix ta’limi, tarixiy manbalar, tarixiy-badiiy asarlar, ilmiy-metodik yondashuv, ko‘rgazmali ta’lim, ekskursiya, ekspeditsiya, vertual muzeylar, vertual tarixiy sayohat.

В данной статье исторические источники и пособия, историко-художественные произведения, наглядный образовательный метод обучения истории и практический метод обучения истории, виртуальное путешествие в историю, обучение на основе видения исторических процессов, взращивание знаний, умений и навыков, в развитии информационно-аналитическая компетентность будущих учителей истории, проанализированы научно-методические ресурсы, связанные с проблемами формирования мировоззрения и преподавания истории.

Ключевые слова. Преподавание истории, будущие учителя истории, информационно-аналитическая компетентность, историческое образование, исторические источники, историко-художественные произведения, научно-методический подход, наглядное образование, экскурсия, экспедиция, виртуальные музеи, виртуальный исторический тур.

In this article, historical sources and manuals, historical-artistic works, visual educational method of teaching history and practical method of history education, virtual travel to history, learning based on seeing historical processes, knowledge, skills and competences are discussed in this article for the development of informational and analytical competence of future history teachers. scientific-methodological sources related to the problems of worldview formation and history teaching were analyzed.

Key words. History teaching, future history teachers, information-analytical competence, history education, historical sources, historical-artistic works, scientific-methodical approach, visual education, excursion, expedition, virtual museums, virtual historical tour.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish, tarix ta’limiga yangi texnologik yondashuv imkoniyatlarini qo‘llash, qadriyatlar, an’analar asosida hamda ularning didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Shu yo‘nalishda tarix fanini o‘qitishda bugungi kundagi yangiliklar, o‘zgarishlar va qonunlar, zamonaviy manbalar, erishilayotgan natijalar, bo‘lib o‘tayotgan eng so‘nggi voqeliklar bilan bir qatorda tarixiy manbalardan foydalanishning pedagogik texnologiyalarini yaratish dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kiradi. Zero, “tarixiy bilim xolis asosga qurilgan va ijobiy mazmun

kasb etganda millat, birinchidan, o‘zining tarixiy ildizlarini teran anglashi, o‘tmishda ro‘y bergan jarayonlarni tahlil etish, ulardan zarur xulosalar chiqarish, real voqelikni keltirib chiqargan sabablar, omillarni chuqurroq anglash orqali ertangi kunning optimal yo‘llarini belgilash imkoniga ega bo‘lishi milliy tarixiy xotira rivojiga ta’sir ko‘rsatishiga asoslangan”.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ba’zi mamlakatlarning jadal taraqqiy etishlarining asosiy sabablaridan biri – o‘z vaqtida millat tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etib, amalga oshirganligi hisoblanadi. Shubhasiz, O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash puxta o‘ylangan ta’lim tizimi mavjud. Biroq, uni amalga oshirishning asosiy mazmuni ta’limning barcha sohalari, birinchi navbatda, tarix ta’limini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni, jumladan, tarixiy merosimizdan to‘g‘ri foydalanishni, tarixiy bilimlar orqali talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy bilimlariga doir tasavvur va tushunchalari tizimini kengaytirishni talab etadi.

Tarix fanini o‘qitish muammolariga oid ilmiy-metodik manbalarning tahlilidan shuni aytishimiz mumkinmi, bu borada turlicha qarash va yondashuvlar mavjud. Jumladan, A.Sa’diev tarix darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar sirasiga ko‘rgazmalilikka alohida e’tibor qaratadi. Bu g‘oya A.A.Vagin va P.V.Goralarning tadqiqotlarida ham ilgari surilgan, ya’ni og‘zaki bayon usuli, ko‘rgazmali ta’lim usuli, matn bilan ishlash usuli bo‘lsa, P.V. Goraning nazariyasi bo‘yicha, og‘zaki o‘qitish uslubini ikki turga bo‘lgan holda, ya’ni og‘zaki ta’lim uslubi hamda ta’limning amaliy usullari tavsiya etilgan. Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, an’anaviy tarix o‘qitish usullari orasida ko‘rgazmali ta’lim uslubi og‘zaki o‘qitish usulidan keyin eng ommaviy usul sanalar ekan. Demak, tarix o‘qitishda ko‘rgazmali ta’lim uslubi o‘qitishning, ayniqsa, tarix o‘qitishning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Bu ilmiy-metodik yondashuv tadqiq etilayotgan muammoning yechimi, tarix ta’limi sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini tavsiflaydi. Zero, axborot, ma’lumot olish jarayonida inson sezgilarining o‘rni hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xorijiy manbalarning tahliliga ko‘ra biz axborotni o‘zimizga 10 foiz – ta’m bilish – og‘izda, bezlar orqali, 1.3 foiz – hid sezish – burun orqali, 3.5 foiz – tana bilish – teri sezgisi orqali, 11 foiz – eshitish – quloq orqali, 83 foiz – ko‘rish – ko‘z orqali qabul qilar ekanmiz. Xitoyliklarda “Men eshitaman va unutaman, men ko‘raman va tushunaman, men bajaraman va xotiramga keltiraman” – degan naql mavjud ekan. Bu bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan tarix ta’limining vizual imkoniyatlaridan oqilona foydalanish muhim ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi. Zero, biz materiallarni sezgi organlarimiz orqali idrok etamiz hamda faoliyat vositasida o‘zlashtiramiz. Shu dalillarga asoslanib, tarix ta’limida tarixiy asarlaridan foydalanib, ta’lim samaradorligini oshirish uchun ish samaradorligini shu ko‘rinishda taqdim etish mumkin. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish haqida gap borganda, tarixiy-badiiy asarlarga murojaat etmaslik mumkin emas. Mazkur fikrni A.Ibrohimovning “Bizkim o‘zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar” risolasida ta’kidlab o‘tganidek, “To‘g‘ri, tarix fani manbalarga tayangan holda aniq dalillar bilan o‘tmish voqeligini bayon qiladi. Biroq gap inson dunyoqarashini shakllantirish haqida ketar ekan, bunga erishish ilmiy adabiyotlardan ko‘ra, yozuvchi O. Balzak asarlarida aniqroq tasvirlangani e’tirofli bo‘lganini misol qilib keltirish mumkin. Ana shu sababli bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda badiiy adabiyotlarga ham e’tiborsizlik bilan qarab bo‘lmaydi. Chinakam ma’nodagi tarixiy-badiiy asarlar aniq tarixiy voqeliklarni chuqur mulohaza qilgan holda yoziladi. Faqat badiiy asarga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqqan holda, to‘qima obrazlar kiritilishi mumkin. Masalan, tarix ta’limida “O‘rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi” mavzusini o‘rganishda yozuvchi Yavdat Ilyosovning “So‘g‘diyona” romani bilan tanishish orqali talaba tarixiy voqelik to‘g‘risida kengroq tasavvurga ega bo‘lishi

mumkin. Romanni o‘qish orqali talabada Vatan ozodligi uchun kurashgan jasorat sohibi Spitamenning qahramona kurashi tasviri asosida harbiy vatanparvarlik tuyg‘usi yana-da, rivojlanadi.

Shuningdek, jahon tarixini o‘rganish jarayonida talabalar o‘rta asrlar davlatlarida amalga oshirilgan urushlar va qo‘zg‘olonlar bilan tanishib borishar ekan, ularning ongida “Nega o‘rta asrlarda va umuman insoniyat tarixida bunchalik urushlar ko‘p bo‘lgan ekan?!” degan savol tug‘iladi. O‘qituvchi mazkur savolga javob berishda O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida keltirilgan quyidagi qatradan javob sifatida foydalanishi mumkin: “Insoniyat tarixi – urushlar tarixidan iborat. Ertaklarda – urush. Dostonlarda – urush. Kitoblarda – urush. Kinolarda – urush... Tabaqalar urushi. Fuqarolar urushi. Mamlakatlar urushi. Jahon urushi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda so‘nggi olti ming yil ichida Yer kurrasida 5700 marta urush bo‘lgan ekan. (Mayda-chuyda qabilalar janjali bu hisobga kirmaydi)..” .

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirishda quyidagi ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar hal qilinsagina erishish mumkin:

– tarixiylikni tarbiyalash – talabalar o‘tmish va bugungi kunga oid voqealarni bir-biriga bog‘liq holda tushunish va baholash, ijodiy fikrlash, ilmiy obyektivlikka intilish, mamlakat bo‘ylab va butun jahon tarixiy asarlarni, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish, tarixiy manbalarni mustaqil o‘rganish asosida shaxsiy xulosalar chiqarishga intilish;

– talabalarda tarixdagi muammolarni anglab yetish qobiliyatlarini hosil qilish, oliy ta’limda tarixni o‘rganish, talabalarda tarixiy voqea va shaxslarga ma’naviy baho berish kompetentsiyasini hosil qilish;

– O‘zbekistonning madaniy boyliklari, xalqimizning ijtimoiy-diniy an’analari, tarixiy va madaniy yodgorliklarni targ‘ib qiladigan va ulardan faxrlanadigan, qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilishda faol qatnashadigan vatanparvarlarni tarbiyalash;

– turli mamlakat va xalqlarning tarixini biladigan, boshqa millatlarning madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan, xalqlarning o‘zaro madaniy ta’siri va o‘zaro munosabatining progressiv ahamiyatini tushunadigan e’tiqodli baynalminalchilarni millatlararo muomala madaniyati sohiblarini tarbiyalash va boshqalar.

Bugungi kunda yoshlarga zamonaviy uskunalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash hamda ulardan maksimal darajada foyda olishni o‘rgatish, shu bilan birga reallik, virtuallik tushunchalarini to‘g‘ri talqin qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta’limda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining samaradorligini ta’minlashda fanlarni oldindan muvofiqlashtirib amaliy mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, safarlar, ekspeditsiyalar bilan mujassamlashtirgan holda o‘tilishi tarixiy dunyoqarashni o‘stirish, tarixiy haqiqatlarni ilg‘ab olish imkoniyatini ortiradi. Bu o‘rinda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida axboriy-analitik tafakkurni rivojlantirishda tarixga vertual sayohat qilish, turli axborot texnologiyalari vositasida vertual muzeylarga, tarixiy obidalarni, jarayonlarni, davrlarni modellashtirish orqali sayohat qilishning ahamiyati kattadir. Mazkur jarayonda vertual tarixiy muzeylarning samaradorligi yuqori hisoblanadi. Muzeylar ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘chog‘i bo‘lib, moddiy va ma’naviy buyumlar to‘plami orqali ilmiy, tarixiy, madaniy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazuvchi markaz hisoblanadi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishda vertual tarixiy sayohatlarni tashkil etishga qaratilgan pedagogik jarayonning mavjud holati va muammolari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, oliy ta’lim muassasasi o‘zining ta’lim va ta’limdan tashqari faoliyatini,

pedagogik amaliyotlarni tashkil etishda virtual tarixiy sayohatlarni tashkil etish bilan bog‘lash amaliyotini ishlab chiqishi talab etiladi. Buning uchun pedagogik jarayonda ta’lim sifatini oshirishga harakat qilish bilan birga madaniy va ko‘ngilochar loyihalarni yo‘lga qo‘yishga ham talab etiladi. Oliy ta’lim aslida talabalarni hayotga tayyorlash va ularga turli sohalarda o‘zini sinab ko‘rishi va ichki iqtidorini namoyon qilishi uchun imkoniyat beruvchi dargoh hisoblanadi. Ta’lim muassasasi talabalarni yillar davomida o‘qitish, bilimini oshirish bilan birga ularni turli faoliyat turlariga yo‘naltirishi, o‘z istaklariga erishishga yordamlashishi lozim. Biroq bugungi O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimi juda tor maqsad yo‘lida harakat qiladi. Talabalarni ma’lum bir axborotlar bazasini yodlatish, intizomli va itoatkor qilib tarbiyalashga urinadi. Shuning uchun ham oliy ta’lim bitiruvchilari bilimli bo‘lishgani bilan kreativ, vaziyatga moslashuvchan, yangicha fikrlovchi, inforapmuion-analitik kompetentligi yuqori kadr bo‘la olmaydi. Ular topshiriqni to‘g‘ri, aniq va o‘z vaqtida bajaruvchi yordamchi bo‘lishlari mumkin, lekin ulardan innovatorlar chiqmaydi. Shu bois bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni novator shaxslar sifatida tarbiyalashda vertual tarixiy sayohatlarni tashkil etishning o‘rni yuqori hisoblanadi. Chunki vertual tarixiy sayohatlar talabani qayta kashf qilishga, o‘zini anglashga kuchli turtki beradi. Shu bilan birga turistik faoliyat bilan shug‘ullanish ishtiyoqini shakllantiradi.

Ikkinchidan, OTMlarda talabalarni virtual tarixiy sayohatlarga yo‘naltirishning eng samarali yo‘li sifatida virtual muzeylar va ularning pedagogik imkoniyatlari baholanmoqda. Biroq oliy ta’limda vertual muzeylardan foydalanish yoki virtual muzeylarga sayohat uyushtirish ishlari qariyb yo‘lga qo‘yilmagan. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini vertual tarixiy sayohatlarni tashkil etish amaliyoti yoki boshqa o‘quv jarayonida shakllanib boradi. O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan tarix, tabiat yoki texnika-texnologiyalar bilan bog‘liq muzeylar faoliyati tabiiyki, qaysidir oliy ta’lim muassasalari faoliyati bilan bog‘langan. Shu bois, virtual tarixiy sayohatlarni tashkil etish talab etiladi. Shu bois muzey pedagogikasida kuchli notiq, shu sohaning bilimdoni va ijodkor shaxs faoliyatida foydalanish lozim.

Uchinchidan, oliy ta’lim tizimida talabaga ilm berishning yangicha metodologiyasidan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Passiv tinglovchi sifatida o‘qib-o‘rganish, bilim olish, darslik va adabiyotlargagina bog‘lanib qolmasdan ularni real hayotiy vaziyatlar, sohada bo‘layotgan o‘zgarishlar va kamchiliklar, innovatsiya qilish kerak bo‘lgan jihatlar bilan tanishtirish, ko‘rish imkonini berish yuqori samara beradi. Chunki ilm bilan amaliyotni bog‘lash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Buning uchun muzey pedagogikasi muhim ahamiyatga ega. Chunki virtual muzeylar ma’lum bir sohaning genezisi, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini ko‘rsatib berishga, ularning ko‘rish, anglash va his etishga imkon beradigan dargoh hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish maqsad va vazifalari, o‘qitish mazmuni, talabalarning bilish imkoniyatlarini kutiladigan natijaga mos ravishda loyihalash va rejalashtirish mazkur jarayonning metodik jihatdan samaradorligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 26-30 b.
2. Ibrohimov A. Bizkim, o‘zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. – T.: Sharq, 1999. – 8 b.
3. Ilyosov Ya. So‘g‘diyona. – T.: Sharq, 1994. – 330 b.

Shahlo TOSHPULATOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1-kurs doktoranti dotsent

BO‘LAJAK FIZIKA FANI O‘QITUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning kvalimetrik tahlili tushunchalar va xulosalash metodlari yordamida o‘qitish metodikasi tahlil etilgan. Fizika o‘qitish metodikasi fani bo‘yicha ilmiy-nazariy o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq muammolar hamda ularning ilmiy-uslubiy yechimlari bo‘yicha mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Talaba, mantiqiy fikrlash, kompetensiya, xulosalash, tushunchalar, ta’lim samaradorligi, fizika, muammolar, yechimlar.

В данной статье рассматривается качественный анализ развития компетенции логического мышления учащихся с использованием методов обучения с помощью понятий и методов вывода. Описаны проблемы, связанные с научно-теоретической спецификой методики преподавания физики, и их научно-методические решения.

Ключевые слова. Студент, логическое мышление, компетентность, умозаключение, понятия, эффективность обучения, физика, задачи, решения.


This article examines the qualitative analysis of the development of the competence of logical thinking of students using teaching methods using concepts and methods of inference. The problems related to the scientific and theoretical specifics of the methods of teaching physics and their scientific and methodological solutions are described.

Key words. Student, logical thinking, competence, inference, concepts, learning effectiveness, physics, issues, solutions.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohatlar zamirida ta’lim tizimi sifatini oshirish bilan birga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ustuvor masalaga alohida berilmoqda. Prezidentimiz ta’birlari bilan aytganda “najot ilmda” ekanligini har birimiz anglamoqdamiz. Shunday ekan, pedagogika oliy o‘quv yurtlari oldida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion yondashuvga asoslanishi muhimligi ko‘rsatib o‘tildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 24-mayda O‘zbekiston Respublikasi Milliy universitetida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ilm-fanning mamlakat rivojidagi ahamiyatini “Ilmni, tarbiyani to‘g‘ri hal qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi” so‘zlari bilan alohida ta’kidlagan edi. Buning natijasi o‘laroq, oxirgi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko‘ra bilishi va bevosita tashabbuskorligi hamda faolligi tufayli O‘zbekistonimiz xalqaro hamkorlikning zamonaviy va raqobatbardosh ishtirokchisiga aylandi. Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2020-yil 6-noyabrda “O‘zbekistonning

yangi taraqqiyoti davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884 sonli Qarori qabul qilindi, Farmon va qarorda belgilangan vazifalardan biri xalqaro mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatnardosh metodist kadrlarni tayyorlash vazifasi ko‘zda tutilgan edi.

I.Xulosalash metodi. Metodning maqsadi: bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda talabalarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.



Masalan: Ishqalanish kuchi

Afzalligi (Foydaliligi): Ishqalanish kuchi sabab biz muvozanat holda tura olamiz va yiqilmasgan yura olamiz. Ishqalanish kuchi sabab avtomashinalar yo‘llarda sirpanmasdan harakatlanadi. Ishqalanish kuchini kamaytirish orqali ichki mexanizmlarni bir biri sirtida erkin harakatlana oladi bu esa jismlarning tezligini oshiradi va energiyasini tejaydi.

Kamchiligi (Zarari): Ishqalanish kuchi ortib ketishi natijasida barcha jismlarning harakatlanishi qiyinlashadi, Ishqalanish kuchini oshishi ichki mexanizmlarni bir biri sirtida erkin harakatlana olishini qiyinlashtiradi bu esa jismlarning tezligini kamayishiga va energiyasini isrof bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa: Ishqalanish kuchini oshirish va kamaytirish sharoitga qarab amalga oshiriladi. Qishda avtomobillar yo‘llarda sirpanmasligi sabab uni oshirish kerak. Ichki

mexanizmlarda esa ishqalanish kuchini oshirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, buni oldini olish uchun turli xil moylardan foydalaniladi. Ishqalanish kuchini vaziyatga qarab katta yoki kichik qiymatlarga erishish maqsadga muvofiqdir.

II.“Tushunchalar” metodi. Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

•ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

•talabalarga mavzuga yoki bobga tegishli bo’lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

•talabalar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

•belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o’‘qib eshittiradi.

•har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Masalan: Tushuncha. Diffuziya

Bu tushunchalar qanday ma’noni anglatadi: Molekulalarning o‘z-o‘zidan bir-biriga qo‘shilishi.

Qo‘shimcha ma’lumot: Molekulalarning uzluksiz va tartibsiz harakati natijasida paydo bo‘ladi. Temperatura oshsa diffuziya tezligi oshadi. Gazlarda diffuziya hodisasi tez kechadi, suyuqliklarda sekinroq kechadi, qattiq jismlarda esa juda ham sekin bo‘ladi, sababi qattiq jismlarning molekulalari zich joylashgan.

Tushuncha: Kuch

Bu tushunchalar qanday ma’noni anglatadi: Jismlarni o‘zaro ta’siri.

Qo‘shimcha ma’lumot: Kuch jismlarning o‘zaro ta’siri natijasida paydo bo‘ladi. Kuch jismlarni harakatga keltiradi. Harakatlanish natijasida jismlar tezlik oladi. Tezligini o‘zgartirishi natijasida tezlanishga ega bo‘ladi.

Tushuncha: Bosim

Bu tushunchalar qanday ma’noni anglatadi: Yuza birligiga ta’sir etuvchi kuch, birlik yuzaga kuch ning ta’siri natijasida paydo bo‘ladi.

Qo‘shimcha ma’lumot: : Binolarni qurish vaqtida bosimni kamaytirish uchun poydevor keng qilinadi. Bosimni oshirish uchun esa anjomlar uchli qilib yasaladi.

Yuqoridagi metodlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘quv maqsadlarining uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion metodlarni kvalimetrik tahlili qilish orqali tabiat hodisalarining mantiqiy ketma-ketligini, ayniqsa, fikrlash va umumlashtirishni bajara oladigan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini fizika darslarida shakllantirish uchun ularning aqliy operatsiyalar: analiz va sintez kabilardan tafakkur jarayonida foydalanishga o‘rgatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuradova G.I., Maxmanov E.B. “Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarni fizikadan mantiqiy masalalar yechishga o‘rgatish” Samarqand DU 2019-yil.

2. Rasulov E.N., Begimqulov U.Sh. Kvant fizikasi I qism “Fan”. 2006.

3. Raximov I. Logikadan amaliy mashg‘ulotlar va metodik tavsiyalar. T.: “O‘qituvchi’’

Gulnoza NAFASOVA,
Guliston davlat universiteti stajyor tadqiqodchisi

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING MANTIQIY MASALALAR YECHISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika darslarida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, tezkor fikrlash, aqliy va intellektual qobiliyatlarini o‘stirishda mantiqiy masalalardan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Mantiqiy kompetentlik, mantiqiy yondashuv, tafakkur, algoritm, matematik savodxonlik, mantiqiy masalalar.

В данной статье показано значение использования логических задач на уроках физики в развитии логической компетентности, формировании научного мировоззрения, развитии сообразительности, умственных и интеллектуальных способностей будущих учителей физики.

Ключевые слова. Логическая компетентность, логический подход, мышление, алгоритм, математическая грамотность, логические вопросы.

This article shows the importance of using logical problems in physics lessons in the development of logical competence, the formation of a scientific worldview, the development of intelligence, mental and intellectual abilities of future physics teachers.


Key words. Logical competence, logical approach, thought, algorithm, mathematical literacy, logical questions.

Oliy ta’lim muasasalarida fizika fanidan bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojtirish o‘z navbatida talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, fizik hodisa va qonuniyatlarni mohiyatini chuqur mushohada yuritish orqali anglab yetishga olib keladi, talabalar faolligini oshirish va fanga qiziqishlarini shakllantirish hamda hisoblash ishlarini bajarishda masalalar yechishning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Oliy ta’lim tizimi fizika o‘qitish jarayonida bo‘lajak fizika o‘qituvchilariga fizik hodisa, qonun va qonuniyatlarni, tushuncha va kattaliklar haqida yangi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlashda to‘g‘ri fikrlash qonunlariga o‘rgatish va bular orqali haqiqiy(rost) xulosaga erishish masalasini, bu haqiqiylikdan chetga chiqmaslik yo‘llariga ko‘nikma hosil qilish orqali tabiat hodisalarini chuqurroq o‘rganish va tahlil qila olishga o‘rgatishda mantiqiy masalalardan foydalanish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Fizika fanida mantiqiy masalalar talabalarga tabiat hodisalarini, mexanikaviy, elektromagnetizm, optika, kvant fizikasiga oid bilimlar mazmunini ochib berish, fizik tushunchalarni induksiya va deduksiya metodlari orqali o‘rganishda to‘g‘ri fikrlash, haqiqatni bilish, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatadigan qonun-qoidalar haqida mushohada yuritishga va muhokama qilishga o‘rgatadi. Mantiq – to‘gri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Kelib chiqishiga ko‘ra, arabcha bo‘lgan “mantiq” (grekcha logika-logos) atamasi “tushuncha”, “so‘z”, “aql”, “qonuniyat” kabi ma’nolarga ega. Mantiq tafakkur qonunlari va formalarini, bilimni rivojlantirish va ilmiy bilish tizimlarini tuzish usullarini

tadqiq qiluvchi fan.

V.V.Sergeev tomonidan “Fizikadan masalalar yechishda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish”, G.G.Ruzavin “Ilmiy nazariya: mantiqiy uslubiy tahlil” ilmiy tadqiqot ishlarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga oid fikrlar bayon etilgan. Mantiqqa oid dastlabki fikrlar qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Qadimgi grek falsafasida mantiq masalalari dastlab Parmenidning “Tabiat to‘grisida” asarida, Eleylik Zenonning aporiyalarida, Geraklit ta’limotida u yoki bu darajada ko‘rib chiqilgan. Aristotel mantiqni “ma’lum bilimlardan noma’lum bilimlarni aniqlovchi“, “chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi”fan sifatida ta’riflaydi1. Aristotelning mantiqiy ta’limotida xulosa chiqarish yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘rta Osiyoda mantiqiy ta’limotlarning rivojlanishi Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Beruniy va boshqa progressiv mutafakkirlar dunyoqarashini shakllanishida bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Fizikadan mantiqiy masalalarni hal qilish muammoning holatini batafsil tahlil qilish, qonuniyat, tushuncha va kattaliklar, belgilar yoki obyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni, umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni, qaramaqarshi aloqalarni ajratib olishdan iborat. Talabalar uchun mantiqiy vazifalar, qoida tariqasida, mashhur fizik olimlar hayoti bilan bog‘liq barcha voqealar: masalan, Arximed, Nyuton yoki Eynshteynning topqirligi, daholigi, ya’ni biz fikrlay olmaydigan va hatto tasavvur qilmaydigan jarayonlarni seza olganligi, fikrlay olgan va qonunlarni yarata olgan bunda shohning tojini yasashda qancha oltin ketganligini hisoblashdagi jarayon Arximedning “Evrika” deb yuborishi, Nyutonning boshiga olmaning tushib ketishi “Butun olam tortishish qonuni”ning kashf etilishiga odatlanib qolingan, demak, mantiqiy masalani yechishda vaziyatni his qilish, uni vizual ravishda ko‘rish va aloqani ushlash kerak.



1-rasm. ***Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishda foydalaniladigan metod.***

Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:(1-rasmga qarang)

Fizika o‘qituvchilarining dars ishlanmalarida mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan masalalarning qo‘yilishiga e‘tibor qaratiladi.

Fizika darslarida nafaqat talaba yoki bo‘lajak fizika o‘qituvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham qiziqarli bo‘lgan mantiqiy masalalarni tanlash mumkin. Dars mashg‘ulotlarida mantiqiy masalalardan foydalanishda tavsiyalar 2-rasmda berilgan:

masala tanlash

• o‘quvchining yoshi va rivojlanishiga mos ravishda mantiqiy vazifalarni tanlang.

jarayonni kuzatish

• javobni berishga shoshilmang, o‘quvchining o‘zi mantiqiy muammoning yechimini topsin.

to‘g‘ri javob uchun yo‘nalish berish

• mantiq bo‘yicha muammolarni yechishda, savollarni va aks ettirish yo‘nalishini ko‘rsatuvchi bilvosita ko‘rsatmalar qabul qilinadi.

to‘g‘ri javobni tushuntirish

• masalaning fizik mohiyatini real misollar bilan ochib beriladi, ilmiy asoslanadi.

2-rasm. ***Dars mashg‘ulotlarida mantiqiy masalalardan foydalanishda tavsiyalar***

Quyida fizika darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan ba’zi mantiqiy masalalardan namunalar keltiramiz.

1. Masala:1kg paxta o‘g‘irmi, 1kg tosh og‘irmi?

Javob:1kg paxta og‘ir. Havoda paxtaning hajmi toshga qaraganda kattaroq bo‘lgani uchun paxtaga ko‘proq Arximed kuchi ta’sir qiladi. Tarozida olchaganda biz buyumning haqiqiy og‘irligini emas og‘irlik kuchi va Arximed kuchini ayirmasini o‘lchaymiz.

2. Masala: Sizning qo‘lingizda ikkita mutlaqo bir-biriga o‘xshash metal silindr bor, ulardan biri magnit. Boshqa obyektlar bilan aloqa qilmasdan, ikki silindrning qaysi biri magnitlangan ekanligini qanday aniqlash mumkin?

Javob: Magnitning shimoliy va janubiy qutblarida magnit kuchlanishning maksimal qiymati mavjud. Bizning holatda magnit kuchlanishning maksimal qiymati silindrning uchlarida kuzatiladi. Magnitning o‘rtasiga yaqinlashganda, magnitlanish zaiflashadi, juda o‘rtada, uning kattaligi nolga teng. Shunday qilib, agar “T” shaklidagi ulanish amalga oshirilsa, silindrlar bir-biriga yopishib qolsa, u holda uning uchi bilan aloqa qiladigan silindr magnitlangan bo‘ladi.

3. Masala:Tirnab cholinadigan Cholg‘u asboblarining tovush balandligi issiq haroratda va sovuq haroratdami bir xilmi?

Javob. Sovuqda balandroq eshitiladi, chunki tovush balandligi chastotaga bog‘liq, chastota esa uzunlikka teskari proporsional. Jismlar sovuqda torayadi issiqdan kengayadi.

4. Masala: Ingichka simning diametrini aniqlash.

Qanday qilib faqat chizg‘ich va qalam yordamida ingichka simning diametrini maksimal aniqlik bilan o‘lchash mumkin?

Javob: simni qalamga mahkam o‘rash (dumaloq, qirrasiz) va kamida o‘nta burilish qilish kerak (o‘lchash qanchalik aniq bo‘lsa shuncha yaxshi.). Keyin chizg‘ich bilan birinchi aylanadan oxirgi aylanagacha millimetrda o‘lchang va hosil qilingan aylanalar soniga bo‘ling.

5. Masala: Qanday qilib faqat suv yordamida yerning shimoliy yoki janubiy qutubida ekanligini aniqlash mumkin?

Javob. Suvni kanalizatsiya quvuriga oqizib. Kaloris kuchlari tufayli shimoliy va janubiy qutblarda mos ravishda soat strelkasi bo‘ylab yoki unga qarshi harakatlanib

oqib ketadi.

6. Masala: Stakandagi suv.

Ushbu tajribani bajarishga harakat qiling: Toza stakanni suv bilan to‘ldiring va talabalar bilan stakanda hali ko‘p bo‘sh joy borligi haqida bahslashing. Albatta, ular sizga ishonmaydilar, lekin siz suvga tegmasdan ehtiyotkorlik va diqqat bilan tangalarni stakanga birin-ketin tashlab yuboring. Va stakandan suv to‘kilmaydi siz hali ham joy borligini isbotlaysiz! Nega bunday?

Javob: Agar stakanga yon tomondan qarasangiz, tangalarni tushurganda uning yuzasi tubi bilan qanday shishishini ko‘rasiz: suv to‘kilmaydi, chunki u sirt taranglik kuchi “plyonka”sida ushlab turiladi.

7. Masala: Kunning uzunligi. Kun qachon qisqa: qishdami yoki yozda?

Javob: Kun har doim 24 soatdan iborat bo‘ladi.

8. Masala: Tarozi yordamida qanday jismlarning massasini o‘lchab bo‘lmaydi?

Javob. Elektron, praton,neytron shu kabi kichik jismlar.

Mantiqiy vazifalar bo‘lajak fizika o‘qituvchilarda, talabalarda, ehtimol kattalarda ham mantiq va fikrlashni rivojlantirish uchun eng samarali vositadir. Mantiq muammosini hal qilish murakkab fikr jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu ma’lum mantiqiy harakatlar ketma-ketligini bajarilishi, tushunchalar bilan ishlash, har xil mantiqiy konstruktsiyalardan foydalanish, oraliq va yakuniy xulosalar bilan aniq va to‘g‘ri fikrlash zanjirining tuzilishiga imkon beradi. Ko‘pgina matematik va boshqa turdagi muammolardan farqli o‘laroq, mantiqiy muammolarni hal qilishda asosiy narsa obyektning miqdoriy xususiyatlarini topish emas, balki muammoning barcha obyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash va tahlil qilishdir.

Mantiqiy muammolarni hal qilishning ma’lum usullari mavjud:

Mantiqiy mushohada yuritish usuli – eng oddiy mantiqiy vazifalar hal etiladi. Ushbu usul eng sodda usul hisoblanadi. Yechish jarayonida muammoning barcha shartlarini ketma-ket hisobga oladigan, boqichma-bosqich xulosaga va to‘g‘ri javobga olib keladigan fikrlash usuli qo‘llaniladi.

Jadval-diagramma usuli – matnli mantiqiy muammolarni yechishda ishlatiladi. mantiqiy muammolarni hal qilish muammoning holatini tasavvur qilish, fikrlash jarayonini boshqarish va to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarishga yordam beradigan jadvallarni tuzishdan iborat.


Grafiklar-chizmalar usuli – masalalar yechimlarining saralash orqali yagona to‘g‘ri yechimga kelish.

Blok-sxema usuli– bu dasturlashda va mantiqiy masalalarni yechishda tatbiq qilinadigan usul. Dastlab blok-sxemalar ketma-ketligi ko‘rinishida operatsiyalar (buyruqlar) ajratilganligi, undan keyin ushbu buyruqlarning bajarilish tartibi belgilanadi. Bu blok-sxema ko‘rinishdagi dastur bo‘lib, uni amalga oshirish vazifani yechimiga olib keladi. Fizikada “O‘zgarmas tok qonunlari”ga doir masalalarni yechishda, umumiy qarshiliklarni topishdagi ekvivalent sxemalarni chizishda keng qo‘llaniladi.

Bilyard sharchalari usul – traektoriya nazariyasidan kelib chiqadi (ehtimollik nazariyasining bo‘limlaridan biri). Muammoni hal qilish uchun bilyard stolini chizish va har xil yo‘llar bo‘ylab bilyard to‘pining harakatlari bilan izohlash kerak. Bunday holda, mumkin bo‘lgan natijalar to‘g’risidagi yozuvlarni alohida jadvalda saqlash kerak.

Ushbu usullarning har biri turli sohalardagi mantiqiy muammolarni yechishda qo‘llaniladi.

Mantiqiy masalani hal qilishni o‘ziga xos strategiyasini qo‘yidagi besh bosqichlar bo‘yicha umumlashtirish mumkin (3-rasmga qarang).



3-rasm. ***Mantiqiy masalani hal qilish strategiyasi bosqichlari.***

Har bir bosqichda foydalanadigan bilim va fikrlash jarayonlari talabalarning iqtidoriga bog‘liq bo‘ladi. Fizikaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, biz mantiqiy masalalarni hal qilishning umumiy strategiyasining besh bosqichini quyidagicha belgilash va izohlashni tanlaymiz:

1. Masalaning mohiyatiga e’tiborni qaratish va tushunish. Ushbu bosqichda masalaning mantiqiy tavsifini ishlab chiqish, birinchidan, eskiz yordamida muammoda tasvirlangan hodisalarni tasavvur qilish, o‘zingiz bilmoqchi bo‘lgan narsaning oddiy bayonini yozish, muammoda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan fizikaviy g‘oyalarini eslash va foydalanadigan yondashuvni tasvirlab berish lozim.

2. Masalaning tub mohiyatini tashkil etuvchi fizikaviy qonuniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘likliqlarni tavsiflash. Ushbu bosqichda mantiqiy yechimga tayyorlanish uchun muammoni to‘g‘ri tushunish, birinchidan, masalaning mohiyatini fizikaviy o‘zaro ta’sirlar, tabiat hodisalari va zarur tushunchalar, miqdorlar nuqtai nazaridan diagramma bilan tavsiflash orqali soddalashtirish, muayyan matematik parametrlarga nom berish orqali topmoqchi bo‘lgan kattaliklarni qayta eslash, 1-bosqichda yig‘ilgan fizikaviy g‘oyalardan foydalanib, fizik yoki matematik printsiplarga muvofiq ushbu fizik miqdorlarning qanday bog‘liqligini ko‘rsatadigan ifodani yozish kerak.

3. Yechimni rejalashtirish: Ushbu bosqichda mantiqiy fikrlashni tavsifini 2-bosqichda yig‘ilgan g‘oyalar va takliflardan foydalanib, muammoni matematik ravishda tasvirlovchi ifodalar to‘plamiga aylantirasiz, ular qanday yechim topishini ko‘rish uchun rejani yozish kerak.

4. Rejani bajarish: Ushbu bosqichda rejalashtirish, avvalgi g‘oya va takliflar ichidan maqbulini aniqlash uchun rejalashtirilgan tarzda birlashtirish, keyin ma’lum bo‘lgan barcha kattaliklarni bir-biri bilan bog‘lash, kerakli noma’lum (maqsad) miqdorning raqamli qiymatini aniqlash kerak.

5. Yechimni izohlash va baholash: nihoyat, berilgan savolga haqiqatan ham to‘g‘ri, oqilona javob berilganligini tekshirish, natijani esa baholash lozim. Har bir qadamni oldingi bosqichni biroz boshqa tilga tarjima qilish sifatida ko‘rib chiqish, haqiqiy obyektlarning o‘zaro ta’sirini to‘liq va mantiqiy fikrlash asosida boshlash va

bir qator qadamlar bilan sodda va aniq, to‘g‘ri natijaga erishiladi. Xilma-xil mantiqiy masalalarning yechimini izlash jarayonida talabalar ko‘pincha jamoa orasidan sevimli juftlikni tanlaydilar va masalaning yechimiga o‘zlarini bag‘ishlaydilar. Mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish natijasida nostandart fikrlashni rivojlantirish bilan bir qatorda, aqliy operatsiyalarning barcha turlari faollashadi va ijodiy, innovatsion fikrlash rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari.

Shunday qilib, fizika darslarida sifatiy, miqdoriy, eksperimental va grafik masalalar bilan bir qatorda mantiqiy masalalardan foydalanish:

– bo‘lajak fizika o‘qituvchilarning muommoni yechimni topish uchun fikrlar zanjiri ketma-ketligini to‘g‘ri tuzishga, tezkor va aqliy fikrlashga, hukm yoki xulosani qat’iy qilib qo‘yishga o‘rgatadi;

– o‘qituvchi ma’ruza darslarida mantiqiy masaladan foydalanish orqali talabalar diqqatini o‘ziga yig‘ib oladi, aqliy fikrlashga undaydi, darslarni qiziqarli va jozibali o‘tkazilishiga erishadi;

– talabalar kelgusi darslarda masalani yechimini topib kelishga harakat qiladi, talabalar o‘rtasida o‘zaro fikr almashish jarayoni kechadi, talabalar darslarni e’tibor bilan tinglaydi va o‘qituvchidan navbatdagi beriladigan mantiqiy masalaning qo‘yilishini kutadi, bu esa o‘z navbatida, fizika darslarining samaradorligini oshishiga va talabalarning intelektual qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

– talabalarda innovatsion g‘oya va qarashlar tug‘iladi, fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari bilan tanishadilar.

XULOSA. 1. Fizika fanidan mantiqiy masalalarni yechishga o‘rgatish samaradorligi, ularni qiyosiy tahlili orqali aniqlanadi.

2. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarida–yangi bilimlarni berish jarayonida maqsadida mantiqiy masalalar beriladi va ko‘nikma hosil bo‘lguncha o‘qituvchi tomonidan talabalarning guruh miqyosida o‘zaro fikr yuritishlari, tahlil qilishlari yo‘naltirib turiladi.

3. Mustaqil ishlar tariqasida individual va guruhiy yechishga mo‘ljallangan mantiqiy masalalar taklif etiladi.

4. Dastlab soddaroq, algoritmik usul asosida yechiladigan masalalar taklif etiladi, aks holda talabalarda o‘z kuchiga ishonmaslik va hatto shu fandan bezdirish hollari kuzatiladi, talabalarga ko‘nikma hosil bo‘lgach, murakkabroq tipdagi masalalar taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2004.

2. Raximov I. Logikadan amaliy mashg‘ulotlar va metodik tavsiyalar. – T.: “O‘qituvchi”, 1988.

3. Ruzavin G.I. Nauchnaya teoriya: logiko metodologicheskiy analiz. M.: “Mûsl” 1978.

4. https://logiclike.com/

5. Ishmuradova G.I., Maxmanov E.B. “Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarni fizikadan mantiqiy masalalar yechishga o‘rgatish” Samarqand DU 2019-yil.

6. Rasulov E.N., Begimqulov U.Sh. Kvant fizikasi I qism “Fan”. 2006. 16-78 bet.

O.A. KASIMOVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATIDA IMPROVIZATSIYA KO‘NIKMALARINING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya kompetensiyasi, ta’lim tizimidagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyati, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida improvizatsiyani amalga oshirish yo‘llari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, improvizatsiya, pedagogik improvizatsiya, improvizatsiya xarakteri, pedagogik muloqot, pedagogik ijodkorlik, ijodkorlik, improvizatsiya mezonlari.

В данной статье говорится о компетенции педагогической импровизации, значении педагогической импровизации в системе образования, способах реализации импровизации в работе будущего учителя начальных классов.

Ключевые слова. Начальная школа, импровизация, педагогическая импровизация, характер импровизации, педагогическое общение, педагогическое творчество, креативность, критерии импровизации.

This article talks about the competence of pedagogical improvisation, the importance of pedagogical improvisation in the educational system, ways to implement improvisation in the work of a future primary school teacher.

Key words. Elementary school, improvisation, pedagogical improvisation, character of improvisation, pedagogical communication, pedagogical creativity, creativity, criteria of improvisation.

Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi, o‘z kasbini sevishi, bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqat o‘qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki, uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi, faqat o‘qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan fanlarni chuqur bilishi zarur.

Ma’lumki, inson oldida biror muammo turgandagina, ijodkorlikka ehtiyoj tug‘iladi. O‘qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va tajribasidir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda, biz o‘qituvchining o‘z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasida yangi, samarali yo‘l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o‘quvchiga yetkaza olish va nihoyat o‘quvchini ham ijodiy fikrlashga, ilmiy-tadqiqot ishlariga o‘rgata olishni Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O‘qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida buyuk mutafakkirlar, olimlar asarlarini to‘playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o‘zining amaliy faoliyatida, foydalanish jarayonida hozirgi

zamon o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi. Pedagogik tajriba o‘qituvchining o‘quv ishlari jarayonida egallaydigan bilimi va ko‘nikmalari yig‘indisidir. Bu o‘qituvchining pedagogik mahorati bo‘lib, u pedagogika fanining rivojlanishida boshlang‘ich omil hisoblanadi.

Pedagogik tajriba to‘plash tizimi:

1. Maqsadni belgilash.
2. Tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.
3. Yutuqlarni aniqlash.
4. Ma’lumot to‘plash.

Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o‘qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o‘sish uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu ham martaba o‘sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko‘tarilish bilan o‘lchanadi.

Improvizatsiya nima? Lug‘atlarda improvizatsiya tushunchasi etimologik jihatdan ajablanish va ajablanish elementlari bilan bog‘liq. Aslida, bu ijodiy jarayon, bu ham uning natijasidir. Musiqiy, raqs yoki boshqa improvizatsiyalar mavjud. O‘qituvchilar o‘z ishlarida pedagogik improvizatsiyadan foydalanadilar. To‘satdan yoki kutilmagan holatlarda paydo bo‘lgan vaziyatlarda qanday yo‘lni tanlash, improvizatsiya shu yerda va hozir tug‘iladi. Bu tanqid, mulohaza yoki baholash bilan to‘xtatilmagan, o‘ziga shakl va yo‘nalish beradigan, muallif “orqali” oqib o‘tadigan, uni o‘zidan o‘tib, mavzu, mazmunning rivojlanishini kuzatish uchun vaqt topadigan ijodiy faoliyat oqimidir.

Pedagogik improvizatsiya (lotincha improvisus – kutilmagan) – o‘qituvchining yangi yechimlarni ishlab chiqish, shuningdek, paydo bo‘lgan pedagogik vazifalarga tez, moslashuvchan va aniq javob berish qobiliyati.

Improvizatsiya jarayonida (kutilmagan vaziyat yuzaga kelganligi sababli) o‘qituvchilar uchun turli xil xatti-harakatlar mumkin:

– tabiiy turi – samarali improvizatsiya harakatlari o‘qituvchi uchun psixologik va hissiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi;

– stress-transformatsion tip – yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun shaxsning barcha resurslarini safarbar qilish mavjud;

– ataylab qochish turi – o‘qituvchining kutilmagan pedagogik vaziyatni bartaraf etishdan ongli ravishda qochishi (“sezmaslik”);

– beixtiyor tormozlovchi turi – chalkashlik va o‘qituvchining harakatlarini to‘liq his qilish;

– hissiy buzilish – o‘qituvchi nazoratsiz, tasodifiy harakat qiladi, ziddiyatni kuchaytiradi, o‘zini tuta olmaydi yoki his-tuyg‘ularini yashira olmaydi;

– noadekvat tip – o‘qituvchi o‘z his-tuyg‘ularini yashiradi, lekin ularni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tajriba va harakatlarga aylantira olmaydi.

Faoliyatning o‘zgargan sharoitlari; o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq, pedagogik improvizatsiya muayyan darsning maqsadlarini, o‘quv materialining mazmunini, uslubiy qabul qilish va muloqotni maqsadga muvofiq ravishda aniqlashtirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

V.N. Xarkinning fikricha, pedagogik improvizatsiya quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– yaratish va bajarish jarayonlarining mos kelishi yoki ularning minimal bo‘shlig‘i;

– ularning bevositaligi;

– jamoat xarakteri;

– mantiqiylikning birligi, dastlabki tayanch tushunchasi.

Pedagogik improvizatsiya mezonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Obyektiv mezonlar.

– to‘satdan (to‘siqning ajablanishi, kutilmagan vaziyatga yoki to‘satdan o‘zgargan vaziyatga javob berish tezligi, bu harakatning yangiligi, uning g‘ayrioddiyligi va kutilgan harakatlarga mos kelmasligi);

– zudlik bilan (harakatning darholligi) ;

– yangilik (o‘ziga xoslik darajasi);

– oshkoralik (tomoshabinlar, improvizatsiya sheriklarining mavjudligi);

– pedagogik ahamiyati (ta’limga hissa qo‘shish, shaxsni rivojlantirish).

2. Subyekt tomonidan improvizatsiyani amalga oshirish mezonlari.

– fikr ishini namoyish etish;

– ruhiy va hissiy yuksalish;

– qoniqish hissi.

3.Tomoshabinlar tomonidan idrok etilishidagi improvizatsiya mezonlari ajablanish (kutilmagan narsaga munosabat).

– kiritish;

– faoliyat;

– hissiy sezgirlik;

– diqqatni jamlash;

– qiziqishning ortishi;

– ohang va kayfiyatning oshishi;

– empatiya chuqurligi.

Ko‘tarilgan qoshlar, porloq ko‘zlar, beixtiyor imo-ishoralar, mulohazalar, kulish va boshqalar ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin.

V.I. Zagvyazinskiy ta’kidlaganidek, improvizatsiya yo‘qdan paydo bo‘lmaydi. Muvaffaqiyatli improvizatsiya faqat yaxshi tayyorlangan zaminda mumkin. Zero, eng yaxshi improvizatsiya bu oldindan tayyorlangan improvizatsiya, deb yarim hazil bilan bejiz aytishmagan. Muvaffaqiyatli improvizatsiyaning asosi odatiy vaziyatlarni tahlil qilish tajribasi, qonunlar va tendensiyalarni bilish, asosli gipoteza asosida bashorat qilishdir. “Ijodkorlik”, deb ta’kidladi V. A. Suxomlinskiy. Bu hech qanday tarzda pedagogik jarayon tushunarsiz, faqat sezgiga bo‘ysunadigan va oldindan ko‘ra olmaydigan narsa degani emas. Aynan nozik oldindan ko‘ra bilish, pedagogik jarayonning ko‘plab omillari va qonuniyatlari bog‘liqligini o‘rganish chinakam ustaga rejani bir zumda o‘zgartirish imkonini beradi”.

Tarkibning sifati, qabul qilingan qarorning yangilik darajasiga ko‘ra, improvizatsiya “standart” bo‘lishi mumkin, uni amalga oshirishda muayyan pedagogik vaziyatlarni hal qilishning tipik, standart usullari qo‘llaniladi va jarayonda “ijodiy” bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi talabalarga ta’sir qilishning nostandart usullarini yoki allaqachon ma’lum bo‘lgan usullarning yangi kombinatsiyalarini aniqlaydi.

Jarayon tuzilishi bo‘yicha:

– klassik;

– uy vazifasi bilan improvizatsiya qilish;

– aralash yoki o‘tish davri improvizatsiyasi (dastlab klassik yoki dastlab uy qurilishi bo‘lishi mumkin).

V.A. Kan-Kalik sinfda pedagogik improvizatsiyaning manbasiga qarab beshta variantni aniqladi:

1. Bilvosita induktsiya qilingan improvizatsiya (amaliy fikrlash va hissiy barqarorlik muhim rol o‘ynaydi).

2. “Ichkaridan” improvizatsiya (o‘qituvchining individual ijodiy xususiyatlariga bog‘liq).

3. Materialni taqdim etish mantig‘idan kelib chiqqan improvizatsiya (pedagogik fikrlashning faol ishtiroki orqali amalga oshiriladi).

4. Introspektsiya va sinfiy idrokga asoslangan improvizatsiya.

5. Pedagogik kashfiyot bilan chegaralangan improvizatsiya (“pedagogik idrok” natijasi).

V.N. Xarkin pedagogik improvizatsiya to‘rt bosqichda amalga oshiriladigan murakkab jarayon ekanligini ta’kidlaydi.

1-bosqich – insight (insight). Bu bosqichda g‘oyaning kutilmagan intuitiv kashfiyoti, original harakat, paradoksal fikr va boshqalar sodir bo‘ladi. Ko‘pincha tushuncha nostandart vaziyatda yoki hissiy ko‘tarilish fonida paydo bo‘ladi.

2-bosqich – g‘oyani intuitiv va mantiqiy tushunish va uni amalga oshirish usulini tanlash.

3-bosqich – g‘oyani intuitiv va mantiqiy tuzatish bilan ommaviy amalga oshirish.

4-bosqich – improvizatsiya natijasini bir zumda intuitiv-mantiqiy tahlil qilish. Improvizatsiya yoki qayta qurish faoliyatini davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Improvizatsiyani bo‘lajak o‘qituvchilar va yosh o‘qituvchilarga maxsus ishlab chiqilgan mashqlar tizimi yordamida o‘rgatish kerak, ularning o‘ziga xos xususiyati odatiy bo‘lmagan pedagogik vazifani hal qilish uchun ajratilgan vaqtni maqsadli ravishda qisqartirish va asta-sekin kamaytirishdir. Bu yerda o‘qituvchining improvizatsiyaga tayyorligi haqida gapirish kerak.

V.A. Kan-Kalik improvizatsiyaga tayyorlikni quyidagi tarkibiy qismlar mavjudligi bilan aniqlaydi:

– kasbiy pedagogik komponent: umumiy mazmun o‘qituvchining kasbiy malakasi, izchilligi, dinamikligi, umumiy yuqori madaniyat va bilim darajasi fonida maxsus bilim va ko‘nikmalarning harakatchanligi bilan belgilanadi;

– individual-shaxsiy komponent: talabalar bilan pedagogik muloqotning ba’zi noodatiy vaziyatlarida o‘qituvchining harakatlarining vositachilik o‘ziga xosligi, tezkor yo‘naltirishni va pedagogik vakolatli qarorlarni tezkor qabul qilishni talab qiladi;

– motivatsion va ijodiy komponent: o‘qituvchining ijodiy motivlari, uning o‘quv jarayonining mazmuni va borishiga bo‘lgan ishtiyoqi, “ishchi” ijodiy ilhomlanish holati bilan belgilanadi.

Shunday qilib, biz pedagogik ijodning tarkibiy qismi sifatida pedagogik improvizatsiyaning xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Ijodiy pedagogik faoliyatni o‘qituvchining faoliyat sharoitiga, o‘z ijodiy salohiyati va farovonligiga, o‘quvchilar jamoasining kayfiyatiga, pedagogik rejani o‘z vaqtida amalga oshirish va tuzatish qobiliyatisiz to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydi ya’ni improvizatsiya qilishni maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan asoslash qobiliyatisiz amalga oshirish mushkul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Sh. Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2019.

2. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. М., 1987

3. Мягкая,Е. Б. Роль педагогической импровизации в процессе творчества будущего педагога / Е. Б. Мягкая. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2020. – № 42 (332). – С. 55-57.

4. Палтышев, Н.Н. Постижение педагогического мастерства / – Москва: Изд. центр АПО, 2002. С – 64.

5. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.

Klaraxon MAVLONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, p.f.d.

MATN YARATISH IJOD QILISH JARAYONI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada matn tuzishga oid mashq va topshiriqlarning o‘quvchilarni ijodkorlikka undash vositasi ekani, ona tili darslarida matn tuzishga doir topshiriqlarning sifatli bajarilishiga erishish kabi masalalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Matn, matn yaratish, ijod, matn tuzilishi, motivasiyalash, nutqiy muddao, semantik-grammatik tarkiblash, fikr ifodalash, bog‘lanishli nutq.

В данной статье указано, что упражнения и задания, связанные с составлением текста, являются средством побуждения учащихся к творчеству, а также описаны такие вопросы, как достижение качественного выполнения заданий, связанных с составлением текста на занятиях по родному языку.

Ключевые слова. Текст, текстотворчество, творчество, структура текста, мотивация, речевое содержание, семантико-грамматическая композиция, выражение мысли, связная речь.

This article states that exercises and tasks related to the composition of the text are a means of encouraging students to be creative, and also describes such issues as achieving high-quality performance of tasks related to the composition of the text in the classroom in the native language.

Key words. Text, text creation, creativity, text structure, motivation, speech content, semantic-grammatical composition, expression of thought, connected speech.

5–9-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish ishlari matn tuzilishini o‘rganish va matn tuzish mashqlari mazmunida amalga oshiriladi. Matn tuzish talab etiladigan mashqlar ijodiy faoliyat ko‘rsatgan holda bajarilib, o‘quvchilar ushbu mashqlar asosida o‘z fikrlarini izchil, tushunarli, aniq, ta’sirchan ifodalash, o‘zlariga yarasha gap tuzish, ularni bir-biriga bog‘lash, elementar ijod qilish tajribasini orttiradilar. V.Drozinaning ta’kidlashicha, “Ijodiy mustaqil faoliyat tajribasiga ega bo‘lgan odam hamisha standart, qotib qolgan metodlardan foydalanuvchi odamlarga qaraganda qulay mavqeda bo‘ladi. U o‘zi shug‘ullanayotgan ishini sifatliroq va ancha tezroq bajaradi”. Metodik adabiyotlarda ko‘p takrorlanganidek, ijodiy fikrlovchi, kashfiyotchilikka moyil odam o‘zini ham, o‘zi yashab turgan o‘lkani ham rivojlantirish haqida o‘ylaydi. Shu maqsadda aqliy (intellektual) darajasini oshirib borish harakatida bo‘ladi. Bunday odam yangiliklarni ham tez payqaydi, ilg‘or g‘oyalarni o‘rganish ishtiyoqida bo‘ladi. U o‘ylabgina qolmay, amalga oshirishga intiladi. Qilayotgan ishlaridan doim xushnudlikda yuradi, o‘zini ruhiy qanoatda tutadi. O‘quvchi ijodiy yozma ish bilan shug‘ullanar ekan, ikki misra she’r ijod qilar ekan, ko‘tarinki kayfiyat uni chulg‘ab oladi. Bunday o‘quvchilar kelgusida jamiyat uchun munosib kadrlar bo‘lib yetishadilar. Shuni ham hisobga olish kerakki, har bir inson ma’lum ijod kurtaklari bilan dunyoga kelsa-da, ushbu kurtakning barg yozishi parvarishga, intilishga, izlanishga bog‘liq bo‘ladi.

“Ijod qilish apparati butun umr davomida paydo bo‘lib turadigan va uni ijod qilish – tozarish (ozareniye) holatiga soladigan bir qator komponentlardan iborat. Ulardan biri (masalan, qobiliyat) genetik jihatdan odamning tabiatiga jo etilgan bo‘ladi. U doimo boshqa komponentlar bilan bir butunlikda rivojlantirish va takomillashtirishni talab etadi. Boshqa komponentlarni, masalan, ijodiy mustaqil ish malakasini mudom shakllantirib borish va doimiy ravishda rivojlantirib turish kerak bo‘ladi”.

Ijod jarayoni fikr-mulohaza yuritish, tasavvurida paydo bo‘lgan manzaralarni turli yo‘llar bilan xotirlangan so‘zlar bilan ifodalash, shu jarayonda o‘z his-tuyg‘ularini, o‘z nuqtayi nazarini aks ettirish kabi aqliy, estetik, kommunikativ faoliyat tarzida kechadi.

V.Kapinos ta’kidlaganidek, “tabiiy kommunikasiya sharoitida har qanday bog‘lanishli hikoya qilish (monolog) ozmi-ko‘pmi ijodiy akt hisoblanadi”. L.Sherbaning quyidagi fikri masalaga yana ham ravshanlik kiritadi. “Har qanday monolog, – deb yozgan edi u, – dastlabki adabiy asardir”.

S.Yurtayev o‘z maqolasida M.Lvov nutqning yuzaga kelishidagi kommunikativgacha bo‘lgan va kommunikativ bosqichlarni bir-biridan farqlaganiga e’tiborni qaratadi:

Birinchi bosqichda nutqni motivatsiyalash, nutqiy muddao, semantik-grammatik tarkiblash mexanizmlari ishlaydi. Birinchi mexanizm harakatda bo‘lgan vaqtda hayotiy vaziyatni anglash, motivning, ya’ni nutq nima uchun amalga oshirilayotganining tug‘ilishi, uning maqsadini anglash sodir bo‘ladi. Nutqiy muddao mexanizmining harakatda bo‘lishi fikr bayonining mazmunini shakllantirish bilan murakkablashadi. U sharoitda mo‘ljal olishni, adresatni tanlashni, fikr bayonining fikran tuzilgan rejasini, tilni tanlashni o‘z ichiga oladi. Semantik-grammatik tarkiblash mexanizmining harakati so‘z tanlashga, gapda so‘zlar tartibini belgilashga, grammatik markirovkalashga olib keladi”.

Fikr bayon qilish jarayoni bu jarayon tugallanmagunga qadar gaplarning tuzilishi, qismlarning (murakkab sintaktik butunliklar yoki abzaslarning) yuzaga kelishi tarzida kechadi. Fikr bayon qiluvchi odam dilida to‘planib qolgan gaplarni aytib bo‘lmaguncha gapiradi yoki yozadi. Aytilayotgan yoki qog‘ozga tushirilayotgan fikrlar voqea-hodisalarni ketma-ket yoritish, bir fikrni ikkinchisiga zidlash, unga qarama-qarshi qo‘yish (undan ayirish), dalillash, tasdiqlash, ta’sir o‘tkazish va boshqa ko‘plab semantik-grammatik shaklga tushirilgan munosabat, his-tuyg‘u, ruhiy holat, mushohadalar va boshqalarni aks ettiradi. Bunda, shubhasiz, fikr bayon qiluvchi ongli yoki intuitiv tarzda mantiq qoidalariga amal qiladi: fikr ifodalashning izchilligiga, fikrlar ko‘p bo‘lsa, birini tugatib, ikkinchisiga o‘tish tartibiga, bir-biriga o‘xshash yoki zid, qarama-qarshi fikrlarni ifodalash usuli hamda vositalari kabilarga e’tibor beradi.

Matn yaratishda ekstralingvistik bilimlar ham muhim o‘rin tutadi. Bunda olamni hissiy bilish asosiy rol o‘ynaydi. L.Sichugovaning masalaga quyidagicha oydinlik kiritadi: “Odam olamni o‘z sezimlari orqaligina emas, balki emotsional, his-tuyg‘ular asosida ham idrok etadi. Tilni bilish ham o‘zlashtirish va tushunarli, o‘ziniki qilish, ona tiliga aylanti rish lozim bo‘lgan obyektiv olam sohasiga kiradi. Binobarin, tilni o‘rganish jarayonida ratsional va emotsional sohalar birlikda sodir bo‘lishi kerak”.

Ikkinchi tilni o‘qitish metodikasiga doir manbalarda ekstralingvistik omillar deganda quyidagilar ham tushunilishi alohida ta’kidlanadi: 1) ijtimoiy hayot faktlari...; 2) ilmiy hayot faktlari...; 3) tarixiy sanalar, solnomalar...; 4) geografik nomlar...; 5) tur tushunchalari ... Ushbu ekstralingvistik omillar, masalan, Beruniy, Forobiy kabi olimlarni tilga olish tuzilayotgan matn mazmundorligini oshirish, fikrni ishonchli, ta’sirchan qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Matn yaratish jarayonining eng qiyin tomonlari fikrni izchil rivojlantirishdan tashqari, kerakli so‘zni hamda so‘z shaklini tez va to‘g‘ri esga tushira olish, gaplarni shakllantirishda

so‘z topish, jumlaning cho‘zilib ketishi yoki uni qanday tugallashni bilmay turganlik tufayli yuzaga keladigan to‘xtab qolishlarni uzoq mashqlar orqali bartaraf etish, fikrni to‘liq va to‘g‘ri ifodalash hamda bog‘lanishlilikni, ta’sirchanlikni hamda mazmundorlikni ta’minlash kabi holatlardan iborat.

O‘quvchilar matn tuzish talab etiladigan mashqlarni quyi sinflardan boshlaydilar. Bu borada N.Bekniyazovaning “Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida)” monografiyasida bayon qilingan tavsiyalar alohida o‘rin tutadi.

Ta’kidlash joizki, “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi” asosida yaratilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” hamda “Ona tili” darsliklarida matn tuzilishining ayrim komponentlariga doir mashqlar ko‘paygan Matn yozma ijodiy ish mahsuli bo‘lgani uchun yozuvchi avval nima haqda yozish, o‘zida tug‘ilgan yoki mavzu orqali yo‘naltirilgan fikrni qanday gaplar bilan qog‘ozga tushirish haqida o‘ylaydi.

A.Ergashevaning “Ona tili darslarida nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o‘stirish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmasi o‘quvchilarni ta’sirchan va mazmundor gaplar tuzishga o‘rgatish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif o‘quvchilardan nazariy ma’lumot yuzasidan keltiradigan misollarning har darsda keltirilaverib siyqasi chiqqan Men kitob o‘qidim, Biz teatrga boramiz kabi gaplardan iborat bo‘lavermasligi uchun ularga ta’sirchan va mazmundor gaplar tuzish yo‘llarini o‘rgatish kerak deb hisoblab, buning yo‘llarini yoritishga harakat qiladi. Bizningcha, muallif muhim masalani ko‘targan. Qoidaga misol keltirish topshirig‘i har darsda beriladi. Ta’sirchan va mazmundor gaplar tuzish ham ijod qilishga undaydi. Ushbu vazifani uddalay olgan o‘quvchi ushbu malakani matn tuzish jarayoniga ham ko‘chira oladi.

E.Krivorotovaning maqolasida aytilishicha, o‘quvchining mushohada yuritish chog‘ida kerakli ma’nodagi so‘zni tanlashi yoki qidirishi lozimligi haqida gapirib, birinchidan, o‘quvchilar mustaqil ravishda izohli lug‘atga murojaat etishlari, so‘zning lug‘aviy ma’nosini aniqlab olishlari, ayni paytda grammatik ma’nosini ham o‘ylashlari, bular hal qilib olingach, fikr bayon qilishda davom etib, gapni to‘g‘ri tuzishga erishishlari kerak.

F.Aminova o‘zining “O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari” mavzusidavgi tadqiqot ishida ritorikani notiqlik deb ko‘rsatadi: “Ritorika, ya’ni notiqlik ko‘nikmasi dalillarni ro‘yxatga olishning birinchi elementi hisoblanadi. Mazkur bosqichda o‘quvchida fikrlash madaniyati shakllanadi. O‘ylash va bir fikrni ikkinchisi bilan bog‘lash, bir fikrdan ikkinchisini keltirib chiqarish, berilgan gapdan yangisini hosil qilish ko‘nikmalari egallanadi. Notiqlik ko‘nikmasida muhim holat matn yaratish maqsadini anglashdan iboratdir”.

Ona tili darslarida matn tuzishga doir topshiriqlarning sifatli bajarilishiga erishish maqsadida turli rasmlardan, imkon qadar san’at asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. San’at asari o‘quvchilarni ma’naviy boyitish uchun xizmat qilibgina qolmay, ta’sirli gaplar bilan matn yaratish sari undaydi. Bunda o‘quvchilarning grammatik, nutqiy, ma’naviy va estetik rivojlanishi quyma holda keladi. O‘quvchi sinfdoshlarining ushbu san’at asaridan qanchalik ta’sirlanganini ham bilishga qiziqadi. San’at asari bolalarni ijod qilishga, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga, badiiy asarlarda uchragani kabi timsol yaratishga ham undaydi.

N.Ippolitova ta’kidlaganidek, tanlangan ta’lim metodi (usuli) ta’lim oluvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qay darajada yo‘naltirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shubhasiz, buning uchun o‘quvchilar o‘z oldilariga aniq bir maqsadni qo‘ygan bo‘lishlari kerak. Shunchaki matn tuzish mashqini bijarish maqsad bo‘lishi mumkin. Lekin

matn orqali kimlarga nima demoqchi ekanligini aniqlab olishi kommunikativ niyat bilan qo‘yiladigan maqsadni samara sari yo‘llaydigan shakli hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazib, berilgan mavzuda yoziladigan matnning maqsadi har kimda har xil bo‘lishi, lekin har kimning maqsadi o‘zi uchun bitta bo‘lishi lozimligini aytib, ularni o‘ylab o‘z maqsadini aytishga undashi zarur.

“O‘quvchi albatta o‘z maqsadlarini ta’riflab olishi kerak – busiz miyaning ishi (tag ma’nosini o‘ylab qo‘yadigan fikr) tug‘ilmaydi va ichki nutqni faollashtiradigan nutqiy hozirlik paydo bo‘lmaydi. O‘ylab qo‘yilgan fikr tufayli adresatga baho berish va tashqi nutq – matn uchun til vositalarini tanlash boshlanadi. Muallif nutqiga reaksiya – kutilayotgan yoki kutilmayotgan fikr bayonini (matnni) tuzatish uchun rag‘bat beradi”.

O‘quvchilar faqat matn tuzish – ijodiy ish bilan band bo‘lishlari uchun ularga imlo lug‘atidan va boshqa xil lug‘atlardan (ma’nodosh so‘zlar lug‘ati, izohli lug‘at va b.) foydalanishlariga ruxsat berish, so‘zlarning qanday yozilishi, ma’no jihatdan so‘zning to‘g‘ri tanlanganligi, tinish belgilarining to‘g‘ri qo‘yilganligi haqidagi savollar tufayli yuzaga keladigan reflektiv to‘xtashlar uzoqqa cho‘zilmasligi uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, ona tili darslarida matn tuzish talab etiladigan mashq va topshiriqlarga o‘quvchilarni ijod sari undash vositasi deb qarash, barcha ta’limiy tadbirlarni shunga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дрозина В.В. Творчество – удел избранных? Нач.шк. 2011. № 3. – С. 91. (91–94).

2. Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1957. – С. 115.

3. Юртаев С.В., Влияние тенденции речевого развития на организацию образовательного процесса. – Журн. Начальная школа. 2007. № 5. – С. 30.

4. Сычугова Л.П. Экстралингвистические знания при обучении языку и речи // Русский язык в школе. 2007. № 6. – С. 15.

5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. Ona tili va o‘qish savodxonligi. /Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 1-2-qism. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 144 b.; Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.; Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili. /Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik . – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.

6. Ergasheva A. Ona tili darslarida nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o‘stirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – 69 b.

7. Криворотова Э. В..Формирование лингвистического мышления учащихся при изучении лексического и грамматического значений слова / Журн. Рус.яз. в школе. 2007. № 7. – С. 18.

8. Aminova F.H. O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari: Ped.fan.nomz. … diss. – Toshkent, 2007.

Sulaymon NAZAROV,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi “Darsliklarni ishlab chiqish” bo‘limi boshlig‘i
Inom XUJAMOV,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi “Iqtidorli yoshlarni tanlab olish va olimpiadalarni tashkil etish” bo‘limi boshlig‘i

DARSLIKLARNI ISHLAB CHIQISHDA ILG‘OR TAJRIBALARNI O‘RGANISH: HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada darsliklarni ishlab chiqish nazariyasi va tarixi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, ular rivojlanish jarayonida to‘plangan ilg‘or tajribalarni o‘rganish, milliy o‘quv adabiyotining ilmiy-pedagogik salohiyatini ochib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, o‘quv dasturi, darslik, adabiyot, pedagog, ehtiyoj, tahlil, natija.

Несмотря на то, что в данной статье приведено множество исследований по теории и истории разработки учебников, они заключаются в изучении лучшего опыта, накопленного в ходе разработки, раскрытии научно-педагогического потенциала отечественной учебной литературы.

Ключевые слова. Образование, воспитание, учебная программа, учебник, литература, педагог, потребность, анализ, результат.

Despite the fact that this article contains a lot of research on the theory and history of textbook development, they consist in studying the best experience gained during the development, revealing the scientific and pedagogical potential of domestic educational literature.

Key words. Education, upbringing, curriculum, textbook, literature, teacher, need, analysis, result.

O‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda maktab darsliklari asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu sababli hozirgi kunda o‘quvchilarni sifatli va zamonaviy darsliklar bilan ta’minlash yuzasidan jiddiy izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy maqsadlari – ta’limning qulayligi, sifati va samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning mazmunini sezilarli darajada yangilashni nazarda tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini rivojlantirishni talab qiladi, chunki aynan darslik o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida ta’lim mazmunini amalda amalga oshiradi.

Bizning fikrimizcha, yangi avlod darsliklarini yaratish, birinchi navbatda, ularni ishlab chiqishda mavjud xalqaro tajribalarni o‘rganish va nazariy tushunish, o‘tgan yillardagi mavjud o‘quv adabiyotlarining ilmiy-pedagogik salohiyatini aniqlashni talab qiladi, chunki kelajakka yo‘l ta’limi dasturi va darsliklarini yaratish bo‘yicha mavjud tajribalarni o‘rganib va rivojlantirmasdan, ta’lim uzluksizligiga erishish mumkin emas.

Ushbu bosqichda erishilgan bilimlarni tizimlashtirish, tarixiy boy tajribalarni o‘rganish va umumlashtirib, keyin maqsad sari harakat qilish muhimdir.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 29- dekabr kuni Xalqaro kongress markazida boshlang‘ich sinflar uchun ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklari taqdimoti bilan tanisha turib, “..... 2023-yil 1- yanvardan boshlab respublikaning 14 ta hududidagi maktablarda yangi darsliklarni joriy etish bo‘yicha eksperiment boshlanyapti, 1 sentyabrdan esa 10 mingtasida boshlanadi” degan fikrni bildirdi.

Shu munosabat bilan respublikamizda, Finlandiya ta’limi dasturi va darsliklari tajribadan o‘tkazilib, o‘quv adabiyotlarini yangi avlodlarini nashr etish, mutaxassislarni sifat jihatidan yangi darsliklar yaratishga jalb qilishga qaratilgan faol chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Mamlakatimizning 14 ta hududiga tajriba tarzida joriy etilayotgan boshlang‘ich sinf darsliklardan, keyingi bosqichlarda 5–11 sinflar uchun ham ta’limi dasturi va darsliklari ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda yangi avlod darsliklarini yaratish hamda nashrga tayyorlashda asosiy e’tibor mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob berishiga qaratilmoqda. Shunga ko‘ra, hozirgi kunda ta’lim tizimi rivojlangan Turkiya davlatining tajribasi o‘rganildi.

Jumladan, ta’lim tizimida o‘z tajribasiga ega bo‘lgan Turkiya Milliy ta’lim vazirligi tasarrufida 60 mingta maktab mavjud bo‘lib, mazkur maktablarda jami 18 million nafar o‘quvchi ta’lim oladi.

Xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish maqsadida, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi mas’ul va mutaxassislari agentlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda ixtisoslashtirilgan maktablarga zamonaviy o‘quv metodik adabiyotlarni ishlab chiqish uchun Turkiya ta’lim tizimi va amaliyotini o‘rganish maqsadida Istanbul va Anqara shaharlarida bo‘lib, Turkiya Milliy ta’lim vazirligi Darsliklar va nashrlar boshqarmasi, Izmir shahrida joylashgan vazirlik huzuridagi nashriyot hamda “METIKSAN”, “RITM” nashriyotlari faoliyati bilan tanishildi.

O‘rganishlar va tajriba almashish maqsadida Darsliklar va nashrlar boshqarmasi mas’ul xodimlari Umar Farrux Turxol, Nurjon Ishilchaylar tomonidan darsliklar uchun buyurtmalarni shakllantirish, chop etish hamda yetkazib berish tizimi bo‘yicha qilingan taqdimot natijasiga ko‘ra, Milliy ta’lim vazirligi tomonidan “Mebbis” elektron platformasi yaratilgan bo‘lib, ta’lim muassasalari darsliklar buyurtmasini mazkur tizimga yuklaydi.

Tahlillarga ko‘ra, joriy yildan boshlab Izmir shahrida joylashgan, dunyoda ishlab chiqarish bo‘yicha 6-o‘rinda turadigan matbaa korxonasi Darsliklar va nashrlar boshqarmasi tasarrufiga olgan hamda o‘quv adabiyotlar mazkur korxonada chop etilishi belgilangan.

Turkiya tajribasiga ko‘ra, o‘quv adabiyotlarini bosmaxonalardan qabul qilish jarayonida sifatni nazorat qiluvchi 50 nafar komissiya a’zolari ishtirok etadi, qabul jarayonida avvalo darsliklarning soni keyin esa sifati tekshiriladi. Bundan tashqari, Ta’lim-tarbiya departamenti, xususan, Ta’lim dasturlari va o‘quv materiallari departamenti o‘z faoliyatini yuritib, ta’lim dasturlari va darsliklarni ishlab chiqish jarayonlarida bevosita ishtirok etadi.

Bugungi kunda, 3 yoshdan boshlab (bog‘cha yoshi) 12-sinfga qadar jami 94 nomdagi o‘quv adabiyotlari ishlab chiqiladi. Shundan 1-8-sinflardagi barcha o‘quvchilar uchun bir xil darslik ishlab chiqilsa, 9-12-sinfda yo‘nalishiga (tabiiy fanlar, aniq fanlar, ijtimoiy fanlar, kasb-hunarga, sport, san’at yo‘nalishidagi litseylar, Anado‘li hamda imom xatib

litseylari) qarab ishlab chiqiladi.

Turkiyada 2003-2004 o‘quv yilidan boshlab “O‘quv adabiyotlarini bepul tarqatish” amaliyotga joriy etilgan. Bunda, 2003-2004 o‘quv yilidan 1-4-sinf o‘quvchilariga, 2006-2007 o‘quv yilidan 5-8-sinf o‘quvchilariga, 2009-2010 o‘quv yilidan 9-12-sinf o‘quvchilariga, 2014-2015 o‘quv yilidan xususiy maktab o‘quvchilariga kitoblar bepul yetkazish boshlangan. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab Turkiya bo‘ylab barcha ta’lim muassasalari bepul darslik bilan ta’minlanishi yo‘lga qo‘yilgan. 2022-2023 o‘quv yilida darsliklarni chop etish va yetkazib berish xarajatlari o‘rtacha har bir o‘quvchiga 20-25 lira, jami 9 milliard lirani tashkil etgan.

Darslik yaratishga muallif, muharrir, filologlar asosiy mas’ullar hisoblansa, bundan tashqari davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari tahlili shuningdek, darslikning o‘quvchilar psixo-fiziologik xususiyatlariga mosligini o‘rganishga alohida mas’ul xodimlardan iborat ishchi guruhlari faoliyat olib boradilar.

Milliy ta’lim vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalari uchun yaratiladigan darsliklarni tayyorlash, ekspertizadan o‘tkazish va tahlil qilish uchun 32 ming nafar pedagoglardan iborat ishchi guruh maxsus tayyorlangan.

Darslik mualliflari tomonidan tayyorlangan darslik loyihasi vazirlikka taqdim etiladi. Ushbu darslik maketlari ishchi guruhi hamda vazirlik komissiyasi tomonidan tahliliy o‘rganib chiqiladi.

Bunda darslik maketlari 200 ta banddan iborat bo‘lgan mezonlar asosida 100 ballik tizim asosida baholanadi. 75 baldan oshgan darslik maketi qabul qilinib, takomillashtirish uchun ijodiy jamoaga qayta taqdim etiladi.

Darslik maketlarini o‘rganib chiqish, ekspertizadan o‘tkazish, takomillashtirish jarayonlari 9 oy davom etadi, shundan so‘ng tayyor holatga keltirilgan darslik chop etish uchun bosmaxonaga taqdim etiladi.

Darsliklar quyidagi asosiy talablarga mos bo‘lishi lozim:

- mavjud qonunlarga zid bo‘lmasligi;
- tasdiqlangan ta’lim dasturlariga mos bo‘lishi;
- o‘quvchilarni ijobiy natijaga erishtiruvchi;
- turk tilining adabiy til me’yorlariga amal qilinganligi;
- elektron resurslar bilan boyitilishi hamda dizayni talabga javob berishi lozim.

O‘zbekistonda ham bugungi kunda yangi avlod darsliklarini yaratishda ta’lim muassasalari o‘quvchilari, o‘qituvchilari va ota-onalari hamda keng jamoatchilikning fikri muhim hisoblanadi. Shu maqsadda nashrga tayyorlanayotgan darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarning mazmuni, dizayni va sifatini yanada yaxshilash hamda takomillashtirish yuzasidan tayyorlangan darsliklarning elektron variantini tajriba-sinovdan o‘tkazish maqsadida ta’lim muassasalariga yetkazilmoqda va olingan fikr, mulohazalar asosida darsliklar yanada takomillashtirilmoqda.

Pirovardida, darsliklar yuzasidan kelib tushayotgan o‘rinli taklif va mulohazalar shubhasiz darsliklarni mazmunan takomillashtirishga yangi turtki beradi. Bu esa, sifat jihatdan yangilangan darsliklarni yaratishda, ta’lim tizimi bilan jamiyat o‘rtasidagi yanada samarali aloqani ta’minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yangidan chop etiladigan darsliklarga kiritilgan o‘zgarishlar quyidagilar hisoblanadi:

Birinchi navbatda, o‘quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda tayyorlanmoqda.

Ikkinchidan, darslik mazmunida mavjud bo‘lgan takrorlanishlar bartaraf etilib, xalqaro

tajribaga suyangan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Yana bir e’tiborli jihati – fanlar kesimida fanlararo bog‘liqlik hamda sinflararo uzviylik ta’minlanmoqda. Eng muhimi, darsliklar innovatsion yondashuv asosida tayyorlanmoqda. Bunda, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan ta’limiy o‘yinlar, mashqlar, masalalar va topshiriqlarga urg‘u berilmoqda.

Qolaversa, informatika va axborot texnologiyalari darsliklarining mazmuni o‘quvchilarning texnik qobiliyatini rivojlantirishga oid amaliy, kreativ, mantiqiy yondashuvga asoslangan topshiriqlar bilan boyitilmoqda. Bu jahonga mashhur STEAM texnologiyalari talablari asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yurtimizda ta’lim dasturlari va darsliklarning yangi avlodini yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda, uning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari aniqlanib, ularning tarixiy va pedagogik tahlili berilib borilmoqda. Ushbu tadqiqot butun Turkiya tajribasi fonida bo‘lib, Turkiya davlatining milliy ta’lim siyosatini shakllantirishdagi tarixiy roli, Turkiya va O‘zbekiston Respublikasining milliy ta’lim bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazasining qiyosiy tahlili va mamlakatimizda ta’lim mazmunining hozirgi holati, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026- yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.

2. R. X. Djuraev, S.T.Turg‘unov. Ta’lim menejmenti. T.: “Voris-Nashriyoti”, 2006. 263 b.

3. Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov. Ta’lim sifatini boshqarish. T.: “Turon-Iqbol”, 2006. 592 b.

4.Андреас Шляйхер. Образование мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? Успешные реформы и высокие результаты. Пер. с англ.– М.: Издательство «Национальное образование», Москва, 2019. С. 336

5. A.Radjiev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqot hisobotining ma’lumotlar to‘plami. 2-qism. Toshkent – 2022. 119 b.

1. https://t.me/avloniyuz
2. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar
3. www.google.co.uz

Baxodir KARIMOV,
Qarshi davlat universiteti

NORMATIV-METROLOGIK XABARDORLIKNING ILMIY-AMALIY ASPEKTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorligining ilmiy - amaliy jihatdan tahlil qilish maqsadida muhandisning professional faoliyatini ta’minlash nuqtayi nazaridan mashinasozlik sanoati misolida ko‘rib chiqilganligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar. Normativ, metrologiya, professional faoliyat, sanoat, muxandis, maqsad.

В данной статье научно обосновано, что нормативно-метрологическая осведомленность будущего инженера рассматривается на примере машиностроительной промышленности с точки зрения обеспечения профессиональной деятельности инженера с целью анализа научно - практического аспекта.

Ключевые слова. Нормативная, метрологическая, профессиональная деятельность, отрасль, инженер, цель.

In this article, it is scientifically substantiated that the regulatory and metrological awareness of a future engineer is considered on the example of the machine-building industry from the point of view of ensuring the professional activity of an engineer in order to analyze the scientific and practical aspect.

Key words. Normative, metrological, professional activity, industry, engineer, purpose.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 28.05.2019-yildagi 440-sonli qaroriga muvofiq Metrolog-mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakalarini oshirish bo‘yicha samarali tizim shakllantirish mazmuni o‘z ichiga bir qator vazifalarni belgilaydi. Jumladan, o‘lchashlar birligini ta’minlash tizimining yaqin va uzoq kelajakda metrolog-mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarini monitoring qilish va aniqlash;

– yaqin kelajakda yosh kadrlarning muntazam ravishda malaka oshirishini, ularning layoqatliligini oshirishni rag‘batlantirishni ta’minlaydigan kompleks tizim ishlab chiqish,

– faoliyati o‘lchashlarni bajarish yoki o‘lchash axborotidan foydalanishni ko‘zda tutadigan mutaxassislar uchun ularni metrologiya asoslari sohasidagi zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash maqsadida asosiy kasb-hunar ta'limi va qo‘shimcha kasb-hunar dasturlarining vaqti-vaqti bilan aktuallashtirilishini tashkil etish kabi.

Bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorligining ilmiy jihatdan tahlil qilish maqsadida muhandisning professional faoliyatini bizni qiziqtirgan aniqlikni ta’minlash nuqtai nazaridan mashinasozlik sanoati misolida tahlil qilamiz, ya'ni bular:

– berilgan element, tugun, mexanizm uchun optimal aniqlik darajasini me’yorlashtirish;

– belgilangan aniqlik darajasini ta’minlash texnologiyalari;

– erishilgan aniqlik darajasini nazorat qilish uchun ishlab chiqarish jarayonini metrologik ta’minlash bo‘yicha ishlarni bajarish.

Standartda muhandis bajarishi mumkin bo‘lgan quyidagi professional faoliyat turlari ajratib ko‘rsatiladi:

– loyihalash-konstruktorlik;

– ishlab chiqarish-texnologik;
– tashkiliy-boshqaruv;
– ilmiy-tadqiqot;
– ekspluatatsion.

Loyiha-konstruktorlik faoliyati, odatda, mexanik, texnologik, ekspluatatsion, iqtisodiy va estetik parametrlarni hisobga olgan holda mahsulotlarning eskizli, texnik, amaliy loyihalarini, shuningdek, boshqa konstruktorlik va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. Ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan texnik tizimning tayyor konstruksiyasi ushbu faoliyatning natijasi bo‘lishi kerak. Konstruktor mahsulotni ushbu korxonada ishlab chiqarishning o‘ziga xos shartlarini hisobga olgan holda uning konstruktiv-texnik va texnologik parametrlarini hisoblab chiqadi. Mutaxassis umumiy qurilmaga ega bo‘lgan, lekin alohida qismlarning xususiyati, joylashuvi, materiallari va boshqa konstruktiv jihatlari bilan farqlanadigan yangi turdagi mashinalarni yaratadi. Shuning uchun mahsulotlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo‘yishni har qanday jarayoni texnik reglamentlarda, milliy va davlatlararo standartlarda, tashkilotlar standartlarida bayon etilgan ushbu mahsulot uchun texnik talablarni o‘rganish va shakllantirishdan boshlanadi.

Ishlab chiqarish va texnologik faoliyat texnologik jarayonlarni rejalashtirish va amalga oshirish, uskunalarni sinash, o‘rnatish va sozlash, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini o‘lchash va nazorat qilishdan iborat. Muhandisning ushbu turdagi professional faoliyatining dastlabki materiallari mahsulot ishlab chiqariladigan moddiy resurslar bo‘lsa, mahsulot tayyorni texnik qurilma tashkil etadi. Muhandisning vazifasi mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish va ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Bu ishda normativ hujjatlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ayrim texnologik jarayonlar davlatlararo, davlatlar yoki tashkilotlarning standartlarida tavsiflangan. Xom ashyoni omborlarga kiritish va saqlashda muhim bo‘lgan va tayyor mahsulotning zarur sifatini ta’minlash uchun kafolatlangan ushbu standartlar bilan tartibga solinadigan dastlabki komponentlar va butlovchi mahsulotlarga talablarni o‘rganish kerak. Tayyor mahsulotlar iste’molchiga zararsiz yetkazib berilishi lozim bo‘lib, buning uchun tegishli qadoqni ta’minlash, iste’molchiga jo‘natish uchun kerakli konteyner va transport vositalarini ko‘zda tutmoq kerak. Qadoqlash, tara, tashish uchun talablar ham tegishli normativ hujjatlarda belgilangan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayoni doimiy o‘lchash zanjiri hisoblanadi. Bu xomashyoni dozalash, muayyan jarayon parametrlarini nazorat qilish vositalari, sinov va sifat nazorati jarayonidagi o‘lchov operatsiyalarini anglatadi. Bunday holda, normativ hujjatlarda mavjud bo‘lgan belgilangan metrologik qoidalar va uslublarni bilish va ularga rioya qilish zarur.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati ishlab chiqilayotgan texnik hujjatlar loyihalarini korxonaning barcha manfaatdor xizmatlari va bo‘linmalari bilan muvofiqlashtirishni, shuningdek, barcha manfaatdor shaxslarga sifat haqida ma’lumot berishni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati mashinasozlikning yangi texnologiyalari va mahsulotlarini ishlab chiqishni, yuqori darajadagi aniqlik, ishonchlilik va takrorlanuvchanlik bilan texnik eksperimentni o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Buning uchun mavjud me’yorlar va qoidalarni mukammal bilish va ilmiy-texnologik taraqqiyotning yutuqlarini va iste’molchining sifat sohasidagi talablari va ehtiyojlari oshishini hisobga olgan holda yangilarini yaratish uchun ijodiy fikrlashga ega bo‘lish kerak.

Ekspluatatsiya faoliyati texnik tizimlarning ishlashi, mahsulotlarning ishlash ko‘rsatkichlarini o‘lchash usullari va vositalarini tanlashga bog‘liq. Bunday holda, ishlab

chiqarilayotgan mahsulot sifatining erishilgan darajasi haqida ma'lumot olish uchun o'lchovlarni bajarish qobiliyatlari talab qilinadi.

Davlat metrologik tekshiruv va nazoratdan nimalar o'tkaziladi?

Quyidagilar davlat metrologik tekshiruv va nazorati obyektlari hisoblanadi:

– etalonlar;

– o'lchov vositalari;

– moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalarining standart namunalari;

– axborot-o'lchov tizimlari;

– o'lchovlarni bajarish uslibiyatlari;

– metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan o'zga obyektlar.

Davlat metrologik tekshiruv va nazorati qaysi faoliyat sohalariga tarqatiladi?

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati:

– sog'liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish;

– moddiy boyliklarni va energetika resurslarini hisobga olish;

– savdo-tijorat, bojxona, pochta va soliq operatsiyalarini o'tkazish, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish;

– zaharli, yengil alangalanuvchan, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash;

– davlat mudofaasini ta'minlash;

– mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta'minlash;

– sertifikatlanadigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash;

– geodezik va gidrometeorologik ishlar;

– o'lchov vositalarini davlat sinovidan, tekshiruvdan, kalibrlashdan, ta'mirlash va metrologik attestatsiyadan o'tkazish;

– foydali qazilmalarni qazib olish;

– milliy va xalqaro sport rekordlarini ro'yxatga olishga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlariga binoan davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati faoliyatning o'zga doiralariga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin.

Shunday qilib, muhandisning professional faoliyat turlari tahlili standartlashtirish bo'yicha ishlarni bajarishga, optimal texnologiyani ta'minlashga va ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini ta'minlaydigan parametrlarning erishilgan aniqlik darajasini nazorat qilishga qaratilgan professional harakatlarni ajratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B.S. Talabalarda meyoriy-metrologik kompetensiyalarni shakllantirish darajalari va ko'rsatkichlari . – Xalq ta'limi, №6 -. 61 b.

2. Karimov B.S. Talabalarda ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish, aniqligini meyorlash va metrologik ta'minlash ko'nikmalarni shakllantirish. – Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. №5 -. 762-765 b.

To'lqin ISAQULOV,
Oriental universiteti, ''Boshlang'ich ta'lim'' kafedrasi p.f.b.f.d. dotsenti v.b
Jamol MAMADIYOROV,
Oriental universiteti, ''Boshlang'ich ta'lim'' kafedrasi o'qituvchisi

UMUMTA'LIM FANLARINI O'QITISHDA 3D FORMATLI MANBALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitishda 3D formatli manbalardan foydalanish mazmuni va shakllari keltirilgan. Umumta'lim maktablaridagi barcha fan o'qituvchilari uchun yaratilgan 3D formatli elektron qo'llanmadan foydalanish samaradorligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. 3D format, elektron qo'llanma, animatsiya, modellashtirish, 3D kontent, virtual element, qo'lda model yaratish, avtomatik model yaratish.

В данной статье представлены содержание и формы использования ресурсов формата 3D в преподавании предметов в общеобразовательных школах. Выделена эффективность использования электронного пособия в формате 3D, созданного для всех учителей-предметников общеобразовательных школ.

Ключевые слова. 3D формат, электронное руководство, анимация, моделирование, 3D-контент, виртуальный элемент, ручное моделирование, автоматическое моделирование.


This article presents the content and forms of using 3D format resources in teaching subjects in secondary schools. The effectiveness of using an electronic manual in 3D format, created for all subject teachers in general education schools, is highlighted.

Key words. 3D format, electronic manual, animation, modeling, 3D content, virtual element, manual modeling, automatic modeling.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi kompyuterga asoslangan uch o'lchovli (3D) modellashtirish sohasida ham ulkan yutuqlar sari olib keldi. Natijada ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadigan dasturlar vujudga keldi. Ulardan foydalanish natijasida qator o'quv kontentlari, video o'yinlar va hatto "Avatar" singari bir nechta kinofilmlar paydo bo'ldiki, ularda to'liq yoki qisman virtual elementlar va jonivorlar yashaydigan virtual olamlarda joylashgan. So'nggi video o'yinlarning ba'zilarida Google, Inc. butun dunyoning 3D raqamli arxivini (Google Earth) keng imkoniyatlar bilan butun virtual shaharlarni taqdim etishga zamin yaratmoqda. Umuman olganda, modellashtirish texnologiyasining imkoniyatlari cheksizdir va kelajagi esa yanada qiziqarli. Haqiqiy dunyoning murakkabligini inobatga olgan holda, video o'yinlar, kinofilmlar va onlayn dasturlar kabi virtual olamlarning kontentini yaratishda foydalanilmoqda. Bugungi modellashtirish texnologiyasidan foydalangan holda batafsil 3D kontentni yaratish noqulay va ko'p vaqt talab etadi. Bu o'quv kontentlari, o'yinlar va filmlar ishlab chiqarishga ulkan vaqt va pul mablag'larini talab qilishiga, shuningdek, 3D modellarni qalam bilan chizgandek osongina yarata olishiga yordam beradi. Bizni oldimizga qo'yadigan qiyin va uzoq masofali maqsad, raqamli kontent yaratuvchilariga, xoh tajribali raqamli rassomlar bo'lsin, xoh oddiy havaskor bo'lishidan qat'iy nazar,

real dunyo kabi boy virtual olamlarni tezda namoyish etish va sintez qilishlariga imkon berishdir. Shu maqsadda 3D kontentni sintez qilish qobiliyatini va tezligini oshirish uchun juda ko‘p tadqiqotlar qilinishi kerak.

3D modellashtirishning turli xil muhim va qiyin muammolarini bayon qilamiz va ularni hal qilishimiz mumkin bo‘ladi. Xususan, biz ma’lumotlar grafikasi asosida optimallashtirishni kompyuter grafikasi va kompyuterni ko‘rish nuqtai nazaridan modellashtirishning muhim vazifalariga tatbiq etamiz. Grafika nuqtai nazaridan maqsad raqamli dunyoda rassomlarga 3D kontentni yaratishda yordam beradigan kuchli va intuitiv modellashtirish vositalarini ishlab chiqishdir. Ko‘rish nuqtai nazaridan maqsad – tasvir ma’lumotlaridan obyektlar va sahnalarning real 3D modellarini tiklashdan iborat.




1-rasm. ***Kompyuter grafikasi konveyeri.***

Kompyuter grafikasidagi modellashtirish virtual muhitda 3D moslamalarni aks ettirish uchun matematik modellarni yaratish jarayonini anglatadi. Lap-Fai Yu o‘z ishlarida 3D kompyuter grafikasi konveyer liniyasida modellashtirishning o‘rnini tasvirlagan (1-rasmda). Yaratgandan so‘ng, odatda 3D modellar taqdim etiladi, bu virtual muhitdagi yorug‘lik va 3D modelining aks ettirish xususiyatlari bilan o‘zaro ta’sirini hisobga olinadi, natijada virtual sahnaning yuqori sifatli sintetik qiyofasi paydo bo‘ladi, agar odatdagidek maqsad fotorealizmga erishishidir. Bunday virtual 3D modellarni ham jonlantirish mumkin. Masalan, kinofilmlarda ishlatiladigan 3D virtual belgilar odatda haqiqiy inson aktyorlari mazmunni ilgari surish uchun qanday harakat qilishlariga o‘xshash tarzda animatsiya qilinadi. Bundan tashqari, bunday virtual 3D modellar haqiqiy dunyoda 3D haqiqiy modelni yaratish uchun tayyorlanishi mumkin – bu so‘nggi paytlarda kompyuter yordamida dizayndagi 3D bosib chiqarish tendensiyasi hisoblanadi. Umuman olganda, 3D modellar turli xil grafikalar va dizayn dasturlarida muhim shartlar bo‘lib xizmat qiladi. Modellashtirish tadqiqotlarining katta kontenti virtual 3D model yaratish jarayonida yangiliklar kiritishga qaratilgan.


Qo‘lda model yaratish 3D modellarni yaratishning eng keng tarqalgan usuli bu qo‘lda ishlatiladigan vositalar. Ko‘p qirrali modellashtirish va raqamli haykaltaroshlik mashhur qo‘lda modellashtirish usullari bo‘lib, ular orasidagi tanlov yaratiladigan 3D model turiga bog‘liq. Mebel va binolar kabi sun’iy obyektlarni modellashtirish uchun ko‘pburchakli modellashtirishga ustunlik beriladi, chunki ko‘pburchakli to‘r tasviri odatda sun’iy narsalarning shakllariga mos keladi. Virtual odam xarakterlari kabi organik obyektlarni modellashtirish uchun, raqamli haykaltaroshlik, ortiqcha oro bermay modellash jarayonida qo‘shimcha moslashuvchanligi tufayli afzallik beriladi. Qo‘lda 3D model-

lashtirish odatda interaktiv modellashtirish dasturlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, 3ds Max, Maya, ZBrush. 3D modellashtirish keng ko‘lamini ta’minlaydigan interfeyslari juda real va batafsil 3D modellarni yaratishga imkon beradi. Biroq, boshqaruvning murakkabligi juda keskin vaziyatni keltirib chiqaradi, shuning uchun 3D modellashtirish professional raqamli rassomlarning yutug‘iga aylandi. Ammo hatto professional o‘qitilgan mutaxassislar uchun ham keng imkoniyatli 3D modellarni yaratish hali ko‘p vaqt va kuch sarflashni talab qiladi. Odatda juda ko‘p miqdordagi yuqori sifatli 3D modellarni talab qiladigan o‘rgatuvchi dasturlar, so‘nggi o‘yinlar va filmlar yaratish uchun juda ko‘p sarmoya talab qiladi. Bu ishlab chiqarish tezligi va yillik nashrlar sonini keskin cheklaydi. 1980-yillarda video o‘yin odatda oddiy 2 o‘lchovli grafikalarni o‘z ichiga olgan va butun ishlab chiqarishni kichik jamoa amalga oshirishi mumkin bo‘lgan vaziyatdan farqli o‘laroq, bugungi kunda video o‘yin va kino sanoatida ishlab chiqarish uchun hozirda 3D texnologiyalarning qo‘llanilishi hisobiga biroz qiyinchilik vujudga kelgan. 3D modellarni yaratishda qo‘lda yondashish, ehtimol rassom uchun qiyinchilik tug‘dirmasligi mumkin. Biroq kuchli va aqlli modellashtirish vositalari va interfeyslarini ishlab chiqishda osonlik bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin. Darhaqiqat, kompyuter grafikasini tadqiq qilishda interaktiv modellashtirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha doimiy harakatlar olib borilmoqda.

“Umumta’lim maktablaridagi barcha fanlardan 3D formatli elektron qo‘llanma yaratish va foydalanish metodikasi” mavzusidagi tadqiqot doirasida elektron qo‘llanma ishlab chiqildi. Bunda Elektron qo‘llanmaning 3D dars namoyishi ko‘rinishi quyidagicha (2-rasm) va (3-rasm).



2-rasm. ***Elektron qo‘llanmaning 3D dars namoyishi ko‘rinishi.***



3-rasm. ***Elektron qo‘llanmaning 3D dars namoyishi ko‘rinishi.***

O‘quvchilarga har doim ham matematik masalalarni va kompyuterning ichki qismlarini ochib, yechib ko‘rsatish imkoni bo‘lavermaydi. Ayniqsa, hozirda jamiyatda ommalashib borayotgan monoblok ko‘rinishidagi zamonaviy kompyuterlarda ichki qismlarini ochib ko‘rish juda mushkul hisoblanadi. Buning imkoniyati mavjud bo‘lgan kompyuterlar esa bugunga kelib ma’nan eskirganligi sababli muomaladan chiqa boshladi. Shu bilan birga o‘quv dasturlari mazmunining keskin yangilanib borishi ham bunga yo‘l qo‘ymaydi. 3D texnologiyalar (video, foto va animatsiya) sistemalarga mo‘ljalangan texnologiyalar hisoblanadi. Bugungi kunda 3D texnologiyalari o‘quvchilarning tasavunini oshirish va turli xil texnologik qurulmadan foydalanishga yordam beruvchi eng yaxshi texnologiyalardan biri hisoblanadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan darsda foydalanish dars samaradorligini oshiradi shu jumladan, 3D texnologiyadan dars jarayonida 15-20 minutdan ortiq bo‘lmagan holda va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanish tavsiya etiladi. Aynan bugungi kunda umumta’lim fanlarni o‘qitishda modellashtirishning bu imkoniyatlaridan foydalanishga yaxshi samara beradigan ta’limiy vosita sifatida qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lap-Fai Yu. Data-Driven Optimization for Modeling in Computer Graphics and Vision. A dissertation submitted in partial satisfaction of the requirements for the degree Doctor of Philosophy in Computer Science. University of california. Los Angeles. 2013. 198 P.

2. Isaqulov T.M. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmadan foydalanish // Pedagogika. – T., 2020. – 2-son. 109-112. (13.00.00 № 6).

3. Isaqulov T.M., 3D formatli interaktiv elektron qo‘llanmani yaratishga qo‘yiladigan talablar // Xalq ta’limi. – T., 2020. – 5-son. – 102-105-bet (13.00.00 № 17).

Muxtasam BORATOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti p.f.f.d.
Oygul ISHBOEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti p.f.f.d.

BIOLOGIYANI O‘QITISHDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING UZVIYLIGI VA UYG‘UNLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanini ta’limiga yangicha yondashuv asosida modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, biologiyani o‘qitishda foydalaniladigan ma’ruza mashg‘ulotlarining turlari, unda modulli ta’lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning uzviyligi va uyg‘unligini ta’minlash yo‘llari hamda o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llash orqali ta’limning sifati va samaradorligini orttirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Modul ta’limi, algoritm, ma’ruza, nutq, taqdimot (prezentatsiya), axborot-tahliliy; muammoli; tashkiliy-yo‘naltiruvchi (yoki “установочны” – yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma beruvchi); ma’ruza-maslahat; ma’ruza-dialog; hodisaviy ma’ruza. ma’ruza-panel, Mini-ma’ruzalar, ochiq ma’ruzalar, interfaol usul, bahs, munozara, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy axborot texnologiyalari.

В данной статье описано исползование модульных образовательных технологий на основе нового подхода к биологическому образованию в высших учебных заведениях, виды лекций, исползуемые при обучении биологии, способы обеспечения согласованности и гармонии использования модульных образовательных технологий и современных информатционных технологий, вопросы повышения качества и эффективности образования за счет использования интерактивных методов обучения.

Ключевые слова. Модульное обучение, алгоритм, лекция, выступление, презентатция (презентатция), информатционно-аналитический; проблема; организатционно-директивный (или «установочный» - руководящий, инструктивный); лекция-консултатция; лекция-диалог; лекция о мероприятии. лекторий-панель, мини-лекции, открытые лекции, интерактивный метод, дебаты, дискуссия, педагогические технологии, сотциально-информатционные технологии

This article describes the use of modular educational technologies based on a new approach to biological education in higher educational institutions, the types of lectures used in teaching biology, ways to ensure consistency and harmony in the use of modular educational technologies and modern information technologies, issues of improving the quality and effectiveness of education through use of interactive teaching methods.

Key words. Modular learning, algorithm, lecture, speech, presentation (presentation), information-analytical; problem; organizational and directive (or "installation" - guiding, instructive); lecture-consultation; lecture-dialogue; event lecture. lecture-panel, mini-lectures, open lectures, interactive method, debates, discussion, pedagogical technologies, social information technologies.

Milliy yuksalish yo‘lida rivojlanayotgan Yangi O‘zbekistonni iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va mazkur

jarayon samaradorligini ta’minlovchi kasbiy ta’lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyat yuklangan.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim[1].

Yuqorida keltirilgan fikrlarning tasdig‘i sifatida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish bo‘yicha bir qator strategiyalar belgilib olindi. “Harakatlar strategiyasi” O‘zbekistonda huquqiy demokratik asosdagi xalq davlatini barpo etish yo‘lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat hisoblanib, uning 4-bo‘limini “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 4.4-bandida “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” masalalari o‘z aksini topgan bo‘lib, unda:

– uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish:

– ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish;

– ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish kabi vazifalari belgilab olindi.

Modul ta’limi – o‘quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo‘lib, unga ko‘ra o‘quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma’lum bosqich va qadamlar asosida o‘zlashtiriladi (B.P.Farberman).

Modul ta’limi zamonaviy ta’limning istiqbolli turi sanaladi. U o‘quv materialini kodlashtirishga asoslanadi. O‘quv materialini kodlashtirishda matnga asoslangan axborot (ma’lumot)lar imkon qadar muayyan shaklga kiritiladi. Ya’ni, o‘quv axborotlarining mohiyati surat, grafika, tasvir, jadval, diagramma, sxema, model, turli ramzlar, shartli (matematik, fizik, geometrik va boshqa belgilar yordamida kodlashtiriladi.

Kodlashtirish o‘z-o‘zidan o‘quv materialining hajm jihatidan zichlanishini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada fanlarning elektron resurslari yig‘iladi, elektron o‘quv uslubiy majmualar (modullar), elektron ta’limiy dasturlar va virtual laboratoriyalar yaratiladi. Mazkur elektron ta’lim resurslari va vositalari ma’ruza mashg‘ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zaro uyg‘unlashuviga olib keladi. Shu o‘rinda zamonaviy ma’ruzalarni turi va tashkil etilishi xususida to‘xtalib o‘tamiz

Zamonaviy ma’ruzalarning ta’lim tizimidagi o‘rni katta, chunki talabalar bilimini oshirish zamonaviy ma’ruzalarga bog‘liqdir. Ma’ruza, nutq, taqdimot (prezentatsiya) – aniq mavzu bo‘yicha ma’lumotni taqdim etishning umumqabul qilingan usuli hisoblanadi. Ma’ruzada tizimli ravishda, ma’lum ketma-ketlik asosida nazariy xarakterdagi

1 2018-yil 28-dekabr O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi.

materiallar o‘qituvchi (ma’ruzachi) tomonidan tinglovchilar e'tiboriga yetkaziladi. Ko‘pgina ko‘rsatkichlar bo‘yicha ‘‘Ma’lumotni uzatish, yetkazish’’ eng qiyin uslublardan biri hisoblanadi. Ma’lumotlar va axborotlarni ma’ruza shaklida uzatish oliy ta’lim tizimida o‘qitish uslublaridan biri bo‘lib, tinglovchilarning bilim darajalari, malakasi, tayanch ma’lumotlari va yoshiga, ayrim hollarda jinsiga ham bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Ma’ruza o‘qiyotgan pedagog talabalarga “jonli” bilimni yetkazadi, ya’ni u mavzu bo‘yicha axborot yoki ma’lumot bermaydi, u olim, o‘z sohasining egasi, targ‘ibot qiluvchi notiq va auditoriyani to‘liq his qiluvchi tarbiyachi sifatida chiqish qiladi. Aytish lozimki, hozirgi zamonaviy axborot va kommunikatsion vositalar ma’ruza o‘rnini bosa olmaydi, fanning ilmiy va tarbiyaviy xususiyatlari, auditoriya holati, bilishning psixologik qonuniyatlari, tinglovchi tomonidan eshitilgan ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlari, tinglovchining dunyoqarashi, hissiyoti va e'tiqodini yangi axborot texnologiyalari imkoniyatlari bir vaqtda hisobga ololmaydi. Shu sababli, hozirgi sharoitda ma’ruzalarning quyidagi xususiyatlarining ahamiyati oshib bormoqda:

● axborot berish, uzatish (mavzu bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborot va ma’lumotlar beriladi);

● motivatsion (fan, bilimga ehtiyoj, nazariyaga ishonch va o‘rganiladigan mavzuning amaliy ahamiyatiga qiziqishni uyg‘otish);

● tashkiliy-yo‘naltiruvchi (manbalar va o‘quv adabiyotlariga yo‘naltirish, mustaqil ishni tashkil etish bo‘yicha maslahatlar);

● kasbiy-tarbiyaviy (kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash, kasbiy etika va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish);

● metodologik (tushuntirish, tahlil qilish, interpretatsiya va oldindan bilishning ilmiy uslublari);

● baholash va rivojlantiruvchi (fikrlash, idrok qilish, munosabat bildirish, baholash) qobiliyatlarini shakllantirish.

Zamonaviy ma’ruza avvalgi o‘qitishning “nofaol” usulidan “faol” usuliga o‘tmog‘i, bahs, munozara, suhbat, muhokama shaklida, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ishlarning uyg‘unligi, ya’ni innovatsion va interaktiv usullarda tashkil etilmog‘i lozim. Ayrim pedagoglar o‘qitishning interaktiv uslublari deganda zamonaviy o‘quv-vizual materiallar[2] (multimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma’ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va boshqalardan) hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va boshqalardan) foydalanish, ma’ruza matnlarini oldindan talabaga taqdim etib, talabaning darsga tayyor bo‘lib kelishini ta’minlash kabilarni tushunishadi.

Ma’ruzani rejalashtirishda uning qanday ma’ruza ekanligini hamda ma’ruza maqsadini to‘g‘ri aniqlash ham muhim hisoblanadi. Ma’ruzalar didaktik vazifasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Kirish ma’ruzasi. Bunday ma’ruzaning vazifasi talabalarga fan to‘g‘risida umumiy yo‘nalish berish, ularda qiziqish uyg‘otish, qo‘yilgan savollar bo‘yicha mustaqil fikrlash va javoblar izlashga yo‘naltirishdan iborat. Bunday ma’ruzada tashkiliy-yo‘naltiruvchi va motivatsion funksiyalar ustun turadi.

2. Mavzu bo‘yicha ma’ruza. Ma’ruzada aniq bir muammo yoki mavzu bo‘yicha ma’lumotlar namoyish etilib, tahlil qilinadi, xulosa chiqarilib isbotlanadi. Ma’ruzani rejalashtirishda axborot berish, tashkiliy-yo‘naltiruvchi va metodologik funksiyalarga

2 Завада Г.В., Бушмина О.В. Педагогика высшей школы: Конспект лекций. – Казань: Казан. гос. энерг. ун-т, 2010. – С. 66-70.

ko‘proq e’tibor qaratish talab etiladi.


3. Yakuniy yoki umumlashtiruvchi ma’ruza. Ma’ruza maqsadi – semestr davomida o‘tilgan mavzular bo‘yicha berilgan materiallarning o‘zak g‘oyasi va mohiyatini maksimal darajada qisqa shaklda berib, obyektlar va holatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va bog‘lanishlarni ajratib tizimlashtirishdan iborat.

Ma’ruzalar uni rejalashtirishdagi ustun turuvchi funksiyalarni amalga oshirish mazmuniga qarab ham quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin:

- axborot-tahliliy;
- muammoli;
- tashkiliy-yo‘naltiruvchi (yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma beruvchi);
- ma’ruza-maslahat;
- ma’ruza-dialog;
- hodisaviy ma’ruza.

AQShda hozirgi kunda ma’ruza-panel amaliyotda ko‘plab qo‘llanadi. Bunday ma’ruzalardagi munozara va bahslarda qo‘yilgan muammo yechimi bo‘yicha o‘z dunyoqarashi va fikriga ega bo‘lgan bir necha yuqori malakali ekspertlar ishtirok etishadi. Shuningdek, amaliyotda bir necha ma’ruzachilar ishtirokidagi ma’ruzalar, ya’ni har bir ma’ruzachi o‘z pozitsiyasiga (ma’ruzachi, ekspert, tanqidchi, mavzu bo‘yicha muammo tashlovchi va boshqalar) ega bo‘lgan ma’ruzalar ham keng qo‘llaniladi[3].

Zamonaviy ma’ruzalarning turli xilda ekanligini e’tiborga olgan holda, klassik ta’lim modeli doirasida ma’ruzaning yuqoridagi xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. ***Klassik ta’lim modeli doirasida ma’ruzaning xususiyatlari***

Ochiq ma’ruzalar – muayyan fan bo‘yicha o‘quv dasturidagi mavzuni talabalar, shuningdek, shu mavzuga qiziqish bildirgan va maxsus taklif etilgan professor-o‘qituvchilar, olim va mutaxassislar auditoriyasida ma’ruza shaklida o‘tkaziladigan darslar ochiq ma’ruzalar deb ataladi. Ochiq ma’ruzalarni o‘tkazishdan maqsad professor-o‘qituvchilarni tegishli fan, texnika va texnologiyalari sohalari bo‘yicha jahonda erishilgan yutuq va yangiliklar bilan xabardor bo‘lishlariga erishish va ular asosida zamonaviy pedagogik

3 Сивашинская Е.Ф., Пунчик В.Н. Педагогические системы и технологии. Курс лекций для студентов педагогических специальностей ВУЗов. - Минск: ‘‘Экоперспектива’’, 2010. –С. 81-88.

va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda ma’ruzalarni tayyorlash, o‘tkazish va shu tariqa ta’lim sifatini oshirish hamda tayyorlanadigan kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlashdan iboratdir. Ochiq ma’ruzalarni o‘tkazish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- talabalarga fandagi so‘nggi yutuq va yangiliklarni yetkazish;
- ta’lim sifatini boshqarishda fan, ishlab chiqarish va jamoatchilik ishtirokini ta’minlash;
- ilmiy-uslubiy jihatdan yetuk ma’ruzalarni targ‘ibot etish;
- yosh va bo‘lajak pedagog kadrlarning kasb mahoratini oshirish;
- ilmiy unvonga ega bo‘lgan professor o‘qituvchilarning o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish ustida muntazam ishlashlarini ta’minlash va ularda o‘quv jarayonidagi mas’uliyatni oshirish;
- yuqori saviyadagi ma’ruza mualliflarini rag‘batlantirish va taqdirlash.

Ochiq ma’ruzalar odatda, o‘z sohasi bo‘yicha taniqli yoki ilmiy maktab yaratgan, ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lgan tajribali professor o‘qituvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi. Ma’ruzani to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qish o‘qitishning samarali uslubi sifatida xato hisoblanadi, chunki ma’ruzachidan juda qisqa vaqt davomida katta hajmdagi ma’lumotlarni tinglovchilarga yetkazish talab etiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ma’ruza davomida bevosita faol ishtirokchi sifatida qatnashishsa, ma’ruza samaradorligi oshadi, ayrim hollarda mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasi 20 foizdan 80 foizgacha yetishi mumkin. Buning uchun ma’ruzalar innovatsion-pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning interaktiv usullaridan keng foydalanilgan holda o‘tilishi zarur.

Tadqiqotchilar tomonilan ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tishda ochiq ma’ruzalardan foydalanish, mavzuning talabalar tomonidan qiziqish bilan o‘zlashtirilishida quyidagilar, ya’ni:

- talabalarga fandagi so‘nggi yutuq va yangiliklarning professor-o‘qituvchilar tomonidan yetkazilishi;
- zamonaviy ta’lim tizimida fanlar bo‘yicha ilmiy-uslubiy jihatdan yetuk ma’ruzalarning talabalarga targ‘ibot etilishi;
- pedagog kadrlar kasb mahoratining ma’ruzalarni tashkil etish texnologiyalari asosida oshirilishi[4] taklif etilgan.

Xulosa qilib aytganda, talabalar hozirgi axborotlar makonida zarur va kerakli ma’lumotlarni mustaqil ololmaydi, u adashishi mumkin, ma’ruza esa unga yo‘l ko‘rsatadi. Lekin ma’ruza eski an'anaviy usulda mavzu materiallarni ‘‘o‘qib berish’’ bo‘lib qolmasligi kerak. Zamonaviy ma’ruza avvalgi o‘qitishning ‘‘nofaol’’ usulidan ‘‘interfaol’’ usuliga o‘tishi, bahs, munozara, suhbat, muhokama shaklida, amaliy ishlarning uyg‘unligi, ya’ni interaktiv usullarda zamonaviy axbort kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2018-yil 28-dekabr O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy murojaatnomasi.
2. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi
3. Завада Г.В., Бушмина О.В. Педагогика высшей школы: Конспект лексий. – Казан: Казан. гос. энерг. ун-т, 2010. – С. 66-70.

4 Maxsudov V.G. Zamonaviy ta'lim tizimida fanlar bo‘yicha ma'ruza turlari hamda ularni tashkil etish texnologiyalari. ZAMONAVIY TA'LIM / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2017, 2. 54-59-bet)

Dilnoza TAYLAKOVA,
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri

INTERAKTIV METODLAR PLATFORMASINI YARATISH

Annotatsiya

Maqolada interaktiv metodlar platformasi va interfaol texnologiyalarni qo‘llashning asosiy vazifasi ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining faol o‘zaro ta’siri bilan qulay o‘quv sharoitlarini yaratish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif interfaol o‘qitish usullarini tanlash mezonlari, interfaol ta’limning xususiyatlarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Interaktiv, interfaol o‘qitish, platforma, metod, jarayon, mezon, xususiyat, muayyan, platforma.

В статье отражена платформа интерактивных методов и основная задача применения интерактивных технологий для повышения качества образования, создания благоприятных образовательных условий при активном взаимодействии всех участников образовательного процесса. В качестве таковых, критериев выбора интерактивных методов обучения, упоминаются особенности интерактивного обучения.

Ключевые слова. Интерактивный, интерактивное обучение, платформа, метод, процесс, критерий, особенность, специфика, платформа.

The article reflects on the platform of interactive methods and the main task of applying interactive technologies to improve the quality of education, create favorable educational conditions with the active interaction of all participants in the educational process. As such, the criteria for choosing interactive teaching methods, mentioned the features of interactive learning.

Key words. Interactive, interactive teaching, platform, method, process, criterion, feature, specific, platform.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga quyiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Bu kabi metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va tarbiya

jarayonida o‘qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liklikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ta’lim va rivojlanish abadiy pedagogik muammolarga tegishli. Insoniyat jamiyatining turli bosqichlarida, hatto turli etnik jamoalarda ham, ijtimoiy guruhlarda ham bu muammo vaqti-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqilgan, hal qilishga harakat qilingan va turli yo‘llar bilan hal qilingan. Biroq, ushbu muammoni hal qilish bilan ozmi-ko‘pmi band bo‘lgan ta’lim tizimining barcha darajalaridagi o‘qituvchilar, uni yengib o‘tish variantlari paydo bo‘lganda, aniq javoblarsiz geometrik progressiya tartibida yangi savollarga ega. Boshqa rivojlanish usullarining so‘zsiz afzalliklari bilan biz o‘qituvchi va talabalarning kognitiv birgalikdagi faoliyatiga asoslangan interfaol o‘qitish usullariga e’tibor qaratamiz. Shuni esda tutish kerakki, o‘quv ishlarini tashkil etish sharoitida, xususan, interfaol o‘zaro ta’sir, ta’limni rejalashtirish va tashkil etish shakli yetakchi usulni tanlashni belgilaydi.

Shuni tan olish kerakki, bugungi kunda maqsadga erishish, ta’limda o‘quvchilarini mustaqil o‘zlashtirish, bilimlarni egallash va tushunish uchun sharoit yaratmasdan o‘qitish muammolarini hal qilish mumkin emas. O‘quv jarayonida o‘quv materialini eng yuqori sifatli idrok etish va o‘zlashtirish shaxslararo kognitiv aloqa va barcha subyektlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Guruhlarning o‘zaro ta’siri usullari odatda interaktiv deb nomlanadi. Ular o‘yinning o‘zaro ta’siri jarayoniga yoki o‘zaro ta’sir mexanizmiga asoslangan (ingliz tilidan tarjima qilingan “o‘zaro ta’sir, ta’sir” degan ma’noni anglatadi).

Interaktsiya deganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxslararo aloqa, aloqa tushuniladi. O‘zaro munosabatlarning eng muhim xususiyati-bu shaxsning boshqasining rolini qabul qilish va tushunish qobiliyati; aloqa sherigi yoki guruhi tomonidan qanday qabul qilinishini tasavvur qilish va shunga muvofiq o‘z harakatlarini rejalashtirish.

O‘qish sharoitida o‘quv jarayonida o‘qituvchi va talabalarning interaktiv o‘zaro ta’sirining mazmuni dasturiy o‘quv materialidir.

Zamonaviy maktab uchun interfaol ta’limning maqsadi, uni modernizatsiya qilish sharoitida, o‘quvchilarining umumiy rivojlanishi, ularning har biriga shaxsiy shakllanish va rivojlanishda, o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlarini kengaytirishda maqbul imkoniyatlarni taqdim etish hisoblanadi. Shu bilan birga, talabaning umumiy rivojlanishi uning ehtiyoj, intellektual, hissiy-ixtiyoriy sohalarida shaxsiy neoplazmalarning rivojlanishini o‘z ichiga oladi.

Bunday muloqotning natijasi o‘quvchlarning o‘quv faoliyati jarayonida muvaffaqiyat holatini boshdan kechirishi va ularning motivatsion, intellektual va boshqa sohalarini o‘zaro boyitishi uchun didaktik sharoitlarni yaratishdir. O‘qituvchi va talabalarning nisbatan qisqa vaqt ichida hamkorligi, o‘zaro ta’siri, faoliyati talabaning muayyan faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydigan operativ, mavzudan tashqari, universal ko‘nikma va harakatlarning shakllanishi va rivojlanishini ta’minlaydi deb taxmin qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, interfaol ta’lim har bir talabani ushbu yo‘nalishda alohida o‘qitishdan ko‘ra samaraliroqdir. Eng muhimi, talabaning salbiy shaxsiy yutuqlarini tuzatish, interaktiv ta’lim jarayonida o‘zgartirish mumkin, garchi talabalar o‘z bilimlari va ulardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini mustaqil ravishda o‘zgartiradilar.

Interfaol o‘qitish usullarini tanlash mezonlari:

– maktab o‘quvchilarini o‘qitish va rivojlantirishning maqsad va vazifalariga muvofiqligi;

– darsning didaktik maqsadlariga muvofiqligi;
– dars mavzusining mazmuniga muvofiqligi;
– o‘quvchilarining yoshi, intellektual imkoniyatlari va ularning tayyorgarligi va tarbiyasi darajasiga, umuman sinfning xususiyatlariga muvofiqligi;
– o‘qitish vaqt doirasiga muvofiqligi;
– muayyan o‘qituvchining professionalligi va tajribasiga muvofiqligi;
– o‘quv faoliyatini boshqarish uslubiga muvofiqligi;
– o‘quv jarayoni mantig‘iga muvofiqligi.

Interfaol ta’lim sharoitida o‘qituvchi faoliyatining asosi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga rioya qilishning asosiy talablari:
– o‘qituvchining insoniy pedagogik pozitsiyasi;
– talaba, ijodkorlikka qiymat munosabati;
– madaniy, axborot va mavzuni rivojlantirish muhitini yaratish;
– ta’lim texnologiyasining metodologiyasi va asoslarini bilish;
– o‘quvchining individualligini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilari o‘rtasida interfaol aloqani rivojlantirishni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayonida o‘qituvchi asosan pedagogik faoliyatning bilvosita usullaridan foydalanadi, o‘quvchilarga maqsadga erishish vositalarini, etarli o‘quv harakatlarini, faoliyat sheriklarini tanlashda mustaqillik beradi. Muvaffaqiyatli interaktiv ish shartlari:

1. Qulay o‘quv maydonini tashkil etish va darsning didaktik jihozlari haqida o‘ylash.

2. Talabalar va o‘qituvchilarning sheriklik asosida hamkorlik qilishga psixologik tayyorgarligi.

3. Kognitiv va ijtimoiy motivatsiyaning kombinatsiyasi (o‘quvchilarni nafaqat o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga, balki hayot uchun zarur bo‘lgan amaliy bilim va tajribalarni izlashga, kashf etishga yo‘naltirish).

4. Barcha talabalarni dialog faoliyatiga jalb qilish. Interfaol ta’limning asosiy xususiyatini bilish: birgalikda ishlash har kimga foyda keltiradi.

5. Har bir talaba gapira olishi, eshitishi uchun ko‘p sonli guruhlarga yo‘l qo‘ymang.

Interaktiv – bu biror narsa (masalan, kompyuter) yoki kimdir (odam) bilan muloqot qilish, suhbat, dialog rejimida bo‘lish. Shuning uchun interaktiv ta’lim birinchi navbatda hamkorlikda o‘rganishdir. O‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari (o‘qituvchi, talabalar) bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ma’lumot almashadilar, muammolarni birgalikda hal qiladilar, vaziyatlarni modellashtiradilar. Bundan tashqari, bu nafaqat yangi bilimlarni olishga, balki kognitiv faoliyatning o‘zini rivojlantirishga imkon beradigan xayrixohlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitida sodir bo‘ladi.

Interfaol ta’lim – bu kognitiv faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli. U juda aniq va bashorat qilingan maqsadlarni nazarda tutadi: o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, intizomni o‘rganish uchun motivatsiyani kuchaytirish; o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish; aloqa ko‘nikmalarini shakllantirish; axborotni idrok etish va qayta ishlashning zamonaviy texnik vositalari va texnologiyalarini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish; mustaqil ravishda ma’lumot topish va uning ishonchliligini aniqlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish; sinf ish va talabalarning mustaqil ish hajmini oshirish.

Interfaol ta’limning xususiyatlari:

1. Ta’lim jarayoni shunday tashkil etilganki, deyarli barcha talabalar bilish jarayonida ishtirok etadilar, ular bilgan va o‘ylagan narsalarini tushunish va aks ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalarning bilim olish, o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida

birgalikdagi faoliyati shuni anglatadiki, har bir kishi o‘ziga xos individual hissa qo‘shadi, bilim, g‘oyalar va faoliyat usullari almashiladi.

2. Interfaol ta’limning asosiy uslubiy prinsiplari: atamalarni, o‘quv, kasbiy lug‘atlarni sinchkovlik bilan tanlash; talabalar turli xil rol funksiyalarini bajaradigan boshqaruv va kasbiy faoliyatning aniq amaliy misollarini har tomonlama tahlil qilish; barcha talabalar bir-biri bilan uzluksiz vizual aloqani saqlab turish; texnik o‘quv vositalaridan faol foydalanish; kutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda o‘qituvchining munozaraga shuningdek, talabalar uchun o‘quv dasturining yangi qoidalarini tushuntirish maqsadida; guruh darslarida individual darslar va individual qobiliyatlardan intensiv foydalanish; o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan me’yorlar, qoidalar, erishilgan natijalar uchun mukofotlar (jazolar) ga qat’iy rioya qilish rejimida o‘zaro ta’sirni amalga oshirish.

3. Interfaol ta’lim quyidagilarni o‘z ichiga oladi: elektron o‘quv va uslubiy nashrlarni muntazam ravishda yangilab turish va ulardan foydalanish; o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zamonaviy multimedia o‘quv vositalaridan foydalanish; holatlar bilan elektron ma’ruzalarni shakllantirish; talabalar va o‘qituvchilar nafaqat ma’ruzalarni tinglash, balki u yoki bu mavzuni muhokama qilish, ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lganda, Internet orqali real vaqt rejimida dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish. munozaralarda va boshqalar.

Interfaol texnologiyalardan foydalanish har qanday o‘quv jarayonida, shu jumladan, informatika fanini o‘qitishda zarur tarkibiy qismga aylanadi. Interfaol texnologiyalar kasbiy faoliyatning turli sohalarida noyob imkoniyatlarni ochib beradi, keng ko‘lamli muammolarni, shu jumladan, ta’lim sohasidagi muammolarni hal qilish uchun oddiy va qulay vositalarni taklif etadi.

Interfaol texnologiyalar o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir vositalari va usullari to‘plami sifatida, uning maqsadi har bir talabaga zamonaviy axborot texnologiyalari orqali umumiy xarakterdagi ma’lumotlarni shaxsiy bilim va ko‘nikmalarga aylantirishga, kompetentsiyalarni yanada shakllantirishga yordam berishdir.

Interfaol texnologiyalarni qo‘llashning asosiy vazifasi ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining faol o‘zaro ta’siri bilan qulay o‘quv sharoitlarini yaratishdir. O‘quv jarayonida interfaol texnologiyalardan doimiy foydalanish bilan talabalar bilan fikr-mulohazalar yaxshilanadi, bu an’anaviy o‘qitish bilan faqat bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirishga to‘g‘ri keladi. Interfaol o‘quv modelining elementlari darslarni boy va qiziqarli qiladigan texnika va usullarni o‘z ichiga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullardan foydalangan holda o‘quvchilarning bilim faolligini oshirish, mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirish, eng muhimi, o‘quv motivatsiyasini oshirish va umumiy kasbiy va axborot-tahliliy kompetentsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarasova I. M. Interfaol o‘qitish usullari tabiiy fanlarni o‘qitishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida / / xalqaro eksperimental ta’lim jurnali. – 2015. – № 5-1. 63-65 betlar;

2. Dyachenko V. K. O‘qitishda hamkorlik: o‘qitishning kollektiv usuli to‘g‘risida ishlar: o‘qituvchi uchun. M.: Ma’rifat, 1991. 192 p. (o‘qituvchining mahorati: g‘oyalar bo‘yicha maslahatlar, takliflar).

3. Dyachenko V. K. Qobiliyat bo‘yicha o‘qitish / / Xalq ta’limi. 1994. № 2-3.

Abdusalim KENJABOEV,
Termiz davlat universiteti,"Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti p.f.n

ETNOPEDAGOGIKA – MILLIY TARBIYANING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Etnopedagogika – milliy tarbiyaning asosi sifatida bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr bayon etiladi. Shuningdek, etnopedagogika – xalq pedagogikasining tarkibiy qismi sifatida yosh avlodni tayyorlashda ta'lim-tarbiyaga oid asosiy g'oyalari bilan tanishtirish orqali ularda pedagogik faoliyatda samarali foydalanishga zamin tayyorlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga asosiy e'tiborni qaratilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Etnopedagogika, xalq pedagogikasi, milliy pedagogika, milliy tarbiya, xalq tajribalari, ta'lim tarixi.

В данной статье излагается мысль о том, что Этнопедагогика – как основа национального воспитания-приобретает важное значение в воспитании подрастающего поколения сегодня. Этнопедагогика-подготовка подрастающего поколения как компонента народной педагогики, направленная главным образом на овладение им знаниями, умениями и навыками, которые, приобщая его к основным идеям воспитания, подготавливают почву для эффективного использования в педагогической деятельности.

Ключевые слова. Этнопедагогика, народная педагогика, народная педагогика, народное воспитание, народный опыт, История образования.

This article presents the idea that Ethnopedagogy – as the basis of national education - is becoming important in the education of the younger generation today. Ethnopedagogy is the preparation of the younger generation as a component of folk pedagogy, aimed mainly at mastering their knowledge, skills and abilities, which, by introducing them to the basic ideas of education, prepare the ground for effective use in pedagogical activity.

Key words. Ethnopedagogy, folk pedagogy, folk pedagogy, folk education, folk experience, History of education.

Insoniyat tarixining har bir bosqichida rivojlanish yo'nalishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning metodologik birligi qonuniyati asosida belgilangan. Ushbu qonuniyat jamiyatda hukm surgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar, g'oyalar va ideallar asosida ijtimoiy ong shakllari bo'lgan fan, san'at, madaniyat, ishlab chiqarish va turmush tarzi rivojlanishiga omil bo'lgan. Shu tariqa tarixiy taraqqiyot davomida barkamol shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish yuzasidan to'plangan boy ma'naviy meroslar xalq pedagogikasida o'z ifodasini topib borgan.

Demak, bo'lg'usi pedagog kadrlarni tayyorlashda aynan shu ma'naviy meros – xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid asosiy g'oyalari bilan tanishtirish orqali ularda pedagogik faoliyatda samarali foydalanishga zamin tayyorlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga asosiy e'tiborni qaratishimiz zarurdir.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy- ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlandi, tarbiya g'oyalari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirdi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalar, ta'lim-

tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi. Demak, ajdodlarimiz merosi bo‘lgan xalq pedagogikasini xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma’rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o‘rin tutgan. Chunonchi, xalq o‘zining ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta’lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Xalq pedagogikasining muhim yo‘nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo‘lgan xususiyatlarning saqlanishini ta’minlash sanaladi.

Shuni qayd etish kerakki, xalq pedagogikasidagi pedagogik qarashlar, allomalarimiz tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘qituvchining insoniy fazilatlari va kasbiy tayyorgarligi haqidagi bildirilgan fikrlar hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Xalqimiz pedagogik qarashlarining tahlili bu borada juda boy ma’naviy - ma’rifiy meros mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni xalqimizning ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha to‘plagan boy ma’naviy-ma’rifiy meros va pedagogik qarashlari bilan tanishtirish ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Xalq pedagogikasining asosiy tadqiqot obyekti xalqimizning axloqiy, ta’lim-tarbiyaviy qarashlari bo‘yicha to‘plangan boy ma’naviy-ma’rifiy meros va pedagogik g‘oyalari bilan tanishtirish jarayoni sanaladi. Mazkur jarayonda quyidagilar o‘rganiladi:

– xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy va milliy qadriyatlari;

– oilada farzand tarbiyasi, tarbiya metodlari, usul va vositalari; – o‘zbek xalqining axloqiy me’yorlari, muomala madaniyati;

– xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, sog‘lom turmush tarzining aks etishi;

– buyuk mutafakkirlarning pedagogik g‘oyalari;

– xalq og‘zaki ijodi va dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati;

– milliy urf-odatlar, marosimlar, an’analar, udumlar, xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlarining tarbiya vositasi sifatidagi o‘rni;

– xalq pedagogikasida diniy ta’limotlar;

– xalq pedagogikasida xalq amaliy san’ati, hunarmandchiligi va h.k.

Insoniyat tarixining har bir bosqichida rivojlanish yo‘nalishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning metodologik birligi qonuniyati asosida belgilangan. Ushbu qonuniyat jamiyatda hukm surgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar, g‘oyalar va ideallar asosida ijtimoiy ong shakllari bo‘lgan fan, san’at, madaniyat, ishlab chiqarish va turmush tarzi rivojlanishiga omil bo‘lgan. Shu tariqa tarixiy taraqqiyot davomida barkamol shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish yuzasidan to‘plangan boy ma’naviy meroslar xalq pedagogikasida o‘z ifodasini topib borgan. Demak o‘sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalashda aynan shu ma’naviy meros xalq pedagogikasining ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalari bilan tanishtirish orqali ulardan turmush tarzida samarali foydalanishga zamin yaratadi.


Xalq pedagogikasi zaminida turli xalqlar, elatlar pedagogikasi bilan shug‘ullanuvchi etnopedagogika fanining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni haqida fikr yuritmoqchimiz.

Boshqacha qilib aytganda, etnopedagogikani turli xalqlar tarbiyasining tarixi va nazariyasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Barcha xalqlarda benazir aql, xushmuomalalik, mardlik, haqqoniylik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi. Etnopedagog G.N.Volkovning ta’kidlashicha, “har bir xalqning kuchli va o‘ziga

xos jihatlarini ta’kidlovchi stereotik tavsiflar hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas”.[1] Nemischa tartiblilik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o‘zbekcha mehmondo‘stlik kabi ijobiy fazilatlar shular jumlasidandir.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o‘z asarlarida xalqimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimiz ahamiyati haqida to‘xtalib shunday degan: “Xalqimiz tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosimizning o‘zi bir xazina, bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim”.[2] Xalq pedagogikasi o‘z navbatida etnopedagogikaning predmetidir. Pedagogik fanlar, xalq pedagogikasi etnopedagogika o‘zaro munosabatga kirishadi va bir-birini to‘ldiradi.

Etnopedagogikaning asosiy manbalari



1. Xalq og‘zaki ijodi.
2. Milliy urf-odatlar, an’analar va marosimlar.
3. Diniy ta’limotlar.
4. Xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi.
5. Milliy musiqa, qo‘shiqchilik san’ati.
6. Tasviriy san’at.
7. Tarixiy yodgorliklar va milliy me’morchilik.
8. Xalq raqs san’ati.
9. O‘rta osiyo va o‘zbek xalqi mutafakkirlarining asarlari.

Etnopedagogika shunday saboq beradiki, sharq xalqlari, jumladan,o‘zbeklar bolalar tarbiyasiga befarq qaramaganlar, hayotdagi har qanday xatti-harakatning ham oqibati to‘g‘ri baholangan. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib ijobiy ta’sir ko‘rsatish yo‘li va vositalari yaratilgan. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deb bejiz aytilmagan. “Suvga tuflash gunoh bo‘ladi, yomon bo‘ladi” deb yoshlarga tushuntirilgan. Bu kabi maqollar, rivoyatlar xalqimiz tomonidan ardoqlangan. Buni negizida ekologik tarbiyaga oid tushunchalar shak-

1 Волков Г.Н. ‘‘Этнопедагогика’’ Т. ‘‘Фан’’ 2000 й
2 Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. – T.: O‘zbekiston, 1993-yil

llangan. Natijada suvlar hovuzlarda, maxsus joylarda toza saqlangan.

Bugungi zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida oilaning o‘rni yuqoridagi ijtimoiy maqomga erishish uchun ko‘proq negativ holatlarni tarbiya uchun ibrat qilmayaptimi? Masalan, ota-o‘g‘ilning mulk talashishi, onaning farzandlarini tashlab ketishi, aka-uka o‘z farzandlari oldida bir birini meros uchun sudga berishi, ota farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanishi o‘rniga uylanish dardida yurishi, qo‘shnilarning bir-birini kaltaklashi, qo‘shnisining uyida a’za bo‘lsa, yon qo‘shnisi to‘y qilishi-bularning barchasi yoshlarga “hayot mana shunday” degan “ibrat”ga, “namuna”ga asos emasmi? Onalar alla aytmay qo‘ydi, bobo-momolar ertak, rivoyat aytishni bilmayaptilar, o‘qituvchi darslikdan tashqari ma’lumot o‘qimaydi, natijada o‘quvchi ibratni kimdan o‘rgansin? Muammolar talaygina, yechimini yana o‘zimizdan topamiz, buning uchun quyidagi vazifalarga e’tibor qaratishni istardik:

– pedagogika oliy ta’lim muassasalarining talaba tanlovi fanlari, qo‘shimcha fanlar bloklariga ajratilgan o‘quv soatlariga “Milliy tarbiya asoslari”, “Xalq pedagogikasi”, “Ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari”, “Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatlar” kabi o‘quv kurslarini tashkil etish;

– umumta’lim maktablarida o‘quvchilar orasida “Ertaksevar”, “Hozirjavob”, “Zakovatli zukko” kabi tanlovlarni xalq og‘zaki ijodi janrlari va milliy qadriyatlar asosida tashkil etish;

– kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchi talabalarining mustaqil ishlarida xalq pedagogikasi namunalari asosida taqdimot, referat, animatsiya, multimediaga asoslangan mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish;

– mahallalarda “Ibratli oila” tanlovini o‘tkazish;

– uzluksiz ta’lim tizimida milliy tarbiyaga oid axloqiy-mafkuraviy va jismoniy yetuklik, imon-e’tiqod borasida ilk ta’lim-tarbiya beruvchi mutaxassislarni tayyorlash va ular orqali milliy g‘oyalarni yoshlarga yetkazish;

– xalq sayllari, bayramlarni keng nishonlash va ularda ifodalangan urf-odat va marosimlarni qadriyat sifatida yoshlar ongiga singdirish;

– yosh o‘qituvchilarni o‘zbek xalqining qadimiy qadriyatlarida ifodalangan fazilatlar bilan qurollantirish va ularni yoshlar tarbiyasiga tayyorlash va h.k.

Zero, hayot tezkor va shiddatkor. Biz texnika asrining ilg‘or avlodi bo‘lishimiz uchun avvalo, millatimizga xos tarbiyali, chidamli, bardoshli, qanoatli, eng asosiysi vijdonli inson bo‘lishimiz va farzandlarimizni ham shunday tarbiyalashimiz kerak. Xalqimiz aytganidek, “Nimani eksang, shuni o‘rasan”, “O‘z uyida xamir uzmagan, o‘zga uyda umoch uzipti” kabi maqollarni har birimiz qayta va qayta o‘qishimiz, uqishimiz kerak.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlashni istardikki, “O‘zbek xalq pedagogikasi” va uning asosiy manbalaridan bo‘lmish xalq og‘zaki ijodida inson ma’naviy-ruhiyatidagi yaxshilik, ezgulik, qadr-qimmat va sha’nini ulug‘lovchi sahifalar rang-barangdir. Hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasi, istiqlol mafkurasi shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – T.: O‘zbekiston NM.IU.2017-yil.
2. Karimov I.A. “Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik”, – T.: O‘zbekiston, 1991-yil.
3. Volkov G.N. Etnopedagogika. – T.: Fan, 2000-yil.

Akbar DJURAYEV,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Bosh ilmiy-metodik markaz

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ADAPTIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida adaptiv boshqaruvning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari berilgan. Universitetda boshqaruv tizimi o'z-o'zidan mavjud bo'lolmaydi, balki tashkiliy-pedagogik jarayonlarning bir qismi sifatida qo'llaniladi, bu esa ushbu jarayonlarga o'rnatilgan boshqaruv tizimining sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarida aks etishi kerak.

Kalit so'zlar. Moslashish, boshqaruv, adaptiv boshqaruv, oliy ta'lim, samaradorlik.

В данной статье приведены организационно-педагогические условия адаптивного управления в высших учебных заведениях. Система управления в вузе не может существовать сама по себе, а используется в составе организационно-педагогических процессов, что должно отражаться на показателях качества и эффективности системы управления, заложенных в этих процессах.

Ключевые слова. Адаптация, управление, адаптивное управление, высшее образование, эффективность.

This article presents the organizational and pedagogical conditions of adaptive management in higher education institutions. In the university, the management system cannot exist by itself, but is used as a part of organizational and pedagogical processes, which should be reflected in the quality and efficiency indicators of the management system built into these processes.

Key words. Adaptation, management, adaptive management, higher education, efficiency.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yanada rivojlantirilayotgan ta'lim siyosatining muvaffaqiyatli davomi sifatida mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish, pirovardida, bu raqobatbardosh milliy innovatsion tizimni ishlab chiqish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi kunda zamonaviy jahon bozoriga chiqishning hal qiluvchi omili raqobatbardosh va innovatsion sanoatni yaratish va rivojlantirishdir. Sanoatning raqobatbardoshligi endi investitsiyalar hajmi bilan emas balki innovatsiyalar darajasi bilan o'lchanadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham fan-texnika salohiyatini kuchaytirish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish natijasida sanoatni innovatsiyalar asosida rivojlantirish mumkinligi qayd etilgan. Boshqacha aytganda, innovatsion rivojlanish yangi sharoitlarda ilmiy-texnikaviy inqilobning davomi hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion siyosatda yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqarish, tarqatish va qo'llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Bu siyosat mamlakat ijtimoiy innovatsion salohiyatining barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, shuningdek, fan va ta'lim, ilmiy asoslangan jamiyat va madaniyatning barqaror rivojlanishini yo'lga qo'yishga qaratilgan. Shunday qilib, bugungi kunda fan va ta'lim

davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘plab oliy ta’lim muassasalari innovatsion rivojlanishga qaratilgan. Bu ularning mehnat bozori, iqtisodiyotning real sektori, hududlar va mamlakat innovatsion infratuzilmasi bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan rivojlanish strategiyasi va dasturlarida o‘z ifodasini topmoqda. Biroq, turli universitetlarda innovatsion rivojlanishni amalga oshirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlari, qoida tariqasida, sezilarli darajada farqlanadi, bu esa universitetning sanoat yoki mintaqa (mamlakat) innovatsion tizimidagi o‘ringa da’vo qilish darajasini ko‘rsatadi. Biz turli o‘lchamdagi, idoraviy mansublikdagi va mamlakatimizning turli hududlarida joylashgan 12 ta mahalliy universitetni rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalarini tahlil qildik. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘lami, tarixiy va mavjud salohiyatiga qarab, turli darajadagi innovatsion rivojlanishning turli strategik maqsadlari mavjud. Bu strategik rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib, oliy ta’lim tashkilotlarining innovatsion rivojlanish darajalarini (holatlarini) farqlash imkonini berdi (1-jadval). Shuningdek, biz universitetlarning innovatsion rivojlanish darajasining har biri o‘ziga xos boshqaruv yondashuvlari va innovatsion yechimlar va texnologiyalardan foydalanish yoki ishlab chiqarish mexanizmlariga mos kelishini aniqladik.

1-jadval

Oliy ta’lim tashkilotlarining innovatsion rivojlanish darajalari	
1.	Zamonaviy universitetning innovatsion rivojlanishini moslashuvchan boshqarish tuzilmasi
2.	Innovatsion universitetning rivojlanish maqsadlari darajalari boshqaruvga xos yondashuvlar

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida ta’m va kadrlar tayyorlashning yuqori sifatini ta’minlash tashqi omillarning kuchli ta’siri ostida ma’lum maqsadlarga erishish imkoniyatini saqlab qolish uchun universitet boshqaruv tizimining tashqi o‘zgarishlarga moslashish darajasini rejalashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish, qaror qabul qilish, tashqi omillarning kuchli ta'siri ostida innovatsion muammolarni hal qilish uchun maxsus funksiyaga ega.

Uchinchi darajadagi transformatsiya darajasida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi-universitetlarining innovatsion rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri bu mintaqaviy yoki mintaqaviy yetakchilikka erishish (yoki mustahkamlash) imkoniyati va zarurligini asoslaydigan uzoq muddatli tizimli rivojlanish dasturlarining mavjudligi. Innovatsiyalarni faol ishlab chiqarish va loyihalarni boshqarish texnologiyalarini qo‘llash orqali tarmoq ta’lim bozorlari. Bundan tashqari, innovatsion rivojlanishning past darajasida bo‘lgan universitetlardan farqli o‘laroq, bunday dasturlar deklarativ, rasmiy emas, ular o‘rnatilgan amalga oshirish mexanizmlariga ega, tashkiliy, kadrlar, uslubiy va boshqa resurslar bilan ta’minlangan, samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari tizimiga ega. Bundan tashqari, innovatsion transformatsiyalar darajasida bo‘lgan universitetlarni strategik rivojlantirish dasturlarining aksariyati O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi yoki boshqa tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan, bu ularning darajasini oshirishga yordam beradi. Ba’zi mualliflar ta’kidlaganidek, innovatsiyalar nazariyasida innovatsiyalarning ikki turi ularni amalga oshirish prinsipiga ko‘ra farqlanadi: “yuqoridan” innovatsiyalar va “pastdan” innovatsiyalar. “Yuqoridan” innovatsiyalar ta’sischilarning

boshqaruv va moliyaviy kanallaridan foydalangan holda ma'muriy usullar bilan amalga oshiriladi. Universitetni innovatsion rivojlantirish bo'yicha qaror eng yuqori darajada qabul qilinadi va universitetning amalga oshirilishiga taqdim etiladi. Universitetning bunday innovatsion rivojlanishi, qoida tariqasida, butun oliy ta'lim tizimini isloh qilishda qayd etilgan va davlatni modernizatsiya qilish rejalarining bir qismidir.

Umuman olganda, zamonaviy mahalliy universitetlarning innovatsion rivojlanishi, bizning fikrimizcha, o'zgartirish yoki tuzatish bosqichlarida eng to'liq namoyon bo'ladigan quyidagi tipik tashkiliy-pedagogik muammolar bilan tavsiflanadi:

1. Aksariyat oliy ta'lim tashkilotlarida innovatsion rivojlanishning uzoq muddatli strategiyasi (universitetning umumiy uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining yaxlit elementi sifatida harakat qilishi mumkin) kabi mahalliy normativ hujjatning yo'qligi bilan bog'liq institutsional muammolar. Ba'zi hollarda bunday strategiya rasmiylashtirilgan shaklda mavjud, ammo u sof deklarativ xarakterga ega, uning qoidalari samarali tashkiliy va pedagogik mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlanmaydi.

2. Innovatsion faoliyatning parchalanishi, ta'lim tashkiloti funksiyalari va rivojlanish jarayonlarining nomutanosibligi, universitet va uning sho'ba korxonalari negizida yaratilgan innovatsion texnologiyalarni samarali patent muhofazasi tartib-taomillarining ishlab chiqilmaganligi va boshqalar natijasida yuzaga kelgan tashkiliy muammolar.

3. Pedagogik kadrlarning ayrim toifalarining innovatsion ishlanmalarda ishtirok etishga yetarli darajada tayyor emasligi, bundan tashqari, innovatsiyalarni faol ishlab chiqarish, shuningdek, qo'shimcha xavflar tufayli bir qator o'qituvchilarning innovatsion rivojlanishda ishtirok etishni istamasligi bilan bog'liq kadrlar muammolari.

4. Oliy ta'lim tashkilotining innovatsion rivojlanishi samaradorligini vakillik kompleksli miqdoriy baholashning murakkabligi, oliy ta'lim tashkilotini innovatsion modernizatsiya va rivojlantirishga turli yondashuvlarni birgalikda qo'llash bo'yicha uslubiy vositalarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligida namoyon bo'ladigan uslubiy muammolar.

YUNESKO XXI asrni fan va ta'lim asri deb bejiz atamagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, fan va ta'limni muvofiqlashtirish, ularni zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni qo'llash orqali kompleks tarzda rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb va ustuvor masalasidir. Titanik yutuqlarini xalqaro maydonda targ'ib qilish va ommalashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Fan va ta'lim rivojiga ko'rsatilayotgan bunday davlat miqyosidagi g'amxo'rlik, aslida, davlatchilikni mustahkamlash va milliy-madaniy taraqqiyot va xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladigan siyosatning bir qismi sifatida baholanishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda, fan va ta'limni muvofiqlashtirish, ularni zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni qo'llash orqali kompleks tarzda rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb va ustuvor masalasidir. Aytganimizdek, bugungi kunda O'zbekistonda ushbu sohalarni qamrab oluvchi davlat siyosati olib borilmoqda – iqtisodiy salohiyatni intellektual kapitalga aylantirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. "Oliy ta'lim tizimini xalqaro e'tirof etilgan talablar va standartlar darajasiga ko'tarish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari reytingini xalqaro darajada oshirish bo'yicha tadbirlar qo'llanilmoqda. Oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza rivojlanishda davom etmoqda. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligiga alohida maqom bermoqda va yangi yaratilgan, nisbatan kam o'rganilgan xalqarolashtirish sharoitida ushbu muhim yo'nalish rivojini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni

yanada dolzarblashtirmoqda”[1].

Ilmiy innovatsiyalarni ta’lim muhitiga o‘tkazish nihoyatda muhim omil bo‘lib, bizning fikrimizcha, bu jarayonni uchta asosiy yo‘nalishda amalga oshirish mumkin:

1) Ilmiy yangiliklarga asoslangan ustuvor ilmiy yo‘nalishlar asosida ta’limni tashkil etish.

2) Talabalarning fan yutuqlarini egallashi.

3) Ta’lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

Oliy ta'lim sifatini boshqarish sohasidagi mavjud vaziyatni tahlil qilib, mamlakatimizdagi oliy maktablarni ta’limda sifatni ta’minlash texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) Xalqaro sifat sertifikatini olgan oliy maktablar;

2) O‘z sifat tizimini tasdiqlashga tayyorlanayotgan oliy ta’lim muassasalari;

3) O‘zining sifat tizimini yaratgan, lekin uni tasdiqlashga intilmayotgan universitetlar;

4) Sifat tizimining alohida elementlarini joriy qila boshlagan universitetlar;

5) Bu jarayonga endigina yaqinlashayotgan universitetlar. Qizig‘i shundaki, tasdiqlangan sifat tizimlarining mavjudligi har doim ham oliy ta'limda uning haqiqiy ishlashini tasdiqlamaydi. Qolaversa, oliy ta’lim muassasasi o‘zining sifat tizimini tasdiqlashi yoki tasdiqlamasligiga bog‘liq.

Ta’lim sifati haqida gapirganda, uni ta’minlovchi to‘rtta asosiy omilni ajratib ko‘rsatish kerak:

1) ta’limga yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdori

2) o‘qituvchilarning kompetentsiya-kompetentligi

3) abiturientlar darajasi

4) ta’lim mazmuni

Hozirgi vaziyatni keng tahlil qilish va muammolarni keng sanab o‘tish mumkin. Barchamizga bir narsa ayonki, hududning intellektual va ma’naviy salohiyatini so‘zsiz o‘zida mujassam etgan oliy o‘quv yurtlari ta’lim sifati bilan bog‘liq vaziyatni o‘zgartirishi mumkin. Bu yerda ham sifat nazorati texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Sifat menejmenti tizimini yaratish ustida ish olib borayotgan barcha oliy ta’lim muassasalarini ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1) Bir necha yillardan beri sifat menejmenti tizimini yaratishga urinayotgan universitetlar, odatda, sifat menejmenti tizimining ba’zi elementlarini, eng yaxshisi, kam ish qilgan. Sifat guruhi ko‘proq nazariyaga yo‘naltirilgan bo‘lib, kurslarni o‘rgatadi yoki kurslarni ochadi va boshqalarni o‘rgatadi. Bunday universitetlarda Sifat menejmenti tizimi qog‘ozda mavjud bo‘lgan diagrammalar va sxemalar shaklida bo‘ladi.

2) Sifat menejmenti tizimi texnologiyalari amalda qo‘llaniladigan universitetlar. Sifat menejmenti tizimini yaratishda o‘z va boshqa oliy o‘quv yurtlarining tajribasini tahlil qilar ekanmiz, ushbu jarayonning quyidagi asosiy muammoli nuqtalarini hisobga olish zarur:

a) Top-menejerlarning, ya’ni rektorning zarur real manfaatdorligi; prorektor, sifat menejmenti tizimini joriy etishda.

b) Miyalarni, ya’ni top-menejerlarni jalb qilish muammosi, ta’lim sifatini ta’minlash texnologiyasi, birinchi navbatda, rahbarlar yangi bilim va intellektual texnologiyalarni o‘zlashtirish kerakligini tushunadilar. Bu ham moliyaviy, ham ma’naviy xarajatni talab

1 Yunusov Sh.T. Ta'limni xalqarolashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasasi xalqaro hamkorligini rivojlantirishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2020. –B.10.

qiladi (aslida ikkinchisi qonuniy jihatdan qiyinroq, chunki bu dunyoqarashni o‘zgartirish masalasidir).

c) Boshqaruv uslubini o‘zgartirish. Texnologiyalarni joriy etish oliy ta’lim muassasasi boshqaruv uslubining avtoritar elementlarini texnologik elementlar bilan almashtirishni ham anglatadi.

Universitetlar va maktablar o‘zlarining an’analari, odatlari va standartlarini saqlashga harakat qilishadi. Ya’ni, nomuvofiqlik muqarrar. Siz shunchaki dramatizatsiya qilishingiz shart emas. Bugungi kunda universitet bitiruvchilarining aksariyati o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ishlamasligi tabiiy holat. Ammo agar bunday nomuvofiqlik juda katta bo‘lsa, muammolar boshlanadi, ish beruvchi shikoyat qiladi, parallel ta’lim tizimlari – korporativ ta’lim dasturlari, hatto korporativ universitetlar yaratiladi, shunda diplom kasbiy tayyorgarlikdan ko‘ra rasmiyatchilikka, ijtimoiy maqomning ramziga aylanadi. Gap ta’lim tizimini mehnat bozorining o‘zgaruvchan sharoitlariga yaqinlashtirishdan iborat. Biz ‘‘shaxsiylashtirilgan ta’lim traektoriyasi’’ga o‘tganimiz ma’qul. Ya’ni, 1-kurs talabasi qayerda ishlashi, nima bilan shug‘ullanishi va o‘z karerasini qanday qurishini hisobga olgan holda boshidanoq o‘z traektoriyasini belgilaydi. Kurs va seminarlarni o‘zi tanlaydi va oladigan bilimlari uchun javobgardir. Bu, albatta, ideal holat, ammo mamlakatimizda hali hech qaysi joyda amalga oshirilmagan. Boloniya jarayonining aniq foydasiga qaramay, uning talablarini to‘liq qabul qilish 20 asr oxirida oliy ta’lim tizimi asos qilib olingan an’analarning deyarli ko‘pchiligidan voz kechishni anglatadi. Boloniya jarayoni qonun emas, balki harakatlar uchun qo‘llanma. Agar biz Boloniya jarayoniga rasmiy talablar to‘plami sifatida qarasak va bunday talablarni mexanik ravishda qo‘llasak, yaxshi narsaga erishilmaydi. Umuman olganda, Boloniya jarayoni ancha demokratik - har bir universitet ushbu jarayonda ishtirok etish darajasi va formatini o‘zi hal qilishi kerak. Yana bir muhim masala, 21 asr ta'limi 20 asr ta’limidan farq qiladi, bu borada O‘zbekiston ham boshqa rivojlangan davlatlardan qolishmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi Qonuni. www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli ‘‘Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-fevraldagi PQ 2293-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish” vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

Farxodjon NORMIRZAYEV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING SAMARALI FAOLIYATIDA RAHBARNING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada rahbarning maktabgacha ta’lim tashkilotini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni, boshqaruvchiga xos psixologik, pedagogik, axloqiy sifatlar, ta’lim tashkilotini boshqaruv usullari va omillari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Boshqaruv, maktabgacha ta’lim tashkiloti, faoliyat, boshqaruv usullari, omillar, sifatlar.

В данной статье рассматривается роль руководителя во всестороннем развитии дошкольной образовательной организации, психологические, педагогические, нравственные качества руководителя, методы и факторы управления образовательной организацией.

Ключевые слова. Управление, дошкольная организация, деятельность, методы управления, факторы, качество.

This article examines the role of the head in the comprehensive development of a preschool educational organization, psychological, pedagogical, moral qualities of the head, methods and factors of management of an educational organization.

Key words. Management, preschool organization, activities, management methods, factors, quality.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi natijasida zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish jarayonini jadallashtirish ko‘p jihatdan, ta’lim tashkilotlari rahbarlarining hissalari va rahbarlik faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etganliklariga bog‘liqdir. Shunday ekan, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davrida ta’lim muassasalariga yuqori tashkilotlarning ko‘rsatma va direktiv hujjatlardagi vazifalarni ko‘r-ko‘rona bajaradigan rahbarlar emas, balki o‘z faoliyati va har bir ishga ijodiy yondashuvchi, yangi tafakkurdagi zamonaviy, pedagogika, psixologiya, boshqaruv fanlaridan xabardor bo‘lgan va ulardan mohirona foydalana biladigan, shuningdek, mukammal shaxsiy fazilatlar, o‘ziga xos xususiyatlar, boshqaruvchilik qobiliyati, muayyan muomala madaniyati, imon-e’tiqod, g‘oyaviy-siyosiy bilim, qiyofaga ega, his-tuyg‘ulari, an’analar, rasm-rusumlarni anglay oladigan, fidoyilik, qat’iylik, savodxonlik, ijtimoiy faollik, tashkilotchilik va tadbirkorlikka layoqatli xodimlar tayinlanishlari lozim.

Maktabgacha ta’lim tizimini yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida 2018-yil 30-sentyabrda PQ-3955-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining qabul

qilinishi bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishga yangicha yondashuv zaruriyatini belgilab beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzluksiz ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta'limning pedagogik jamoasini boshqarish, ta'limning yuqori ko'rsatkichlariga erishib borishda ta'lim tashkilotlari rahbarlaridan "boshqaruv" malakalariga ega bo'lib borishni talab qiladi. Boshqaruv faoliyatida rahbar va xodimlarning ishlash ishtiyoqini oshirish, boshqaruv malakasini oshirish, rahbar, xodimlar boshqaruv malakasini shakllantirishga qaratilgan ishchanlikni oshirishga, diqqat-e'tiborli bo'lishga, xodimlarni jipslashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari maktabgacha ta'limning pedagogik sohasida qo'llanilib kelinmoqda.

Aslida boshqaruv rahbarlik faoliyati tarkibida odamlar bilan birgalikdagi faoliyat va ular o'rtasidagi muloqot hisoblangani uchun rahbar va jamoa tomonidan bo'ladigan barcha harakatlar, ta'lim muassasasi faoliyati uchun qulay va zarur sharoitning yaratilishi, o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro samimiy psixologik muhit hamda ijodiy faoliyatni tashkil etishga qaratiladi. Bu esa rahbardan xodimlarni o'rganish, ularning qobiliyat va bilim saviyalaridan kelib chiqib, ularni o'quv muassasasi, o'quv tarbiya jarayoniga tanlay olish, lavozim va vazifalarga tayinlay olish, muhim ko'rsatma va buyruqlarning qat'iy ijrosini talab qila olish, ularning o'ziga xos fazilat, yutuq va kamchiliklarini seza bilish, yutuqlarini qo'llay bilish, kamchiliklarini bartaraf qilish, xodimlar imkoniyatlaridan keng foydalana bilish kabi kasbiy qobiliyat va mahoratni talab etadi.

R.J.Ishmuxamedov, A.A.Abduqodirov, A.X.Pardaevlarning fikricha, rahbar:

- obro'li, nufuzli va ishonchli;
- ishbilarmon, uddaburon va yoqimli;
- mehrli va o'z ishining fidoyisi;
- qat'iyatli va so'zining ustidan chiquvchi;
- vijdonli, andishali, insofli va o'ziga ishonch uyg'ota oladigan;
- o'ziga yarasha kelishgan, orasta, xushbichim va bashang kiyinishga berilmagan bo'lishi kerak.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Ochilovning fikricha, ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining tarbiyachi va bolalar bilan muomala odobi, rahbarlik qilish uslubiga bog'liq. Bu sohada muomala odobining murakkabligi shundan iboratki, unda rahbarlik va bo'ysunish, erkinlik va ijodkorlik tamoyillarini uyg'unlashtira bilish talab etiladi.

"Rahbarlik qilish" degan so'zga lug'atlarda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo'naltirish, ko'rsatma berish degan turli izohlar berilgan. Hozirgi davrda rahbarlarga qo'yiladigan talablar juda ko'p. Jumladan, ma'naviy yetuklik, intizom va mehnatga bo'lgan munosabati, bilim darajasi, tashkilotchilik qobiliyati, boshqarish samaradorligini ta'minlay olishi va boshqalardan iborat.

Savol tug'iladi: rahbarda qanday ijobiy xislatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak Rahbarning ijobiy xislatlarini belgilovchi mezonlar: dovyuraklik, yaxshi niyatlilik, sog'lom shubhalilik, kamtarinlik, samimiy xushmuomalalik, rahimdillik, qanoatliliklardan iborat desa to'g'ri bo'ladi.

Rahbarning faoliyati ko'p jihatdan pedagogik faoliyatdan iborat bo'lishi lozim. Chunki, rahbar bajaruvchilarga qat'iyat bilan o'z g'oyasini o'tkazadi va bularni amalga oshirishni o'rgatadi.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qator yordamida u xodimlarga ularni

tarbiyalash va mukammallashishlariga ta’sir etuvchi shakl hamda usullarning yanada samaraliligini topish mumkin.

Tarbiya jarayonida rahbar quyidagi pedagogik muammolarni hal etishi kerak:

– aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma’lumoti);

– ma’naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni yechish);

– o‘zaro do‘stlik va ishonchga asoslangan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish;

– jamoada sog‘lom psixologik muhitni yaratish.

Bunda esa quyidagi pedagogik tamoyillarga rioya qilish lozim;

– ezgu ideallar bilan mashg‘ul bo‘lish;

– shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tarbiyaviy ta’sir usullari boshqaruv pedagogikasining asosi hisoblanadi.

Tarbiyaviy ta’sir rahbarning quyidagi omillarni bilishga bog‘liq:

– xodim madaniyati va ma’lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasi qay darajada rivojlanganligi;

– jismonan sog‘lomligi, ma’naviy barkamolligi;

– individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlari;

– mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy vaziyat;

– axloqiy-ma’muriy choraga xodimning munosabati.

Rahbar tarbiyaviy ta’sirni amalga oshirishining quyida, ta’bir joiz bo‘lsa, “texnologik tamoyillari” mavjud:

– ruhiy o‘ziga xoslik, ya’ni shaxsga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlarini anglash lozim;

– manaviy motivlar – o‘ziga bo‘ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanlikni shaxsan namoyon etish, bu rahbar ‘‘mendek bo‘l’’ deb talab qilish imkonini beradi;

– yakka tartibda (individual) yondashish, bu – har bir shaxsning o‘ziga xos bo‘lgan ‘‘a’lo’’ tomonini izlash;

– mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo‘yicha pedagogik muammoni hal etish;

– shaxsiy mo‘ljal, bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o‘stirish va ularni rivojlantirish;

– tizimli yondashish, bu – shaxsni, har jihatdan idrok etish va uniig xulqiga ta’sir etuvchi ustuvor omillarni aniqlash.

Boshqaruv tarbiyasi shakllaridan quyidagilarni ta’kidlash zarur:

– dunyoqarashni kengaytirish ta’limi, bu – iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va ekologik ta’limni o‘z ichiga oladi, uning ko‘lami menejer yoshi, madaniy saviyasi va ish tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Dunyoqarashni shunday o‘stirish tufayli ong ma’naviy zamini barpo etiladi;

– mehnat musobaqasi, bu – kasbiy musobaqalashuv, malaka oshirishda kuchli omil sanaladi. Boshqaruv tarbiyasining bu shakli turli tanlovlar, ratsionalizatorlik takliflari va h. k.lar yordamida amalga oshiriladi;

– boshqaruvda ishtirok etish – boshqaruvga oid qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga oddiy xodimlarni jalb etish (boshqaruv qarori loyihasini jamoa bo‘lib muhokama qilish, ijro faoliyatida jamoatchilik asosida qatnashishi va h.k.).

Rahbar xodimga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatar ekan G. Salyening quyidagi so‘zlarini yodda tutishi foydadan holi emas: “Shuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo‘q. Biz, hammamiz – turli toifadamiz va muammolarimiz ham turlicha”.

Xodimning mehnat jamoasiga taalluqliligiga quyidagi (obyektiv va subyektiv) omillar ta'sir etadi:

– kasbni to'g'ri tanlash;

– ish manfaati yo'lida birgalikdagi harakatni ta'minlash;

– sog'lom norasmiy munosabatlarga qo'shilish;

– turli konsultatsiyaviy yordam ko'rsatish;

– adolatli moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

– xizmatdagi muvaffaqiyatlar kelajagini belgilash.

Bu barcha omillar mehnat jamoasi doirasida samarali hal etiladi.

Ko'rsatib o'tilgan omillar xodimning mehnat jamoasiga uyg'unlashib ketishiga ham ta'sir etadi. Bunday uyg'unlashishning bir necha turi mavjud:

– kasbiy-texnologik, bu – xodimni ish faoliyatining mazmuni va jamoaning kasbiy maqsad hamda vazifasidan kelib chiqib, bularni bajarishning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish;

– ijtimoiy-ruhiy, bu – xodimni an'analar va mehnat jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tavsifi, norasmiy yetakchilar bilan tanishtirish;

– xizmat odobi, bu – xodimni mehnat jamoasida qabul qilingan axloqiy qadriyatlar va muomala odobi qoidalari bilan tanishtirish;

– pedagogik, bu – xodimni kasbiy ta'lim va uning a'zolarining tarbiyasiga bog'liq jamoa talablari bilan tanishtirish;

– boshqaruv, bu – xodimni mehnat jamoasini boshqarish organlarining tuzilishi, muayyan rahbarning lozim vakolati va u bilan boshqaruv muomalasi qoidasi bilan tanishtirish.

Xodim moslashuvining ko'rsatilgan muammolarini hal etish uchun quyidagilar zarur:

– jamoaning unga xayrixoh munosabatda bo'lishi;

– kasbni o'zlashtirishida murabbiylik va yordamlashish;

– yaxshi jihozlangan ish o'rni va mehnat intizomi qoidalarini aniq tushuntirish;

– uni jamoa ijtimoiy hayoti turli yo'nalishlariga jalb etish;

– xodim o'z ish natijasidan qoniqishligi monitoringi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday rahbarga psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilim ham zarur. Shularga tayanib, u ularni tarbiyalash va o'z malakalarini oshirish borasida xodimga ta'sir etishning yanada samaraliroq shakl va usullarini topishi mumkin. Tarbiyaviy ta'sir aniq yo'naltirilgan bo'lishi va tegishli "texnologik tamoyillar"ga asoslanishi lozim. Shaxsning kasb egasi bo'lishi va tarbiyasiga mehnat jamoasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son farmoni.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: "Fan va texnologiya", 2007.

3. Rahmatullaev D.R., Boshqaruv tizimiga rahbar xodimlarni tanlashning mavjud imkoniyatlari va unga zamonaviy yondashuvlar Zamonaviy ta'lim/ Современное образование 2016.

4. R.X Djurayev. S.T.Turg'unov. Ta'lim menejmenti. – T.: "Voris-Nashriyot". 2006-y.

Xosiyatposhsho AXMADALIYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ‘‘Ingliz tili nazariy aspektlari’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi
Muhammadsharif FAYZULLAYEV,
O‘zbekiston milliy universiteti, ‘‘Xorijiy filologiya’’ fakulteti ikkinchi bosqich magistranti

AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR HARAKATI VA MAMLAKATIMIZDAGI ISLOHOTLAR MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda, ularning siyosiy va iqtisodiy savodxonligi, jamiyatda yuqori ishtirokini ta’minlash borasida xalqaro tajribalar va statistik ma’lumotlar tahlili bayon etilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy va siyosiy turmush tarzini isloh qilishda amalga oshirilayotgan harakatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Xorijiy tajriba, Yangi O‘zbekiston, Sharqiy Osiyo, xotin qizlar huquqi, gender tenglik, siyosat, jamiyat, iqtisod.

В статье представлен анализ международного опыта и статистических данных по защите прав женщин и девочек, обеспечению их политической и экономической грамотности, высокой активности в жизни общества. Также освещаются действия, предпринятые по реформированию общественно-политического образа жизни женщин в Новом Узбекистане.

Ключевые слова. Зарубежный опыт, Новый Узбекистан, Восточная Азия, права женщин, гендерное равенство, политика, общество, экономика.

The article presents an analysis of international experience and statistical data on the protection of the rights of women and girls, ensuring their political and economic literacy, high activity in society. It also highlights the actions taken to reform the socio-political lifestyle of women in New Uzbekistan.

Key words. Foreign experience, New Uzbekistan, East Asia, women's rights, gender equality, politics, society, economics.

“Ayollar osmonning yarmini ko‘taradi” – bu ayollarning teng hissasi va sog‘liqni saqlash, ta’lim, iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy ishtirok etishda teng huquqlilik uchun kurashini tasdiqlash uchun xalqaro miqyosda mashhur bo‘lgan Xitoy maqolidir.

Sharqiy Osiyoda farovonlikning o‘sishi bu sohalarda gender tafovutlarini qisqartirgan bo‘lsa-da, ayollarning siyosiy faolligi ushbu submintaqadagi iqtisodiy rivojlanish sur’atlarida oshgani yo‘q. Sharqiy Osiyo nafaqat Osiyo-Tinch okeani mintaqasida, balki dunyoda ham kuchli iqtisodiyotga ega va inson taraqqiyoti reytingi yuqori bo‘lgan mamlakatlarni o‘z ichiga oladi.

Butun dunyoda ayollarning xotin va ona sifatidagi uydagi va reproduktiv

rollarining boshqa jamiyatga yo‘naltirilgan va jamoat rollaridan ustunligi uning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, ayniqsa, Sharqiy Osiyoda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu oilaviy rollar bilan bog‘liq bo‘lgan gender atributlari, masalan, yumshoqlik va passivlik, ijtimoiy va faol iqtisodiy va siyosiy hayotga mos kelmaydi va ayollar bunday rollarni bajarishga qodir emas deb hisoblanadi. Misol uchun, Xitoyda ayollarning kam vakilligi ayollarni past va yetakchilik qobiliyatiga ega emas, deb ko‘rsatadigan “feudal” munosabat bilan izohlanadi.

Janubi-Sharqiy Osiyo (SEA) jamiyatlarida ayollar uchun yuqori maqom da’vo qilingan, ammo nisbiy gender nomutanosibligi va butun dunyo bilan solishtirganda ayollarning siyosiy vakillik darajasi pastligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu qarama qarshilikni, odatda, ayollarni siyosatda ishtirok etishga undamaydigan patriarxal munosabatlar va gender stereotiplarining saqlanib qolishi bilan izohlash mumkin. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida juda ko‘p tafovutlar mavjud va har bir alohida madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda gender munosabatlari qanday ishlashini tushunish bu heterojenlikni tushuntirish uchun zarur. Ayollarning siyosiy ishtirokini cheklovchi an’anaviy munosabatlar inson rivojlanishining tengsizligi va ayollarning oziq-ovqat, yer, mulk, moliya, texnologiya, ta’lim, o‘qitish va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlarining pastligi, bu resurslarning o‘zi kam bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda mustahkamlanadi. Nikoh, ajralish va meros urf-odatlari hamda genderga asoslangan zo‘ravonlik darajasi, jinsiy va reproduktiv salomatlik kabi ko‘rsatkichlar nafaqat ayollar farovonligiga, ayniqsa, kambag‘al yoki marginal ayollarning farovonligiga, balki ularning siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ham ta’sir qiluvchi hal qiluvchi omillardir. Jamiyat va hukumatlarning ushbu shaxsiy maqom yoki oila bilan bog‘liq adolatsizliklarga qanday munosabatda bo‘lishi, shuningdek, ayollarning o‘zlari ushbu adolatsizliklarni bartaraf etish uchun me’yorlar va qonunlarga o‘zgartirish kiritishni targ‘ib qilishlari alohida tashvish uyg‘otadi.

Ta’lim ko‘pincha ayollarning siyosiy faolligini ta’minlashning zaruriy sharti sifatida tilga olinadi. Qishloq joylarida kam yoki eng kam ma’lumotga ega bo‘lgan ayollar siyosiy faollikning yuqori darajasiga erishdilar. Bu ayollarni imkoniyatlar va jamiyatda gender nomutanosibliklari mavjudligi haqida xabardor qilishiga yordam berishi mumkin bo‘lsa-da, ta’lim ayollarning siyosiy huquqlarini ta’minlash uchun juda muhim degan mashhur tushunchaga qaramasdan, ko‘plab ayollar Janubiy Osiyoda rasmiy ta’lim va tayyorgarliksiz siyosiy maydonga chiqdi. Qishloq ayollari, ma’lumoti yo‘qligiga qaramay, ko‘pincha siyosiy jihatdan juda xabardor. Biharning bosh vaziri Rabi Devi buning yaqqol misolidir. U Hindistonning eng kam rivojlangan shtatlaridan birida, firibgarlikda hibsga olingan erining o‘rniga kelgan qishloqdagi savodsiz ayol sifatida ko‘pchilik tomonidan tanqid qilingan bo‘lsa-da, u o‘z pozitsiyasida turib oldi va ko‘p yillar davomida o‘z siyosiy rolini bemalol va ishonch bilan qabul qildi. Ta’lim bilan iqtisodiy imkoniyatlardan keng foydalanish imkoniyati mavjud, ammo Janubiy Osiyoda rasmiy ta’limning yetishmasligi siyosiy intilishlar va natijalarga ta’sir qilishi shart emas. Gender kvotalari (quyida muhokama qilinadi) tufayli Zila parishod va Panchayat (tuman va qishloq) darajasida qishloq ayollarining siyosiy faolligining sezilarli darajada oshgani buning dalilidir.

Bugungi kunda mamlakatimizning davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida, sud-huquq tizimi, nodavlat tashkilotlar faoliyati, ijtimoiy tizimlarda, umu-

man olganda, jamiyatimiz hayotining hamma sohalarida ayollarning siyosiy va huquqiy madaniyati darajasi hamda ijtimoiy faolligi oshib borayotganini kuzatish mumkin. Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolarining 17 foizini, Qonunchilik palatasi deputatlarining 16 foizini ayollar tashkil etadi, yuzlab ayollar xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlarida faol mehnat qilishmoqda. O‘zbekistonda ish olib borayotgan tadbirkorlarning 35 foizini, fermerlarning 10 foizini ayollar tashkil etadi.

Mamlakatimizning ayollar haq-huquqlari va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish sohasidagi tajribasi va qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlari, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki ta’minlangani butun dunyo miqyosida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Xususan, bu mavzu yuqori darajalarda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi singari ko‘p tomonlama institutlar va boshqa tashkilotlar doirasida ko‘rib chiqilmoqda va muhokama etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta’minlashga alohida e’tibor beradi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiyasiga qo‘shildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to‘g‘risidagi Konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

2022-yil O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi va uning ustuvor yo‘nalishlaridan biri xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, gender tengligini ta’minlashdan iboratdir.

Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda faol ishtirok etishi, bugungi kunda mehnat bozorida talab qilinadigan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashiga ko‘maklashish maqsadida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli Jamg‘armasi tashkil etildi.

Xotin-qizlarning muammolarini tizimli hal etish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Respublika komissiyasi tuzilib, uning asosiy vazifasi hududlarda xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish, tizimli hal etish, qashshoqlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishdan iboratdir.

Ayollar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hisobidan biznes-inkubator shaklida “Ayollar tadbirkorlik markazlari” tashkil etildi, ularning asosiy vazifalari tug‘ruq ta’tilida bo‘lgan va og‘ir iqtisodiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga qayta tayyorlashdan iborat. Maxsus o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan ayollar uchun Jamg‘arma va xalqaro tashkilotlarning mablag‘lari hisobiga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun kamida 3 yil, 6 oylik imtiyozli davr va yillik 8 foiz stavkasi bilan imtiyozli kreditlar beriladi.

Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qonunda:

– tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashish;

– ayollarning o‘z biznesini tashkil etish va yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, biznes g‘oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo‘llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish;

– zarur hollarda, faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo‘sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko‘maklashish;

– tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o‘z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko‘rsatish, shu jumladan, ishonchli hamkorlarni topish, minitexnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko‘maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga ko‘maklashish;

singari bandlar ilgari surilgan.

2022 – 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilayotgan yangiliklar fikrimizning to‘liq tasdiqlaydi. Xususan, 6 ta asosiy yo‘nalish va 112 ta banddan iborat bo‘lgan chora-tadbirlar rejasida mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan, ilgari jahon mamlakatlari amaliyotida kuzatilmagan Yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos tajribasiga asos bo‘ladigan yangiliklar o‘z aksini topdi.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning natijasi o‘laroq, milliy parlamentimizda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, 32 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 35 foiz va oliy ta’limda 46 foizdan yuqori. Davlat boshqaruvida 1,5 mingga yaqin mutaxassis xotin-qiz turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritib, tizimda ayollarning ulushi 33 foizni tashkil etmoqda va bu ko‘rsatkich jadal sur’atda oshib bormoqda.

Ijtimoiy himoya tizimida mutlaqo yangi yo‘nalish – xotin-qizlar muammolarini o‘rganib, hal etish uchun “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftar” va “Temir daftar” joriy etildi. “Ayollar daftari” asosida so‘nggi 3 yil davomida 400 ming nafarga yaqin xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Ehtiyojmandlarining uy-joy ta’minoti, yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ayollar salomatligiga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki jamiyatning sog‘lomligi, avvalo, xotin-qizlarning qanchalik sog‘lom ekani bilan tavsiflanadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “…ona va bola sog‘lig‘iga e’tibor – jamiyatga, kelajakka e’tibordir

Muxtasar aytganda, jamiyatda ayol qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o‘rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarda manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qonun.

2. Dadasheva, A. A. (2022). PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research

3. Nazarova, N. J., & Nalibaeva, Z. O. (2022). THE INFLUENCE OF SOCIAL INSTITUTIONS ON THE FORMATION OF COMPETITIVE QUALITIES IN YOUTH. Thematic Journal of Applied Sciences,

4. Mo‘minovA.R. Tillaboyev M. A Inson huquqlari. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilish.G‘G‘T .: Adolat. 2013.

5. Saidov A.X Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: to‘plam. - T.: Adolat. 2004.

Radik GIMAZUTDINOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI BADMINTON SPORTIGA QIZIQTIRISHGA OID NAZARIYALAR

Annotatsiya

Maqolada olimlarning jismoniy tarbiya va badminton sport turining boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlantirishdagi ahamiyati borasidagi ilmiy qarashlari ifodalangan. Ushbu sport turining kichik maktab yoshidan o'rgatish maqsadga muvofiq ekanligi haqida nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Badminton, jismoniy tarbiya, harakat, reabilitatsiya, rivojlanish, mashq, sog'lom turmush tarzi, didaktik tamoyil, jismoniy madaniyat, funksional sifatlar, harakat imkoniyatlari, jismoniy qobiliyat.

В статье выражены научные взгляды ученых на значение занятий физической культурой и бадминтоном в физическом развитии учащихся начальныхклассах. Приведена теоретическая информация о том, что обучать этому виду спорта целесообразно с младшего школьного возраста.

Ключевые слова. Бадминтон, физическое воспитание, движение, реабилитация, развитие, физические упражнения, здоровый образ жизни, дидактический принцип, физическая культура, функциональные качества, возможности движения, физическая способность.

The article expresses the scientific views of scientists on the importance of physical education and badminton in the physical development of primary school students. Theoretical information is given that it is advisable to teach this sport from primary school age.

Key words. Badminton, physical education, movement, rehabilitation, development, physical exercises, healthy lifestyle, didactic principle, physical culture, functional qualities, movement possibilities, physical ability.

Badminton mamlakatimizda tobora ommalashib borayotgan va jadal rivojlanayotgan olimpiya sport turidir. Ushbu o'yin muhlislari soni tez sur'atlar bilan oshib bormoqda, badminton sport turi yo'nalishi mavjud sport maktablarida sezilarli darajada kengaymoqda. Badmintonchining sport mashg'ulotlari o'ziga xos funksionallikka asoslanadi, chunki o'yin faoliyatida u bir vaqtning o'zida o'yinchining maxsus harakatchanligi bilan namoyon bo'ladi. Turli o'yin vaziyatlarida texnik va taktik muammolarni hal qilishda amalga oshiriladigan jismoniy fazilatlar va o'yin texnikasi orqali amalga oshiriladi.

Badminton insoniyat tamaddunining eng qadimiy o'yinlaridan biridir. Uning kelib chiqishi borasida ko'plab afsonalar mavjud. Qadimgi Yunoniston, Yaponiya, Hindiston va hatto Afrika xalqlarining rivoyatlarida bundan ikki ming yillar avval kattalar va bolalar volan (badminton koptogi) o'ynaganliklari qayd etilgan. "Uchuvchi pat" deb nomlangan qadimiy sport o'yini Xitoyda eramizdan ming yil oldin ham ma'lum bo'lgan. U Yaponi-

yada “oyabane” deb atalgan hamda bir nechta g‘ozpati va quritilgan sakura mevasidan tayyorlangan volanni yog‘och raketkalarda oshirib tashlashga asoslangan. Yevropada XVI asrda o‘ynalgan volan o‘yini, Fransiyada “je-de-pom” (olma bilan o‘ynash) deb nomlangan.

Badminton sporti o‘ziga xos pedagogik-psixologik nazariyalarga asoslanadi. Ushbu sport turiga oid qadimgi va bugungi kun olimlari tomonidan qator ilmiy qarashlari ishlab chiqilgan. Jumladan, J. Russoning ta’lim tizimi ijtimoiy va siyosiy nazariyalarga asoslangan. U o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarning jismoniy tarbiyasiga alohida e’tibor berish zarurligini uqtiradi. Russo asosiy e’tiborni bola tanasini chiniqtirishga, sezgi organlari va harakat ko‘nikmalarini rivojlanishiga qaratadi. Olim bolalarni gimnastikaga o‘rgatish, harakat erkinligi, o‘yinlar, sovuq suvda cho‘milishni tavsiya qiladi. Jismoniy tarbiyaga o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun musobaqa usulidan foydalanish muhimligini ta’kidlaydi. O‘quvchi-qizlarning jismoniy tarbiyasida yengillik, nafosat va jozibadorlikni rivojlantirish bilan cheklanishi kerak deb hisoblaydi. Badminton o‘yini aynan yuqorida keltirilgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida epchillik, chaqqonlik va jozibador harakatlar bajarishga erishiladi.

P.F. Lesgaft bolalarning jismoniy tarbiyalash jarayonini uch bosqichga ajratgan, 1.7-12 yosh. Bunda bolalarga elementar harakatlar o‘rgatiladi.


2. 12-15 yosh. Mashqlar yuqoriroq yuklama bilan bajarish taklif qilindi.

3. 15-18 yosh. Qo‘llaniladigan harakatlar turlariga (vaqt, kuch va boshqa) ko‘ra mashqlarni bajarish taklif qilingan.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotiga P.F Lesgaft vaqtning 25 foizini oddiy va murakkab harakatlarga, 25 foizini yurish va yugurishga, 50 foizini esa o‘yinlarga bag‘ishlashni taklif qilgan. O‘rta sinf o‘quvchilari uchun darsning uchdan bir qismi oddiy va murakkab harakatlarga, ikkinchi uchdan bir qismi uloqtirish, sakrash, kurash va uchinchi uchdan bir qismi qiyin o‘yinlarga to‘g‘ri keladi. 25% - murakkablashib boruvchi harakatlar, o‘yinlar. Olimning fikricha, jismoniy tarbiyaning asosini jismoniy va aqliy rivojlanish o‘zaro aloqadorligi tashkil etishi kerak. Lesgaftning jismoniy tarbiyaga oid qarashlari amaliyotda isbotlandi va hozirgi zamon jismoniy tarbiya metodikasi tizimiga kiritilgan va u haqli ravishda jismoniy tarbiya va ta’lim tizimining asoschisi hisoblanadi. Fikrimizcha, P.F. Lesgaft jismoniy tarbiya jarayonida bolalar ayrim harakatlarni ajratib olishlari va ularni o‘zaro taqqoslashni ongli ravishda boshqarishni va chaqqonlik hamda qat’iyat bilan yengishni tavsiya etadi. Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badminton sportiga qiziqtirishda to‘g‘ri harakat ko‘nikmalarini hosil qilish, harakatlarni ongli ravishda bajarishga yo‘naltirish muhim ekan. Ya’ni mashg‘ulotlarda didaktik tamoyil onglilik va faollikka tayanish maqsadga muvofiq.

I.G.Pestalotssi tomonidan 1746-1827 bolalar harakat qobiliyatini rivojlantirish uchun tuzilgan jismoniy mashqlar tizimida bo‘g‘inlar gimnastikasi alohida o‘rinni egallaydi. XVIII asrda anatom olimlar tomonidan jismoniy mashqlar “biomexanika”si bo‘yicha izlanishlar olib borildi. XIX asrda esa jismoniy tarbiya haqida ilmiy-nazariy tadqiqotlar vujudga keldi. Inson hayoti va jamiyatda jismoniy tarbiyaning roli tarbiyaviy xarakterga ega ekanligi ilmiy asoslandi. Shaxsning har tomonlama rivojlantirish yo‘llari aniqlandi va unda jismoniy tarbiyaning o‘rni alohida ahamiyat kasb etishi olimlar tomonidan tasdiqlandi.

L.P. Matveev jismoniy madaniyatning integrativ mohiyatiga ishora qiladi. U jismoniy madaniyatning uch turga ajratadi:



E.N. Matveev yengil va og‘ir snaryadlarni uloqtirishda sportchilarni mashq qilish texnikasi va usullarini ishlab chiqqan. Jismoniy tarbiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan barcha olimlarning umumiy qarashlari yaxlit ya’ni harakatchanlik, mashq va texnikalar majmuini tashkil qiladi.

Jismoniy tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlarda insonning harakat faoliyatining xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘plab atamalar kirib keldi, ya’ni “jismoniy sifatlar”, “harakat sifatlari” N.A.Bernshteyn esa – “psixofizik fazilatlar”ni taklif qiladi. Bunga “harakat sifatlari”, “funsional sifatlar”, “jismoniy sharoitlar”, “jismoniy imkoniyatlari”, “harakat imkoniyatlari”, “jismoniy qobiliyatlar” va boshqalar kabi keng qo‘llaniladigan boshqa nomlarni qo‘shish mumkin. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodologiyasida “jismoniy” yoki “motor” sifatlar atamalari eng ko‘p qo‘llaniladi: psixologiyada “psixomotor fazilatlar”, “psixofizik fazilatlar va qobiliyatlar”, fiziologiyada biomexanika, “motor sifatlar” va boshqalar. Sport mashg‘ulotlari pedagogik hodisa sifatida bevosita yuqori natijalarga erishishga qaratilgan jismoniy tarbiyaning ixtisoslashgan jarayonidir. Badminton sportida bajarilgan harakatlarning umumiy hajmi (mashq hajmi), katta yuklama bilan bajarilgan mashqlar nisbati mashg‘ulot intensivligini ta’minlaydi. Mashg‘ulot davrida maxsus va umumiy yuklamalarning kombinatsiyasi, qo‘llaniladigan vositalar va usullar, tiklanishni tashkil etishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Badminton tananing ma’lum sharoitlarda amalga oshiriladigan jismoniy, fiziologik, biokimyoviy va psixofiziologik shartlarning namoyon bo‘lishiga tayyorligini ifodalovchi sport turi deyish mumkin.

S.M.Vaysexovskiy fikricha, “sport mashg‘ulotlarining asosiy xususiyati bu mashg‘ulot yuklamasidir. Mashg‘ulot yuklamasi-bajarilgan mashqlarning sportchi tanasiga umumiy ta’siri va turli xil vositalar (massaj, farmakologik preparatlar va boshqalar), ularning tiklanish jarayonini tezlashtiradi”. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan badminton mashg‘ulotini olib borganda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi yoki murabbiy bajariladigan harakatlarni mutanosibligi, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olishi zarur.

Kichik maktab o‘quvchilarida jismoniy tarbiya darslarida muvozanat saqlash qobiliyatlarining rivojlanish darajasi turli xil sport turlari texnikasini o‘zlashtirishning muhim sharti bo‘lib, turli xil motorli faoliyat turlariga moslashish qobiliyatida katta rol o‘ynaydi.

Jismoniy madaniyat bo‘yicha boshlang‘ich sinf dasturlarida asosiy vazifalar harakat ko‘nikmalari va malakalarini takomillashtirish, shuningdek, bolalarda jismoniy qobiliyatni rivojlantirish jismoniy tarbiya darslarida boshlang‘ich nuqta bo‘lgan asosiy jismoniy sifatlarni yanada muvofiqlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Amaliyotdagi mavjud me’yoriy hujjatlar, o‘quv dasturi va darsliklarni tahlil qilganimizda

badminton sportiga oid mavzular kiritilmaganligi kuzatildi. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinfdanoq ushbu sport turiga qiziqtirish muhim ekanligi o‘z tasdig‘ini ko‘rsatdi. Chunki, badminton yuqorida ta’kidlaganimizdek, olimpiada turi sifatida tan olingan.

O‘quvchilarda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun aylanma mashg‘ulotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa darsni samarali tashkil qilish va yuklamani individual ravishda farqlash imkonini beradi. Bolalarga maktabdan tashqari ta’limda, to‘garak, uyda va dars mashg‘ulotlarida qomat buzilishlarining oldini olishga yetarlicha e’tibor qaratish, buzilishlarni bartaraf etish bo‘yicha samarali choralar ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy yuklama maktab o‘quvchilari tanasi shakllanishining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi, ularning sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Bolalarda qomati deformatsiyasi bo‘lsa ularni o‘z vaqtida aniqlash, ushbu buzilishlarni barcha mavjud vositalar bilan tuzatish to‘liq yoki qisman reabilitatsiya qilish lozim. Badminton sportida barcha tana a’zolari harakatda bo‘ladi, bu esa bolalarni jismonan sog‘lom bo‘lishlarini ta’minlaydi.

V.P. Guba bolalar va o‘quvchilarni sport mahoratining o‘sishini belgilovchi fazilatlar majmuasiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq ekanligini asoslaydi. Uning tavsiyalarida morfologik holat (tananing umumiy o‘lchamlari, jismoniy rivojlanishning tipologik va funksional xususiyatlari); o‘ziga xos jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi va ularning maxsus tayyorgarlik ta’sirida o‘sish sur’ati; organizmning funksional tizimlarining holati; yosh sportchining tanlangan sport turiga biomexanik muvofiqligi o‘z ifodasini topgan. O‘quvchilar faoliyatini mumkin qadar tabiiy shakllarga yaqinlashtirish bolaning harakatga bo‘lgan talabini hisobga olishdir. O‘quvchining uning imkoniyatiga qarab sportga jalb etish ijobiy hissiyotni hosil qiladi hamda faollikka undaydi. Maktabgacha va boshlang‘ich sinfdanoq sog‘liqni saqlash, sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish zarur. Bolalarni sog‘lom, chaqqon, mard, kuchli bo‘lishi kun tartibiga rioya qilish bilan bog‘liq, shuningdek, badminton sportini sevib o‘ynashi uchun qulay muhit yaratish, ularda irodaviy sifatlarni namoyon etish, jismoniy va ruhiy qiyinchilikni yengishga yo‘naltirish kerak.

A.D.Ashurov jismoniy tarbiya inson hayotining barcha bosqichlarida sog‘liq va faol hayot tarzini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega omil ekanligini ta’kidlab, sport aynan sog‘liqni saqlash hamda insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Badminton sportini boshlang‘ich sinflarda ommalashtirish, ularni kelajakda olimpiada o‘yinlariga ishtirok etishga zamin yaratishi mumkin. Badminton mashg‘ulotlari o‘quvchilarda ko‘rish qobiliyatining aniqligini oshirishga, harakat reaksiyalarining tezligini oshirishga va maydonning fazoviy tasavvurini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev.A., Xonkeldiev.Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. Darslik. – T.: 2005-231 b.

2. Алхасов.Д.С.Теория и история физической культуы (в таблицах и схемах): методическое пособие для студентов , – М.-Берлин:,2014.-С. 100

3. Atabekov F.O‘. Badminton. Darslik. Chirchiq-2021. – 137 b.

Akmal ALIKULOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR VA ULARNING TASNIFI

Annotatsiya

Ushbu bo‘lajak oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda foydalaniladigan didaktik o‘yinlar tasnifi muammosi ko‘rib chiqilgan. Didaktik o‘yinlardan foydalanish samaradorligi asos bo‘luvchi ta’lim tamoyillari, didaktik o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik o‘yinlar tasnifini yaratishga bo‘lgan yondashuvlar bayon etilgan. Shuningdek, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda qo‘yilgan maqsadlarga erishishdagi hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar tahlil qilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Didaktik o‘yin, tamoyil, o‘yinlar tasnifi, tizimli yondashuv, o‘yin funksiyalari, kasbiy-pedagogik tayyorlash.

Рассмотрена проблема классификации дидактических игр, используемых при подготовке будущих учителей физической культуры к профессиональной деятельности в данных высших учебных заведениях. Эффективность использования дидактических игр изложены основополагающие принципы обучения, специфика дидактических игр, подходы к созданию классификации дидактических игр. Также проанализированы задачи, которые необходимо решить при достижении поставленных целей в профессионально-педагогической подготовке будущих учителей физической культуры.

Ключевые слова. Дидактическая игра, принцип, классификация игр, системный подход, игровые функции, профессионально-педагогическая подготовка.

The problem of classification of didactic games used in the preparation of future physical education teachers for professional activity in these higher educational institutions is considered. The effectiveness of the use of didactic games outlines the fundamental principles of teaching, the specifics of didactic games, approaches to creating a classification of didactic games. Also analyzed are the tasks that need to be solved when achieving the set goals in the professional and pedagogical training of future physical education teachers.

Key words. Didactic game, principle, classification of games, system approach, game functions, professional and pedagogical training.

Pedagogikada o‘yinlardan keng ko‘lamli, ta’lim jarayonining ma’lum maqsadlariga bog‘liq holda foydalanish faol o‘rganilgan sohadir. Shu bilan birga, ta’limning faol shakllaridan biri didaktik o‘yindir.

Bizning tadqiqotimiz xalq o‘yinini o‘zining tarbiyaviy vazifasini hal qilish jarayonida didaktik o‘yin sifatida ham ko‘rib chiqish mumkinligini aniqlashga imkon berdi. Didaktik o‘yinning maqsadlari haqidagi savolni ko‘rib chiqsak, odatda ikkita tur ajratiladi: kognitiv va o‘yinli. Ba’zi mualliflar didaktik o‘yinning nafaqat o‘qitish, balki tarbiyaviy maqsadlari ham mavjudligini isbotlaydilar. Biz A.N.Leontev va D.B.Elkoninlarning ishlarida ishlab chiqilgan o‘yin faoliyatining psixologik konsepsiyasiga asoslanamiz, ulardan biri ta’kidlaydi: “o‘yin faoliyati rollar, o‘yin funksiyalari yoki syujet mazmunini aniqlashga yo‘naltirilgan refleksiya va faol qidiruv, harakatlariga asoslangan uni amalga

oshirish usulini ongli ravishda tashkil etish jarayonlari bilan tavsiflanadi. O‘yin faoliyatining refleksiv, aqliy, qidiruv va tashkiliy komponentlari sub'ektning voqelikka tadqiqot va ijodiy munosabatini shakllantiradi. O‘yinda o‘rganish tayyor predmet namunalarini oddiy yetkazish bo‘lib qolmay, shaxsning rivojlanishini boshqarish jarayoniga aylanadi”. Shunga asoslanib, didaktik o‘yinda rivojlanish maqsadining mavjudligi haqida gapirishni to‘g‘ri bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Agar didaktik o‘yinlarni ularning haqiqiy o‘quv va kognitiv faoliyatdagi ahamiyati nuqtai nazaridan baholasak, didaktik o‘yinlar pedagogik (shaxsni ta’lim- tarbiyaviy rivojlantirish) o‘yin maqsadlari va vazifalari mavjudligi bilan tavsiflangan o‘quv faoliyatini tashkil etishning maxsus usuli va shaklidir. Bundan tashqari, didaktik o‘yinning maqsadlari uning xususiyatini - ikki jihatlilikni belgilab berishini ta’kidlaymiz.

O‘yinning ko‘p jihatliligining mohiyati shundan iboratki, didaktik o‘yinlarda o‘yinchilarning turli xil motivlari tizimlari o‘zaro bog‘lanadi: ma’lum bir o‘yin natijasiga erishish uchun motivatsiya va o‘yinda o‘quv faoliyati jarayonining o‘ziga bildirilgan qiziqishda aks etuvchi kognitiv. Didaktik o‘yin tashkilotchisi kognitiv motivlar motivatsiyaning umumiy tizimida ustun rol o‘ynaydigan motivatsion tizimni yaratishi kerak. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilar bilan ishlashda biz yana bir jihatni ajratib ko‘rsatamiz: bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari o‘ynab, bir vaqtning o‘zida o‘yin qoidalari bilan tanishadilar, bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatlari uchun asos bo‘lgan o‘yinlarni tashkil qilish metodikasini o‘zlashtiradilar].

Didaktik o‘yinlardan foydalanish samaradorligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: kasbiy pedagogik faoliyatga, muammolilikka, tashkil etishga, refleksiyaga, psixologik ta’minotga, texnik ta’minotga taqlid qilishning yaxlitligi. Didaktik o‘yin uchun qo‘shimcha tamoyilni - o‘yinni pedagogik boshqarishni ajratib ko‘rsatish kerak, chunki didaktik o‘yinda o‘qituvchi yuqoridagi barcha tamoyillarni o‘yin texniklari guruhisiz amalga oshiradi. Tamoyillarni aniqlashning asosiy mezonlari ularning amaliyligi va o‘yinlarni o‘tkazishning aniq amaliyotida kompleks amalga oshirilishidir.

Didaktik o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyati ularning universalligidir: ular maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishdan tortib, xodimlar malakasini oshirish tizimiga qadar ta’lim tizimining barcha darajalarida qo‘llaniladi.

So‘nggi paytlarda ko‘plab mualliflar didaktik o‘yinlarni tasniflash masalasiga murojaat qilishdi. Ko‘pincha didaktik o‘yinlar funksional va mo‘ljallangan maqsadlariga ko‘ra tasniflanadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, o‘yinlarni hatto shu asosda tasniflaganda ham mualliflar orasida kelishmovchiliklar mavjud. Yagona tasnifni ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar didaktik o‘yinlarning ikkita faoliyat turi - o‘quv va o‘yin xususiyatlarini o‘zida birlashtirganligi bilan bog‘liq. Bizning tadqiqotimizda biz didaktik o‘yinlarning ishlab chiqilgan tasnifiga amal qilamiz, bu o‘yinlarni o‘rganish darajalari bo‘yicha taqsimlashga asoslangan.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlarni darajalar bo‘yicha tasniflash amaliy foydalanish uchun qulaydir, chunki u uzluksiz ta’lim tizimida ta’limning turli darajalarida didaktik o‘yinlardan foydalanish to‘g‘risida yaxlit tasavvur beradi.

Tasniflash shuningdek, kasbiy faoliyat xususiyatlariga, ta’lim-tarbiya muassasasining darajasiga va boshqalarga qarab aniqlashtirilishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida didaktik o‘yinlar turli kontingentlarni: talabalar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, turli o‘quv kurslari ta’lim oluvchilari didaktik o‘yinlarini tayyorlashda qo‘llaniladi.

Tadqiqotimizning maqsadlaridan biri pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo‘nalishi talabalari uchun didaktik o‘yinlarni tasniflash tamoyillarini ishlab chiq-

ish edi. Mavjud tadqiqotlarga asoslanib, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida didaktik o‘yin tasnifini yaratishda ikkita yondashuvni ajratish mumkin.

Birinchi yondashuv predmetli didaktik o‘yinlar sikllarini - bitta o‘quv fani materialida yaratishdan iboratdir. Bunday o‘yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) qo‘llash ko‘zda tutilgan ta’lim shakli bo‘yicha (kunduzgi, sirtqi ta’lim, malaka oshirish tizimi);

2) mutaxassislik bo‘yicha;

3) o‘quv fani bo‘yicha.

Ilmiy-metodik nuqtai nazardan, etnopedagogik mazmunga ega didaktik o‘yinlardan foydalanish, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo‘nalishlarida ta’lim jarayonining umume'tirof etilgan tuzilmasini buzmasligida ifodalanadi. Biroq, bunday bo‘linishning kamchiliklarini ham qayd etish mumkin. Ma’lum bo‘lishicha, nomuvofiqlik nafaqat bilim olish va o‘zlashtirishga, balki real hayotiy vaziyatlarda harakat qilish, ham kasbga tayyorgarlik bosqichida (masalan, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarida), ham kasbiy faoliyatning o‘zining bosqichida ma’lum bir kasbiy muammoni hal qilish, ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli xil fan sohalaridan bilimlarni birlashtiradigan, haqiqiy fanlararo aloqalarni o‘rnatishga hissa qo‘shadigan didaktik o‘yinlarni ishlab chiqish zarurati tug‘ilganda yuzaga keladi.

Shunday qilib, didaktik o‘yinlar tasnifini yaratish va ulardan pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo‘nalishlari amaliyotida foydalanishning boshqa yondashuvlarini izlash zarur.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday tasnifning asosini jismoniy tarbiya murabbiyi yoki o‘qituvchisining faoliyati, murabbiy yoki jismoniy tarbiya o‘qituvchisining asosiy ish turlarini tahlil qilish tashkil etadi. Buning asosida bo‘lajak mutaxassislarni ularning kasbiy faoliyatiga tayyorlashga hissa qo‘shadigan, bilimlarni bir nechta o‘quv fanlaridan to‘playdigan didaktik o‘yinlar yaratiladi. Ular pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayonida aniq kasbiy vazifalarni hal qilish orqali bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga tayyorligini diagnostika qilish imkoniyatini beradi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, sport o‘yinlari yanada yaxlit ta’limning quyi tizimi bo‘lib, o‘yinda ishtirok etuvchilar: ham ishtirokchilar, ham tashkilotchilar harakat faolligining eng xilma-xil turlaridan tanlab foydalanishga yo‘naltirilgan inson jismoniy faolligini tashkil etishning samarali vositalaridan biri (lekin yagona emas) sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Belgilangan vazifalarning mohiyati sport o‘yinlaridan foydalanish jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning kasbiy tarbiya olishlari uchun jismoniy faolligini tashkil etish yo‘llarini topishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асадулаева Н.А. Развивающий потенциал традиционных игр народов Дагестана. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М, 1998. - 24 с.

2. Ахмедов Ф.Қ. Жисмоний таълим жараёнини миллий анъаналар воситасида ташкил этишнинг дидактик асослари. Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 2007, 152 б.

3. Бударина А.О. Ролевая игра как средство формирования профессионал ьнойкоммуникативности студентов. Автореф. Дис. .канд. пед. наук. Калининград, 2001. 24 с.

4. Maxmudov M.H. Ta’limni didaktik loyhalashning nazariy asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. avtor. – T., 2004, 45 b.

Nurxon ANORBOYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MILLIY TARBIYA BERISH ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning asoslari, metodologiyasiga oid fikrlar bildirilgan. Milliy tarbiya mazmuni, shakllari, metodlari tavsiflanadi hamda bu boradagi an'analar, urf-odat, mutafakkirlarining qarashlari keltitirlgan.

Kalit so'zlar. Milliy tarbiya, milliylik, o'zbekona urf-odat, tarbiya metodlari, an'ana, axloqiy fazilatlar, ajdodlar o'giti.

В статье высказываются мнения об основах и методологии воспитания дошкольников в национальном духе. Описаны содержание, формы и методы национального воспитания, представлены традиций, обычаев, взглядымыслителей на этот счет.

Ключевые слова. национальное воспитание, национальная идентичность, самобытные обычаи, методы воспитания, традиции, нравственные качества, наследия предков.

The article expresses opinions on the foundations and methodology of educating preschoolers in the national spirit.The content, forms and methods of national education are described, traditions, customs, views of thinkers on this matter are presented.

Key words. National education, nationality, original customs, methods of education, traditions, moral qualities, heritage of ancestors.

Jamiyat rivojining hamma davrlarida ham taraqqiyotning mohiyati, buning sur'atlari odamlarning ma'naviy hamda milliy kamoli darajasiga bevosita bog'liq. Qayerda ma'naviy kamolat yuksak bo'lib, ma'naviy, tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, mana shu jamiyat albatta rivojlangan, taraqqiy qilgan. Istiqlolimiz sharofati bilan millatimizga, o'zligimizga qaytish, ortimizdan kelayotgan yoshlarimizni milliy tarbiyalashga keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Hozirgi kunda ma'naviy va ma'rifiy turmushimizda sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Xalqona an'analarimiz va asrlardan kelgan qadriyatlarimizning hayotimizdagi o'rni toboro mustahkamlanmoqda. O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi, kelajak hayoti obod va farovon bo'lishi, huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyati yuzaga kelishi ko'p jihatdan yosh avlod tarbiyasiga bog'liq. Shu bois, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga eng muhim vazifalardan biri deb qaramoqda. Bu borada cheksiz g'amxo'rlik namunalarini ko'rsatmoqda. Yurtboshimizning "Ma'naviy yo'nalishlarimiz iqtisodiy yo'nalishlardan o'n qadam oldida yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qurayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi – deb aytgan fikri aytilganlarning yorqin misolidir.

"Tarbiya" kalomi "milliy tarbiya"ning tarkibiy qismi bo'lgani sababli bu tushunchaga ham o'ziga xos yondashgan holda, xolis ilmiy, pedagogik ta'rif bermoq lozim. Arabcha "tarbiya" so'zlari 1) ta'lim bermoq, parvarish qilmoq; odob o'rgatish; 2) mehribonlik ko'rsatish: ko'z-quloq bo'lish; himoya qilish kabi ko'p qirrali mazmunga ega. "Tarbiyachi" esa ushbu ko'pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiradigan shaxsdir. Ko'rinadiki, milliy

tarbiyaning leksik ma’nosi “yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta’lim bermoq” tarzida ta’rif qilish mumkin.

Milliy tarbiya manbayi – milliylik. “Milliylik”, “millat”, “milliy odob”, “millatlararo muloqot madaniyati”, “milliy g‘urur tushunchalarining asosini arabcha “mil” so‘zi tashkil qiladi. Mazkur so‘z arab tilida “o‘zak”, “tub mohiyat”, “negiz” ma’nosini bildiradi. “Millat” so‘zi esa ayni paytda 1) din, mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi 3) xalq kabi ma’nolarda keladi.

Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini milliy ruhda tarbiya qilish mezonlari istiqlol tufayli yana ham dolzarb ahamiyat kasb etgan shaxsning milliy ruhiga bevosita bog‘liq bo‘lgan fazilatlarni singdirish tamoyilidan kelib chiqib belgilanadi.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilab olishda yurtimizning ijtimoiy buyurtmasi bo‘lgan ijobiy sifatlari: milliy faxr, Vatanni sevish, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik, milliy odob, imon va e’tiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish darkor. Ularning tersi bo‘lmish salbiy sifatlar: millat qadriyatlariga befarqlik, Vatanni sotish, xoyinlik, millatchilik, manqurtlik, vijdonsizlik, mahalliychilik singari illatlarga nafrat uyg‘otish lozim. Ushbu ishlarni ularni bir-biri bilan bog‘lab olib borish tarbiyachi tomonidan maxsus mezon etib olinishi maqsadga.

Har bir millatning mana shu ulkan ma’naviy qadriyatlari, an’analari teran tomir otib ketgan o‘qildizlari bilan dunyo madaniyatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Qadim Turkiston hunarmandchiligi, dehqonchiligi, pazandachiligi, san’ati va adabiyoti, ilm-fani, bir so‘z bilan aytsak, milliy qadriyatlarimizning yuksakligi jihatidan olamga mashhurdir. Yerga mehr qo‘yish, mehnatsevarlik, kasbiga ixlos, mehr-shafqatlik, mehmondo‘stlik, ota-onaga hurmat, odamgarchilik, kattalarni siylash, opa-singil, aka-uka, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi mehr-u oqibat, halol peshona teri bilan topilgan rizq-nasibaga qanoat qilib yashash, yetim, bechoralarga muruvvat qilish xalqimizga xos odatlardir. Mazkur urf-odat, an’ana va marosimlarda millatimizning qator bebaho fazilatlari, insonparvarlik fazilatlarida milliy qadriyatlar mujassamlashgandir.

Milliy tarbiya tizimi– har bir xalqning faqat o‘ziga xos mentaliteti, axloq-odob qoidalari, fe’l-atvori va milliy g‘oya tamoyillariga tayangan pedagogik jarayondir. Darhaqiqat, milliy tarbiya muayyan xalqda, masalan, o‘zbek xalqida qadimdan shakllanib, sayqal topib kelgan. Negaki har bir xalqning o‘tmishi – o‘sha xalq qadriyatlar negizidagi milliy tarbiya tarixi sanaladi.

Milliy qadriyatlar – muayyan bir millatga xos xususiyatlari, udumlari, belgilarini ifodalovchi falsafiy anglam bo‘lib, shu millat bosib o‘tgan ijtimoiy taraqqiyot kechimida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Ayni shu milliy o‘ziga xoslik, o‘ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san’atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm-rusmlarida, bayram-u sayllarida o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, urf-odatlar asrlar mobaynida yashab, insonlarning xulqiy me’yorlariga aylangan holda, millatning qon-qoniga, kundalik turmush shakllariga, xatti-harakatiga singib ketgan. “Millatga tegishli bo‘lgan urf-odatlar, an’analar, madaniyat, til, san’at aynan shu millatga tegishli bo‘lgan ijtimoiy-psixologik xarakterni paydo bo‘lishiga olib kelgan. Milliy manfaatlarni, milliy o‘zini-o‘zi anglagan millatdagina milliy birdamlik va birlik mavjud bo‘ladi”.

Milliy g‘urur – bolalarning yoshiga muvofiq ravishda xalqining qadr-qimmatini anglashi, izzatlanishi; xalqining madaniyati, ma’naviyati, iqtisodiyotida qo‘lga kiritgan tajribalari, xizmatlari, qolgan merosini bilishi,usbhu yuksak milliy madaniy yutuqlariga mos bo‘lishga, ularni boyitishga intilishini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston bizlar uchun nafaqat hudud jihatdan Vatan, ayni paytda o‘zbekona urf-odatlar, an’analar vatani ham. Shu bois, o‘zbeklar o‘z tilimiz, davlatchiligimiz, tariximiz, ma’naviyatimiz, istiqbolimiz, urf-odatlarimiz, milliy davlatimizning gullab-yashnashidan, bunyodkor o‘zbekchilikning tiklanishidan manfaatdorlik tuyamiz. Qadriyatlar mustaqil yurtimizda ma’naviyat sohasidagi siyosatimizda o‘z takomilini topmoqda.

Hozirgi davrda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va uni insonlarning ongi va kayfiyatiga ta’siri komil insonni tarbiya qilishga zamonaviy yondashishni taqozo etadi. Bunda o‘zlikni yo‘qotmasligimiz, o‘zbek xalqi ruhiyatini saqlab qolishgina emas, balki yanada kuchaytirishimiz uchun ham milliy tarbiyani mahkam tutishimiz zarur.

Milliy tarbiya asrlar osha shakllangan o‘zining boy uslubiy zahirasiga, xazinasiga ega. Misol uchun, kechirmoq – bolaga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish uchun u yo‘l qo‘ygan xatolarni avf etmoq usuli; o‘ynamoq atamasi esa bola bilan unda ijobiy sifatlarini rivojlantirish, salbiy sifatlarini ozaytirish maqsadini oldiga qo‘yib yo‘naltirilgan, muayyan qoida va usullar bilan ijro qilinadigan o‘yinlar bilan o‘ynash usuli va v.b. Bu jihatlar o‘zbek xalqining o‘z farzandlarida ijobiy fazilatlarni rivojlantirish, salbiy xulq-atvorlarni bartaraf qilish maqsadida qo‘llangan va qo‘llanayotgan yo‘l-yo‘riqlar, harakat tartiblari, tarzlari tizimidir.

O‘zbegona odob-axloq qoidalarining ko‘rinishlari xilma-xil. Ushbu qoidalarni mazmunan yaxlitlab, quyidagilarga ajratish mumkin:

– jamoat orasida o‘zini tutish qoidalari;
– xushmuomalalik odobi;
– yoshga qarab muloqotda bo‘lish (kattalarni hurmat, kichiklarni izzat, tengdoshlarga nisbatan samimiy munosabat) talablari:
– salomlashish va so‘rashish qoidalari;
– ovqatlanish, dasturxon oldida o‘zini tutish mezoni;
– kundalik turmush tartibi (erta turish, ……);
– kiyinish, kiyim tanlash me’yorlari;
– orastalik bilan bog‘liq talablar;
– mehmon kutish va mezbonlik odobi;
– mehnat qilish va mehnatga munosabat odobi va boshqalar.

Turli millatlar madaniyatida odob va axloq mezonlari o‘zgacha, o‘ziga xosdir. Xalqimizdagi odob-axloq mezonlarining tarkib topishida jamiyatning siyosiy-iqtisodiy holati, diniy e’tiqod, tabiiy-iqlimiy sharoit, xalqning turmush tarzi va boshqa shu kabilar ta’sir ko‘rsatgan. Shu tufayli jamiyat o‘zgarishiga bog‘liq ravishda odob mezonlari ham o‘zgarib boradi.

Tarbiya orqali odob-axloq mezonlari oilada singdirilib borilar ekan, “odamgarchilik”, “o‘zbekchilik”, “yomon”, “yaxshi”tushunchalarni anglatishhamda “yomon odam”,“yaxshi odam” obrazi me’yorlarini belgilash, tushuntirish orqali amalga oshirilgan.

Ota-onalarni e’zozlash, kattalarga hurmat, ularga bo‘ysunish, boshqalarga hamdardlik, kamtarlik, bir so‘zlilik kabi insoniy xislatlarni tarbiyalash o‘zbek xalqining “odamgarchilik” – ma’naviy-axloqiy kodeksiga kiritilgan.

Milliy muhit, hech shubha yo‘q, bola ruhiy rivojlanishning barcha jahatlariga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni bolaning ma’naviy ulg‘ayish jarayonida idrok etilayotgan ma’lumotlarni kategoriyalashtirish milliy ko‘rinishga keladi. Obyektlarni kategoriyalashtirishning milliy xususiyati, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda g‘oyat kuchli bo‘ladi. Maktabning boshlang‘ich sinfida ham kategoriyalashtirishning etnik xususiyati yorqin ko‘zga tashlanadi,ya’ni bolalar o‘zbeklarda “yaxshi” kategoriyasiga “yomon” kategoriyasiga

nimalar kirishi haqida tushunchaga ega bo‘lishadi.

Mutaxassislar bolalar o‘z xatti-harakatlarini ota-onalarining so‘zlaridangina emas, ayni paytda yurish-turishlaridan o‘rganishlarini isbot etganlar. Agar kattalar bolaga saboq bermoqchi bo‘lsalar, buni o‘zlari shaxsan o‘rnak ko‘rsatish yordamida amalga oshirishlari darkor. Zurriyotlar ota-onasidan nafaqat genlarini, ayni paytda ularning xatti-harakatlarini kuzatib, ko‘rgan shaxsiy fazilatlarini masalan, tirishqoqlik va intiluvchanlikni ham o‘zlashtirishi isbotini topgan. Massachusets texnologiya instituti olimlari oiladagi kattalarning qanday tarzda qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengayotganiga guvohbo‘lgan bola kelgusida biron-bir vazifani bajarishda intiluvchanlik fazilatini nomoyon etishini aniqlaganlar. O‘zbek millatida ham ota-onalar va boshqa kattalar ibratiga e’tibor qilinadi. O‘zbek oilalarida ota ibrati, ona ibrati, aka namunasi, opa ibrati kabi o‘ziga xos maktablarning o‘rni ayricha bo‘lib kelgan.

Faylasuflardan ispaniyalik bir olim umrini jahon xalqlarining axloq-odobini, urf-odatlarini o‘rganishga, ilmiy tadqiq etishga bag‘ishlagan ekan. Ittifoqo, shutadqiqotchi yurtimizga kelib qolib, Samarqand, Toshkent, Buxoroda bo‘libdi. O‘z yurtiga qaytgach: “Hozirgacha o‘rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o‘n besh yoshlik o‘zbek qizalog‘ining o‘rnidan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha choy uzatishdagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim”, degan ekan. Haqiqatan ham biz shunday madaniyati yuksak xalqning vakillari ekanligimizdan har qancha faxrlansak, shuncha oz.

Haqiqatan ham xalqimiz azaldan yuksak axloqiy fazilatlarga boy bo‘lgan. Ajdodlarimiz farzand o‘stirar ekanlar, ularning odobi, xulq-atvorlariga, muomalalariga, kishilar oldida o‘zlarini qanday tutishlariga, nimalar to‘g‘risida fikrlashib, o‘z meroslarini qanday so‘zlar bilan anglatishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular oilada, ko‘chada farzandlarining qo‘pollik qilishlari, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo‘ya harakat, ishlarga hech ham yo‘l qo‘ymaganlar. Bu jihatlarga bolalar tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Hazrat Navoiyning yozishicha, yosh avlodni yetuk qilib voyaga yetkazish deganda, ularni bilimli, xalqparvar, millatga xos eng ardoqli fazilatlarga ega kishilar o‘laroq yetishtirish tushuniladi. Bunda albatta tarbiya yetakchi rol o‘ynaydi, ayni paytda Navoiy qobiliyatli, tarbiya ta’siriga beriluvchi bolalar bo‘lgani kabi yomon xulqlilari ham borligini, tadbiri olinsa, ularni tuzatish mumkinligini aytadi. Yosh avlod shaxsining yetukligida tarbiyaning ahamiyati qayta-qayta ta’kidlanadi. Bu kabi qarashlar milliy tarbiya tizimida alohida o‘rin tutadi. Odam bolasi yaxshi fazilatlar, go‘zal xislatlar, buloqdek pokiza umid-umidlar bilan kamolotga intilib boradi. Hayotning bor rohat-u azoblarini, achchiq-chuchugini, mashaqqatini totib, barchasidan ibrat olib, ishlash, yashash va yaratish iqtidoriga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 29-dekabr kuni milliy kino san’ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan.https://kun.uz/uz/94205363?q=%2F94205363

2. To‘raev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g‘oya. – T.: Ma'naviyat, 2008.

3. https://fayllar.org/milliy-tarbiya-ijtimoiy-tarihiy-qonuniy.html

4. Do‘stmuxamedova Sh. Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik e’tiqodi pedagogik-psixologik fenomen sifatida.//Oriental art and culture scientific-methodical journal. 2020, №2.

Dildora ABDULLAJONOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti v.b dotsenti

KO‘RSATMALI ISHLAR MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY TARBIY BERISHNING ALOHIDA TURI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada tarbiyalanuvchilarga milliy tarbiyani yo‘lga qo‘yishdagi oila va MTT hamkorligining asosiy shakllaridan biri bo‘lgan ko‘rsatmali ishlarning shakl va mazmuni haqida so‘z yuritiladi. Ko‘rsatmali ishlarning ota-onalarga pedagogik ta’lim berishdagi ahmiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Milliy tarbiya, oila hamkorligi, xulq-atvor ko‘nikmalari, axloqiy fazilatlar, Ochiq eshiklar kuni, axborot stendi, kutubxona, materiallar papkasi.

В статье говорится о форме и содержании воспитательной работы, которая является одной из основных форм сотрудничества семьи и ДОО в налаживании народного воспитания детей. Выявлено значение воспитательной работы в обеспечении педагогического образования родителей.

Ключевые слова. Народное воспитание, семейное сотрудничество, поведенческие навыки, нравственные качества, День открытых дверей, информационный стенд, библиотека, папка с материалами.

The article talks about the form and content of educational work, which is one of the main forms of cooperation between the family and preschool educational institutions in the establishment of public education of children. The importance of educational work in providing pedagogical education for parents is revealed.

Key words. Public education, family cooperation, behavioral skills, moral qualities, Open doors day, information stand, library, folder with materials.

Yosh avlodga milliy madaniyat va qadriyatlar, millat genofonida doimo mavjud bo‘ladigan ruh yuksak axloqiy ideallar, ajdodlardan o‘tib kelayotgan ichki ma’naviy quvvat o‘laroq singdiriladi. Millatning ertasi uchun mas’ul bo‘lgan bugungi salohiyatda turgan avlod vazifasi ana shu ma’naviy quvvatni saqlab qolib, uni shiddatli davrlar bo‘hronida zaiflashtirmasdan keyingi vorislarga munosib darajada qoldirishdir. Milliy ruh, vatanparvarlik nafaqat muayyan bir xalq, balki butun insoniyat uchun ulkan bir fazilatdir. Chunki taniqli rus pedagogi I.A.Ilin ta’kidaganidek, o‘z xalqi va yurtining ruhini anglamay va sevmay turib insoniyat ruhini anglab, bashariyatni sevib bo‘lmaydi .

Ta’lim jarayonida milliy madaniyatga asoslangan shaxsni maqsadli shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari borasidagi bugungi qarashlar L.S.Vigotskiyning psixik rivojlanish determinantlarining tarixiy rivojlanib boruvchi madaniyatga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulq-atvor va psixika rivojlanishining madaniy-tarixiy nazariyasidan kelib chiqadi. Olim psixikaning rivojlanishini vositachilik jarayoni sifatida ko‘rib, vositachilik madaniy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, “Bolaning madaniy rivojlanishidagi har bir funksiya ko‘z oldimizda ikki bor ikkita planda namoyon bo‘ladi: birinchidan – ijtimoiy, undan keyin psixologik, avvalo, odamlar o‘rtasida interpsixik tarzida, so‘ngra bolaning ichida intrapsixik kategoriya sifatida ... Barcha

yuqori funksiyalar, ularning munosabatlari ortida genetik ijtimoiy munosabatlar, odamlar o‘rtasidagi real munosabatlar turadi”. Interpsixik hamda intrapsixik kategoriyalarning tabiiy jarayon sifatida voqelanishi oilada kuzatiladi, genetik ijtimoiy hamda odamlar o‘rtasidagi real munosabatlar avvalo, ushbu ijtimoy institutda (oilada) yo‘lga qo‘yiladi, shakllanadi va rivoj topib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy ruhda tarbiyalash jarayonida bolalar, ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi ijodiy faoliyati muhimdir. Ikki tomon – oila va MTT ushbu maqsad (milliy tarbiya) yo‘lida birlashar ekan, uni amalga oshirishni o‘zlarining ustuvor vazifasi sifatida belgilashlari lozim. Bunda oilaning roli ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu ota-onalarning o‘z millati va boshqa xalqlarga nisbatan milliy xulq-atvor va munosabat tashuvchisi ekanligi bilan bog‘liq. Xalqimiz orasida “Qush inida ko‘rganini qiladi” maqolining keng yoyilgani bejiz emas. Oilada tarbiyaga mas’ullar madaniy identifikatsiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning millat, milliy manfaatlar, to‘g‘ri xulq-atvor ko‘nikmalari, shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantira boshlaydilar, jamoadagi (oilada aka-uka, opa-singillari, MTTda guruhdoshlari, mahallada tengdoshlari bilan) mikroiqlimni yaxshilaydilar, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etadilar, kattalar va bolalar uchun millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalaydilar yoki shunga tayyorlaydilar.

Taniqli pedagog olima, professor M. Inomova oilaning bola tarbiyasiga ta’sir etuvchi olti jihatini ta’kidlab ko‘rsatadi:

– oila o‘zgacha muhit va betakror ta’sirga ega;

– oila bola uchun o‘ziga xoslik ko‘zgusi bo‘lib, ota-ona ibrati, shaxsiy namunasi farzand tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi;

– oila o‘z a’zolari munosabatini ifodalovchi hissiyotlar olamidan iborat bo‘lib, bunda o‘zaro almashib turuvchi ijobiy hamda salbiy kechinma, his-tuyg‘ular namoyon bo‘ladi;

– yaqinlari qurshovida va ulardan ta’sirlanib bolalarda boshqalarga nisbatan hamdardlik tuyg‘ulari, o‘zgalarni tushunish qobiliyati ham tarbiyalanadi;

– oilaviy maishiy hayotda bola ishtirok etishi ma’naviy tarbiyadagi muhim omili sanaladi;

– oila boshliqlari – ota-onalarning o‘zaro munosabati, bir-biriga muhabbati bolaning axloqiy sifatlarini shakllantiruvchi tarbiyaviy ta’sir omiliga aylanishi mumkin. Mazkur jihatlardan kelib chiqib, yana bir boshqa maktabgacha pedagogika ilmi bilimdonlaridan biri Sh.Sodiqova “Demak, oila – tarbiyaviy jamoa va hech kim hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi” degan to‘xtamga keladi.

Metodik adabiyotlarda maktabgacha bo‘lgan yoshda “... bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish” vazifasi alohida ta’kidlanadi. Bu, yuqorida ta’kidlanidek, maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda oilaning alohida, o‘ziga xos, ayni paytda ularning hamkorligidagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Hamkorlikdagi milliy tarbiyani yo‘lga qo‘yishda adabiyotlarda qayd etilgan, ta’lim-tarbiya amaliyotida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligining keng qo‘llanadigan shakllariga murojaat qilinadi. Ular orasida keng tarqalganlaridan biri ko‘rsatmali ishlar sanaladi. Mazkur shakl ilmiy-metodik, o‘quv-uslubiy adabiyotlarda qayd etiladi, lekin ularning hech birida batafsil, alohida to‘xtanilmaydi. Shu bois, biz quyida mazkur shaklda aynan milliy tarbiyani amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

“Ishning bu turi ko‘rgazmalar, bolalar ishini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiyaning barcha masalalari bo‘yicha materiallar solingan papka” kabilardan iborat bo‘ladi.

Ko‘rgazmalar. Ota-onalar e’tiboriga havola qilinadigan ishlar sirasida alohida tarzda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashga oid materiallar ko‘rgazmasini tashkil qilish mumkin. Milliy ko‘rinishdagi (oldingi faslda tasvirlangan) qo‘g‘irchoqlar yoki boshqa o‘yinchoqlar, shu mavzudagi ota-onalar hamda bolalar adabiyotlari, oilada bolalar xonasining milliy ko‘rinishda jihozlagan maketi va shu kabilar ko‘rgazmaga qo‘yiladi. Tarbiyachiga qo‘yilgan materiallarni izohlab turish, savollarga javob berish, kelganlarni o‘zaro muloqotga, fikr almashishga chorlash vazifasi yuklatiladi. Ko‘rgazma u tashkil qilingan joyda kamida bir hafta turishi, qaysidir sabablarga ko‘ra kela olmay qolgan ota-onalar kelib ko‘rishlari uchun imkoniyat qoldirish zarur.

Ochiq eshiklar kuni. “Ochiq eshiklar kuni ota-onalar bilan ishlashning samarali shaklidir. Ochiq eshiklar kuni jamoaning o‘z kalendar yillik rejasi bo‘yicha har bir guruhning ma’lum yillik rejimi bo‘yicha odatdagi mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga bir-ikki marta o‘tkazish tavsiya qilinadi”. Bu kunda asosan, MTTda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlari, bolalarga yaratilgan sharoitlar, erishilgan yutuqlar to‘g‘risida mehmonlarning jonli tasavvurga ega bo‘lishlari uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi, namoyish qilinadi. Shular qatorida milliy tarbiya borasida qilinayotgan ishlar, xususan, milliylik targ‘ib qilingan bolalar ijrosidagi sahna ko‘rinishlari, bolalar tomonidan yasalgan ashyolar, milliy burchak, shu mavzu yoritilgan ssenariy asosidagi tadbir va boshqalar namoyish qilinadi. Bularning barchasi suratlarga olinib, maxsus fotoko‘rgazma tayyorlanishi, shuningdek, MTT hamda har bir guruhning Telegramda ochilgan kanali/guruhiga tashlab qo‘yilishi lozim, toki qaysidir sabab bilan kela olmagan ota-onalar farzandi ta’lim va tarbiya olayotgan tashkilotda milliy ruh qanday singdirilayotgani to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lsin va oilada buni davom ettirsin.

Pedagogik axborot stendlari. Ochiq eshiklar kuni Axborot stendi – bu har qanday eksponatlar, kitoblar, diagrammalar, gazetalar, kirish ma’lumotlarini joylashtirishga mo‘ljallangan taxta yoki boshqa materiallardan o‘rnatmadir. Pedagogik axborot stendlari – pedagogik targ‘ibot shakllaridan biri. Uni tarbiyachi o‘ziga xos, o‘zi ma’qul ko‘rgan tarzda nomlab olishi, bo‘limlarga ajratishi mumkin. Masalan, stend “Ota-onalar, sizlar uchun” deb nomlanib, kunlik (ko‘proq haftalik) kun tartibi, menyu, e’lonlar bo‘limi hamda MTT va oilada joriy ta’lim-tarbiya mazmuni kabi bo‘limlarga ajratilsa bo‘ladi. Stend uni ko‘rish uchun qulay bo‘lishi uchun joylashtiriladi. Pedagogik axborot stendlaridan MTT faoliyatiga aloqador, ota-onalarga yetkazilishi muhim deb bilingan ma’lumotlar, ta’lim-tarbiyaga aloqador adabiyotlar, jalval, diagrammalar, e’lonlar ham joy oladi. Ular qatorida milliy tarbiyaga oid kitoblar, ilmiy, ilmiy-ommabop nashrlarda e’lon qilingan maqolalar, shu yo‘nalishdagi tadbirlar e’loni va boshqalar joylashtirib boriladi. Kitob va jurnallarning asl nusxasi qo‘yilmasa, ular haqida qisqacha ma’lumot, qayerda topish mumkinligi yoki ularning elektron manzillari ko‘rsatiladi.

Ota-onalar uchun kutubxona. Bunday kutubxonalar har bir guruhda ham, MTT uchun umumiy tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Kutubxonada, bir tomondan, ota-onalarning bola tarbiyasi bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va tajribalarini yuksaltiradigan ilmiy hamda ommabop manbalar, ikkinchi tomondan, bolalarga tavsiya etiladigan, to‘g‘rirog‘i, bolalarga o‘qib beriladigan adabiyotlar ularning e’tiboriga havola qilinadi. Mazkur xarakterdagi “Kutubxonada bolalarga ularning yosh xususiyatlariga qarab, kitob o‘qish sirlari asta-sekinlik bilan o‘rgatiladi va uning yangi jihatlari bilan tanishtirib boriladi. ... kitobxonlarni ma’naviy-estetik, badiiy tomondan tarbiyalab qolmasdan, ularning dunyoqarashini shakllantiradi, mehnatga, bilimga bo‘lgan intilishlarini rivojlantiradi”.

Mazkur kutubxonadan ko‘zlangan maqsad kichik yoshdan bolalarda kitobxonlik

madaniyatini shakllantirish hamda asrlar davomida o‘zbek xonadonlarida joriy bo‘lgan oilaviy kitobxonlik an’anasini davom ettirish (tiklash)dir. Bugungi kunda mana shu milliy-ma’naviy an’analarimizni tiklash g‘oyat muhim vazifa sanalmoqda. Bunday vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi:

– bolalar va ota-onalarni kitoblar, mutolaa olamiga ham qalban, ham ongli tarzda mustahkam bog‘lanishlariga erishish;

– millat tarixi, madaniyati to‘g‘risidagi dastlabki tushunchalar bilan tanishtirish;

– xalq qo‘shiqlari, milliy ashulalar, marosimlarda ifodalangan og‘zaki xalq ijodi orqali bolalarga ona tilimizning jozibasini his qildirish;

– oilaviy mutolaa tajribasini umumlashtirish va aholi o‘rtasida yoyish;

– ota-onalarga bolalarini turli uslub, janrdagi adabiyotlar bilan tanishtirish metod va usullari, oila mutolasining har xil shakllarini havola etish;

– oila kitobxonligini tashkil etishda va tarbiya masalalarida ota-onalarga kitob vositasida yordam ko‘rsatish;

– ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun onalar kitobxonligi repertuarini shakllantirish.

Oilaviy mutolada xuddi maktabgacha ta’lim tashkilotida bo‘lgani kabi har qanday mavzudagi kitob aksar hollarda milliy an’analarimiz, ruhiyatimiz, dunyoqarashimizdan kelib chiqib tahlil qilinishi lozim va buning yo‘riqlari ota-onalarga yetkazilishi muhim sanaladi.

Oilaviy tarbiyaning barcha masalalari bo‘yicha materiallar solingan papka. Bu papkaga boshqa faoliyat turlari qatori MTTning oila bilan hamkorlikda milliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq ishlari aks etgan materiallar joylanadi. Alohida bo‘lim sifatida milliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yillik reja, olib borilgan ishlar hisoboti, amalga oshirilgan tadbirlar aks etgan bayonnoma va suratlar sanasiga ko‘ra qo‘yib boriladi. Shuningdek, bu bo‘limda milliy tarbiyani namunali tashkil qilgan oilalar tajribasi, uning mazmun-mohiyati, turli oila vakillarining bir-birlariga o‘zaro bahosi hamda MTTda qilinayotgan, ayni paytda, tarbiyachi amalga oshirgan ishlarga munosabat aks etadi. Papkadagi ushbu bo‘limdan joy olgan materiallar guruhda (MTTda) tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash holatining ko‘zgusi o‘laroq ma’lumotlar jamlanmasi hisoblanadi. Ochiq eshiklar kunida, umuman, ota-onalarning tashrif vaqtida papkadagi materiallar bilan tanishishni taklif qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan, ta’rif va tavsif etilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligining uchta: ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash, ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar, ko‘rsatmali ishlar shakllari keyingi, to‘rtinchi, ya’ni ota-onalarga pedagogik ta’lim berishning qirralari deyish mumkin. Shuningdek, “Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan mashg‘ulot o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan metodik usullarni o‘rgatish; ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o‘rgatish” tarzida ham tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otavalieva O‘. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. – T.: O‘qituvchi, 1994.

2. Лихачѐв Б.Т. Национальная идея и содержание гражданского воспитания //Педагогика. – 1994. – № 4. – С.11.

3. Выготский Л.С. Собрание сочинений в 6 т. – Т.3. Проблемы развития психики /Под ред. А.М.Матюшкина. – М.: Педагогика, 1983. С.145.

Shahnoza XO‘JAMBERDIYEVA,
Namangan davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti

OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada badiiy adabiyot bilan tanishtirishning pedagogik imkoniyatlari hamda bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila kutubxonasining asosiy vazifalari va ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Oila instituti, XXI asr oilasi, oila siyosati, kitobxonlik madaniyati, oilaviy kitobxonlik, uy kutubxonasi.

В статье говорится о педагогических возможностях приобщения детей дошкольного возраста к художественной литературе в семье и об основных задачах и значении семейной библиотеки в формировании читательской культуры у детей.

Ключевые слова. Институт семьи, семья XXI века, семейная политика, культура чтения, семейное чтение, домашняя библиотека.

The article talks about the pedagogical possibilities of introducing children of preschool age to fiction in the family and the main tasks and importance of the family library in the formation of reading culture in children.

Key words. Family institution, XXI st century family, family policy, reading culture, family reading, home library.

Har bir davlat, jamiyat o‘z mamlakatining ravnaqi, rivojlanishini birinchi navbatda tabiiy zahiralari, qazilma va boshqa boyliklardagina emas, balki xalqning ilmiy salohiyati, intellektual qobiliyati, yosh avlodning bilimga, hayotga bo‘lgan munosabatida deb biladi. Shu tufayli o‘z davlati kelajagi porloq, buyuk bo‘lishini niyat qilgan davlatlar avvalo, yoshlar tarbiyasiga, ularning sog‘lom o‘sishiga doir barcha choralarni ko‘radilar.

Bosh qomusimiz Konstitutsiyaga asosan qabul qilingan bir qator qonunlar yoshlar tarbiyasiga taalluqli masalalarni eng yuqori darajada hal etishni ta’minlaydi. Yoshlar tarbiyasi kabi o‘ta muhim vazifani bajarish ota-onalardan, barcha davlat organlaridan, jamiyatdan ulkan mas’uliyat va fidokorlikni talab etadi. O‘sib kelayotgan avlodni Vatanga, Yurtga, jamiyatga, oilaga sodiq farzand etib tarbiyalash, yurt ravnaqi, himoyasi yo‘lida ongli qaror qabul qilishga qodirlik ruhida balog‘atga yetkazish bugunning eng dolzarb muammosi va talabidir. Yoshlar davlat va millat istiqbolini belgilaydi. Kelajakni esa, faqat bilimli, ham ma’nan, ham jisman sog‘lom farzandlar bilangina qurish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida kitobxonlik masalasi xususida gapirib:

“...yoshlar va aholining keng qatlamlari o‘rtasidagi kitobxonlikni targ‘ib qilish masalalariga ham alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi. Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”, - deb ta’kidlagan edilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Farmoyishda “... aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talabni o‘rganish..., chop etilayotgan kitoblarni aholi o‘rtasida ommaviy axborot vositalari, jumladan, “Madaniyat va ma’rifat” telekanali orqali targ‘ib qilish, ta’lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta’lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘qish madaniyati va mutolaa ko‘nikmalarini shakllantirish” alohida vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish orqali Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi muhim vazifalar qatorida sanab o‘tildi va bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o‘tkazish zarurligi ta’kidlandi.

Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan oila siyosatining tom ma’nosi XXI asr oilasining istiqboldagi rivojlanishi va taraqqiyotining ustivor yo‘nalishlari jamiyat taraqqiyotining kafolatlari to‘g‘risidagi ezgu g‘oyalarimizga hamohangdir. Shunga tayangan holda XXI asrda oilalar rivojlanishiga asos bo‘luvchi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy omillar va tamoyillar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- XXI asr oilasi jamiyatda ustuvor bo‘lgan demokratik tamoyillarga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning subyektiv xohish-irodasiga qaram bo‘lmaydigan, jamiyatni olg‘a rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo‘lgan maskan rolini o‘ynaydi;
- yangi asr oilasi milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar, an’analar va udumlarning jamiyat rivoji va oila barqarorligiga xizmat qiluvchi jihatlarini ilg‘or, insoniyat taraqqiyotiga aloqador an’analar bilan uyg‘unlashtiruvchi tabiiy makondir;
- XXI asr oilasi insonparvarlik va demokratiya tamoyillarining tom ma’noda jamiyatda ustivor bo‘lishi va har bir jamiyat a’zosi bo‘lgan fuqaro tomonidan ongli tarzda idrok qilinishi uchun ma’rifat maktabini o‘ynaydi;
- XXI asr oilasi umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatda tinchlik va xavfsizllikni ta’minlanishi uchun ma’naviy qo‘rg‘on rolini o‘ynaydigan ijtimoiy institutdir;
- XXI asr oilasi xalqimizning ma’naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasining eng ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassamlashtiradigan va shu asnoda har tomonlama barkamol sog‘lom avlodni tarbiyalovchi maskandir;
- XXI asr oilasi o‘z fuqarolarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali insonlarga berilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatini ta’minlovchi, bunda milliy,

umuminsoniy va demokratik tamoyillar ma’no-mohiyatini yetkazuvchi ijtimoiy institutdir;

• XXI asr oilasi o‘zining intellektual salohiyati, aql-zakovati va iqtidori bilan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanish orqali innovatsion kashfiyotlar va yuksak texnologiyalarni oila barqarorligiga yo‘naltiruvchi, sog‘lom ijodiy muhitni ta’minlovchi makondir.

Qadimdan o‘zbek oilasida bolaga xalq og‘zaki ijodiga tegishli dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, maqol va topishmoqlar vositasida tarbiya berib kelingan. O‘zbek xalqining milliy xususiyatlari badiiy adabiyot bilan tanishtirish orqali singdirilgan.

Afsuski, keyingi paytlarda oila kitobxonligi masalasida mavjud bo‘lgan tarixiy tajriba yo‘qolib, kitob o‘rnini televideniye, telefon, kompyuter kabi texnik vositalar egallay boshladi. Ular esa ma’naviyatning yuksalishiga xizmat qilish o‘rniga salbiy xususiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuning uchun ham mamlakatimizda ma’naviyatning ajralmas qismi bo‘lgan adabiyot, matbaatchilik va noshirlik faoliyatini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasida kitobning ta’sirchan kuchidan unumli foydalanishga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirish jarayonida badiiy adabiyot muhim o‘rin tutadi. Kitob bolaning ong-bilim darajasini kengaytiradi, uni hayotni aks ettiruvchi boy obrazlar dunyosiga olib kiradi, emotsional bilish faoliyatini, hayotga faol munosabatini o‘stiradi, san’atga muhabbat uyg‘otadi, didni o‘stiradi. Kitob bolada eshitganlari, o‘qiganlari haqida shaxsiy mulohazalarning paydo bo‘lishiga, o‘z fikrini aytish ehtiyojining tug‘ilishiga yordam beradi, nutqi va tafakkurini o‘stiradi.

Oilada bolalarni adabiyot va folklor bilan tanishtirish, ularni hikoya qilish va takror aytib berishga, she’r, ovutmachoqlar, maqol va masallarni yoddan ifodali hamda og‘zaki ijodning boshlang‘ich shakllarini rivojlantirish bo‘yicha ishlar – bularning barchasi quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam berishi lozim:

– bolalarda badiiy asarlarni tinglash, ularga emotsional javob qaytarish ko‘nikmasini rivojlantirish;

– asar mazmunini shakli bilan birgalikda idrok etishga, ular o‘rtasidagi funksional aloqani tushunishga, asosli baholashga, asarlarning janr jihatidan xilma-xilligini, tasviriy-ifodali vositalarning xususiyatlarini tushunishga o‘rgatish;

– obrazli vositalar va iboralar (epitetlar, qiyoslashlar, ertaklardagi takrorlashlar) dan o‘rinli foydalanib, ma’lum janrda emotsional mantiqiy, izchil qayta hilkoya qilishga, asarni ma’no urg‘ulari, pauzalar, intonatsiyalardan foydalanib, ovoz kuchi va o‘qish tempini boshqara borib, ifodali ijro etishga o‘rgatish;

– obrazli nutqdan emotsional ta’sirlanishni, she’riy qobiliyat, qofiya, ritm, uslubni his qilishga o‘rgatish;

– bolalarni badiiy asarlardan olgan taassurotlari, bilim va malakalarini mustaqil faoliyatga qo‘llashga o‘rgatish.

Bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ota-onalarning vazifalari:

• bolaga so‘z san’ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mehrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqealarga emotsional munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qayg‘urish va ‘‘ularga yordamlashish’’ hissini tarbiyalash, ya’ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo‘lajak kitobxon sifatida shakllantirish;

• hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda bilish malakasini hosil qilish;

• bolalarga sanoq she’r matniga mos keluvchi o‘yin harakatlarini bajarishni

o‘rgatish;

• bolalarda xalq asarlari, she’rlar, qo‘shiqlar ohangdorligi va musiqiyligiga nisbatan emotsional munosabat bildirishni tarbiyalash;

• bolalarga adabiy asarlar ko‘p martalab o‘qilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish;

• bolaning she’rlar va ertaklardan ayrim so‘zlar hamda ifodalarni takrorlashga rag‘batlantirish;

• illyustratsiyalarni ko‘zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustratsiya mazmuni bo‘yicha oddiy savollarga javob berishni o‘rgatish (Kim bu? Quyonning quloqlari qani? U nima qilayapti? Sichqon qani? va h.k.).

• bolalarga dastlab ko‘rgazmali asosda (suratlar, o‘yinchoqlar, harakatlar), so‘ngra esa ko‘rgazmasiz taqdim qilinayotgan qisqa she’rlar, sanoq she’rlar, ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o‘rgatish;

• bolani ilk yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, muqovasi qattiq va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Bolalarga badiiy adabiyotlarni tanishtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bola uch yoshga kelib adabiy rivojlanishning quyidagi ko‘rsatkichlariga erishadi:

– adabiy asar borasida kattalar bilan muloqot qilishdan zavq oladi, ularni qiziqib tinglaydi;

– unga aytib berilayotgan yoki o‘qilayotgan asarlarni chalg‘imasdan, diqqat bilan tinglaydi;

– takror tinglaganda tanish asarlarni, illyustratsiyalar va o‘yinchoqlardagi ertaklar, hikoyalar va she’rlar qahramonlarini taniydi;

– asar (sanoq she’rlar, qo‘shiklar, ertaklar) mazmunini so‘z, harakat, imo-ishora bilan ko‘rsatib beradi;

– tanish she’rlardagi so‘zlar va qatorlarni ilib olishga intiladi;

– kichkintoylarga mo‘ljallangan kitoblardagi illyustratsiyalarni ko‘zdan kechirishga qiziqish bildiradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish sohasida pedagoglar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

– bolalarni yuqori badiiy saviyadagi adabiyotlarga oshno qilish, ularda adabiy-badiiy taassurotlar zahirasini shakllantirish;

– ifodali badiiy nutqni shakllantirish;

– bolalarga kichik prozaik matnlar mazmunini emotsional va ifodali tarzda yetkazish hamda kichik she’rlarni yoddan aytib berishni o‘rgatish;

– ma’lum adabiy asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etish;

– bolalarda adabiy asarlarning (xususan, ertaklarning) o‘ziga xos tuzilmasi, tipik personajlar va syujetli-mavzuli birliklari hamda ularni ijodiy qo‘llash usullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;

– asosini bolalarning adabiy obrazlarni talqin qilishi tashkil qiladigan tasavvur shakllarini rivojlantirish;

– bolalarda badiiy obrazning rivojlanishi, o‘zgarishi, uning ko‘p qirraliligi va ko‘p tomonlama bog‘liqligi haqidaga tezkor tasavvurlarni shakllantirish;

– bolalarda adabiyotlarni individual tarzda afzal ko‘rishni rivojlantirish;

– bolalarning kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatidagi munosabatini rivojlantirish, ularni qo‘lyozma kitoblar yozishga jalb qilish.

Tabiiyki, oilaviy kitobxonlikda tashabbus hamisha kattalar tarafida bo‘ladi. Bunda bobolar yoki buvilarning bolalarga ertakgo‘yligi yoki ota va onalarning kitobxonligi ayricha ahamiyat kasb etadi. A.S.Pushkin iste’dodining kurtak otishida buvisi Arina Radionovna nechog‘li rol o‘ynagan bo‘lsa, “bolalik kunlarida, uyqusiz tunlarida” buvisi so‘zlab bergan ertaklar Hamid Olimjonda shoirlik iste’dodining uyg‘onishida shu qadar rol o‘ynagani inkor etib bo‘lmas haqiqatdir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar oila sharoitida kitob vositasida ta’sir ko‘rsatishning quyidagi jihatlariga e’tibor berishlari zarur:

– badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a’zolariga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi;

– bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar. Nozik yumor, sanoq she’rlar, hazil-huzullarni o‘zida jamlagan xalq asarlari dangasalik, qo‘rqoqlik, o‘jarlik, injiqlik, faqat o‘zini o‘ylash (egoizm) kabi sifatlarga nisbatan pedagogik ta’sir ko‘rsatishning obyektiv vositasi hisoblanadi.

– oilada bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o‘tkazish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.

2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017 y. – 47-b.

3. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. “Namangan haqiqati” gazetasi, 2017-yil 14-yanvar, –№ 4 (19313).

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori. 2020 yil 22 dekabr.

5. Otavaliyeva O‘. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. – T.: O‘qituvchi, 1994, – 72 b.

Rustam XURRAMOV,
Termiz davlat universiteti, "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

O'QUVCHILAR EVRISTIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

(1-4 sinflar misolida)

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining evristik fikrlashini rivojlantirishda samarali interfaol metod va vositalardan foydalanish va ta'lim sohasida qo'llanilishining ijobiy natijalari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida evristik fikrlashni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarda to'g'ri tashkil etish va jahon tajribalarida samarali hisoblangan topshiriqlar berish sezilarli darajada natija berishi ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan. Muallif ta'lim mazmuniga tayangan nazariya va amaliyotning birligi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan maqolada sinfdan tashqari ishlarda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning samarasi va uni mashg'ulotlarda qo'llash bo'yicha ham ayrim tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, evristik qobiliyat, metodika, faoliyat, natija, qobiliyat.

В статье представлена информация об использовании эффективных интерактивных методов и средств развития эвристического мышления младших школьников и о положительных результатах их применения в образовательной сфере. Также научно доказано, что при формировании эвристического мышления у младших школьников существенный результат дает правильная организация внеклассной работы и постановка задач, рассчитанных эффективно на мировом опыте. Автор опирался на содержание образования единство теории и практики в научно исследованной статье также приводятся некоторые рекомендации относительно эффективности использования интегрированного обучения во внеклассной работе и его применения на занятиях.

Ключевые слова. Логическое мышление, развитие, эвристическая способность, методология, деятельность, результат, способность.

The article presents information about the use of effective interactive methods and means of developing heuristic thinking of younger schoolchildren and about the positive results of their application in the educational sphere. It is also scientifically proven that when forming heuristic thinking in younger schoolchildren, a significant result is given by the correct organization of extracurricular work and the formulation of tasks calculated effectively on world experience. The author relied on the content of education, the unity of theory and practice. The scientifically researched article also provides some recommendations on the effectiveness of the use of integrated learning in extracurricular activities and its application in the classroom.

Key words. Logical thinking, development, heuristic ability, methodology, activity, result, ability.

Bugungi kunga kelib ta'lim mazmuni va uning metodik tizimi yanada takomillashtirilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar va pedagogik amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayonida o'quvchilarga ma'lum darajada bilim berish, dastlabki amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishning o'zi yetarli emas. Ularda ijtimoiy tajriba, ya'ni kompetensiyalarni shakllantirish alohida dolzarblik

kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda o‘quv jarayonining metodik tarkibini ham boyitish, ta’lim samaradorligini ta’minlash maqsadida ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun qulay muhit yaratish nihoyatda zarur.

Xorijlik olimlar tomonidan ilgari surilgan dastlabki nazariyalardan biri assotsiativ yo‘nalishga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalish vakillari assotsiatsiyani fikrlashning asosi deb hisoblaganlar. Angliyada David Yum, Djems Mill, Djon Styuart Milg‘, Aleksandr Ben, Gerbert S’enser, Frantsiyada T.Ribo, Germaniyada Teodor T.Sigen, Yulius Ebbingauzlar assotsiativ yo‘nalish vakillaridir. “Assotsiatsiya” tushunchasini dastlab D.Lokk izohlagan. Uning fikricha assotsiatsiyani butun ruhiy kechinmalar, jarayonlar va fikrlashning umumiy mexanizmi sifatida qarash mumkin. Muallif ushbu yo‘nalishda uchta asosiy g‘oyani ilgari surgan:

– assotsiatsiya to‘g‘risidagi;

– bilimning hissiyotdan kelib chiqishi;

– fikrlash jarayonining boshqalardan holi xarakteri haqidagi g‘oyalar. Ushbu nazariyaning kamchiligi shundan iboratki, unda subyektning aqliy faolligi, hal qilinayotgan muammoning mohiyati bilan bog‘liqligiga e’tibor berilmagan. Ushbu nazariya faqat o‘z-o‘zicha, hamda o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda fikrlashga asoslanadi. Aqliy faollikning eng rivojlangan ko‘rinishi ham xotiraning qayta ishlashi mahsuli deb qarash assotsiativ yondashuv tarafdorlariga xosdir.

Fikrlash jarayoni muammolari bixeviorizm nazariyasida o‘ziga xos talqin qilingan[1].

Biz izlanishlarimiz davomida boshqa psixologlar, didaktlarning xulosalari, g‘oyalari va qoidalariga ham tayanganmiz. Ushbu bilimlar, yondashuvlar o‘rganilayotgan muammoning fanlarni o‘qitish metodikasi sohasidagi uslubiy o‘rnini aniqlashda yordam berdi. Bular Elg‘konin D.B., Davqdov V.V., Zankov L.V., Kabanova-Meller Ye.N., Samarin Yu.A.va boshqalarning qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Rivojlanuvchi ta’lim nazariyasining namoyondalaridan Elg‘konin D.B. va V.V.Davqdovlar nazariy (ammo, odatiy empirik bo‘lmagan) bilim va fikrlash, o‘qish faoliyatini yanada batafsilroq tadqiq etishga muvaffaq bo‘lganlar. Rivojlantiruvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilar ham o‘qituvchilar ham ta’lim jarayonining teng huquqli subyektlari hisoblanadilar. Ushbu nazariya shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi bilan uyg‘unlashgan holda ilg‘or texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Fikrlash – muayyan voqea-hodisa haqida ma’lum bir xulosaga kelish uchun mulohaza yuritish, o‘ylashni ifodalovchi tushuncha[2].

Fikrlash ham faoliyatga mos bo‘lgan harakatga ega bo‘lishni talab qiladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘rganiladigan ta’lim elementlarini o‘zlashtirishga, ular ustida amallar bajarishga qaratilgan faoliyatdir.

Og‘zaki mashqlar o‘quvchilarga hodisaning mohiyatini tezda ko‘rish, tushunish va uning bajarilishini to‘g‘ri izohlay olish imkoniyatini beradi. Yozma mashqlarni bajarish davomida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari voqea hodisaning mohiyatini anglab olishga qiynaladilar. Og‘zaki mashqlarning xarakteri turli-tuman bo‘lishi mumkin: obyektni berilgan belgilariga ko‘ra topib olish bo‘yicha mashqlar, obyektni o‘xshashligi va farqlarini topish bo‘yicha mashqlar yoki qonuniyatlarni aniqlash, tasniflashga doir mashqlar va h.k.

Bundan tashqari og‘zaki mashqlar dars shakllarini rang-barang qilishga yordam beradi. Avvalo, qiziqarli mashqlarni kiritish orqali o‘quvchilar faolligini oshirish mumkin,

1 Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7-2004. С. 6 -19.

2 Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlol, 1994. 321-bet.

xususan, didaktik o‘yinli, muammoli darslarni tashkil qilishda og‘zaki mashqlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, darslarda yoki sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtiradi. Bu esa ixtiyoriy majburiy bo‘lmagan diqqatni, xotirani, assotsiativ faoliyatni hamda o‘quvchilarning taqqoslash, solishtirish, xulosalar chiqarish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarning hal qilinishini ta’minlaydi[3].

Bu sohada quyidagi muammolar mavjud:

– boshlang‘ich sinflarda ta’limning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kuchaytirish zaruriyati bilan ularda mantiqiy fikrlashni maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki mashqlar vositasida shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqilmaganligi;

– boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlarining batafsil ochib berilmaganligi;

– o‘qitiladigan darslarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini tashkil qilishda maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki mashqlardan o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun foydalanishning zaruriyatining mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish zaruriyati biz tanlagan mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Xususiy didaktikada o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga oid ko‘plab ilmiy yondashuvlar mavjud. So‘nggi yillarda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida o‘quvchilarning o‘qitishdagi ta’lim texnologiyalari ham takomillashtirildi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, ta’limning yangi paradigmasiga o‘tilishi munosabati bilan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini ham yangi sifat bosqichiga ko‘tarish ehtiyoji kuchaydi. O‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirish masalasida mutaxassislar turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar.

Bixeviorizm - (inglizcha behaviour – xulq-atvor, xatti-harakat) 19 asrning oxirlarida shakllanib, 20 asrda rivojlangan Amerika psixologiyasidagi yetakchi oqimlaridan biri. Bixeviorizm ta’limoti asosida inson va jonivorlarda muhitning ta’siri, qo‘zg‘atuvchilarga javoban amalga oshiriladigan ishlar, nutqiy va hissiy javoblar tizimining amalga oshirilishini anglatadi.

Bixeviorizm g‘oyasi tarafdorlari fikriga ko‘ra tashqi rag‘batlarga javoban fikrlash jarayoni vujudga keladi. Mazkur yo‘nalish tarafdorlari o‘z tajribalarini asosan hayvonlarda o‘tkazganlar. Inson va hayvonning fikrlashini bir-biriga o‘xshash deb bilgan bixeviorizm tarafdorlari fikrlashni organizmning muammoli sharoitga ko‘nikishga qaratilgan harakati deb bayon qilganlar.

A.I.Golikovning aniqlashicha, bu jarayon miyaning tashqi olamni qabul qilishi va javob harakatlari shaklida namoyon bo‘ladi[4]. Ushbu nazariyaning kamchiligi shundaki, inson ko‘rmagan, his qilmagan va qabul qilmagan narsalari haqida fikr yurita olmaydi, hamda bu qobiliyat unda mavjud bo‘lmasligi kerak deb hisoblaydilar. Shunisi ahamiyatliki, ayrim o‘quvchilar qulay sharoitda ham bilimlarni yaxshi o‘zlashtirmasdan, noqulay sharoitda ham muayyan bilimlarni chuqur egallashi mumkin. Bu holatlar bixeviorizmchilar nazariyasini inkor qilishga asos bo‘ladi.

Inson fikrlashini rivojlantirishning nazariy yondashuvlari quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

– yaxlitlik va tizimlilik;

– refleksivlik;

3 Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T..: O‘zbekiston, 1992. – 178.

4 Голиков А. И. Теория и методика математического развития младших школьников в учебной деятельности: дисс. ... докт. пед. наук. – М., 2008. С. 323

– tanqidiylik;
– innovatsionlik;
– qayishuvchanlik;
– noaniq vaziyatda o‘z taqdirini o‘zi belgilay olish qobiliyati;
– mahsuldorlik.

Forobiy “Aql to‘g‘risida”gi kitobida axloqli kishining “o‘n ikki tug‘ma xislati”ni ta’riflab, odamning fikrlash qobiliyatiga to‘xtalib o‘tadi. Forobiy fikrlash qobiliyati yuqori bo‘lgan inson barcha topshiriqlar yuzasidan o‘tkaziladigan tahlillarni tez va to‘liq tushunadigan, uning ma’nosini o‘zlashtirib, so‘zlayotgan shaxsning maqsadi va bayon qilingan fikrining rostligini tushunadigan, quvvati hofizasi kuchli, borliqdan qabul qilgan ma’lumotlarining barchasini eslab qoladigan, xotirasida saqlab qoladigan, zehni sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda aniqlab oladigan, fikri va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini to‘liq va izchil bayon eta oladigan, bilimlarni oson, tez o‘zlashtira oladigan bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi[5].

Abu Ali ibn Sino “O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” nomli asarda fikrlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarga batafsil to‘xtalib o‘tgan. Olimning “Tadbiri manozil” (“Bolani tarbiyalash va o‘qitish”) asarida o‘quvchilarning fikrlashini yaxshilash, bilim berish samaradorligini oshirishda fan yutuqlarini egallashga qiziqish yuzaga kelishi va raqobatlashish imkoniyatini yaratishda o‘quvchilarni birga o‘qitish zarurligini ta’kidlaydi.

Olim suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga to‘xtalib, shunday deydi: “Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga o‘ylab, fikr yuritib ko‘rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do‘sting sening so‘zlaringga va nasihatlaringga e’tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko‘chir”[6].

Xulosa qilib aytganda, shu tariqa biz “fikrlash” tushunchasiga nisbatan bir nechta yondashuvlarni tahlil qildik. Fikrlash shaxsning faolligini tavsiflovchi jarayon bo‘lib, uning uzluksiz rivojlanayotganligi faoliyatda namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quv masalalarini yechish faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400-b.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика,1991. – С. 479
3. Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7 – 2004. – С. 6 –19.
4. Hoshimov K., S. Ochil O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Ikki jildlik. – T.: O‘qituvchi, 1995. - 464 b.
5. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlol, 1994. 321-bet.

5 Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.
6 Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlol, 1994. 321 bet.

Orzigul ASLONOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

JAHON TAJRIBASIDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING VARIATIV MODELLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada rivojlantiruvchi ta'lim va uning variativ modellari haqida bo'lib, bunda rivojlangan ilgor davlatlarning o'ziga xos tajribalari, bu orqali o'quvchi shaxsini o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar. Variativ, model, shaxs, ta'lim, ta'limning innovatsion shakllari, innovatsion metodlar, innovatsion vositalar, o'quv loyihalari.

В данной статье речь идет о развивающем обучении и его вариантах моделей, в которых используется специфический опыт развитых стран, благодаря которому личность учащегося может саморазвиваться, приобретать самостоятельные знания, восполнять свои внутренние возможности и способности, создать необходимые условия для повышения познавательной активности.

Ключовая слова: вариатив, модель, личность, образование, инновационные формы обучения, инновационные методы, инновационные средства, образовательные проекты.

This article deals with developmental education and its variants of models that use the specific experience of developed countries, thanks to which the student's personality can self-develop, acquire independent knowledge, replenish their internal capabilities and abilities, create the necessary conditions for increasing cognitive activity.

Key words: variation, model, personality, education, innovative forms of education, innovative methods, innovative means, educational projects.

Jahonda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yilayotgan yuqori talablar o'quvchilar bilish jarayonlarini shakllantirish muammosini hal etishda yangi, samarador psixologik-pedagogik yondashuvlarni aniqlashtirishni taqozo etmoqda. Rivojlangan davlatlarda ta'lim oluvchilarining intellektual rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Blue School, Steve Jobs School, Special Music School (Amsterdam),Alt School (San Francisco), Talent Culture Academy (Canada), "Dzyuku" (Yaponiya) kabi maktablar o'sib kelayotgan avlod tafakkuri, kreativligini rivojlantirishni yetakchi maqsad sifatida belgilab olishgan. Bu esa, jahonda zamonaviy fan yutuqlari, ilmiy kashfiyotlar ijodiy, erkin, tanqidiy, mustaqil tafakkur natijalariga ehtiyoj ortib borishini ko'rsatadi. Ushbu masalaning eng muhim tomoni esa, dunyo maydoniga chiqish uchun bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, faol fikrlaydigan avlodni tarbiyalash muhimligini ko'rsatadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida o'quvchilar imkoniyatlarini rivojlantirish o'z-o'zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g'oyalar, shuningdek, ta'limning rivojlanish bosqichidagi eng so'nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. O'quvchilarni rivojlantirish, intellektini boyitish jahonning yetakchi davlatlarida turlicha amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi ta'lim berish-

da ko‘pgina xorijiy davlatlarning o‘z tajribalari mavjud. Bunday tajribalar ideal, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, elitizm tizimidan maktabda ta’limni ommaviylashtirishga, so‘ngra o‘quv kurslarini zarur shaxsiylashtirishga o‘tish, shuningdek, o‘quvchilar uchun maktabda ta’lim olish huquqi, yangi talablarni joriy etilishi bilan bog‘liq.

Jahonning rivojlangan davlatlaridan biri – Fransiyada o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishlariga yordam beradigan alohida maktablar mavjud. Jumladan, Arborescences maktabi yuqori salohiyatli o‘quvchilarga mo‘ljallangan boshlang‘ich maktabdir. U o‘z o‘quvchilari potensiallariga samarali tarzda erishishlari uchun avtonomiya, birgalikda yashash, ijodkorlik va ichki motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan muqobil ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanadi.

Fransiyadagi mazkur maktab ba’zi yuqori potensialli o‘quvchilar maktablarda past natijalarga erishayotganligi sababli Уçуртма (Ле модèле ду Сэрф-волант) modelini taklif qiladi. Model ikkita asosiy usulda o‘quvchilarning samara beradigan 5 ta ehtiyojiga (xususiyati, qobiliyati) asoslangan bo‘lib, ularning individualligini hisobga olishni taklif qiladi. Ushbu model o‘quvchilarni maktab sharoitida tanib olish va qo‘llab-quvvatlash uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Fransiyada o‘quvchilarning noyob imkoniyatlarini ochib berishga juda katta e’tibor qaratiladi. Yuqori intellektual salohiyatli o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari fransiya jamiyati uchun hayotiy zaruratdir. Chunki keng va juda izchil global qarashlarga tayanib, ilmiy, texnik, siyosiy, falsafiy, badiiy va hokazo sohalarda hamma uchun foydali bo‘lgan yangi kashfiyotlar yo‘llarni ochish fransiya kelajagini ta’minlaydi. Bunday iste’dodlar maktablarda rivojlantiruvchi ta’lim natijasida yuzaga chiqishini fransiya ta’limi tan oladi. Ularning fikricha, “Bu iste’dodlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi: ularni boshlang‘ich maktabdan namoyon bo‘ladi. Ular ko‘pincha fransuz maktab tizimida “intellektual jihatdan barkamol o‘quvchilar” (“ élèves intellectuellement précoces”, ya’ni EIP) deb ataladi. Fransuzlar bunday o‘quvchilarni “yuqori salohiyatli bolalar” deb atashadi.

Fransiya boshlang‘ich maktablarining rivojlantiruvchi birinchi xususiyati intellektual samaradorlikdir. Delabierning fikricha: “aytishimiz mumkinki, qandaydir sohaga iqtidorli o‘quvchi – bu rivojlantiruvchi ta’lim jarayonida, o‘z tengdoshi guruhidagi o‘rtacha qobiliyatlardan aniq ustun bo‘lgan bola”. Ikkinchi tez-tez tilga olinadigan xususiyat: o‘ta sezgirlik va ijodkorlik. Rivojlantiruvchi ta’limning bu xususiyatini Jan Siaud-Facchin ta’kidlagan “персонналитé де лъенфант сурдоуé” (“Iqtidorli bolaning shaxsiyati”) ning birinchi nuqtasi bo‘lib, bunday bolaning psixoaffektiv asosiy xususiyati – bu hissiyotning kuchi va uni bola shaxsiyatida namoyon bo‘lishida” deb hisoblaydi. Fransiyada P.Debrai-Retzen “Iqtidorli talabalar ustozi modeli”ni ham taklif qilgan bo‘lib, mazkur modelga ko‘ra, o‘qituvchi o‘z sohasi bo‘yicha o‘quvchisida qiziqish uyg‘ota olishi, tashabbuskor va keng fikrlashga o‘rgata olishi ko‘zda tutilgan. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanilganda bolaning miyasi intellektual darajada juda qizg‘in ishlaydi va hissiy darajada giperaktivlikni yuzaga keltiradi. Bunda bolani doimiy ichki va tashqi “hissiy portlash”ga imkon bermaslik va o‘qituvchi o‘z o‘quvchisini bundan himoya qilishi kerak deb hisoblaydi.

Hozirgi kunda AQShda bu masala bo‘yicha P.Torrens, Fransiyada P.Debrai-Retzen “Iqtidorli talabalar ustozi modeli” ni taklif qilishgan. Mazkur modelga ko‘ra, o‘qituvchi o‘z sohasi bo‘yicha o‘quvchisida qiziqish uyg‘ota olishi, tashabbuskor va keng fikrlashga o‘rgata olishi ko‘zda tutilgan. AQShning “Merit” dasturi ham har yili aynan tafakkuri keng, zehnli, fikrlashi teran o‘quvchilarni tanlab oladi. Bu esa intellektni aniqlash testlari

orqali amalga oshiriladi.

“Merit” (Innovatsion ta’lim orqali ta’limni dolzarb qilish) dasturi 2002 yildan beri KCIning eng yaxshi professional ta’lim dasturidir. MERIT tadqiqotga asoslangan, kasbiy ta’lim dasturi bo‘lib, o‘qituvchilarga o‘z o‘quv dasturlarini yangi o‘qitish metodologiyalari va ilg‘or texnologiyalar bilan takomillashtirilgan o‘quv faoliyati bilan mustahkamlashga yordam beradi. “Merit” dasturi o‘z imkoniyati doirasida turli yoshdagi o‘quvchilarni qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni rag‘batlantirishna qaratilgan. Dastur o‘quvchilarni rivojlantirish sohasida pedagoglarga ham yuqori talablar qo‘yadi. Ular doimo qiziquvchan, harakatchan va o‘z-o‘zini rivojlantirish tafakkuriga ega bo‘lishi lozim. Chunki o‘qituvchilar o‘quvchilarni rivojlantirish asosida iqtidorni o‘rganish tajribasini osonlashtirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan maxsus strategiyalarni taqdim etadi.

M.Fantini, V.Smit va D.Berk, R.Fizel o‘z tadqiqotlarida hamma uchun yagona samarali ta’lim berish usulining bo‘lishi mumkin emasligi haqidagi asosiy muqobil konsepsiyani shakllantirishga bag‘ishlaganlar. Ularning fikricha, ta’lim usullarini variativlari bo‘lsagina ijobiy natijalarga erishish mumkin. M. Reyvidning ilmiy qarashlari alohida e’tiborga loyiqdir. U variativ usullarning umumiy tipologiyasini taklif qildi. Shuningdek bu tadqiqotchi variativ ta’limni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi tashkilotlarni boshqargan variativ amaliyotlar faoliyatining bevosita ishtirokchisi hisoblanardi.

A.Ferrier variativ o‘qitish muammosiga o‘ziga xos ma’lum talablarni qo‘yadi. Uning fikriga ko‘ra:

Variativ o‘qitishda birgalikdagi ta’lim va tarbiyani boshlang‘ich sinfdan maktabni tugatgunga qadar kuzatish zarurati;

– o‘qitishni tashkil etish bolaning o‘zi ehtiyojlaridan kelib chiqishi kerak;

– umumiy rivojlanish bilan birga ixtisoslik ko‘nikmasiga ham e’tibor qaratish lozim;

– agar dastlab bolaning moyilligi rivojlangan bo‘lsa, unda uning rivojlanayotgan moyilligi va qobiliyatlari kasbiy yo‘nalishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak;

– ta’limni individuallashtirish birinchi o‘rinda turishi kerak;

– o‘qitish bolaning shaxsiy mustaqilligiga asoslanishi kerak;

– bolaning ixtirochilik va ijodkorlikka bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirish uchun majburiy mashg‘ulotlar mustaqil ish bilan birlashtirilishi kerak;

– variativ usullar bilim olishning asosiy usuliga aylanishi kerak;

– variativ usullar o‘qituvchining vakolati asosida emas, balki tajriba va tanlash erkinligi orqali amalga oshirilishi kerak.

Variativ ta’lim, birinchi navbatda, bilim berib qolmay, balki u bolalarda kuzatish, fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirish g‘oyasi bilan birlashtirilgan. Bu esa ta’limni insonparvarlashtirish bilan bevosita bog‘liqlikni nazarda tutadi:

– an’anaviy yagona ta’lim tizimidan ta’limning variativligi davlat ta’lim tizimi tomonidan ta’minlanadigan, u bilan raqobatlashadigan va yetishmayotgan ta’lim tarkibiy qismlarini to‘ldiradigan ta’limning turli shakllari va kanallariga o‘tishga imkon beradigan ta’limning o‘zgaruvchanligi va muqobilligi;

– ta’limning ochiqligi, bu haqiqatan ham variativ shakl, usulni yaratishning hal qiluvchi shartlaridan biri bo‘lib, u ichki ozodlik, dogmalardan xalos bo‘lish va ta’limning yaxlit mazmuni bilan ajralib turadi;

Variativ ta’limni nazarda tutuvchi, maqsad va mazmuni, ta’lim jarayonini tashkil etish, pedagogik yondashuv va texnologiyalar bo‘yicha yagona tizimdan rang-barang tizimga aylantiruvchi ta’limning plyuralizmi;

– ta’lim muassasalarining o‘z rivojlanish strategiyasi, maqsadlari, mazmuni, ishini tashkil etish va usullarini tanlashdagi mustaqilligi, shu jumladan, huquqiy va iqtisodiy mustaqilligi;

– o‘qituvchilarning ijodkorlik, o‘z pedagogik uslubiga bo‘lgan huquqi; pedagogik texnologiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quvchilar faoliyatini baholash usullari va boshqalarni tanlash erkinligi.

Shu sababli variativ ta’lim bir qator funksiyalarni bajaradi:

– maktabning polifoniyasini va bolaning tanlash huquqini ta’minlaydi;

– ta’limning tabaqalanishini, uni individuallashtirishga, uning tabiiy va shaxsga yo‘naltirilgan xarakterini qayta yaratishga yo‘naltiradi;

– ta’limning rivojlanuvchi, faoliyatga asoslanganligidan kelib chiqib, u shaxsning barcha shakl va sohalarida mustaqil ishlash qobiliyatini uyg‘otishga qaratilgan;

Shu munosabat bilan, nostandart maktablar haqida gapirganda, muqobil maktablar quyidagi kabi fundamental tamoyillarga asoslanganligini ta’kidlash juda muhimdir:

R.I. Morleyning fikricha, variativ ta’lim, avvalambor, protsedura yoki dastur emas, balki istiqboldir. Bu chinakam bilimdon bo‘lish istiqbolidir. Bunday ta’lim har qanday insonni qiziqtiradi, bu yerda har bir kishi o‘rganish va hayotga tayyorgarlik ko‘rish uchun barcha imkoniyatlarni topadi. Demak, muqobil ta’lim ta’lim tizimining ko‘plab strategiyalari va imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi, buning yordamida har bir kishi bilimga yo‘l topadi.

1) shu munosabat bilan R.Morli variativ ta’limning bir qancha modellari borligini uqtiradi.

2) AQSH ta’lim Departamentining Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bo‘yicha asosiy ma’lumotlar bazasi muqobil ta’lim maktabini “davlat boshlang‘ich maktabi” deb ta’riflaydi:

3) o‘quvchilarning umumiy an’anaviy ta’lim maktabida odatda qondirilmaydigan manfaatlarini ta’minlaydi;

4) umumta’lim maktabiga qo‘shimcha bo‘lib xizmat qiladi;

5) umumta’lim maktabda taklif etilmagan keng ko‘lamli usullarni taklif qiladi.

Shunday qilib, xorijiy davlatlarda variativ ta’lim amaliyoti quyidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi:

– shaxsning o‘zini - o‘zi rivojlantirishi uchun madaniy muhit yaratish;

– umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirish, ta’limni insonparvarlashtirish;

– bolalarga o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, erkinlik va ijtimoiy himoyaga bo‘lgan huquqlarini tan olishi uchun barcha imkoniyatlarni ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Morley, R. E. Alternative Education: A Way of Restructuring Education /Local Review Process. Retrieved from: http://learningalternatives.net/wp-content/ uploads / legacy /aewrelrp.pdf

2. Цырлина Т.В. Феномен гуманистической авторской школы в педагогической культуре XX в. – Курск: Изд-во КГПУ, 1999. – С. 196

3. Вафина Д.И., Валеева Р.А. Альтернативное образование в США: современное состояние и тенденции развития: Учебно-методическое пособие. – Казань: Изд-во ‘‘Отечество’’, 2014. – С. 148

4. [Elektronniy resurs]: http://alteredu.ru/new/blog/archives/

Ubayda FAYZIEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.n., dotsent

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TA'LIMIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLARI

Annotatsiya

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga bo'lgan yondashuvlarning tarixiy bosqichlari va istiqbollari, hozirgi kunda O'zbekistonda yaratilayotgan sharoitlar, inklyuziv ta'limning joriy etilishi, dastlabki qadamlar, yutuqlar va muammolar yoritildi. Shuningdek bu borada qabul qilingan davlat qonunlaridagi o'zgarishlar va yangi qarorlar, ularning mohiyati yoritib berildi.

Kalit so'zlar. Imkoniyati cheklangan, bosqichlar, inklyuziv ta'lim, yutuqlar, muammolar, qonunlar, qarorlar.

В статье освещены исторические этапы и перспективы подходов к образованию детей с ограниченными возможностями здоровья, условия, создаваемые в настоящее время в Узбекистане, внедрение инклюзивного образования, первые шаги, достижения и проблемы. Также были освещены изменения и новые решения в государственных законах, принятые по этому поводу, их сущность.

Ключевые слова. Ограниченные возможности, этапы, инклюзивное образование, достижения, проблемы, законы, решения.

The article highlights the historical stages and prospects of approaches to the education of children with disabilities, the conditions currently being created in Uzbekistan, the introduction of inclusive education, the first steps, achievements and problems. Changes and new decisions in state laws adopted on this occasion, their essence were also highlighted.

Key words. Limited opportunities, stages, inclusive education, achievements, problems, laws, solutions.

Hozirgi kunda alohida ehtiyojmand bolalar, ularning umumiy, kasbiy, oliy inklyuziv ta'limi jahon jamoatchiligi nazarida bo'lib, muntazam ravishda bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, respublikamizda bu masala dolzarb bo'lib, davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilib, keng sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirgi kunda maktabgacha va maktab yoshidagi alohida ehtiyojli bolalarni salomatligi, imkoniyatlariga yarasha maxsus, uydagi yakka tartibdagi ta'limi, inklyuziv ta'limi tashkil etilgan bo'lib, tegishli shart- sharoitlar yaratilgan.

Respublika miqyosida bolalardagi nuqson va kamchiliklarni erta aniqlash va o'z vaqtida korreksiya va reabilitatsiya yordamini tashkil etish borasida dasturli ravishda ishlar olib borilmoqda. Bu borada tibbiyot muassasalari, xalq ta'limi vazirligi, oliy ta'lim vazirligi va nodavlat tashkilotlari o'z faoliyatlarida muhim yo'nalish sifatida faoliyat olib bormoqdalar.

Oliy ta'limda respublikamizdagi barcha pedagogika oliygohlari nogiron bolalar ta'lim tarbiyasi yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis defektologlar, psixologlar tayyorlash, talabalar va mutaxassislar uchun metodik adabiyotlar yaratish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Lekin nogironlikning barcha toifalari bo‘yicha korreksion ta’lim berish uchun mutaxassislar yetarli deb aytib bo‘lmaydi. Masalan tiflopedagogika va surdopedagogika yo‘nalishida, maktabgacha yoshdagi bolalar maxsus ta’limi uchun defektolog mutaxassislar hali yetarli emas, o‘zbek tilida bu yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zbek tilida maxsus metodik adabiyotlar yo‘qligi katta muammo tug‘dirib kelgan.

Bu mummo, unga qaratilgan davlat qarorlari, qonunlarga e'tiboran Chirchiq davlat pedagogika universiteti rahbariyati 2021-2022-o‘quv yilidan inklyuziv sinf o‘qituvchisi ixtisosligi, 2022-2023-o‘quv yilidan surdopedagogika yo‘nalishi va respublikada ilk bor Tiflopedagogika yo‘nalishi ochilib, talabalar qabul qilishni tashkil etilishiga erishildi.

Jahon tajribasiga asoslangan holda ta’limda tenglikka erishish maqsadida respublikamizda bola huquqini kafolatlash, uni qonuniy asosda ro‘yobga chiqarish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qaror qabul qilindi va inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish qonuniy asosda amalga oshirilmoqda.

Qabul qilingan qarorning har bir bandida alohida ehtiyojli bolalar huquqlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan inklyuziv ta’limni joriy qilish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar qayd etilgan va unda tashkiliy, moliyaviy, ilmiy, metodik, kadrlar bilan ta’minlash va boshqa qator zaruriy sharoitlar yaratilishi alohida belgilandi.

Inklyuziv ta'limni amalga oshirish konsepsiyasida ta'lim jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish shart-sharoitlari belgilandi va bajarish yo‘llari bosqichma-bosqich ko‘rsatildi.Unda Xalq ta'limi, Oliy ta'lim, Sog‘liqni saqlash, moliya va boshqa qator vazirliklarga vazifalar yuklatilib, bajarish muddati qat’iy belgilandi.

Alohida ehtiyojmand bolalar uchun umum ta’lim maktablarida inklyuziv sinflar va boshlang‘ich korreksion sinflar ochilishi uchun maktablarda alohida tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

2021-2022 o‘quv yili respublikaning 42 ta maktabida inklyuziv sinflar va 11 ta maktabda boshlang‘ich korreksion sinflar ochilish belgilandi, lekin faqat 34 ta sinf 4ta korreksion sinf ochildi va 75 nafar alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limga qabul qilindi.

2022-2023 o‘quv yilidan 200ta maktabla inklyuziv sinflar ochildi.

Bunda inklyuziv sinflarga o‘quvchilarni qabul qilish uchun quyidagi sharoitlar yaratilishi belgilangan:

• bolalar o‘zining yashash hududidagi maktablarda ta’lim olishi;

• ta’lim olishda qobiliyatlari va imkoniyatlari har xil bo‘lgan bolalarni o‘qitishda qo‘llab-quvvatlashni bir xil tashkil etish (shu bilan ta’lim sifati nafaqat alohida ehtiyojmand bolalar uchun, balki barcha bolalar uchun ham yaxshilanadi);

•inklyuziv tarzda ta’lim olayotgan bolalarga individual yondashuvni amalga oshirish, o‘qituvchilar, ota-onalar psixologlar, volontyorlar birgalikda faoliyati orqali qo‘llab-quvvatlash;

• ta'lim jarayonida bolalarga nisbatan kamsitishlarning oldini olishga yo‘naltirilgan tadbirlar orqali alohida ehtiyojli bolalarni o‘z jamoalari va umuman jamiyatning teng a’zolari bo‘lish huquqini qo‘llab-quvvatlash;

• maktabda yaratilgan sharoitlar barcha bolalarninig ehtiyojlari uchun moslashtirilishi;

Ta’limni imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jihatlar:

– bolaning rivojlanishidagi buzilishi aniqlangandan so‘ng bolaga moslashtirilgan maxsus individual ta’lim rejasini tuzish va individual yondoshuv asosida o‘qitish;

– rivojlanishida buzilishi bo‘lgan bola ta’limi korreksion yo‘naltirilgan, milliy dasturga qo‘shimcha maxsus yondashuvlar kiritish;

– ta’limning korreksion tuzutuvchi talablarini amalga oshirishni ta’minlaydigan maxsus usullar, va o‘quv qo‘llanmalardan (shu jumladan ixtisoslashtirilgan kompyuter texnologiyalaridan) foydalanish;

– rivojlanishida buzilishi bo‘lgan bolalarni ta’lim muassasasidan tashqarida ta’lim maydonini yaratish;

– maktabda tyutor o‘qituvchi bo‘lishi;

– inklyuziv ta’lim ehtiyojiga mos mutaxassis(surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog,logoped)bo‘lishi;

– tegishli yo‘nalish bo‘yicha barcha fanlarning alternativ, moslashtirilgan ta'lim dasturining bo‘lishi;

– korreksiya(tuzatish) ishlarining yo‘nalishida (nutq terapevti, psixolog, defektolog, maxsus o‘qituvchi, mashqlar terapiyasi, shifokor va boshqalar)faoliyat olib borilishi uchun maxsus jihozlangan xonaning mavjudligi;

– Tavsiya etilgan mashg‘ulotlar va konsultatsiyalar olib borish tartibi;

– Mutaxassislarning qo‘shimcha yordami tashkil etilishi.

Nogiron bolani qabul qilish va individual rejalashtirishga tayyorlash

1. Anamnestik ma’lumot olish.
2. Oila, oilaviy sharoit haqida ma’lumot.
3. Bolaning ayni paytdagi jismoniy holati.
4. Kognitiv faoliyatning xususiyatlari.
5. Sezgi holati.
6. Nutqning holati, xususiyatlari.
7. Diqqatining xususiyatlari.
8. Idroki va idrok etish xususiyatlari
9. Xotira xususiyatlari.
10. Qiziqishlari.

Bola rivojlanishining ko‘rsatkichlari.

• Ruhiy holatining barqarorligi.
• Aqliy (eshitish, ko‘rish, nutqiy imkoniyatlari) muammolarning darajasi, belgilari.
• Kognitiv jarayonlarining holati.

Ijtimoiy o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar.

• Bolaning ijtimoiy holati.
• Bolaning oilada qolish shartlarining xususiyatlari.
• Ijtimoiy xulq-atvor normalariga muvofiqligi.
• Qarindoshlarning borligi va ular bilan muloqot.

Tibbiy soha mutaxassislarning tashxisi:

Tibbiy mutaxassislar (hamshiralar, shifokor, pediatr, asab-psixiatr)

• Bola sog‘lig‘ining holati va yosh normalari bilan o‘zaro bog‘liqligi
• Sog‘liqni saqlash guruhi.
• Surunkali kasalliklarning mavjudligi.
• Ko‘rish, eshitish, tayanch-harakat tizimi organlarining funktsional holati.

O‘quvchilarni umumta’lim maktablariga qabul qilishda maxsus mutaxassislarning tashxis qilish tartibi.

logoped:

• Nutqi va talaffuzining holati (fonetik, fonetik-fonemik va umumiy nutqi rivojlani-

shining holati);

• O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqidagi buzilishlarni aniqlash;

• Ta'lim jarayonida logopedik qo‘llab-quvvatlash ehtiyojini aniqlash;

Surdopedagogik diagnostika:

• Surdopedagog o‘qituvchi;

• Maktabga tayyorgarlikning diagnostikasi:

– Eshitish apparati yoki koxlear implantining mavjudligi;

– O‘qish, yozish ko‘nikmalari(qaysi sinfga qabul qilinishiga qarab);

– So‘zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi(so‘z boyligi, fikrini og‘zaki bayon qilish imkoniyati);

– ko‘rib-eshitib qabul qilish imkoniyati.

Tiflopedagogik diagnostika

Tiflopedagog

Maktabga tayyorgarlikning diagnostikasi:

– ko‘rish imkoniyatining darajasi;

– atrof muhitda o‘zini idora qilib yurish imkoniyati;

– qo‘l va barmoqlarning paypaslab idrok etish imkoniyatining holati;

– Brayl usulida o‘qish, yozish ko‘nikmalari(qaysi sinfga qabul qilinishiga qarab);

– abstrakt tushunchalarining rivojlanganlik darajasi so‘zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi(so‘z boyligi,fikrini og‘zaki bayon qilish imkoniyati).

Barcha mutaxassislar ta'lim jarayonida muntazam kuzatish olib borishi va quyidagi holatlarni aniqlab bola bilan ish olib borishni tashkil etish.

• o‘qishdagi qiyinchiliklarni aniqlash;

• bolalar jamoasidagi holat, tengdoshlar, kattalar bilan munosabatlar;

• qiziqishlar va sevimli mashg‘ulotlar;

• xulq-atvor qoidalariga rioya qilish;

• ped. ta’lim imkoniyatlarini bashorat qilish;

• bilimdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish;

• maktabga tayyorgarlikning diagnostikasi.

Yuqorida qayd etilishi zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning har bir bandi bo‘yicha ayni paytdagi holatini o‘rganish bo‘yicha maktab o‘qituvchilari va ota-onalar orasida so‘rovnoma o‘tkazildi.

So‘rovnomadan kelib chiqqan asosiy xulosalar:

O‘qituvchilar inklyuziv ta'lim nimaligini bilishadi, hamda uni joriy qilishda ko‘maklashish va qo‘shimcha malaka oshirishga tayyorlar.

Ularning fikricha, maktab ma'muriyati, o‘qituvchilar kabi inklyuziv ta'limni tashkil qilish uchun zarur o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ko‘pchilik inklyuziv ta'lim sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlar to‘g‘risida bilmaydi.

Shuningdek, maktablarning tayyorgarligini umumiy (5 baldan)dan 3 balga baholashdi.

Inklyuziv ta’limni joriy etishda asosiy qiyinchiliklar: maktabdagi sharoitlarning to‘g‘ri kelmasligi, boshqa o‘quvchilar va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlardagi muammolar, metodik qo‘llanmalarning mavjud emasligi va sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi

Seminarlarning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, axborot manbaini yaratish, metodik qo‘llanma bilan ta'minlashni so‘rashadi.

So‘rovnomada qatnashgan aksariyat o‘qituvchilar 31-40 yoshda.

So‘rovnomada ishtirok etganlarning 60 foiz 10 yildan ortiq ish tajribasiga ega.

Ko‘pchilik so‘rovda qatnashganlar, inklyuziv ta’lim nima ekanligini bilishadi va uni joriy qilish muhim deb bilishadi, shu bilan birga maktablarning tayyorgarligini 3 ballga baholashadi.

Bizga inklyuziv ta’lim kerakmi? Inklyuziv ta’limni qanday tushunasiz?

- Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga boshqa tengdoshlari bilan birgalikda o‘qishga imkon yaratish.

Respondentlar tomonidan berilgan savollar:

- Alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni umumiy sinfda o‘qitish qanday bo‘ladi?
- Bola uchun jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyati bo‘ladimi?

Maktabingizning inklyuziv ta’limga tayyorgarligi yuzasidan ota onalar nazaridagi ehtiyojlar

Vazir bilan uchrashganingizda inklyuziv ta’limni yaxshilash uchun siz talab qiladigan takliflar.

- Kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish.
- Maktabda tegishli sharoitlarni yaratish.
- Sinflarda o‘quvchilar sonini kamaytirish.
- Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga boshqa tengdoshlari bilan birgalikda o‘qishga imkon yaratish.
- Alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish.
- Bola uchun jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyati.

O‘qituvchilar, ota-onalar uchun gibrid shakldagi treninglarni tashkil qilish.

Ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan dasturlardan foydalangan holda hamkasblarini o‘qitadigan asosiy trenerlar guruhini yaratish.

O‘qitish jarayoniga maktab ma'muriyati va hududiy xalq ta'limi bo‘limi vakillari, mahalla, tibbiyot muassasa vakillari va nodavlat strukturalarni jalb qilish.

Butun jamoatchilik, ayniqsa ta'lim muassasa mutasaddilari, ta’lim sohasida qanday global o‘zgarishlar sodir bo‘layotgani va nima uchun bo‘layotganini aniq tushunishlari uchun muhim. Maktablarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini ta’minlash. Barcha materiallar, jumladan, ishlab chiqiladigan metodik qo‘llanmalarni yuklab olish mumkin bo‘lgan axborot platformalarini yaratish. Xorijiy inklyuziv maktablar bilan amaliy tajriba almashishni tashkil etish (onlayn).

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish va ilmiy jihatlarini ishlab chiqishda professor olimlarni jalb qilish orqali inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy nazariyasining yaratilishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qaror.

2. Qodirova F.U.Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari.

3. Fayziyeva U.YU. va boshqalar “Eshitish a‘zolarida funksional buzilishlari bo‘lgan bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish”.– T.: 2016 yil.

4. Чучкалова, Е. И. Образовательные кластеры: теоретические вопросы создания и функционирования / Е. И. Чучкалова, О. Г. Мосунова // Экономика и предпринимательство. – 2013. – № 9 (38). – С. 422-424.

Marxabo KAZAKOVA,
Qarshi davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Sitora ESHDAVLATOVA,
Qarshi davlat universiteti,
‘‘Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish’’ yo‘nalishi 4-kurs talabasi

AJDODLARIMIZ MEROSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR FIKRLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ajdodlarimiz merosini o‘rganish va undan ta’lim tarbiya jarayonida foydalanish milliy madaniyatimizning rivojiga muhim o‘rin tutishi haqida hamda Alisher Navoiy merosidan na’munalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ma’naviyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, Alisher Navoiy, pedagogik jarayon, tarbiya, “Odoblar qomusi”.

В данной статье даны примеры изучения наследия наших предков и его использования в образовательно-воспитательном процессе, которые играют важную роль в развитии нашей национальной культуры, а также наследия Алишера Навои.

Ключевые слова. Духовность, национальная ценность, общечеловеческая ценность, Алишер Навои, педагогический процесс, воспитание, “Энциклопедия нравов”.

This article gives examples of studying the heritage of our ancestors and its use in the educational process, which play an important role in the development of our national culture, as well as the heritage of Alisher Navoi.

Key words. Spirituality, national value, universal human value, Alisher Navoi, pedagogical process, education, “Encyclopedia of Manners”.

Yosh avlodni ta’lim-tarbiya jarayoni har bir jamiyat uchun dolzarb, ahamiyatli bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunki, jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan shu jamiyat a’zolarining qanchalik bilimli, ongli, ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. Insoniyatning shu kungacha bosib o‘tgan murakkab rivojlanish yo‘li ezgu maqsadlarga uzluksiz ma’naviy tarbiya bilangina erishish mumkinligini isbotlab kelgan. Zero, ma’naviyat – inson hayotining asosi irodani baquvvat qiladigan va vijdonni uyg‘otadigan beqiyos kuch, barcha dunyoqarashning mezonidir. Yoshlarimizni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ma’naviy merosdan keng foydalanish milliy madaniyatimiz rivojiga muhim o‘rin tutadi. Sharq mutafakkirlari me’rosini o‘rganish, undan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Inson ma’naviy kamoloti barcha zamonlarda ham yuksak aql egalarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Ibn Sinoning “Solomon va Absol”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyning Husayn Boyqaroning o‘g‘li Abdulmuhsin Mirzoga bag‘ishlab yozgan “Axloqi Muhsiniy”, “G‘utuvvatnomai Sultoniy” asarlari buning

yorqin dalilidir. Mazmun-mohiyatiga ko‘ra ularning har birini ijtimoiy “Odoblar qomusi” deb baholash mumkin. Binobarin, Alisher Navoiyning ta’limiy - axloqiy qarashlarida ham inson kamoloti masalasi asosiy o‘rinni egallaydi. So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy o‘z ijodiyotida komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq ta’limiy-axloqiy muammoni tiriklikning tub mohiyati sifatida talqin etishi bejiz emas. Akademik V.Zohidov qayd qilganidek, “Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson taqdiri, baxt-u saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir” .

Alisher Navoiyning butun umri davomidagi inson tabiati va ma’naviyatiga oid kuzatishlari, axloqiy-ta’limiy xulosalari “Xamsa”, “Nazmul javohir”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolis-un nafois”, “Arba’iyn”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida o‘z aksini topgan. Buyuk shoir “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z kuzatishlari xususida quyidagilarni yozadi: “Har ko‘cha-ko‘yda yuribman va olam ahlidin har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tatib ko‘rdim. Goh pastkash va baxil kishilar qoshida xo‘rlandim va razil-nokaslar oldida e’tiborsiz bo‘ldim. Kimki, har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, kaminaning bu tajribasi yoshlar uchun yetarlidir” .

Professor S.Nishonovaning fikricha, Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo‘lgan chin insoniy fazilatlar ijodkorlik, o‘zlikni anglashga kuchli ishtiyoq, ilm-fanga muhabbat kabi xislatlar bilan chambarchas bog‘liq. Chunki, baxtli hayotga intilgan ijodkor, oqil, qobiliyatli har bir kishi o‘zining kuch-quvvati va aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning inson tafakkuri, ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni va roli xususida so‘z yuritar ekan, ilmni qorong‘ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi. Buyuk alloma Alisher Navoiy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo‘lsa ham, o‘zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Mana shu asarlardan foydalanib, yosh avlodni ma’naviy jihatdan yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Navoiyning didaktikaga oid asarlaridan eng muhimi “Mahbubul qulub”dir. Kitob uch qismdan iborat. Birinchi qismda jamiyatning turli tabaqalari to‘g‘risida, ikkinchi qismda axloq va olijanob fazilatlar to‘g‘risi-da so‘z yuritiladi. Uchinchi qismda esa tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan hikmatli so‘zlar va maqollar berilgan. Asarda maktabdorlar, mudarrislar haqida ham yaxshi gaplar aytilgan. Uning “Dabiriston ahli zikrida” deb atalgan 18-faslida o‘qituvchilarning fazilatlari va faoliyatlari ta’riflangan.

Alisher Navoiy Fikriga ko‘ra: “Go‘zal xulq-atvor, yaxshi xulq nishonasi o‘ntadir: yaxshilik qilish, insofli bo‘lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo‘ya harakat qilayotganni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, aybiga iqror bo‘lganning uzrini qabul qilish, boshqalar mashaqqatini zimmaga olish, faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik, ochiq yuzli va shirin so‘zli bo‘lish, muhtojlar hojatini chiqarish, muloyim va tavozeli bo‘lish”. Alisher Navoiy mazkur asarida kishilarni “munosib kishilar”, “nomunosib kishilar” tarzida 2 guruhga ajratar ekan, “nomunosib kishilar”dan ehtiyotkorlikka chaqiradi.

Navoiy xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilgan. Uning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. Mamlakat, xalq uchun maktab g‘oyat katta ahamiyatga molik:

Bo‘lur g‘am ulug‘larga mazhab yo‘li.

Chu yoshlarga boshlansa, maktab yo‘li.

Ma’nosi: bolalar uchun maktab bo‘lmasa, kattalar ham o‘z yo‘llaridan adashadilar.

Demak, xalqni ma’rifatli qilishda maktabning roli kattadir. Shuning uchun Navoiy Sulton Xusayn Boyqaro bilan suhbatlarida, unga yozgan xatlarida ma’rifat masalalariga oid fikrlarida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiyning asarlaridagi e’tiborga molik jihatlardan biri shundaki, uning ilm ahllariga cheksiz hurmati, ustoz-murabbiylarga ko‘rsatgan ehtiromi va o‘z asarlarida ahli fozil, ahli ilm hamda ahli hunarga bag‘ishlab aytgan iliq so‘zlari bilan bir qatorda yosh bola tarbiyasiga oid qimmatli fikrlaridir.

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim pedagogik jarayonning poydevori hisoblanadi. Bu jarayonda esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan kuchli bilim va yuksak mahorat bilan bir qatorda fidoyilik hamda ulkan sabr-toqat talab etiladi. Chunki, hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) asaridagi “Dabiriston ahli zikrida” (Maktab ahli to‘g‘risida) deb nomlangan faslida ta’kidlaganidek, “Insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi”. (Eron va Turkistonda quyi maktablar, savod maktablarini Eron termini bilan “Dabiriston” deb atalib kelganini ko‘ramiz, bu terminni eronliklar zaroastriylardan olgan bo‘lishi va bu termin yozuvda va amalda savod anchagina rivoj topgan Erondan Turkistonga o‘tgan bo‘lishi mumkin).

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. O‘qish ham, o‘qitish ham og‘ir va mas’uliyatli ish, u qunt, havas va mehnat talab qiladi deb uqtiradi. Alisher Navoiy bu o‘rinda murabbiylarning halol xizmatlarini alohida ta’kidlaydi.

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganch ila.

Ushbu baytda savod chiqarishida ko‘maklashadigan, bu bilan uning hayot yo‘lini yoritadigan insonning ilk ustozi haqida gap boradi. Olloh yo‘lida bitta harf o‘rgatgan ustoz-murabbiylarning xizmatlarini yuzlab xazinalar bilan to‘lab bo‘lmasligi haqida aytib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytganda Ajdodlarimiz merosi har qanday ilm sohasida o‘rganilishi kerak bo‘lgan dolzarb masalaligini har bir inson ongli anglab o‘rganmog‘i lozim bo‘lgan soha; Ilm va ilmsevarlik, ustoz-shogird munosabatlarining jamiyatda tutgan o‘rni va uning davlat rivojlanishidagi, shaxs shakllanishidagi ahamiyatini his qilgan holda yo‘l tutish lozimligini unutmaslik. Faqatgina Alisher Navoiy merosi bilan chegaralanmasdan boshqa buyuk allomalarimiz hikmatlarida ham ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tahlillarda tushuntirish har bir pedagog oldida turgan eng birinchi maqsad va vazifaga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. 2017- y. 7-fevral, PF-4947 sonli qarori.
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat” 2008. – 108-b.
3. Zohidov.V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. – T.: O‘zbekiston, 1970, 152-bet.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 13-jild. – T.: Fan, 1967, 155-bet.

Nargiza DILOVA,
Buxoro davlat universiteti, professori, p.f.f.d.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSI VA UNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada bugungi ta’lim tizimining o‘ziga xosligi, sharq mutafakkirlarining qarashlari va ma’naviy merosi, pedagog xodimlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ajdodlar g‘oyasini takomillashtirish evaziga ta’limni yuksak bosqichga ko‘tarish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy ta’lim tizimi, Sharq mutafakkirlarining qarashlari, ma’naviy meros, kasbiy kompetensiyalar, ajdodlar g‘oyasi, ilg‘or xalqaro tajribalar.

В статье изложены взгляды и духовное наследие восточных мыслителей на самобытность современной системы образования, развитие профессиональной компетентности педагогических работников, поднятие образования на высокий уровень ценой совершенствования идеи предков.

Ключевые слова. Современная система образования, взгляды восточных мыслителей, духовное наследие, профессиональные компетенции, идея предков, передовой международный опыт.

The article presents the views and spiritual heritage of Eastern thinkers on the identity of the modern education system, the development of professional competence of the teaching staff, raising education to a high level at the cost of improving the idea of ancestors.

Key words. The modern education system, the views of Eastern thinkers, spiritual heritage, professional competencies, ancestral ideas, advanced international experience.

Ajdodlarimizning shaxs o‘zligini anglash uchun tinmay aqliy kurash olib borganligini kuramiz. Umuman, Sharqning buyuk allomalari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda boshqa pedagogik fikr namoyandalari o‘z asarlarida, maktab va madrasalarda mudarris, ustoz-murabbiy sifatida, insonni aqliy kamolotga yetkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berdilar, muallim va ustoz-murabbiyning pedagogik mahorati hamda eng qulay ta’lim usullarini amaliyotda qo‘llash yo‘llarini bayon etishga harakat qildilar.

Muhammad Muso al-Xorazmiy bilimlarni egallashda ko‘rgazmali vosita-lardan foydalanish, ta’limda mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, savol-javob, baxs-munozara kabi ta’lim usullaridan keng foydalangan holda talabalarda mantiqiy va chuqur fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish malaka va ko‘nikmalarini tarkib toptirish to‘g‘risida to‘xtalib: «... sezgi orqali bilish, bu qisman bilish bo‘lsa, mantikiy bayon, aqliy bilish esa haqiqiy bilishning

muhim tomonini bayon etadi. ... insonning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin", deydi. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan "Sharq Arastusi" yoki "Al-muallim as-soniy" ("Ikkinchi muallim") nomlariga sazovor bo'lgan Abu Nasr al-Forobiyga ko'ra (870-950) ta'lim texnologiyasining bosh g'oyasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi hamda o'qitishning vosita va usullariga borib taqaladi. Uning fikricha, "Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish, degan so'zdir. "Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar hamda ularni bajarishga odatlanish masalasi"ga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanotbaxsh so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odatdagi g'ayrat, intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni egallashga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlar va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir".

Abu Rayxon Muhammad ibn Muhammad ibn Axmad al-Beruniy (973-1048)ning ta'lim va tarbiya texnologiyasida o'qitishda talabani zeriktirmaslik va xotirasini toliqtirmaslik uchun o'rganiladigan fanlarni tez-tez almashtirib turish zarurligi va o'qitishda turli ta'lim uslublaridan foydalanish haqidagi ilg'or fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Beruniy o'qitish vositasi va usullari haqida fikr yuritar ekan, "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi", deydi.

Beruniyning "Mineralogiya" asarida bayon etilgan hunarmandchilik texnologiyasi, ayniqsa, ayollar uchun zeb-ziynat buyumlarni yasashda xotin-qizlarning faol ishtiroki, ularning zargarlik san'atidagi qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish uslublari haqidagi teran fikrlari juda ham qimmatlidir: "Marvaridning bahosini kim yaxshi bilsa, u kishi uni teshish va silliqlash ishlari bilan o'zi shug'ullanmay, bahosini bilmaydigan shogirdlariga topshiradi. Bunda shogirdlarining qo'llari qaltiramaydi, qo'rqmay ishlaydilar. Agar bu ish xavfsirash bilan bajariladigan bo'lsa, marvaridlar sinib, parchalanib isrof bo'lishi mumkin. Ba'zan usta shogirdlariga shapaloq tushurib turadi, sabab, ularni xavfsirash yo'llaridan xalos etib turishdir. Marvarid teshilib, sayqal berilib bo'linganidan so'ng, har qanday xavf yo'qoladi".

Ibn Sino talabaga bilim berishda o'qituvchining pedagogik mahorati va mas'uliyatli burchi masalasiga alohida to'xtalib, o'qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi, qiziqishi, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o'qituvchiga shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

– bolalar bilan muomalada bosiq-jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;

– ta'limda turli o'qitish usullari va shakllaridan foydalanish;

– talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;

– fanga qiziqtira olish;

– berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;

– bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

– har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o‘qitishdan ko‘ra jamoa, sinf tartibida o‘qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta’kidlaydi: “O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e’tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O‘quvchilar birga bo‘lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) ta’limdagi bosh masala inson kamoloti va kelajagi uchun ilmning zarurligi hisoblanadi. Shu bois u ilmi toliblar astoydil qiziqish, intilish, mashaqqatli mehnat bilangina ilm olishi mumkinligini qayta-qayta ta’kidlaydi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
Urgangali ilm tolibi ilm kerak.
Men tolib-u ilm-u tolibi ilme yuk,
Men bormen ilm tolibi ilm kerak.

Sharqning buyuk allomalari o‘z asarlarida va pedagogik faoliyatlarida talabaning aqliy faolligini ta’minlaydigan, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini kafolatlaydigan dunyoviy bilimlarni o‘qitish uslublarining yangicha shakllarini yaratish va ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llash g‘oyasini ilgari surishgan. Shuningdek, mutafakkirlar va ma’rifatparvar pedagoglar tomonidan yaratilgan pedagogik asarlar va tuzilgan alifbolar, o‘qish kitoblari hamda darsliklarda maktab va madrasalarda foydalanilib kelingan savol-javob usuli asosida talaba-larda aqliy faollik, ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go‘zal nutq tarkib top-tirilgan. Bundan esa Sharqdan g‘arbga siljigan sharqona ta’lim texnologiyasi, g‘oyasi pedagogik texnologiya shaklida g‘arbdan sharqqa qaytib kelgan degan xulosa kelib chiqadi. Bu borada yaqin o‘tmishimizga nazar tashlasak, ko‘p narsa ravshan bo‘lib, bir qator tushunmovchiliklar oydinlashadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o‘quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ana shu ma’noda pedagogik jarayonda yagona maqsadga – umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Pedagogik maksadlarga qanday vositalar bilan, qanday ketma-ketlik va qaysi ma’noda erishishga bog‘lik. Birinchisi zamonaviy ta’lim va tarbiyaning bir shaklini tanlansa, ikkinchisi o‘zgacharok, uchinchisi yana bir boshqacha yo‘l tutadi. Shu jumladan, xalq, elatning o‘z udumi, odati, turmush tarzi bor. Xalqning umumiy pedagogik madaniyatida shaxs tarbiyalanib, o‘qib rivojlanishida o‘ziga xos innovatsion pedagogik g‘oyalarga aksiologik yondashishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. – T.: “Adolat”, 2017.

2. Ataeva N., Rasulova F., Xasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). Ukuv kullanma. 1-kitob. – T.: “Fan va texnologiya”, 2011.

3. Baxodirov R. Shark mutaffakiri. Abu Abdullox al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi. - T.: “Uzbekiston”, 1995.

4. Beruniy (“Qimmatboxo toshlarni bilib olish haqida ma’lumotlar to‘plami” “Minerologiya”) kitobidan. Tanlangan asarlar, IV jild. – T., 1974. –25-b.

Ситора ТУРСУНОВА,
проф.
Суннатилла АБДИРАСИЛОВ,
Ташкентский педагогический университет имени Низами

ФОРМИРОВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ МЛАДШИХ КУРСОВ НА ЗАНЯТИЯХ ЖИВОПИСЬЮ

(на материале натюрморта)

Annotatsiya

Maqolada kichkina kurs talabalarining rang tasvir sohasidagi maxsus kompetensiyalarining mohiyati va tuzilishi ochib berilgan. Maxsus kompetensiyaning shakllanish darajasini aniqlash uchun zarur bo'lgan mezon va ko'rsatkichlar alohida ajratilgan. Kichik kursdagi talabalarning kasbiy faoliyatining xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Maxsus kompetensiya, rang tasvir sohasidagi maxsus kompetensiya, maxsus kompetentsiya komponentlari.

В статье раскрываются сущность и структура специальной компетенции у студентов младших курсов в области живописи. Выделяются критерии и показатели, необходимые для определения уровня сформированности специальной компетенции. Раскрываются особенности профессиональной деятельности у студентов младших курсов.

Ключевые слова. Специальная компетенция, специальная компетенция в области живописи, компоненты специальной компетенции.

The article reveals the essence and structure of special competence of junior students in the field of painting. The criteria and indicators necessary to determine the level of formation of special competence are selected. The features of professional activity of junior students are revealed.

Key words. Special competence, special competence in the field of painting, components of special competence.

Процесс повышения эффективности образования предполагает целенаправленную, согласованную систему взаимосвязи учебной и профессиональной деятельности студентов, а конечным продуктом сформированной учебной деятельности является личность специалиста, его компетентность.

В качестве основных определений были выбраны следующие:

Компетентность[1] - способность (готовность) человека к практической деятельности, к решению жизненных проблем, основанная на приобретенном обучающимся жизненном опыте, его ценностях, склонностях и способностях. Компетентность развивается на основе компетенций (умений). Профессиональная компетентность - интегральная характеристика личности работника (специалиста), отражающая не только степень освоения знаний, умений и навыков в той или

1 Педагогика. Словарьсистемыосновныхпонятий.27

иной области профессиональной деятельности, так и совокупность личностных качеств, отражающих умение эффективно действовать в обществе.

Компетенция[2] - комбинация навыков, знаний и опыта, необходимых для эффективного выполнения поставленных задач. Профессиональная компетенция[3] - результат профессионального образования, выражающийся в готовности специалиста к реализации определённых профессиональных функций на основе использования им внутренних и внешних ресурсов.

Специальная компетенция[4] является составной частью профессиональной компетентности педагога профессионального обучения и представляет собой интегративную личностную характеристику специалиста, отражающую его способность и готовность применять комплекс производственно-технологических знаний и умений определенной отрасли промышленности в процессе профессионального обучения рабочих, проявляя при этом такие профессионально важные качества, как техническое мышление, креативность, активность, самостоятельность.

Исследования В.А. Адольфа, Э.Ф. Зеера, И.А. Зимней, В.В. Краевского, Н.В. Кузьминой, П.И. Пидкасистого, В.А. Сластенина и других отечественных учёных подтверждают, что от качества освоения основных видов подготовки при получении педагогической профессии зависит уровень становления общепрофессиональных компетенций. В их работах рассматриваются следующие виды профессиональной компетентности учителя: коммуникативная, предметная, психолого-педагогическая, аут педагогическая, социальная, методическая.

Коммуникативная компетентность – это владение сложными коммуникативными навыками и умениями, формирование адекватных умений в новых социальных структурах, знание культурных норм и ограничений в общении, знание обычаев, традиций, этикета в сфере общения, соблюдение приличий, воспитанность, ориентация в коммуникативных средствах, присущих национальному, сословному менталитету и выражающихся в рамках данной профессии.[5]

Предметная компетенция – «имеет конкретное описание и возможность формирования в рамках конкретного учебного предмета».[6]

Педагогическим условиям становления личностно-ориентированной позиции будущего учителя начальных классов посвящена диссертация М.И. Алексеева[7], формированию профессионально важных качеств студентов профессионально-педагогического колледжа - Е.М. Садыковой[8], Н.Н. Савушкина. Важное значение в контексте обсуждаемой нами проблемы имеют исследования по формированию

2 Gorsline K. – ‘’A competency proile for human resources, no more shoemakers’ children’’

3 Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. М., 2007.

4 Федулова, М.А. К вопросу проектирования фондов оценочных средств при подготовке бакалавров профессионального обучения / М.А. Федулова, К.А. Федулова // IV Международная научно-практическая конференция «Актуальные проблемы развития вертикальной интеграции системы образования, науки и бизнеса: экономические, правовые и социальные аспекты»: Материалы. – Воронеж: ВЦНТИ, 2015. – С. 114–118.

5 Куницына В. Н., Казаринова Н. В., Погольша В. М. Межличностное общение.

6 Хуторской А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций.

7 Педагогические условия становления личностно-ориентированной позиции будущего учителя начальных классов тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук Алексеева, Мария Иосифовна

8 Проектирование и реализация системы формирования профессионально важных качеств студентов колледжей на основе "Я - концепции" Садыкова, Елена Михайловна

профессиональной готовности учителя к работе с младшими школьниками, проведенные А.Е. Дмитриевым, Г.М. Коджаспировой, Л.И. Мищенко, Л.С. Подымовой.[9] Формирование личности учителя и пути совершенствования его профессионального мастерства анализировались Н.В. Кузьминой, Л.М. Митиной, В.А. Ситаровым, В.А. Сластениным, Л.В. Спириным[10] и др.

Однако в названных исследованиях и научных трудах мало внимания уделяется условиям формирования профессиональной компетентности у студентов младших курсов на занятиях живописью. Кроме того, в современной педагогической литературе нет четкого определения и структуры такого ключевого понятия для специальной подготовки педагога по живописи, как профессиограмма педагога по живописи.

Подготовке педагогов по живописи студентов младших курсов в системе профессиональной школы на вузовском этапе посвящены многочисленные исследования. В их числе Т.М.Кожагулов, Х.С.Сафа, В.Л.Игаев, и другие. Анализ диссертационных исследований показал, что профессиональное образование будущих учителей изобразительного искусства в образовательных учреждениях в вузах изучено в меньшей степени.

Вопросы формирования специальной компетентности будущего учителя изобразительного искусства высших учебных заведениях исследовались недостаточно. Это и определило актуальность нашего исследования.

Специальные компетенции отличают учителя изобразительного искусства от других педагогов и требуют дополнительного изучения. Их содержание мы определили:

а) предметная компетенция – готовность к применению знания научных основ содержания курса изобразительного искусства; позитивное отношение к учебной дисциплине; осознанное владение специальной терминологией в необходимом объеме во взаимосвязи с содержанием учебного материала; умение интерпретировать и систематизировать научную информацию по предмету; умение адаптировать содержание учебной дисциплины к возможностям учащихся.

б) методическая компетенция – готовность планировать, отбирать,

синтезировать и конструировать учебный материал по учебному предмету;

готовность организовывать различные формы занятий по учебному предмету; готовность реализовывать деятельностные подходы к обучению и умение организовать учебную работу у студентов младших курсов; готовность к применению инновационных технологий обучения; квалифицированное применение здоровье сберегающих технологий обучения.

Специальная компетентность – это способность учащегося по специальному предмету в узкой области. В результате развития специальных компетенций формируются следующие умения: профессиональное творчество; совершенствование знаний и навыков; креативность.

Специальная компетентность наиболее полно отражают специфику профессии учителя изобразительного искусства, и находит свое выражение в

9 Олейникова, Марина Анатольевна, кандидат педагогических наук Формирование исследовательских умений у будущих учителей начальных классов тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01. 2002

10 Олейникова, Марина Анатольевна, кандидат педагогических наук Формирование исследовательских умений у будущих учителей начальных классов тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01. 2002

профессиональных компетенциях. К наиболее важным компетенциям относятся графические, живописные и композиционные которые составляют основу специальной компетентности учителя изобразительного искусства.[11]

Натюрморт может быть учебным или творческим в зависимости от цели композиции. Учебный натюрморт однозначно отличается от творческого натюрморта. Этюдный натюрморт выполняется для изучения конкретного требования программы.

Натюрморт можно изображать в помещении, на открытом воздухе, в тени и на солнце, при естественном и искусственном освещении. Это, в свою очередь, создает прочную основу для эффективной реализации учебных и творческих задач.

Содержание каждого учебного натюрморта должно иметь четкую цель и назначение, указанные в программе живописи. Помимо воспитательных задач, натюрморт должен отвечать и эстетическим требованиям. Предметы и вещи должны соответствовать теме, быть значимыми и впечатляющими по содержанию, продвигать определенную идею.

Студенты могут развивать свою специальную и творческую компетентность, работая над учебными натюрмортами на уроках живописи. Это обязательно отразится на их дальнейшей работе и творческой деятельности.

Содержание живописных компетенции в натюрморте:владеть техническими приемами работы красками; видеть цвет и передавать его красками; подбирать сходный с натурой цвет путем смешения красок; правильно пользоваться цветом и тоном для передачи своих зрительных впечатлений от натуры; соблюдать правильную передачу соотношений цвета в группе предметов, через отражение цветовых рефлексов; передавать игру света и цвета на предметах, не отходя от зрительной достоверности изображаемого; передать характерность и неповторимость мимолетного состояния натуры, «остановить мгновение»; разрабатывать цветовой характер натуры, ее движение, пропорции.

Подводя итог вышесказанному, специальная компетентность является составной частью профессиональной компетентности профессионального педагога и считается готовой к подготовке активного, самостоятельного, творческого и новаторского специалиста.

Использованная литература:

1. Gorsline K. – ‘’A competency proile for human resources, no more shoemakers’ children’’

2. Дорошенко С.Н. Специальные компетенции учителя изобразительного искусства (до профессиональный и профессиональный уровни обучения) Методическое пособие. Стр. 4.

3. Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. М., 2007.

4. Куницына В. Н., Казаринова Н. В., Погольша В. М. Межличностное общение.

11 Дорошенко С.Н. Специальные компетенции учителя изобразительного искусства (до профессиональный и профессиональный уровни обучения) Методическое пособие. Стр. 4.

Рисбой ДЖУРАЕВ,
академик АНРУз, д.п.н., УзНИИПН
Комилжон КАРИМОВ,
д.п.н.(PhD), доцент

ПРИМЕНЕНИЕ НОВЫХ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ ФОРМ ПРИ ПОДГОТОВКЕ И ПЕРЕПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Annotatsiya

Tadqiqot axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (Internet, veb-texnologiyalar) foydalangan holda zamonaviy sharoitda va uzluksiz o'z-o'zini o'qitish, mustaqil malaka oshirish sharoitida o'qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash va qayta tayyorlash muammosiga bag'ishlangan, ya'ni.o'z-o'zini tarbiyalash sharoitida mustaqil ishlash uchun o'qituvchini shakllantirish.

Kalit so'zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim axborot muhiti, Internet, Web-texnologiyalar.

Исследование посвящено проблеме подготовки и переподготовки преподавателя профессиональной деятельности в современных условиях с использованием информационно-коммуникационных технологий (Интернет, Web-технологии) и в условиях непрерывного самообразования, самостоятельного повышения квалификации, т. е. формированию педагога к самостоятельной работе в условиях самообразования.

Ключевые слова. Информационные и коммуникационные технологии, информационная среда обучения, Интернет, Web-технологии.

The research is devoted to the problem of training and retraining of a teacher of professional activity in modern conditions with the use of information and communication technologies (Internet, Web technologies) and in conditions of continuous self-education, independent professional development, i.e. the formation of a teacher for independent work in conditions of self-education.

Key words. Information and communication technologies, information learning environment, Internet, Web technologies.

Современная ситуация развития образования требует от руководителей высокой научной компетентности, большого мастерства и постоянного совершенствования. Особое значение приобретает способность руководителей управлять образовательным процессом в быстро меняющихся условиях переориентации целевых установок, динамично обновляемого содержания образования, вариативности его форм и методов. Поэтому необходимо поменять и программы подготовки и переподготовки педагогических кадров в зависимости от современных потребностей. С учетом новых задач, стоящих перед вузом, возникает потребность совершенствования профессиональных качеств педагога.

Неизбежное внедрение во все сферы жизни информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) диктует новую стратегию повышения компьютерной компетенции широких слоев населения во всем мире. В этой связи особую важность приобретает вопрос массовой подготовки и переподготовки педагогов к использованию новых

форм, методов и средств обучения на базе средств ИКТ.

Одно из ключевых направлений инициативы «Наша новая школа» - развитие учительского потенциала, в том числе переход к новым моделям повышения квалификации учителя. В первую очередь речь идет об индивидуальных программах повышения квалификации, в рамках которых учитель может усваивать отдельные модули в короткий срок (например в каникулярное время).

Организационные формы можно разделить на две части: традиционные и инновационные. Традиционные формы организации учебного процесса рассмотрены в отечественной психолого-педагогической литературе достаточно подробно, поэтому остановимся на инновационных формах организации учебного процесса.

Дистанционное бучение (ДО) - комплекс образовательных услуг, предназначенный для профессиональной подготовки и переподготовки с использованием передовых информационных и коммуникационных технологий. ДО предполагает трансляцию знаний к обучаемому преимущественно с помощью электронных средств доставки информации. В ДО можно выделить три основные формы обучения: кейс-технология, Online лекции, сетевая технология.

Профильное обучение – средство дифференциации и индивидуализации обучения, когда за счет изменений в структуре, содержании и организации образовательного процесса более полно учитываются интересы, склонности и способности обучающихся, создаются условия для образования в соответствии с их профессиональными интересами и намерениями в отношении продолжения образования.

Основные требования к использованию метода проектов (по Е.С. Полат) включают в себя следующее:

1) наличие значимых в исследовательском, творческом плане проблем, задач, требующих интегрированного знания, исследовательского поиска для решения;

2) практическая, теоретическая, познавательная значимость предполагаемых результатов;

3) самостоятельная (индивидуальная, парная, групповая) деятельность учащихся;

4) структурирование содержательной части проекта (с указанием поэтапных результатов);

5) использование исследовательских методов, предусматривающих определенную последовательность действий:

– определение проблемы и задачи исследования;

– выдвижение гипотез их решения;

– обсуждение методов исследования (статистических методов, экспериментальных наблюдений и пр.);

Следует также отметить, что целесообразность практического применения таких организационных форм доказывает существенный дидактический потенциал современных телекоммуникационных систем и соответствующих средств ИКТ, применяемых при подготовке и переподготовке педагогических кадров.

Организация учебного процесса сводится к изучению специально подготовленных учебных материалов, тестированию, возможности консультации с преподавателем. Учебный процесс включает в себя выполнение индивидуальных заданий, электронные семинары и занятия; кроме того, учебный материал дублируется на компакт-диске, который высылается слушателям обычной почтой. Работа в

Интернете может быть нескольких видов:

– организация совместных исследовательских работ учащихся, учителей разных школ;

– обеспечение консультационной помощи из научно-методических центров;

– создание сети дистанционного обучения и повышения квалификации педагогических кадров;

– оперативный обмен информацией, расширение кругозора.

Прогресс использования Интернета обусловлен следующими его дидактическими свойствами: публикацией учебно-методической информации в гипермедийном варианте; педагогическим общением в реальном и отложенном времени между субъектами и объектами учебного процесса; открытым во времени и пространстве дистанционным доступом к информационным ресурсам.

Таким образом, использование новых организационных форм обучения при подготовке и переподготовке педагогических кадров на базе средств ИКТ позволяет достичь следующих дидактических возможностей:

– организации информационного взаимодействия участников процесса обучения (обучающегося, электронных источников информации, преподавателя);

– взаимодействие удаленных участников процесса обучения между собой (учителя и обучающегося ученика или группы учеников, например, при электронной переписке, организации дискуссий через телеконференции и видеоконференции и пр.);

– взаимодействие участников процесса обучения (учителя и ученика) с удаленными источниками информации, например, при осуществлении поиска и систематизации информации, перемещения (навигации) по гипертекстовым ресурсам глобальной сети;

– возможность организации сетевых сообществ;

– подготовка и редактирование текстовых сообщений (как принимаемых, так и отсылаемых);

– возможность организации сети дистанционного обучения и повышения квалификации педагогических кадров;

– обмен информацией одновременно с большим числом пользователей по определенной теме в режиме телеконференций;

– возможность организации различного рода совместных исследовательских работ учащихся, преподавателей, студентов, научных работников из разных вузов, школ, научных и учебных центров различных регионов или даже разных стран;

– навыки самостоятельной продуктивной деятельности.

Несомненно, что организационные формы обучения на основе использования ИКТ относятся к развивающимся технологиям и должны шире внедряться в процесс подготовки и переподготовки педагогических кадров.

Использованная литература:

1. Кузнецов А.А. Профильное обучение; цели, формы, структура учебного плана. [Электронный ресурс.] - Режим доступа: http://www.profile-edu.ru/content.php?cont=42.

2. Национальная образовательная инициатива «Наша новая школа»: Проект. - М., 2010.

Гузал НАЗИРОВА,
Доцент, кандидат педагогических наук (PhD) Кокандского государственного педагогического института

ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЦЕНТРАХ РАЗВИТИЯ ДОО

Annotatsiya

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etishmoqda. Shu sababli, maktabgacha tarbiya muassasasi o'qituvchilarining asosiy vazifasi bolalar bilan ishlashni tashkil etish usullari va shakllarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ularni shaxsni rivojlantirishning belgilangan maqsadiga maqbul darajada mos keladigan maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirish markazlarida qo'llashni tanlashdir.

Kalit so'zlar. Innovatsion texnologiyalar, malaka oshirish, kasbiy kompetentsiya, samarali usul va texnikalar, malaka oshirish jarayonining tashkiliy va didaktik tizimi, interaktiv usullar, didaktik tadqiqotlar metodologiyasi, tizimli kompleks.

В настоящее время педагогические коллективы ДОО интенсивно внедряют в работу инновационные технологии. Поэтому основная задача педагогов дошкольного учреждения – выбрать методы и формы организации работы с детьми, инновационные педагогические технологии, применение их в Центрах Развития ДОО, которые оптимально соответствуют поставленной цели развития личности.

Ключевые слова. Инновационные технологии , повышение квалификации, профессиональная компетентность, эффективные методы и приемы, организационно-дидактическая система процесса повышения квалификации, интерактивные методы, методология дидактического исследования, системно-комплексная.

Currently, the pedagogical collectives of the preschool educational institution are intensively introducing innovative technologies into their work. Therefore, the main task of preschool teachers is to choose methods and forms of organizing work with children, innovative pedagogical technologies, their application in Pre–school Development Centers that optimally correspond to the set goal of personal development.

Key words. Innovative technologies, advanced training, professional competence, effective methods and techniques, organizational and didactic system of the professional development process, interactive methods, methodology of didactic research, system-integrated.

В настоящее время педагогические коллективы ДОО интенсивно внедряют в работу инновационные технологии. Поэтому основная задача педагогов дошкольного учреждения – выбрать методы и формы организации работы с детьми, инновационные педагогические технологии, которые оптимально соответствуют поставленной цели развития личности.

Современные педагогические технологии в дошкольном образовании направлены на реализацию государственных стандартов дошкольного образования. Принципиально важной стороной в педагогической технологии является позиция ребенка в воспитательно-образовательном процессе, отношение к ребенку со

стороны взрослых.

Технология – это совокупность приемов, применяемых в каком-либо деле, мастерстве, искусстве (толковый словарь). Педагогическая технология - это совокупность психолого-педагогических установок, определяющих специальный набор и компоновку форм, методов, способов, приёмов обучения, воспитательных средств; она есть организационно - методический инструментарий педагогического процесса (Б.Т.Лихачёв). Сегодня насчитывается больше сотни образовательных технологий.

2. Технологии проектной деятельности

Педагоги, активно использующие проектную технологию в воспитании и обучении дошкольников, единодушно отмечают, что организованная по ней жизнедеятельность в детском саду позволяет лучше узнать воспитанников, проникнуть во внутренний мир ребенка.

Классификация учебных проектов:«игровые» — детские занятия, участие в групповой деятельности (игры, народные танцы, драматизации, разного рода развлечения);«экскурсионные», направленные на изучение проблем, связанных с окружающей природой и общественной жизнью; «повествовательные», при разработке которых дети учатся передавать свои впечатления и чувства в устной, письменной, вокальной художественной (картина), музыкальной (игра на рояле) формах; «конструктивные», нацеленные на создание конкретного полезного продукта: сколачивание скворечника, устройство клумб.

3. Технология исследовательской деятельности

Цель исследовательской деятельности в детском саду - сформировать у дошкольников основные ключевые компетенции, способность к исследовательскому типу мышления.

Надо отметить, что применение проектных технологий не может существовать без использования ТРИЗ-технологии (технологии решения изобретательских задач). Поэтому при организации работы над творческим проектом воспитанникам предлагается проблемная задача, которую можно решить, что-то исследуя или проводя эксперименты.

4. Информационно-коммуникационные технологии

Мир, в котором развивается современный ребенок, коренным образом отличается от мира, в котором выросли его родители. Это предъявляет качественно новые требования к дошкольному воспитанию как первому звену непрерывного образования: образования с использованием современных информационных технологий (компьютер, интерактивная доска, планшет и др.).

ИКТ в работе современного педагога:

1. Подбор иллюстративного материала к занятиям и для оформления стендов, группы, кабинетов (сканирование, интернет, принтер, презентация).

2. Подбор дополнительного познавательного материала к занятиям, знакомство со сценариями праздников и других мероприятий.

3. Обмен опытом, знакомство с периодикой, наработками других педагогов России и зарубежья.

4. Оформление групповой документации, отчетов. Компьютер позволит не писать отчеты и анализы каждый раз, а достаточно набрать один раз схему и в дальнейшем только вносить необходимые изменения.

5. Создание презентаций в программе Power Point для повышения эффективности

образовательных занятий с детьми и педагогической компетенции у родителей в процессе проведения родительских собраний.

Личностно-ориентированные технологии ставят в центр всей системы дошкольного образования личность ребенка, обеспечение комфортных условий в семье и дошкольном учреждении, бесконфликтных и безопасных условий ее развития, реализация имеющихся природных потенциалов.

Данную технологию хорошо реализовать в новых дошкольных учреждениях, где имеются комнаты психологической разгрузки - это мягкая мебель, много растений, украшающих помещение, игрушки, способствующие индивидуальным играм, оборудование для индивидуальных занятий. Музыкальный и физкультурный залы, кабинеты долечивания (после болезни), помещение по экологическому развитию дошкольника и продуктивной деятельности, где дети могут выбрать себе занятие по интересу. Все это способствует всестороннему уважению и любви к ребенку, веру в творческие силы, здесь нет принуждения. Как правило, в подобных дошкольных учреждениях дети спокойны, уступчивы, не конфликтны.

Технология сотрудничества реализует принцип демократизации дошкольного образования, равенство в отношениях педагога с ребенком, партнерство в системе взаимоотношений «Взрослый - ребенок». Педагог и дети создают условия развивающей среды, изготавливают пособия, игрушки, подарки к праздникам. Совместно определяют разнообразную творческую деятельность (игры, труд, концерты, праздники, развлечения).

Сущность технологического воспитательно-образовательного процесса конструируется на основе заданных исходных установок: социальный заказ (родители, общество) образовательные ориентиры, цели и содержание образования. Эти исходные установки должны конкретизировать современные подходы к оценке достижений дошкольников, а также создавать условия для индивидуальных и дифференцированных заданий.Выявление темпов развития позволяет воспитателю поддерживать каждого ребенка на его уровне развития.

6. Технология портфолио дошкольника, Портфолио — это копилка личных достижений ребенка в разнообразных видах деятельности, его успехов, положительных эмоций, возможность еще раз пережить приятные моменты своей жизни, это своеобразный маршрут развития ребенка.

Существует ряд функций портфолио:диагностическая (фиксирует изменения и рост за определенный период времени), содержательная (раскрывает весь спектр выполняемых работ), рейтинговая (показывает диапазон умений и навыков ребенка) и др. Процесс создания портфолио является своего рода педагогической технологией. Вариантов портфолио очень много. Содержание разделов заполняется постепенно, в соответствии с возможностями и достижениями дошкольника.Таким образом, портфолио (папка личных достижений ребенка) позволяет осуществить индивидуальный подход к каждому ребенку и вручается при выпуске из детского сада как подарок самому ребенку и его семье

7. Технология «Портфолио педагога»

Современное образование нуждается в новом типе педагога: творчески думающим, владеющим современными технологиями образования, приемами психолого-педагогической диагностики, способами самостоятельного конструирования педагогического процесса в условиях конкретной практической деятельности,умением прогнозировать свой конечный результат. У каждого педагога должно быть досье

успехов, в котором отражается все радостное, интересное и достойное из того, что происходит в жизни педагога. Таким досье может стать портфолио педагога.

Портфолио позволяет учитывать результаты, достигнутые педагогом в разнообразных видах деятельности (воспитательной, учебной, творческой, социальной, коммуникативной), и является альтернативной формой оценки профессионализма и результативности работы педагога.

9. Технология «ТРИЗ». ТРИЗ (теория решения изобретательских задач), которая создана ученым-изобретателем Т.С. Альтшуллером.

Воспитатель использует нетрадиционные формы работы, которые ставят ребенка в позицию думающего человека. Адаптированная к дошкольному возрасту ТРИЗ-технология позволит воспитывать и обучать ребенка под девизом «Творчество во всем!» Дошкольный возраст уникален, ибо как сформируется ребенок, такова будет и его жизнь, именно поэтому важно не упустить этот период для раскрытия творческого потенциала каждого ребенка. Целью использования данной технологии в детском саду является развитие, с одной стороны, таких качеств мышления, как гибкость, подвижность, системность, диалектичность; с другой – поисковой активности, стремления к новизне; речи и творческого воображения.

Основная задача использования ТРИЗ - технологии в дошкольном возрасте – это привить ребенку радость творческих открытий. Основной критерий в работе с детьми – доходчивость и простота в подаче материала и в формулировке сложной, казалось бы, ситуации. Сказки, игровые, бытовые ситуации – вот та среда, через которую ребенок научится применять тризовские решения, встающих перед ним проблем.

Технологический подход, то есть новые педагогические технологии гарантируют достижения дошкольника и в дальнейшем гарантируют их успешное обучение в школе.

Каждый педагог – творец технологии, даже если имеет дело с заимствованиями. Создание технологии невозможно без творчества. Для педагога, научившегося работать на технологическом уровне, всегда будет главным ориентиром познавательный процесс в его развивающемся состоянии. Все в наших руках, поэтому их нельзя опускать.

Использованная литература:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами , 2017 й. 14-сон, 213-модда, 22-сон, 406-модда

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь. ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)

3. Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 16 декабрь. ЎРҚ-595-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон)

4. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Abduqodirova Shohida Akmalxo‘ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2023.